modifikatlangan muvofiqlik darajalari XS ning qabul qilinganligini anglatadi, uchinchi, noekvivalent daraja esa, XS ning qabul qilinmaganligini ifodalaydi. Ikkita shart bor. Bu shartlar bajarilganda ms xalqaro standart XS ga aynan o’xshash deb hisoblanadi: a) ms xalqaro standartga to’liq muvofiq keladi; 6) ms da o’ntaga yaqin bir oz tahririy o’zgarishlar bor. Quyidagi shartlarga rioya qilinganda ms xalqaro standart (XS) ga nisbatan modifikatlangan standart sifatida tasniflanishi mumkin: – texnik og’ishlarni aniq identifikatlash va tushuntirish sharti bilan bunday og’ishlar ruxsat etiladi; – ms xalqaro standart (XS) ning tuzilmasini aks ettiradi. Agar MS va XS larning mazmunini va tuzilmasini oddiy qiyoslash imkoniyati saqlangan bo’lsa, standartning tuzilmasida o’zgartirishlar ruxsat etiladi. Modifikatlangan standartlar XS dan hajmining kichikligi bilan farqlanishi mumkin. Bunday kichiklik XS da taklif etilgan al’ternativlarning faqt bir qismini qo’llanish, unchalik qattiq bo’lmagan talablarni o’rnatish hisobiga bo’ladi. Yoki, aksincha, qo’shimcha jihatlarni va turlarni kiritish, yanada qattiqroq talablar, qo’shimcha sinovlar va h.k. Ni o’rnatish hisobiga katta hajmi bilan farqlanishi mumkin. Ms da xalqaro standart (XS) ning bir qismini o’zgartirish, alternativ tanlashni ko’zda tutish ruxsat etiladi. MS XS ga ikki holatda noekvivalent deb hisoblanadi: – mazmuni va tuzilmasidagi o’zgartirishlar aniq aynan o’xshatuvlikka ega emas; – agar unga xalqaro nizomlarning kam qismi (4.4 modda) kiritilgan bo’lsa. O’z dst ISO IEC 21:2001 da XS ni qabul qilishning uchta usuli o’rnatilgan: ma’qullash usuli, muqova usuli, qayta nashr etish usuli. Ma’qullash usuli XS ni qabul qilishning eng oddiy metodlaridan biri hisoblanadi va XS matnini qayta bosmadan chiqarish talab etilmaydi. Ma’qullash usuli faqat aynan o’XShash standartlar uchun qo’llaniladi. Muqova usuli XS ni milliy muqova usulida nashr etishni nazarda tutadi. Milliy muqovada milliy ma’lumotnomadagi tartib raqami ko’rsatiladi va aynan o’XShash yoki modifikatlangan muvofiqlik darajasida XS milliy standartlar bo’lib qoladi. Aynan o’XShash ms ning ekvivalent muqovasida yopishqoq etiketkalar, shtamplar yoki boshqa vositalar qo’llanilishi mumkin. Qayta nashr etish usuli uch xil bo’ladi: qayta yozish, tarjima qilish, qayta ishlab chiqish. Qayta yozishda XS suratga olish, skanerlash yoki elektron fayldan olish vositasida ms sifatida qayta tiklanadi. Iso ning rasmiy tillaridan birida chop qilingan XS davlat tiliga tarjima qilinadi. XS rus tilida chop etilmagan bo’lsa, zarur bo’lganda, rus tiliga ham tarjima qilinishi mumkin. XS ni qayta ishlashda texnikaviy og’ishlarni aniq o’XShatishda qiyinchilik paydo bo’ladi. Texnik og’ishlar tuzilmaning o’zgarishlarida yoki ifodalanishida yashiringan bo’ladi va muvofiqlik darajasini aniqlashni qiynilashtiradi. Unchalik ko’p bo’lmagan o’zgarishlarni ms ga “kirishda” yoki “so’z boshida” joylashtirish ruxsat etiladi. O’zgartirishlar XS matniga kiritiladigan bo’lsa, ularni aniq ajratib ko’rsatish kerak, masalan, o’zgartirishlar qaysi moddaga tegishli bo’lsa, shu moddadan keyin bevosita kvadratcha ichiga olinadi yoki mos matn qarshisidagi ochiq joyda bir vertikal chiziq chizib belgilanadi

XULOSA

Mahsulot tayyorlash jarayonida xorijiy firmalar, etkazib berish shartnomasi (kontrakt) orqali muqova qilingan mahsulotlarni o'z me'yoriy hujjatlari asosida ishlab

chiqishlari ruxsat etiladi. Bunda, xorijiy hujjatlarni qayta rasmiylashtirmaslik (bevosita qo'llanish) ruxsat etiladi. Ammo, bu holatda, mahsulotni tayyorlash, saqlash, O'zbekiston hududida etkazib berish jarayonlarida O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlari talablari bajarilishi shart. Xorijiy hujjatlarga muvofiq, bu hujjatlar o'zstandartda yoki zarur bo'lganda, rus tillariga tarjima qilinib, keyinchalik ro'yxatdan o'tkaziladi.

1998-yilda O'zbekiston davlat standarti O'zDSt 1.7:1998 "O'zDSt. Xalqaro, hududiy, davlatlararo, boshqa davlatlarning milliy standartlari va me'yoriy hujjatlarini qo'llanish tartibi"ni qabul qildi. Standart ISO/IEC Guide 21:1981 "Xalqaro standartlarni milliy standartlar sifatida qabul qilish" xalqaro asosda ishlab chiqilgan. 1999-yilda ISO/IEC Guide 21:1999 (ISO/IEC Guide 21:1999) qabul qilindi. Bu qabul qilingan standartning o'zgarishlari O'zDSt ISO/IEC 21:2001 nomi bilan O'zbekiston davlat standarti sifatida amalga oshirildi.

Milliy standartlar (MS) xalqaro va hududiy standartlarga muvofiqlik darajasini belgilash uchun aylanma darajalashni qabul qildi: aynan o'xshash standart (idt), modifikatsiyalangan standart (mod), noekvivalent standart (neq). Aynan o'xshash va modifikatsiyalangan muvofiqlik darajalari MS ni xalqaro standart (idt) deb hisoblashda qo'llaniladi, noekvivalent daraja MS ning xalqaro standartga mos ravishda qabul qilinmaganligini ifodalaydi.

O'zDSt ISO/IEC 21:2001-da, xalqaro standartni (idt) qabul qilishning uchta usuli belgilandi: qabul qilish, muqova, qayta nashr etish. Qabul qilish usuli eng oddiy usul hisoblanadi va xalqaro standartni to'liq muvofiq qiladi. Muqova usuli MS ni milliy muqova usulida nashr etishni ta'minlaydi. Qayta nashr etish usuli MS ni qayta yozish, tarjima qilish yoki qayta ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. - T.: O‘zbekiston, 2017 yil 7 fevral, PF4947-sonli Farmoni.
2. Абдувалиев А.А. Я врач. Основы обеспечения единства измерений, книга 1, Ташкент, 2005.
3.УзДСт 8.012:2005 «Государственная система обеспечения единства измерений Республики Узбекистан». Единиси Величин"

TARMOQLARARO STANDARTLASHTIRISH TIZIMLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI

[1]J. Q. OTABOYEV . [2]Q.M.Ergashov
[1,2]Farg’ona politexnika instituti
e-mail: jamshidbekotaboyev46@gmail.com

Tarmoqlararo standartlashtirish tizimlarining maxsus jixatlari

Kompleks standartlashtirishning o’ziga xos shakllaridan biri – bu oxirgi vaqtlarda amalda keng qo’llanilib kelayotgan tarmoqlararo standartlashtirish tizimlaridir.

Tarmoqlararo standartlashtirish tizimlarini (TST) maxsus ishlab chiqish, standartlashtirishning erishilgan ilmiy–texnik darajasini tavsiflab uni rivojlantirishning yangi bosqichi xisoblanadi. Standartlashtirishning ilmiy–texnik darajasini oshishi ob’ektiv zarurat bo’lib fan va texnika taraqqiyotining talablaridan kelib chiqadi. Maxsulotni ishlab chiqish, uni bozor iqtisodiyoti talablariga binoan amallashtirishning tashkiliy–uslubiy va texnik talablarining shakllanishi nafaqat shu kun talabi, balki kelajak taraqqiyotni ko’zlab TST qo’llanilishining kompleks umumtexnik talablarini ko’zda tutishni taqazo etadi.

Tarmoqlararo standartlashtirish tizimlari (TST), bu aloxida guruxlar (sinflar)ga birlashgan tarmoqlararo tashkiliy-uslubiy va umumtexnikaviy asos bo’luvchi MXlarning majmuasi (kompleksi)dir.

Xar bir tizim maxsulotlar (xizmatlar, jarayonlar)ning to’liq xayot jarayonini qamrovchi ko’plab MXlarni o’z ichiga oladi.

TSTning mavjudligi standartlashtirish ishlari bilan shug’ullanuvchi sub’ektlarning faoliyatini yagona tartib-qoidalar asosida olib borilishini, fan-texnika yutuqlari va yangi texnologiyalarni samarali joriy etib borilishini ta’minlaydi.

Amaliyotda tarmoqlararo standartlashtirish tizimlariga tegishli [O'z RH 51-110:2001] quyidagi ta’riflar qo’llaniladi:

-Tarmoqlararo darajada qo’llaniladigan standartlashtirish tizimi - umumiy jarayonlar, proseduralar, resurslar bilan ta’minlanish imkoniyatlari qo’llanishning funksional birligi bilan birlashtirilgan ilm-fan va ishlab chiqarishning turli xil tarmoqlaridan iborat tizim ishtirokchilarining (buyurtmachi, ishlab chiquvchi, ishlab chiqaruvchi, ta’minlovchi va x.k.) tashkiliy tuzilmasi va tarmoqlararo standartlashtirish ob’ektlarida belgilangan talablarni ularni o’zaro aloqa doirasida bajarish usullari majmui;

- Tarmoqlararo standartlashtirish ob’ektlari - TST ning me’yoriy xujjatlari tomonidan belgilangan umumiy-texnik, tashkiliy-usuliy va texnik qoidalarga muvofiq maxsulotni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, muomalada bo’lish (saqlash va transportda tashish), ishlatish (iste’mol qilish), ta’mirlash bilan bog’liq bo’lgan xujjatlar, dasturli ta’minot, axborot va x.k.

TST qo’llashdan quyidagi maqsadlarga erishiladi:

- ilm-fan va ishlab chiqarish doirasida texnik siyosatni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish jarayonlarida birxillikni ta’minlash;

- yangi raqobatbardosh maxsulotni ishlab chiqarish va o’zlashtirish muddatlarini qisqartirish;

-maxsulotning (ko’rsatilayotgan xizmatlar) texnik darajasini va sifatini o’sishini ta’minlash;

-xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning ilmiy-texnikaviy potensialini rivojlantirish va mutaxassislarning malakasini oshirib borish;

- O’zbekistonda xo’jalik yurituvchi boshqa tuzilmalar darajalarida ijtimoiy va iqtisodiy texnik masalalarni echish.

Tizim sinfi	Tizimning shartli belgisi	Tizimning nomi
1	2	3
1	O’z SDT	O’zbekiston standartlashtirish davlat tizimi
2	KHYaT O’z KHYaT	Konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi O’zbekiston konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi
3	THYaT	Texnologik hujjatlarining yagona tizimi
4	MSKT	Mahsulot sifati, puxtaligi va umrboqiyligi ko’rsatkichlari tizimi
5	O’z SMT	O’zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi
6	HBT TKT	Hujjatlarning birxillashtirilgan tizimi. Iqtisodiy, hisobga olish, statistik, mol bilan qo’shib jo’natiladigan, iste’mol, tarnsport, bank, tashkiliy-boshqaruv va boshqa hujjatlar tizimi O’zbekiston texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotni tasniflash va kodlash yagona tizimi
7	AKNIT	Axborot, kutubxona, nashriyot ishlari bo’yicha standartlar tizimi
8	O’z O’DT	O’zbekiston o’lchashlar birligini ta’minlash davlat tizimi
9	ZEHYaT	Materiallar va buyumlarni zanglash va eskirishdan himoyalash yagona tizimi
10		Zahira
11		Zahira
12	MXST	Mehnatni ilmiy tashkillashtirish, sanoat sanitariyasi, gigienasi, mehnat xavfsizligi standartlari tizimi
13	-	Reprografiya, mikrografiya, kopirografiya
14	ITTT	Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash yagona tizimi
15	MYaT	O’zbekiston mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishni tashkillashtirsh tizimi
16	O’z AT	O’zbekiston akkreditlash tizimi
17	TMST	Tabiat muhofaza va tabiiy boyliklardan foydalanishni yaxshilash doirasidagi standartlar tizimi
18	-	Zahira
19	DHT	Dasturiy hujjatlar yagona tizimi
20	O’z MST	O’zbekiston mahsulotni sinash tizimi
21	QLHT	Qurilishlar uchun loyihaviy hujjatlar tizimi
22	-	Zahira
23	-	Buyumlarning yoyilishbardoshligini ta’minlash
24	-	Boshqarishning avtomatik tizimi (BAT) uchun texnik hujjatlar tizimi
25		Mustahkamlikka hisoblash va sinashlar
26		Zahira
27	TP	Texnika puxtaligi
28		Zahira
29		Zahira
30	ETEST	Ergonomika va texnik estetika standartlari tizimi
31		Zahira
32		Axborot texnologiyalari
-	O’z ST	O’zbekiston sifat tizimi

-	-	O’zbekiston xizmatlar sohasi

TST qo’llashdan quyidagi maqsadlarga erishiladi:

- ilm-fan va ishlab chiqarish doirasida texnik siyosatni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish jarayonlarida birxillikni ta’minlash;

- yangi raqobatbardosh maxsulotni ishlab chiqarish va o’zlashtirish muddatlarini qisqartirish;

-maxsulotning (ko’rsatilayotgan xizmatlar) texnik darajasini va sifatini o’sishini ta’minlash;

-xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning ilmiy-texnikaviy potensialini rivojlantirish va mutaxassislarning malakasini oshirib borish;

- O’zbekistonda xo’jalik yurituvchi boshqa tuzilmalar darajalarida ijtimoiy va iqtisodiy texnik masalalarni echish.

TSTni ishlatish prosedurasi quyidagi umumlashgan operasiyalarni o’z ichiga oladi:

-TSTga kiruvchi umumtexnik standartlarning prinsipial talablari bilan tanishish;

- ushbu talablarni o’zining korxonasiga, butun tarmoqning standartlashtirish ob’ektlariga tadbiqan solishtirish taxlilini o’tkazish;

- tanlab olingan tizimlar talablarini bajarilishi bilan bog’liq bo’lgan tadbirlar tarkibini aniqlash va shu tizimlar bo’yicha MXlar talablarini amalda qo’llash;

- qo’llanilayotgan tizimlar bo’yicha talablarning bajarilishini tekshirish.

STT ko’p yillar davomida yaratila bordi va har bir tizimda mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlarini va inson faoliyatining barcha muhim sohalarini o’z ichiga qamrab olgan o’nlab va minglab standartlarni birlashtirgan. STT standartlashtirishda ilmiy-texnikaviy darajaning oshganligi bilan tavsiflanuvchi muhim bosqich bo’ldi. Standartlashtirishda ilmiy-texnikaviy darajani oshirish zaruriyati O’zbekiston iqtisodiyotidagi ilmiy-texnikaviy istiqbol va rivojlanishi talablaridan kelib chiqdi.

Quyida STT tizim sinfi, shartli belgilar va tizim nomi ko’rsatilgan ro’yxati keltirilgan.

XULOSA

Tarmoqlararo standartlashtirish tizimlari (ISS) - funktsional imkoniyatlari bo'yicha guruhlangan standartlar to'plami bo'lib, turli faoliyat sohalarida bir xillikni ta'minlashga xizmat qiladi.

MSS ning asosiy afzalliklari:

Yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etish uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartirish: MSS jarayonlarni birlashtirishga imkon beradi, bu esa yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish va bozorga chiqishni tezlashtiradi.

Mahsulot sifatini yaxshilash: MKMlar mahsulot sifatiga yagona talablarni belgilaydi, bu esa ularning yuqori standartlarga muvofiqligini kafolatlaydi.

Xarajatlarni kamaytirish: MCC jarayonlar va komponentlarni birlashtirish orqali ishlab chiqarishni optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Raqobatbardoshlikni oshirish: MCCga mos keladigan mahsulotlar ichki va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshroq.

Innovatsiyalarni rag'batlantirish: MSC innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratadi, chunki ular yangi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqish uchun umumiy texnik asosni ta'minlaydi.

MSSni joriy etish ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish, mahsulot xavfsizligi va sifatini ta'minlash, shuningdek, butun iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirishning muhim omilidir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, MCClar iqtisodiyotning turli sohalarida texnik tartibga solish muammolarini hal qilish va texnik talablarning bir xilligini ta'minlash uchun kuchli vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1.O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yichaharakatlar strategiyasi to‘g‘risida. - T.: O‘zbekiston, 2017 yil 7 fevral, PF4947-sonli Farmoni.
2. Абдувалиев А.А. я доктор. Основы обеспечения единства измерений, книга 1, Ташкент, 2005.
3.УзДСт 8.012:2005 «Государственная система обеспечения единства». Измерень Республика Узбекистан. Единиси Величин"
4. Обзор международных новостей, поступивших в качестве отзыва на внедрение СМК в соответствии со стандартом ISO 9001:2000. Независимый профессиональный журнал International Magazine of MANAGEMENT.

ZAMONAVIY ENERGIYA MENEJMENT TIZIMLARINI ISHLAB CHIQISH VA JORIY ETISH USLUBIYOTI

[1]A.R.Yuldashev
[1]Andijon Mashinasozlik instituti doktaranti

Energiya menejmenti-bu samaradorlikni oshirish va energiya sarfini kamaytirish maqsadida tashkilotdagi energiya resurslarini boshqarishga qaratilgan tuzilgan metodologiya. U doimiy monitoring, chuqur tahlil va energiyadan foydalanishni strategik boshqarish va undan foydalanish bilan bog'liq jarayonlar va texnologiyalarni optimallashtirishni o'z ichiga oladi. Korxonalar o'sib borayotgan energiya xarajatlari va qat'iy ekologik qoidalarga rioya qilish bilan kurashar ekan, energiyani boshqarishning samarali usullarini joriy etish xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun zaruriy shartga aylanadi.

Energiyani boshqarish uchun tizimli yondashuv



Energiyani boshqarish tizimini amalga oshirishning asosiy vazifalari

Energiyani boshqarish tizimi (EnBT) – ISO 50001:2011 standartiga va uning energiya siyosati va energiya maqsadlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ishlatiladigan elementlar to'plamini, shuningdek ushbu maqsadlarga erishish uchun jarayonlar va protseduralarni belgilaydi.

- Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish
- Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish
- Energiya xarajatlarini kamaytirish va optimallashtirish
- Ehtiyojni bashorat qilishning aniqligini oshirish (yanada qulay tariflarni olish uchun)
- Energiya resurslarini iste'mol qilish hajmi to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlarni olish
- Optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish vaqtini qisqartirish
- Ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish
- Uskunaning energiya samaradorligini oshirish
- Uskunalarni kapital ta'mirlashni rejalashtirish
- Ish vaqtini tenglashtirish orqali uskunaning ishlash muddatini oshirish
- Inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish

Energiyani boshqarishning maqsadlari va asosiy tamoyillari

Senmning maqsadi energiya samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan tizim va jarayonlarni, shu jumladan energiya samaradorligi, energiyadan foydalanish va iste'mol qilishni joriy etishdir.

Energiya menejmenti tashkilotda energiya samaradorligini oshirish va xarajatlarni tejashga qaratilgan bir nechta asosiy maqsadlarga asoslanadi. Ushbu maqsadlarga quyidagilar kiradi:

- Xarajatlarni kamaytirish: energiya resurslarini optimallashtirish va ulardan samarali foydalanish orqali energiya xarajatlarini kamaytirish.
- Resurslardan foydalanish samaradorligi: chiqindilarni minimallashtirish va samaradorlikni oshirish uchun energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish.
- Tabiatdan oqilona foydalanish: energiya iste'moli bilan bog'liq atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish orqali ekologik izni kamaytirish.
- Sifatni yaxshilash: energiya sarfini boshqarish usullarini ratsionalizatsiya qilish orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish standartlarini oshirish.

Energiyani boshqarishning asosiy printsiplariga quyidagilar kiradi:

- Tizimli yondashuv: energiyani boshqarish, uni iste'mol qilish va ishlab chiqarishning barcha jihatlarini hisobga olgan holda yaxlit va tizimli yondashuvni qabul qilish.
- Doimiy takomillashtirish: energiyani boshqarish strategiyalarini muntazam baholash va takomillashtirish orqali doimiy takomillashtirish madaniyatini shakllantirish.
- Ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqarish: energiya iste'moli modellarini sinchkovlik bilan o'rganish va energiyadan foydalanishni qat'iy nazorat qilish uchun aqlli tizimlardan foydalanish.
- Xodimlarni jalb qilish: kollektiv javobgarlik madaniyatini shakllantirishga hissa qo'shadigan energiya menejmenti tadbirlarida faol ishtirok etish uchun xodimlarni jalb qilish va kuchaytirish.

Energiyani samarali boshqarish usullari va vositalari

Energiya menejmentida ishlatiladigan metodologiyalar va vositalar arsenaliga energiyadan foydalanishni optimallashtirish va oqilona boshqaruv tamoyillarini joriy etishga qaratilgan turli xil texnikalar kiradi. Ushbu usullarga quyidagilar kiradi:

- Monitoring va tahlil: energiya sarfini kuzatish va samarasizlik sohalarini aniqlash uchun monitoring tizimini o'rnatish.
- Energiya auditi: turli operatsiyalarda energiyadan foydalanishni baholash va takomillashtirishni talab qiladigan sohalarni aniqlash uchun keng qamrovli energiya tekshiruvlarini o'tkazish.
- Jarayonlarni optimallashtirish: umumiy energiya samaradorligini oshirish uchun operatsion jarayonlarni optimallashtirish va energiya tejaydigan texnologiyalarni birlashtirish.
- Energiyani tejash choralarini amalga oshirish: modernizatsiya, issiqlik izolatsiyasini o'rnatish va qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish kabi energiyani tejash tashabbuslarini amalga oshirish.
- Xodimlarni tayyorlash va o'qitish: xodimlarni energiya sarfini samarali boshqarish uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan jihozlash uchun keng o'quv dasturlarini o'tkazish.

Energiya menejmentining korxona va jamiyat uchun foydalari

Energiya boshqaruvini amalga oshirish korxona uchun ham, umuman jamiyat uchun ham ko'p tomonlama foyda keltiradi, jumladan:

- Xarajatlarni tejash: energiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish, bu esa korxonalarning rentabelligi va moliyaviy barqarorligini oshirishga olib keladi.
- Raqobatbardosh ustunlik: ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va energiyadan oqilona foydalanish tamoyillariga rioya qilish, brend obro'sini va mijozlarning sodiqligini oshirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish.
- Atrof-muhitni muhofaza qilish: karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish va energiya resurslarini tejash orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, bu global barqarorlik harakatlariga yordam beradi.
- Sifatni yaxshilash: jarayonlarni ratsionalizatsiya qilish va resurslardan foydalanishni optimallashtirish orqali mahsulot va xizmatlar sifati standartlarini oshirish.
- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: energiya xavfsizligini oshirish, turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish

Energiya boshqaruvini joriy etish

Energiyani boshqarish yo'lini boshlash puxta rejalashtirish va bajarishni o'z ichiga olgan tizimli yondashuvni talab qiladi. Energiya boshqaruvini amalga oshirishning asosiy bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Xulosa:

Energiya menejmenti biznes va jamiyatning barqaror rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanib, samaradorlikni oshirish, xarajatlarni tejash va atrof-muhitga hurmat ko'rsatishga yo'l ochadi. Energiyani boshqarish usullariga rioya qilish va faol choralar yordamida tashkilotlar ishonchli kelajakni qurishda etakchi o'rinlarni egallashi mumkin[3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’z DSt ISO 50001:2015. Talablar va joriy qilish bo‘yicha qo‘llanma
2. Energiya tcjamkorlik asosLari /F.A. Xoshimov. A.D. Taslimov. 0 ‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T.: 192 b.
3. https://nekta.tech/sistema-energomenedzhmenta.

XALQARO STANDARTLASHTIRISH MAQSADI VA VAZIFALARI

[1]H. U. Sharofiddinov
[1]Farg’ona politexnika instituti
e-mail: husniddinsharofiddinov111@gmail.com

Xalqaro standartlashtirish — standartlashtirish, unda ishtirok etish Jahondagi barcha mamlakatlarning tegishli organlari uchun ochiq hisoblanadi

Standartlashtirish deganda haqiqiy va potensial vazifalarga nisbatan umumiy va takroriy qo‘llash qoidalarini belgilash orqali ma’lum bir sohada tartibga solishga erishishga qaratilgan faoliyat holatlari tushiniladi. Ushbu faoliyat standartlarni ishlab chiqish, nashr etish va qo‘llashda keng qo‘llaniladi.

Xalqaro standart — xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan standartdir. Standart mahsulot, foydalanish, saqlash, tashish, sotish va utilizatsiya qilish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish xususiyatlarini belgilaydigan hujjatdir sanaladi. Standart shuningdek, terminologiya, belgilar, qadoqlash, markalash yoki yorliqlarga qo‘yiladigan talablarni va ularni qo‘llash qoidalarini o‘z ichiga olishi ham mumkin. Amalda xalqaro standartlar deganda ko‘pincha ilmiy-texnika jamiyatlari tomonidan ishlab chiqilgan va dunyoning turli mamlakatlarida norma sifatida qabul qilingan mintaqaviy standartlar va standartlar ham tushuniladi.

Xalqaro standartlashtirishning maqsadi va vazifalari

Xalqaro standartlarning asosiy maqsadi xalqaro miqyosda yangi sifat tizimlarini ishlab chiqish va mavjud sifat tizimlarini takomillashtirish va ularni sertifikatlash uchun yagona uslubiy asosni yaratishdan iborat. Standartlashtirish sohasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlik milliy standartlashtirish tizimini xalqaro, mintaqaviy va progressiv milliy standartlashtirish tizimlari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan. Xalqaro standartlashtirishdan dunyodagi qoloq mamlkatlar ham va rivojlangan davlatlar ham birdek manfaatdor sanaladi.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)

ISO xalqaro tashkiloti 1947-yil 23-fevralda ixtiyoriy, nodavlat tashkilot sifatida ish boshladi. U 1946-yilda Londonda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda 25 ta sanoati rivojlangan davlat vakillari o‘rtasida xalqaro miqyosda turli sanoat standartlarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish va ularni qabul qilish tartibini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan tashkilot yaratish to‘g‘risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan jahon bo‘yicha umumiy Xalqaro miqyosdagi tashkilot hisoblanadi.

Xalqaro elektr-aloqa ittifoqi (Xalqaro elektraloqa ittifoqi)

XEI telekommunikatsiya standartlashtirish sohasidagi xalqaro hukumatlararo tashkilotdir. Tashkilot 500 dan ortiq davlat va nodavlat tashkilotlarini birlashtirgan. U turli mamlakatlarning telefon, telekommunikatsiya va pochta vazirliklari, idoralari va idoralari, shuningdek, telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish uchun uskunalar yetkazib beruvchi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi. XEIning asosiy vazifasi global televizion tarmoqlar va ularning xizmatlarini qurish va ulardan foydalanish bo‘yicha xalqaro muvofiqlashtirilgan qoidalar va tavsiyalarni ishlab chiqishni

muvofiqlashtirishdan iborat. 1947-yilda XEI Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligi maqomini oldi.

Standartlashtirish bilan shug‘ullanadigan xalqaro tashkilotlar

Jahon savdo tashkiloti (JST)

Jahon savdo tashkiloti (JST) 1995-yilda tashkil topgan.

Xalqaro iste’molchilar tashkiloti (CIO)

Xalqaro iste’molchilar tashkiloti (XIT) mahsulotlar va birinchi navbatda, iste’mol tovarlari sifatini ta’minlash bilan bog‘liq ko‘plab ishlarni amalga oshirmoqda. 1960-yilda tashkil etilgan — turli mamlakatlarning 160 dan ortiq iste’molchilar uyushmalari.

Xalqaro yuridik metrologiya tashkiloti (OIML)

Huquqiy metrologiya xalqaro tashkiloti hukumatlararo xalqaro tashkilot bo‘lib, davlat metrologiya xizmatlari yoki boshqa milliy institutlar faoliyatini xalqaro muvofiqlashtirishga qaratilgan bo‘lib, Huquqiy metrologiya xalqaro tashkilotiga a’zo mamlakatlarda o‘lchov natijalarining qiyoslanishi, to‘g‘riligi va aniqligini ta’minlashga qaratilgan. Tashkilot 1955-yilda tashkil etilgan Konvensiya asosida ishtirokchi davlatlarning qonun chiqaruvchi organlari tomonidan ratifikatsiya qilingan

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO)

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti yoki ICAO — BMTining ixtisoslashgan agentligi bo‘lib, uning vakolati xalqaro fuqaro aviatsiyasining xavfsiz, samarali va tartibli rivojlanishini ta’minlashdan iborat. ICAO quyidagi standartlar turlarini va boshqa qoidalarni ishlab chiqadi:

SARP deb ataladigan standartlar va tavsiya etilgan amaliyotlar (agar siz ikkalasini nazarda tutsangiz);

Aeronavigatsiya xizmatlari (PANS) uchun protseduralar;

Qo‘shimcha mintaqaviy qoidalar (SUPPs);

har xil turdagi o‘quv materiallari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Medvedev A. M. Xalqaro standartlashtirish — M.: Standartlar nashriyoti, 1988-yil

[2] M. I. Krivosheev. Raqamli televizion eshittirishni xalqaro standartlashtirish — M.: NIIR, 2006,

[3] Kornilov E. V. Texnik sxemalar elementlarini belgilashning xalqaro standartlari — Odessa: Negociant, 2005-yil

[4] O. A. Ageeva. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari — M.: Buxgalteriya hisobi, 2008-yil

[5] Krainova Yu.Qisqa kurs: Xalqaro audit standartlari — M.: Omega-L, 2009y.

PUBLISHING, LIBRARY AND INFORMATION WORK STANDARDS SYSTEM

[1]*A.D. Xoliqberdiyev,* [2]*A.A. Nuraliyev and* [3]*H.Sh. Xoliqnazarov*
[1,2,3] *student of Fergana polytechnic institute E8-22 MST*
[1]*abdurakhimaxii@gmail.com*
[2]*asadbeknuraliyev415@gmail.com*
[3]*xoliqnazarovhumoyunbek2004@gmail.com*

Abstract: *This abstract provides an overview of the importance of standards in the fields of publishing, library, and information work. A robust standards system is essential to ensure efficiency, quality, and consistency in these sectors. The article explores the role of standards in maintaining integrity, reliability, and professionalism within publishing, library, and information work. It discusses the development, implementation, and benefits of a comprehensive standards system in these critical areas of knowledge dissemination and access.*

Key words: *publishing,library,integrity,reliability*

Аннотация: *В этом реферате представлен обзор важности стандартов в области издательского дела, библиотек и информационной работы. Надежная система стандартов необходима для обеспечения эффективности, качества и последовательности в этих секторах. В статье исследуется роль стандартов в поддержании целостности, надежности и профессионализма в издательской, библиотечной и информационной работе. В нем обсуждаются разработка, внедрение и преимущества комплексной системы стандартов в этих важнейших областях распространения знаний и доступа к ним.*

Ключевые слова: *издательское дело, библиотека, добросовестность, надежность.*

Annotatsiya: *Ushbu insho nashriyot, kutubxonalar va axborot ishi sohalarida standartlarning ahamiyati haqida umumiy ma'lumot beradi. Ushbu tarmoqlarda samaradorlik, sifat va izchillikni ta'minlash uchun mustahkam standartlar tizimi zarur. Ushbu maqola nashriyot, kutubxona va axborot xizmatlarida yaxlitlik, ishonchlilik va professionallikni saqlashda standartlarning rolini o'rganadi. Unda bilimlarni tarqatish va ulardan foydalanishning ushbu muhim sohalarida keng qamrovli standartlar tizimini ishlab chiqish, joriy etish va afzalliklari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar*: nashriyot, kutubxona, yaxlitlik, ishonchlilik.*

Introduction: Publishing, library, and information work are integral parts of the knowledge ecosystem, serving as gatekeepers of information and crucial resources for researchers, scholars, and the general public. In order to maintain the integrity and reliability of the services provided in these sectors, the establishment of a standards system is imperative. This article delves into the significance of standards

in publishing, library, and information work, focusing on the role they play in ensuring efficiency, quality, and consistency.

Ensuring quality, accuracy, and efficiency within these sectors is imperative to meet the growing demands of users and stakeholders. A well-defined standards system plays a crucial role in upholding professionalism, integrity, and reliability in publishing, library, and information work practices. By establishing and adhering to standardized norms and guidelines, organizations and professionals can enhance the overall quality of services and products offered, thereby contributing to a more effective and reliable information ecosystem. In this introduction, we delve into the significance of a robust standards system in shaping the landscape of publishing, library, and information work, and explore the various aspects and benefits associated with its implementation.

Methods: The development and implementation of standards in publishing, library, and information work involve a systematic approach that encompasses various methodologies. Standards are typically established through collaboration between industry experts, regulatory bodies, and stakeholders to define best practices, guidelines, and quality assurance measures. This process involves rigorous research, analysis, and consensus-building to create a comprehensive framework that addresses the diverse needs of these sectors.

Results: A well-defined standards system in publishing, library, and information work contributes to enhanced productivity, information quality, and user satisfaction. By adhering to established standards, organizations can streamline their operations, improve the accuracy and reliability of published content, and optimize information retrieval processes in libraries. Additionally, standards help ensure compliance with legal and ethical requirements, safeguard intellectual property rights, and promote transparency and accountability in the dissemination of information.

The implementation of a standards system in the fields of publishing, library, and information work has shown significant positive outcomes in various aspects. Standardization has been instrumental in improving the quality and consistency of published materials, library collections, and information services. By adhering to established standards, organizations have been able to reduce errors, enhance accuracy, and ensure compliance with best practices and ethical guidelines. This has ultimately led to increased trust and credibility among users and stakeholders, thereby fostering a more transparent and reliable information environment.

The implementation of a standards system within the publishing, library, and information sectors fosters a culture of continuous improvement and innovation. It serves as a benchmark for evaluating performance, identifying areas for enhancement, and aligning practices with industry best practices. Moreover, standards promote interoperability and collaboration among stakeholders, facilitating the exchange of information and the development of shared resources that benefit the broader community.

The establishment of a standards system in publishing, library, and information work is essential for promoting professionalism, ensuring integrity, and fostering

innovation in these fields. Standards provide a common framework for practitioners to follow, facilitating interoperability, collaboration, and knowledge sharing across different organizations and disciplines. By setting clear benchmarks for quality and performance, standards enable organizations to streamline their processes, reduce inefficiencies, and optimize resource allocation.

Moreover, adherence to standards helps minimize the risk of errors, plagiarism, and unethical practices, thus safeguarding the integrity of published works, library collections, and information services. Standardization also plays a crucial role in promoting inclusivity and accessibility by ensuring that information is available in standardized formats that are compatible with diverse user needs and preferences.

In addition, a well-defined standards system enables organizations to keep pace with technological advancements and evolving user expectations. By regularly updating and adapting standards to incorporate new developments and emerging trends, stakeholders can stay relevant and competitive in a rapidly changing information landscape.

Overall, the implementation of a standards system in publishing, library, and information work is vital for guaranteeing the quality, reliability, and sustainability of information resources and services. By embracing standardization as a guiding principle, organizations can uphold best practices, foster continuous improvement, and ultimately enhance the overall effectiveness and impact of their operations in today's digital age.

In conclusion, the establishment of a standards system is paramount to the success and sustainability of publishing, library, and information work. By adhering to established standards, organizations can uphold the highest levels of professionalism, service quality, and integrity in their operations. As these sectors continue to evolve in the digital age, the adoption of robust standards will be instrumental in navigating challenges, embracing opportunities, and advancing the collective mission of knowledge dissemination and access.

References:

1. Bawden, D. (2017). The ethics of information work. Journal of Information Ethics, 26(2), 75-93.
2. ISO. (2016). ISO 9000 - Quality management. Retrieved from https://www.iso.org/iso-9001-quality-management.html
3. Waltz, M. R. (2015). The future of publishing standards. Publishing Research Quarterly, 31(1), 1-4.
4. ALA. (2020). Library Standards. Retrieved from http://www.ala.org/advocacy/intfreedom/librarybill/interpretations/privacy
5. Jenkins, M., & Richardson, J. V. (2018). Standards in the information age: ethical education for library and information professionals. Library Hi Tech, 36(3), 614-623.

ISO 9000 SERIYALI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI BOSHQARUVDA SIFATNI TIZIMLI TA’MINLASH

[1] A.A.Abdumalikov, [2] U.B.Qodirov.
[1,2]Farg‘ona politexnika instituti

Annotasiya. *Menejment tizimi deganda faoliyat yoki ishlab chiqarishni maqbullashtirish uchun siyosat va maqsadlarni ishlab chiqish va ushbu maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan o‘zaro bog‘langan va o‘zaro birgalikda harakat qiladigan elementlar majmui tushuniladi. ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar asosiy muhim o‘ringa ega.*

Kalit so‘zlar*. Respublikamiz korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorga chiqishga erishish uchun ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar asosida SMT joriy etishga qiziquvchilarning ortib borishi kuzatilmoqda.*

Menejment tizimi deganda faoliyat yoki ishlab chiqarishni maqbullashtirish uchun siyosat va maqsadlarni ishlab chiqish va ushbu maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan o‘zaro bog‘langan va o‘zaro birgalikda harakat qiladigan elementlar majmui tushuniladi. U o‘z ichiga tashkiliy tuzilmani, resurslar va jarayonlar, protseduralar, amaliyot, javobgarlikni taqsimlash, rejalashtirish bo‘yicha faoliyatlarni qamrab oladi.

Tashkilot menejment tizimlari – sifat menejmenti tizimi (SMT), ekologik menedjmenti tizimi (EMT), mehnatni muhofazalash va kasbiy kasalliklarni oldini olish sohasidagi menejmenti tizimi, maqbul qishloq xo‘jalik amaliyoti menejment tizimi va boshqa turdagi menejment tizimlarini qamrab olishi mumkin.

Zamonaviy bozor munosabatlarida ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar asosiy muhim o‘ringa ega. O‘z vaqtida, ya’ni, bu standartlarning oldingi 1987 yildagi birinchi versiyasi nashri turli tarmoqlardagi korxonalarda sifat bo‘yicha ishlarni tashkillashtirishda etalon, raqobatbardoshlikni oshirish va hamkorlar tomonidan ishonchni mustahkamlash vositasi sifatida tan olingan.

Respublikamiz korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorga chiqishga erishish uchun ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar asosida SMT joriy etishga qiziquvchilarning ortib borishi kuzatilmoqda. SMT joriy qilish korxonalarning tenderlarda qatnashish, menejment tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va hamkorlik muhitini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

Korxonada ISO 9001 sertifikatni mavjudligi hamkorlik munosabatlarni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etishi, jahon moliyaviy bozoriga chiqish uchun majburiy shartlardan bo‘lib hisoblanmoqda. ISO sertifikati – nufuzli va obro‘li xalqaro tashkilot (ISO) tomonidan xolisona tan olingan guvohnomadir.

ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar tarixi 1987 yildan boshlanadi. Aynan shu yilda ISO tashkiloti sifat menedjmenti tizimini tashkillashtirish bo‘yicha eng birinchi ISO 9000-87 nomli universal standartlarni qabul qilgan. ISO 9000 standartlari AQSH harbiy vazirligida ushbu mahsulotning sifat darajasini ta’minlashda harbiy tarmoq uchun ta’minotchilarni baholashda foydalanilgan standartlar olinib va buning asosida

ishlab chiqilgan. ISO 9000 standartlari uslubiy rejasida sifatni boshqarishga kompleks yondoshuv (Total Quality Management, TQM) bazasi asos bo‘lib hisoblanadi.

ISO 9000 oilasidagi standartlar uchta modelini sertifikatlashtirishga asoslangan:

1. ISO 9001 – Ishlab chiqish (ishlab chiqarish, loyihalashtirish, montaj va xizmat ko‘rsatish) bosqichlarida sifatni ta’minlash modeli.
2. ISO 9002 – Ishlab chiqarish va montaj bosqichlarida sifatni ta’minlash.
3. ISO 9003 – Tayyor mahsulotni sinash va tekshirish bosqichida sifatni ta’minlash modeli.

ISO 9000 (ISO 9000-94) seriyali standartlarining keyingi versiyasi 1994 yilda paydo bo‘ldi. O‘zida noaniq holatlarni tushuntirish va bartaraf qilish bilan 1987 yilgi standartlar tuzilmasini takrorlagan. ISO 9000 (ISO 9000:2000) seriyali xalqaro standartlarning yangi versiyasi 1994 yil 15 dekabrdagi oldingi versiyasi bilan 2000 yilda rasman almashtirildi. 2001 yilning 1 yanvaridan ISO 9000:2000 versiyasi amalga kiritildi. Yangi versiya standarti sertifikatlashtiruvchi, muqobil sifat modellarini o‘zida mujassam etmaydi. Paydo bo‘lgan ISO 9001:2000 standartini qayta ko‘rib chiqish natijasida 1994 yilgi ISO 9001, ISO 9002, ISO 9003 standartlar versiyasi qator tamoyilli farqlari mavjudligini o‘zining mohiyati bo‘yicha alamashtirilgan. Masalan, hujjatlar majmuasi avval 24 ta standartdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, hozirda o‘zida quyidagi 5 ta asosiy standartlarni qamrab oladi:

1. ISO 9000:2000 Sifat menedjmenti tizimlari. Asosiy tamoyillar va lug‘at.
2. ISO 9001:2000 Sifat menedjmenti tizimlari. Talablar (sertifikatlashtirish va audit maqsadlari uchun qo‘llanalidigan va sifat tizimiga zaruriy talablar yig‘indisini o‘rnatadi).
3. ISO 9004:2000 Sifat menedjmenti tizimlari. Yaxshilash bo‘yicha rahbariy ko‘rsatmalar (korxona faoliyatining yuqori samaradorligiga mo‘ljallangan sifat menejmenti tizimini yaratish bo‘yicha uslubiy qo‘rsatmalardan tarkib topgan).
4. ISO 19011:2000 Sifat menedjmenti tizimi va atrof-muhitni himoyalashni tekshirish bo‘yicha rahbariy ko‘rsatma.
5. ISO 10012 O‘lchash vositalarining sifatini ta’minlash.

ISO 9001 va ISO 9004 asos soluvchi standartlar bo‘lib, tuzilmasi va mundarijasi bo‘yicha to‘liq o‘zaro uyg‘unlashgan. Ulardan birgalikda va ajratilgan yakka tartibda foydalaniladi. Ikkala standart sifat menedjmenti jarayoni modeliga asoslangan, ammo, qo‘llanilish sohasi turlicha bo‘lgan birxillik mavjud. Ikkala standart muayyan tarmoqda ishlab chiqilishi mumkin bo‘lgan, asosiy talablarni tashkil etib va barcha turdagi mahsulotlarga qo‘llanilishi mumkin. ISO 9001 va ISO 9004 standartlari boshqa tizim standartlari bilan bir-biriga mosligi sifatida qisman, atrof-muhitni muhofazalashni menedjmenti tizimlarini tartiblashtiruvchi ISO 14001 va ISO 14004 bilan mosligi rejalashtirilgan. Amaldagi ISO 8402 standarti ISO 9000 standartiga o‘zgartirildi. U SMT (ma’lumotli bo‘limi), hamda tushunchalar, atamalar va ta’riflar asosi bo‘lib xizmat qildi. ISO 9000 standarti ISO 9000:1994 va ISO 8402 standartlarini almashtiradi. Bunda “Lug‘at” (ISO 8402) qayta ko‘rib chiqilishga

duchor qilindi: “eski” tushunchalar aniqlashtirildi va yangi atamalar qo‘shimcha kiritildi.

Yangi versiyaning muhim jiddiy farqlari:

1. Asosiga mijozning qanoatlanishi va mijozning kutilmalarini aniqlash masalalari kiritilgan.
2. Rahbariyatning javobgarligi darajasi kattaligi belgilangan.
3. Standart korxona faoliyatida haqiqatda mavjud jarayonlariga yo‘naltirilgan.
4. Boshqa tizimlari bilan integrallashish imkoniyatlari yaxshilingan (masalan, ISO 14001 standartiga muvofiq atrof-muhitni muhofazalashni boshqarish tizimi bilan).
5. Standartlarni ixtiyoriy korxonalarda uning o‘lchami, mahsulot yoki tarmog‘iga bog‘liq bo‘lmagan holda qo‘llash imkoniyati yaxshilangan.
6. Mijozning qanoatlanishini o‘lchash talablari poydo bo‘lgan.
7. Resurslarni boshqarishga taalluqli yangi talablar ko‘tarib chiqilgan.
8. Ayrim bir atamalarni qo‘llanilishi bilan bog‘lik chigalliklar bartaraf qilingan. Yangi standartlarda “Ta’minot” atamasi “tashkilot”ga, “Subpudratchi” – “Ta’minotchi”ga almashtirilib, “Mahsulotni oluvchi” (eskicha “iste’molchi”) “Buyurtmachi” deb nomlashda iste’molchi, yakuniy foydalanuvchi yoki sotuvchi nazarda tutilgan.

ISO 9001:2008 xalqaro standartining yangi talablari. ISO 9001:2008 xalqaro standartida quyidagi yangi talablar kiritilgan:

- uzluksiz yaxshilash;
- yuqori rahbariyat rolining oshirilishi;
- qonunchilik va normativ-huquqiy talablarni ko‘rib chiqish;
- o‘lchanishi mumkin bo‘lgan maqsadlarni o‘rnatish;
- iste’molchilar qanoatlanishi to‘g‘risida guvohlik beruvchi ma’lumotlari monitoringi;
- resurslarga e’tiborni oshirilishi;
- o‘qish smaradorligini aniqlash;
- mahsulot, jarayon va tizimga taalluqli o‘lchashlar;
- sifat menedjmenti tizimi o‘z vazifasini bajarash darajasi to‘g‘risida guvohlik beruvchi ma’lumotlar tahlili.

ISO 9001:2008. ISO 9001, ISO 9002, ISO 9003 1994 yildagi versiya standartlari qayta ko‘rib chiqilgan ISO 9001:2008 standarti almashtiradi. Ushbu hujjat amaliyotda ISO 9001:1994 ning barcha talablarini va unga qator yangi qo‘shimchalarni o‘z ichiga olgan. Standartning tuzilmasi to‘liq o‘zgartildi: 20 ta elementga bo‘lingan “keskin” talablari 5 ta asosiy bo‘limga kirtilgan – “Sifat menedjmenti tizimi”, “Rahbariyatning javobgarligi”, “Resurslar menedjmenti”, “Mahsulotning hayotiy sikli jarayonlari”, “O‘lchashlar, tahlil qilish va yaxshilash”. ISO 9001:2000 standarti ilovasida ISO 9001:1994 va ISO 9001:2000 bo‘limlarga muvofiq jadvali keltirilgan. Ushbu jadval sifat tizimini hujjatlashtirishda va qayta ko‘rishda qulay bo‘lib, ikkita ish bajarmasdan Sifat bo‘yicha qo‘llanmani shu bo‘limni oddiygina ko‘chirib, ya’ni o‘zgartirishga mashaqat chekmasdan qayta ishlab

chiqishda foydalaniladi.

ISO 9004:2000. U barcha qiziquvchi tomonlarning: buyurtmachilar, jarayon egalari, ta’minotchilar, jamiyat talablarini maksimal qanoatlantirish va uning hisobiga ishlarni tashkillashtirishga mo‘ljallangan. Bu yerda korxona daromadi va boshqa yuqorida tilga olingan sub’ektlar va buyurtmachilarni qanoatlantirish yo‘llarini ta’minlash to‘g‘risida fikr yuritilmoqda. ISO 9004:2000 qo‘llanma ISO 14001:1996 “Atrof-muhitni muhofazalash menedjmenti tizimi” standarti bilan ko‘p jihatlari uyg‘unlashgan bo‘lib, bu ikki standartdan birgalikda foydalanish jamiyat uchun foyda keltiradi. Qayta ko‘rib chiqilgan ISO 9004 standarti buyurtmachilar, jarayon egalari, ishchilar, ta’minotchilar va jamiyat hamda iste’molchilar qiziqishlariga tashkilot faoliyatining natijaviyligiga erishishga mo‘ljallangan. Bunda ISO 9004 standartining har bir bo‘limi ISO 9001:2000 standartining bo‘limlariga muvofiq matnlardan takib topgan. O‘zbekistonda 2002 yildan ISO 9000 seriyali 2000 yil versiya standartlariga asl nusxasiga teng bo‘lgan O‘z DSt ISO 9001:2002 standartlari amal qilinadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida 2008 yildagi ISO 9001 standarti versiyasini 2009 yilda tasdiqlanib, O‘z DSt ISO 9000:2009 standarti amalga kiritilgan.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida sifat menedjmenti tizimlariga talablarni o‘rnatuvchi quyidagi standartlar qabul qilingan va amal qiladi:

– O‘z DSt ISO 9000:2009 «Sifat menedjmenti tizimlari. Asosiy qoidalar va lug‘at»;

– O‘z DSt ISO 9001:2009 «Sifat menedjmenti tizimlari. Talablar»;

– O‘z DSt ISO 9004:2009 «Sifat menedjmenti tizimlari. Faoliyatni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar».

ISO 9000 falsafasi iqtisodiy maqsadlar sifatida alohida korxonaning har bir resurslaridan ratsional foydalinish imkonini beruvchi “ishonch qoidasi”ni qo‘llab iqtisodiy samaradorlikka asoslangan. ISO 9000 sifat tizimi standartlari joriy etilgan bo‘lsa, ta’minotchilarga ko‘proq ishonch hosil qilish imkoniyatini beradi deb hisoblash mumkin. Sifatni boshqarish va sifat tizimini sertifikatlashtirish tushunchalariga aniq bo‘lishi muhimdir. Sifatni boshqarish – ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni oqilona va e’tiborli boshqarish hisobiga mahsulot va xizmatlarning yuqori sifat darajasini amalda ta’minlash imkoniyatini beruvchi korxonani boshqarish vazifalaridan biridir. Sifat menedjmenti tizimi muayyan korxonaning vazifa va xusisiyatlariga muvofiq tashkillashtirishdir. ISO 9000 standartlari bunday tizimni qurish usulini taklif qiladi va rasmiy ravishda sertifikatlashtirish mumkin. SMT sertifikatlashtirish ushbu mahsulot va xizmatlar sifatining yuqoriligi va barqarorligini ta’minlab, talablarni aniqlab va samarali ishchi holatdaligi hisobiga ushbu korxona SMT ishlab chiqilganligi va tashkillashtirilganligi bozordagi boshqa ishtirokchilarga nomoyon qiladi.

ISO 9000 standartlari ko‘plab davlatlarda tan olingan. O‘z DSt ISO 9000 standarti ko‘rinishida standartlar versiyasining asliga to‘g‘ri bo‘lib milliy tilga o‘girilgan. Ayni vaqtda ishlab chiqaruvchilarga ISO 9000 bo‘yicha sertifikatlashtirish majburiy talablar bo‘lib hisoblanmaydi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda ISO 9000 bo‘yicha sertifikatlashtirish harbiy va aerokosmik sohalardagi ta’minotchilar,

shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati inson hayoti bilan bog‘liq bir qancha sohalarda (qonun bo‘yicha) majburiydir. Biroq, ISO 9000 sertifikatining mavjudligi ko‘pincha ko‘plab bozorlarda yoki bu bozorlarga chiqish uchun asosiy muvaffaqiyat omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. U korxonani jahon ishbilarmonligi va takomillashganligiga aloqadorligi to‘g‘risida guvohlik beradi. Bundan tashqari, ko‘plab korxonalarning sifat tizimi ularning ta’minotchilaridan sertifikatlashtirilgan sifat tizimi mavjudligini talab etadi.

Xulosa.

ISO 9000 standartlari oilasining universalligi har bir alohida mahsulot yoki xizmatlar turi (masalan, mahsulotning talb etilgan texnik tavsiflari) uchun sifat mezonlarini mutloq o‘lchanishini tavsiya etilmaydi. Mahsulot yoki xizmatlarning insonlarni talablarini qondirish xususiyati bo‘lsa bu sifatlidir, buning esa iloji yo‘q, lekin talablar turli va tugalmasdir. ISO 900 standartlar oilasi faqat sifat tizimi ishchi holati usuliyatini namoyon etadi, o‘z o‘rnida ishlab chiqarish korxonalarining mahsulot va xizmatlar yuqori sifatililigini ta’minlashi lozim, boshqacha so‘z bilan aytganda, iste’molchilarning yuqori darajada qanoatlanishini ta’minlash lozim.

ISO 9000 standartlarini joriy etishga ikkita yondoshuv mavjud. Birinchi holatda standartlardan tashkilot samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalaniladi. Bunda ularni joriy etishga ichki talab paydo bo‘lishi va buni yuqori rahbariyat yaratadi biroq busiz kelgusida rivojlanish bo‘lmaydi. Bunday strategiyada tizimning natijaviyligini oshirish, xolisona ichki auditni o‘tkazish, o‘z-o‘zini baholash uchun resurslarni belgilash, eng maqbul hujjatlar tarkibini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘ladi va sifat tizimi tashkillashtirish, jarayonlar, mahsulot sifati birinchi o‘rinda turadi.

ISO 9000 standartlari bo‘yicha sertifikatlashtirish korxona sifat tizimining qator tarkiblari sifatida va rasmiy talablar sifatida muvofiqligi ko‘zlangan. Sifat tizimini bu talablarga muvofiqligini o‘rnatish jarayoni o‘ta mashaqqatli bo‘lishi mumkin ya’ni ko‘p vaqt talab etiladi. Buning uchun, korxona rahbariyati ISO 9000 bo‘yicha sertifikatlashtirishga sifat tizimi tayyorligi to‘g‘risida qaror qabul qilishdan oldin, barchadan “Rozi” va “Qarshi”ligiga puxtalik bilan yondoshmog‘i lozim, shuningdek, korxona uchun sifat tizimiga sertifikat nima uchun kerakligini yaqqol aniqlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.02.2021 yildagi PQ-5009-son O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
2. Yefimov V.V. “Управление качеством”, учебное пособие, Ulyanovsk, Ul. GTU 2000 y., -123 bet.
3. Nikiforov A.D. “Управление качеством”, учебное пособие, Moskva, 2004 y., 720 b.

4. Fomin V.N. «Управление качеством.Сертификация», учебное пособие. – M.: Os-89, 2005 y., -348 b.
5. Ismatullayev P.R. va boshq. “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish”, Toshkent, 2001 y., -360 b.
6. Abduvaliyev A.A va boshqalar. “Основы стандартизации, метрологии, сертификации и управление качеством”, Tashkent 2007 y., 555 b.
7. Abdullayev A.A., Alimov M.N., Boyko S.R., Miragzamov M.M., Sobirov M.Z. “Основы стандартизации, сертификации и управления качеством”, учебное пособие, Toshkent, “Fan va texnologiya” 2005 y., -535 b.

THE MAIN RULES OF THE STANDARDIZATION SYSTEM OF UZBEKISTAN.

[1]Jumanazarova Charosxon, [2]Ergashev Dilshod
[1,2]Fergana Polytechnic Institute
Students of E84-22 YSBKIT group

Anatatsiya: “Texnik jihatdan tartibga solish” agentligi boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruv idoralari standartlashtirish bo‘yicha texnikaviy qo’mitalar va tayanch tashkilotlar, tashkilotlar va korxonalar standartlashtirish bo‘yicha bo‘limlar respublikada standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi.

Kalit so’zlar: Standartlashtirish ob'ektlari, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar, mahsulot sifati va nomenklaturasi, standartlashtirish tizimi, MXdagi ob'ektlar.

Анатация: Работу по стандартизации в республике организуют агентство «Техническое регулирование», другие органы государственного и хозяйственного управления, технические комитеты по стандартизации и отделы по стандартизации базовых организаций, организаций и предприятий.

Ключевые слова: Объекты стандартизации, технико-экономические показатели, качество и номенклатура продукции, система стандартизации, объекты в МХ.

Anatation: The "Technical regulation" agency, other state and economic management agencies, technical committees on standardization and departments on standardization of base organizations, organizations and enterprises organize work on standardization in the republic.

Keywords: standardization objects, technical and economic indicators, product quality and nomenclature, standardization system, objects in MX

The main rules of O‘z DSt are planning in the state standard of Uzbekistan O‘z DSt 1.0 1998* in which:

- standardization issues, tasks, basic principles;
- organization on standardization;
- standardization objects;

- RD levels according to standardization, the procedure for their application, the procedure for providing RD;
-standard assistance qualification.

In order to improve standardization, the Law of the Republic of Uzbekistan "Standardtition Production" (Article1) provides for production and their regulation:

- to protect the interests of consumers and the state in matters of provision of resources for products, processes, works and nutrition (products) for the life, health and property of the population, for the environment;
- to ensure mutual availability and compatibility of products;
- the quality of the product in accordance with the level of science and technology development, as well as the needs of the population and the national economy, and receiving assistance;
- from helping to save all resources, from improving the technical and economic indicators of production;
- implementation of socio-economic, scientific and technical programs and projects;
- to ensure the safety of the objects of the national economy, taking into account the risk of natural and man-made disasters and other emergency situations;
- providing consumers with complete and reliable information about the nomenclature and quality of manufactured products;
- ensuring defense capability and mobilization readiness;
- to ensure that measurements are in a single unit.

According to the goals set by the law, the tasks of standardization are as follows:

- establishment of optimal requirements for the quality and nomenclature of products for the benefit of consumers and the state;
- creation of the MX system that sets the requirements for the products produced for the population and the export market, as well as control over their correct use;
- harmonization of MX with international, interstate regional and developed countries' standards;
- expanding the application of international interstate, regional and developed country standards, while strengthening international cooperation;
- development of MX for products taking into account scientific and technical achievements;
- regulatory provision of product testing, certification, quality assessment and control;

Standardization is based on certain principles, in which;

- expediency of development of MX based on social, economic, technical necessity;
- comprehensive standardization of interrelated objects and ensuring the interdependence of the requirements for the objects in MX developed in this;

- ensuring compliance of MX with scientific and technical achievements and current legal requirements;
- interdependence and compatibility of MX of all categories, non-return of MX to the same objects;
- disclosure of information, programs and plans about MX on standardization;
- adoption of MX on the basis of consensus;
- suitability for MX certification purposes;
- wide application of modern information and communication technologies in the field of standardization.

Standardization work is carried out at the international, regional (regional), interstate, state, organization (enterprise) level within the framework of its ST, and the appropriate category of MX is developed.

" Technical regulation " agency and other state and economic management agencies standardization technical committees on standardization and standardization departments of base organizations, organizations and enterprises organize work on standardization in the republic.

Refererences.

1. SH . Hakimov , Chief ScientificOfficer of the Scientific Research Institute of Standardization , Metrologsy and Certification Doctor of Technical Sciences , Professor
2. B.B. Khasonov TIMI Dean of the Faculty of Construction and Use of Hydrotechnical Structures , Doctor of Technical Sciences ,Professor
3. It was recommended for publication by the decision of the Scientific Council of the Tashkent Institute ofv Irrigation and Agricultural Mechanizaation Engineers.

XALQARO STANDARTLASHTIRISH

[1]H.U.Sharofiddinov, S.X.Isroilova
[1]Farg’ona politexnika instituti
e-mail: husniddinsharofiddinov111@gmail.com

Xalqaro standartlashtirish — standartlashtirish, unda ishtirok etish Jahondagi barcha mamlakatlarning tegishli organlari uchun ochiq hisoblanadi

Standartlashtirish deganda haqiqiy va potensial vazifalarga nisbatan umumiy va takroriy qo‘llash qoidalarini belgilash orqali ma’lum bir sohada tartibga solishga erishishga qaratilgan faoliyat holatlari tushiniladi. Ushbu faoliyat standartlarni ishlab chiqish, nashr etish va qo‘llashda keng qo‘llaniladi.

Xalqaro standart — xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan standartdir. Standart mahsulot, foydalanish, saqlash, tashish, sotish va utilizatsiya

qilish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish xususiyatlarini belgilaydigan hujjatdir sanaladi. Standart shuningdek, terminologiya, belgilar, qadoqlash, markalash yoki yorliqlarga qo‘yiladigan talablarni va ularni qo‘llash qoidalarini o‘z ichiga olishi ham mumkin. Amalda xalqaro standartlar deganda ko‘pincha ilmiy-texnika jamiyatlari tomonidan ishlab chiqilgan va dunyoning turli mamlakatlarida norma sifatida qabul qilingan mintaqaviy standartlar va standartlar ham tushuniladi.

Xalqaro standartlashtirishning maqsadi va vazifalari

Xalqaro standartlarning asosiy maqsadi xalqaro miqyosda yangi sifat tizimlarini ishlab chiqish va mavjud sifat tizimlarini takomillashtirish va ularni sertifikatlash uchun yagona uslubiy asosni yaratishdan iborat. Standartlashtirish sohasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlik milliy standartlashtirish tizimini xalqaro, mintaqaviy va progressiv milliy standartlashtirish tizimlari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan. Xalqaro standartlashtirishdan dunyodagi qoloq mamlkatlar ham va rivojlangan davlatlar ham birdek manfaatdor sanaladi.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)

ISO xalqaro tashkiloti 1947-yil 23-fevralda ixtiyoriy, nodavlat tashkilot sifatida ish boshladi. U 1946-yilda Londonda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda 25 ta sanoati rivojlangan davlat vakillari o‘rtasida xalqaro miqyosda turli sanoat standartlarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish va ularni qabul qilish tartibini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan tashkilot yaratish to‘g‘risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan jahon bo‘yicha umumiy Xalqaro miqyosdagi tashkilot hisoblanadi.

Xalqaro elektr-aloqa ittifoqi (Xalqaro elektraloqa ittifoqi)

XEI telekommunikatsiya standartlashtirish sohasidagi xalqaro hukumatlararo tashkilotdir. Tashkilot 500 dan ortiq davlat va nodavlat tashkilotlarini birlashtirgan. U turli mamlakatlarning telefon, telekommunikatsiya va pochta vazirliklari, idoralari va idoralari, shuningdek, telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish uchun uskunalar yetkazib beruvchi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi. XEIning asosiy vazifasi global televizion tarmoqlar va ularning xizmatlarini qurish va ulardan foydalanish bo‘yicha xalqaro muvofiqlashtirilgan qoidalar va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirishdan iborat. 1947-yilda XEI Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligi maqomini oldi.

Standartlashtirish bilan shug‘ullanadigan xalqaro tashkilotlar

Jahon savdo tashkiloti (JST)

Jahon savdo tashkiloti (JST) 1995-yilda tashkil topgan.

Xalqaro iste’molchilar tashkiloti (CIO)

Xalqaro iste’molchilar tashkiloti (XIT) mahsulotlar va birinchi navbatda, iste’mol tovarlari sifatini ta’minlash bilan bog‘liq ko‘plab ishlarni amalga oshirmoqda. 1960-yilda tashkil etilgan — turli mamlakatlarning 160 dan ortiq iste’molchilar uyushmalari.

Xalqaro yuridik metrologiya tashkiloti (OIML)

Huquqiy metrologiya xalqaro tashkiloti hukumatlararo xalqaro tashkilot bo‘lib, davlat metrologiya xizmatlari yoki boshqa milliy institutlar faoliyatini xalqaro muvofiqlashtirishga qaratilgan bo‘lib, Huquqiy metrologiya xalqaro tashkilotiga a’zo

mamlakatlarda o‘lchov natijalarining qiyoslanishi, to‘g‘riligi va aniqligini ta’minlashga qaratilgan. Tashkilot 1955-yilda tashkil etilgan Konvensiya asosida ishtirokchi davlatlarning qonun chiqaruvchi organlari tomonidan ratifikatsiya qilingan

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO)

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti yoki ICAO — BMTining ixtisoslashgan agentligi bo‘lib, uning vakolati xalqaro fuqaro aviatsiyasining xavfsiz, samarali va tartibli rivojlanishini ta’minlashdan iborat. ICAO quyidagi standartlar turlarini va boshqa qoidalarni ishlab chiqadi:

SARP deb ataladigan standartlar va tavsiya etilgan amaliyotlar (agar siz ikkalasini nazarda tutsangiz);

Aeronavigatsiya xizmatlari (PANS) uchun protseduralar;

Qo‘shimcha mintaqaviy qoidalar (SUPPs);

har xil turdagi o‘quv materiallari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Medvedev A. M. **Xalqaro standartlashtirish** — M.: Standartlar nashriyoti, 1988-yil.

[2] M. I. Krivosheev. **Raqamli televizion eshittirishni xalqaro standartlashtirish** — M.: NIIR, 2006.

[3] Kornilov E. V. **Texnik sxemalar elementlarini belgilashning xalqaro standartlari** — Odessa: Negociant, 2005-yil .

[4] O. A. Ageeva. **Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari** — M.: Buxgalteriya hisobi, 2008-yil.

[5] Krainova Yu.Qisqa **kurs: Xalqaro audit standartlari** — M.: Omega-L, 2009y.

STANDARTLASHTIRISH - MASHINASOZLIK DETALLARINI SIFAT KO‘RSATKICHLARINI DOIMIY TAKOMILLASHTIRISH VOSITALARIDAN BIRI

[1]B.Abdullajonov, [2]M. Melibayev

[1,2]Namangan muhandislik-qurilish instituti

E-mail: abdullajonovbotirjonnn7@gmail.com

E-mail: meliboevmeliboev1@gmail.com

Annotatsiya:Ushbu maqolada mashinasozlik sohasida ishlab chiqarilayotgan detallarni sifat ko‘rsatkichlari va uni baholash usullari va vositalaridan foydalanish texnologik jarayonlari xaqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Tayanchso‘zlar:Mashina, mahsulot, sifat, baholash, usul, detal, energiya, konsern, standart, nazorat.

ISHLAB CHIQARISH VA XIZMATLAR SOHASIDA XALQARO VA MILLIY STANDARTLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Аннотация: В данной статье изложены сведения о показателях качества деталей, выпускаемых в области машиностроения, и технологических процессах использования методов и средств его оценки.

Ключевые слова: Машина, изделие, качество, оценка, метод, деталь, энергия, концерн, стандарт, контроль.

Abstract: This article provides information about the quality indicators of parts produced in the field of mechanical engineering, and the technological processes of using methods and means for its assessment.

Key words: Machine, product, quality, assessment, method, part, energy, concern, standard, control.

Jahonda barcha sohalardagi kabi O‘zbekiston mashinasozlik sohasi ham, ishonchli, resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo‘llashda yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab bir nechta kompaniya va konsernlar tomonidan millionlab mashinalarni ishlab chiqarilishini hisobga olsak [1], ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor kam xarajat barcha standart ko‘rsatkichlari bo‘yicha unumdorligi yuqori bo‘lgan mashinalarni amaliyotga joriy etish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Shu bois bunday ilmiy-texnik muammolarni yechimini topishga e’tibor qaratilmoqda. Bu borada mashina detal va mexanizmlarining yuqori aniqlik sifatini ta’minlash hamda energiya va resurslarni tejash detallarga ishlov berish jarayonida amalga oshiriladigan energiya-resurstejamkor mashinalardan samarali foydalanish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari va ish rejimlarini asoslash bo‘yicha maqsadli izlanishlarni olib borish dolzarb ilmiy-texnik muammolardan hisoblanadi.

O‘zbekistonda standartlashtirish va standartlardan foydalangan holda mahsulotlar sifatiga e’tibor qaratish odati juda qadim zamonlarga (ming yilliklarga) borib taqaladi deb hisoblash mumkin [2,3].

1923 yilni O‘zbekistonda standartlashtirish bo‘yicha ishlarning rasman boshlanishi deb hisoblash mumkin, shu yili Toshkentda - O‘lchov va tarozilarning Turkiston markaziy byurosi, shuningdek quyidagi joylarda byuroning tekshirish palatkalari tashkil etilishi bilan boshlangan.

Xalqaro standartlarni keng qo‘llanish asosida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlash va qo‘shma sohalarni takomillashtirish, mahsulot sifatini ta’minlash va raqobatbardoshligini oshirish maqsadlarida qator yillarda O‘zR Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot va xizmatlarni standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi va ushbu Qarorga muvofiq O‘zdavstandart O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash agentligi “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi” tomonidan maqsadli ishlar olib borilmoqda [4,5].

ISO 9000 standartlari asosidagi sifat tizimining eng bosh maqsadi - mahsulotning buyurtmachi talab qiladigan sifatini ta’minlash va unga korxonaning buni uddasidan chiqa olish qobiliyatining isbotini taqdim etish [1].

Barcha mamlakatlarning mutaxassislari tomonidan tan olingan yagona yondashuvlar Total Quality Management (TQM) sifatni umumiy boshqarish


tamoyillari sifatida ma’lum bo‘lib, u barcha darajadagi xizmatchilar hamda rahbariyat ishtirokida va resurlar, texnik imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda faoliyatning tadqiqotlardan boshlab to sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatishgacha bo‘lgan barcha sohalarida sifatni boshqarish tizim va usullarini har taraflama maqsadli qo‘llanishni ko‘zda tutadi [6].

TQM - kompleks tizim bo‘lib, sifatni doimiy yaxshilab borish, ishlab chiqarish xarajatlarini imkon qadar kamaytirish va mahsulotni aniq muddatida yetkazib berishga yo‘naltirilgandir. Uning falsafasi yaxshilashlarning chegarasi yo‘q degan tamoyilga asoslanadi. Sifatga nisbatan - nuqsonlar nol, xarajatlarga - unumsiz xarajatlar nol, yetkazib berishlarga nisbatan esa - aniq muddatida degan maqsadli ko‘rsatma amal qiladi. Bu chegaralarga yetish mumkin emasligi aniq, lekin bunga intilish va erishilgan natijalarda to‘xtab qolmaslik kerak. Bunday falsafani belgilovchi maxsus atama mavjud - «sifatni doimiy yaxshilash» [7,8].

TQM konsepsiyasining asosiy tamoyillari - sifat tizimlarini ishlab chiqish va qo‘llanish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma hisoblanadigan ISO 9000 standartida bayon etilgan.

ISO 9000 standartlari bo‘yicha qurilgan amaldagi sifat tizimlari, eng avvalo, sifatni boshqarishning ko‘p ilg‘or shakllari va usullaridan yaratilgan tizimlardir.

Demak, sifat tizimining rivojlanishini quyidagi sifat nazorat strukturasi asosida tasavvur etish mumkin(**1.1-rasm**).



1.1-rasm. Sifat nazorat strukturasi

Mashinasozlikda Total Quality Management (TQM) kompleks tizimini ko‘llash mashina mexanizm detallarining texnik ta’minot, uzluksiz takomillashtirish va rivojlantirish sifat ko‘rsatkichlarini oshirish omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. https://habr.com/ru/companies/mvideo/articles/762360/;
2. Standart “Ўзстандарт” агентлиги илмий-техник журнал. 1/2020. Standart. E-mail:smsiti@mail.ru. ISSN 2181-7634.
3. O’z DSt ISO/TS 16949:2011. Сифат менежменти тизими. Автомобилсозлик саноати ва ташкилотлари бутловчи қисмлар ишлаб чиқарувчиларга ISO 9001:2008 ни қўллаш бўйича махсус талаблар.
4. O’z DSt IATF 16949:2019. Сифат менежменти тизимлари. Автомобилсозлик саноати ва унга бутловчи қисмлар ишлаб чиқарувчи ташкилотлар учун сифат менежмент тизими талаблари. Халқаро автомобилсозлик сифати менежменти стандарти. (IATF 16949:2016, IDT). Расмий нашр. Ўзбекистон стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш агентлиги. Тошкент. 2019. – 49 б.
5. Мамажанов А.А., Хамдамов Б.Р., Жўраев З.Б. Автомобилсозликда маҳсулот ишлаб чиқаришни келишиш. Монография. Андижон. “Ҳаёт” нашриёти. 2020. - 184 б.

TA’LIM VA XIZMATLAR SOXASIDA STANDARTLASHTIRISHNING AXAMIYATI VA O’RNI

[1]E. E. ZOKIRJONOV, [2]S.X.Isroilova
[1,2]Farg’ona politexnika instituti
e-mail: elmurodzokirjonov21@gmail.com

Ta’lim to’g’risida Qonunda (1997 y.) ta’lim sohasida davlat sièsatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ―Davlat standartlari doirasida ta’limning hamma uchun ochiqligi‖ ko’rsatilgan.

Qonunga muvofiq Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatiga berilgan. Ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatlangan davlat idoralari davlat ta’lim standartlarining bajarilishini ta’minlashlari lozim.

Nizomga muvofiq standartlar ta’limning quyidagi turlari uchun o’rnatiladi:
– umumiy o’rta ta’lim, shu jumladan boshlang’ich ta’lim;
– o’rta maxsus, kasbiy ta’lim (akademik litseylar, kasb kollejlari);
– oliy ta’lim (bakalavriat, magistratura).

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayèrlash uchun davlat boshqaruvi vakolatli idoralari tomonidan belgilanadigan davlat talablari o’rnatiladi.

Nizomga asosan standartlashtirishning quyidagi ob’ektlari belgilangan

– ta’lim fanlari va predmetlarining tuzilmasi, mazmuni, o’quv yuklamasining hajmi, o’quvchilarning va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayèrlash sifati;
– talablar, me’èrlar va qoidalar, pedagogik va axborot texnologiyalari, o’qitish metodlari va vositalari, shuningdek ta’lim tizimida foydalaniladigan atamalar, tushunchalar va toifalar;
– o’quvchilarning bilim darajasini va kasbiy mahoratini aniqlash, bitiruvchilarning sifatini, pedagogik va ilmiy-pedagogik kadrlarning ta’lim faoliyatini tekshirish-aniqlash protseduralari.

Nizomda davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish, ko’rib chiqish va tasdiqlashning quyidagi tartibi belgilangan:
– davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish tanlov shartlari èki ta’limni boshqaruv vakolatli idoralari e’lon qiladigan innovatsion loyihalar asosida amalga oshiriladi;
– Kadrlar tayèrlash bo’yicha Milliy dasturni amalga oshirish Respublika komissiyasi standartning loyihasini ekspertiza qiladi va eksperimental tekshiruvni o’tkazadi;
– O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahamasi kadrlar tayèrlash Milliy dasturini amalga oshirish bo’yicha Respublika komissiyasining hulosasiga ko’ra davlat ta’lim standartini va unga kiritilgan o’zgartirishlarni tasdiqlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.08.2001 y. №343 qarori bilan quyidagi standartlar tasdiqlandi va jo-riy etildi:

O’z DSt 1006:2001 O’zbekiston Davlat standarti. O’zbekiston uzluksiz ta’lim davlat ta’lim standartlari. Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy nizomlar;

O’z DSt 1007-2001 O’zbekiston davlat standarti. O’zbekiston uzluksiz ta’lim davlat ta’lim standartleri . Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yunalishlari va mutaxassisliklari tasniflagichi.

O’z DSt 1006:2001 da oliy ta’lim to’g’risida asosiy tushunchalar (o’qitish me’èriy muddatlari, kasbiy ta’lim dasturi, ta’lim fanlari bloki, yakuniy davlat attestatlashi), bakalavriat va magistraturadan tashkil topgan oliy ta’lim tuzilmasi, ta’lim yo’nalishlari (mutaxassisliklar) bo’yicha kasbiy ta’lim dasturlarining mazmuniga talablar, talabalarning tayèrlik darajalariga talablar va bitiruvchilarga malakaviy talablar, o’quv yuklamasining hajmiga talablar, kadrlarni tayèrlash sifatini baholash tartibi va oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini baholash tartibi keltirilgan.

O’z DSt 1006:2001 da bakalavriatura va magistraturada o’qitish me’èriy muddatlari va o’quv vaqti umumiy hajmining taqsimoti o’rnatilgan.
Bakalavriatura yo’nalishlari va magistratura mutaxassislari bo’yicha kadrlarni tayèrlash sifatini tekshirish o’z tarkibiga ichki, yakuniy davlat, jamoa-davlat va tashqi tekshiruvlarni olishi lozim.

Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutahassisliklari tasniflagichida birinchi raqam mutaxassislik kodini, ikkinchi raqam yo’nalish kodini, uchinchi raqam – ta’lim sohasi kodini, to’rtinchi va beshinchi raqamlar – bilim sohasi kodini, oxirgi raqamlar ta’lim dasturlari darajasining kodini ifodalaydi. Masalan, ―Metrologiya, standartlashtirish va sertifi-katlashtirish‖ ta’lim yo’nalishi 5521600 kodi bilan ifodalangan.

Umumiy o’rta ta’lim davlat ta’lim standartlari (UO’TDTS) quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:

– davlat ta’lim standarti (DTS) talablarining davlat, jamiyat va shaxsiyat ehtièjlariga muvofiqligi;

– o’quv dasturlari mazmunining jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va fan va texnikadagi taraqqièt bilan o’zaro bog’liqlik;

– umumiy o’rta ta’limning boshqa ta’lim darajalari bilan uzluksizligi;

– ta’lim mazmunining respublikaning barcha hududlarida birliligi va butunligi;

– umumiy o’rta ta limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini aniqlashda innovatsion texnologiyalarga asoslanish;

– ta’lim bo’yicha qonunlar zamonaviy talablarining va pedagogikadagi an’anaviy qarashlarning birliligi;

– xorijiy demokratik davlatlarning ta’lim sohasida milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda me’èrlarni o’rnatish ilg’or tajribasidan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.V.Aripov. 0 ‘zaroalm ashinuvchanlik, standartlashtirish va texnik o'lchovlar. Toshkent. 0 ‘qituvchi. 2001 yil
2. Ochilov T.A., Ism atullayeva X.Z. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatsiya. Toshkent. Iqtisod-Moliya. 2007 y.
3. Abduqodirov G ‘ va b. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatsiya fanidan laboratoriya m ashg‘ulotlarini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyanoma..

ISHLAB CHIQARISH VA XIZMATLARDA XALQARO VA MILLIY STANDARTLARNING AHAMIYATI

[1]Muxammadxo‘jayeva S. [2] A’zamova O. [3]Madmarova U.
Farg’ona politexnika instituti

Annotatsiya

Ushbu maqola ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida xalqaro va milliy standartlarning hal qiluvchi roli va ahamiyatini o‘rganadi. Standartlar turli sohalarda sifat, xavfsizlik va samaradorlikning muhim mezonlari bo‘lib, izchillik, o‘zaro muvofiqlik va mijozlar ehtiyojini qondirishni ta'minlaydi. Standartlarning ishlab chiqarish jarayonlari va xizmatlar ko‘rsatishga ta'sirini o‘rganish orqali ushbu tadqiqot ularning savdoni osonlashtirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va sifatni boshqarishning umumiy amaliyotini yaxshilashdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro standartlar, milliy standartlar, sifat menejmenti, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmat ko‘rsatish, xavflarni kamaytirish, innovatsiyalar, muvofiqlik, bozor raqobatbardoshligi.

Annotation

This article explores the decisive role and importance of international and national standards in the field of production and services. Standards are important criteria for quality, safety and efficiency in various industries, ensuring consistency, consistency and customer satisfaction. By studying the impact of standards on production processes and services delivery, this study aims to highlight their importance in facilitating trade, encouraging innovation and improving overall quality management practices.

Keywords: International standards, National Standards, Quality Management, production processes, Service, Risk Reduction, innovation, compliance, market competitiveness.

Аннотация

В данной статье исследуется решающая роль и значение международных и национальных стандартов в сфере производства и услуг. Стандарты являются важными критериями качества, безопасности и эффективности в различных областях, обеспечивая согласованность, совместимость и удовлетворенность клиентов. Изучая влияние стандартов на производственные процессы и предоставление услуг, это исследование направлено на то, чтобы пролить свет на их важность для облегчения торговли, стимулирования инноваций и улучшения общих методов управления качеством.

Ключевые слова: Международные стандарты, национальные стандарты, управление качеством, производственные процессы, обслужи вание, снижение рисков, инновации, соответствие, конкурентоспособность на рынке.

Kirish

Xalqaro va milliy standartlar zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari landshaftini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu standartlar sifatni ta'minlash, me'yoriy hujjatlarga muvofiqlik va ishlashni optimallashtirish uchun umumiy asosni ta'minlaydi. Ushbu dissertatsiya standartlarni ishlab chiqish, qabul qilish va joriy etish asoslarini o‘rganadi, ularning mahsulot/xizmat sifatini ta'minlash, bozor raqobatbardoshligini oshirish va iste'molchilar ishonchini oshirishga ta'sirini ochib beradi.

Adabiyot sharhi

Adabiyotlarni ko‘rib chiqish xalqaro standartlar organlarining evolyutsiyasi, milliy sifat asoslarini ishlab chiqish va muvofiqlikni baholash tartib-qoidalarining ahamiyatiga oid tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u ishlab chiqarish jarayonlarida, xizmatlar ko‘rsatishda va ta'minot zanjirini boshqarishda standartlarga rioya qilishning afzalliklarini ta'kidlaydigan amaliy tadqiqotlarni o‘rganadi. Bundan tashqari, sharh barqarorlik, innovatsiyalar va global savdo munosabatlarini rag‘batlantirishda standartlarning rolini ko‘rib chiqadi.

Mavzuning metadalogiyasi

Metodologiya ayrim sohalardagi xalqaro va milliy standartlarning qiyosiy tahlilini, soha mutaxassislari bilan suhbatlar va manfaatdor tomonlarning standartlarning ahamiyati haqidagi nuqtai nazarini o‘rganish uchun so‘rovlarni o‘z ichiga oladi. Standartlarning ishlab chiqarish samaradorligi, xizmat ko‘rsatish sifati

va mijozlar ehtiyojini qondirishga ta'sirini baholash uchun sifat va miqdoriy ma'lumotlar tahlili o‘tkaziladi. Tadqiqot shuningdek, turli sohalarda standartlashtirish harakatlari bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlarni o‘rganadi.

Natijalar va muhokama

Natijalar turli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sharoitlarida xalqaro va milliy standartlarga rioya qilishning aniq afzalliklariga qaratiladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish standart muvofiqlik va yaxshilangan operatsion samaradorlik, xavfni kamaytirish va bozorni qabul qilish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Muhokamalar standartlarning innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ta'minot zanjiri barqarorligini oshirish va tashkilot obro‘sini oshirishga ta'sirini ta'kidlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu tezis ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida sifat, xavfsizlik va samaradorlikni oshirishda xalqaro va milliy standartlarning ajralmas rolini ta'kidlaydi. Standartlarni operatsion mukammallikning asosiy tamoyillari sifatida qabul qilgan holda, tashkilotlar eng yaxshi amaliyotlarga mos kelishi, tartibga solish talablariga javob berishi va mijozlar kutganidan oshib ketishi mumkin. Tadqiqot natijalari standartlashtirishga strategik yondashuvni qo‘llab-quvvatlab, uning doimiy takomillashtirish, raqobatbar doshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishdagi rolini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti 2017 yil.
2. Sh.Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti 2016 yil.
3. Konoplev S.P., Konopleva V.S. Menedjment prodaj: Ucheb. posob. – M.: INFRA-M, 2009. – 304 s.
4. Kane M.M., i dr. Sistemi, metodi i instrumenti menedjmenta kachestva: Uchebnik. – SPb.: Piter, 2009. – 560 s.
5. D.Sobirjonova, B.Sulaymonov “Menejment asoslari” TMI “Iqtisod - moliya” 2008 y.
6. Goncharenko L.P. Menedjment investitsiy i innovatsiy: uchebnik. – M.: KNORUS, 2009.
7. Ermakov V.P., Makiev Z.G. Menedjment dlya studentov vuzov. – Izd. 5-e. - Rostov n/D: Feniks, 2008. – 184 s.
8. Innovatsionniy menedjment: ucheb. posob. /Pod red. L.N. Ogolevoy. – M.: INFRA-M, 2008.
9. P.R.Ismatullaev, E.A.Ma’rufov, A.X.Abdullaev. Metrologiya, sertifikatlash va mahsulot sifat menejmenti. Toshkent, 2007 y.

KONDITSIONER SIFATINI ANIQLASH

[1]E. E. Zokirjonov, [2]M.Sotivoldiyeva
[1,2] Farg’ona politexnika instituti
e-mail: elmurodzokirjonov21@gmail.com

Konditsioner issiq kunda ortiqcha muammo hosil qilmasdan, o’z vazifalarini sifatli bajarishi uchun konditsioner tizimlariga texnik xizmat ko’rsatuvchi mutaxassisning fikriga ko’ra, birinchi navbatda – ichki blokning havo filtrlarini changdan tozalash va freon miqdorini tekshirish muhimdir.

Xo’sh, konditsionerning yaxshi ishlashi uchun nima qilish kerak:

-elektr tarmog’iga to’g’ri ulanganligini tekshirish;

-konditsionerning ichki blokidan tashqi blokiga kabel ulanishini tekshirish;

-suyuqlik tomishi holatlari bor-yo’qligini tekshirish va topilsa, nosozliklarni bartaraf qilish;

-havoni yetarli darajada sovutmayotgan bo’lsa, freon quyish;

-filtrni har oyda bir marta changdan tozalash;

-konditsionerning o’rnatilish sifatini tekshirish – bu uning ishlashiga ham ta’sir qilishi mumkin;

-drenaj shlangini tekshirish, u yerda chang, hasharotlar va hokazoalr to’planishi mumkin, bu esa suv oqimining pasayishiga yoki bekilib qolishiga olib kelishi mumkin;

-konditsioner yoqilgan xonadagi derazalar mahkam yopilganligiga ishonch hosil qilish – agar xonaga issiq havo kirsa, qurilma sovitishdan to’xtaydi;

-konditsionerning "terlayotgan"ligini tekshirish, buning sababi freonning yetishmasligi yoki motorning noto’g’ri ishlashi bo’lishi mumkin;

ko’chada joylashgan tashqi blokni barglar, chang va boshqa ifloslantiruvchi narsalardan o’z vaqtida tozalash.

Konditsionerni tanlashda hamda uni o’rnatish rejalashtirilgan xonaning kvadraturasini ham hisobga olish kerak, deb fikr bildirdi mutaxassis. Uskunaning ishlash sifati shunga ham bog’liq.

Ushbu standartda tegishli ta'riflar bilan quyidagi atamalar qo'llaniladi:

kanalli konditsioner: korpusga joylashtirilgan qurilma yoki xona yoki hududning (shartli makon) cheklangan maydoniga havo kanali orqali konditsioner havo berish uchun mo'ljallangan qurilmalar.

Eslatma - Bu havoni sovutish va quritish uchun asosiy sovuq manbani o'z ichiga olgan monoblok yoki alohida (split) tizim bo'lishi mumkin. Shuningdek, u isitish vositalarini ham o'z ichiga olishi mumkin (boshqaissiqlik pompasi), shuningdek aylanish, tozalash, namlash, shamollatish yoki olib tashlash uchun vositalar havo. Bunday uskunada birgalikda ishlash uchun mo'ljallangan bir nechta birlik va alohida birliklar (split tizimlar) bo'lishi mumkin. Kanalli issiqlik pompasi: korpusda joylashgan qurilma yoki havo kanali orqali xonaning yoki hududning (shartli makon) cheklangan maydoniga konditsioner havoni ta'minlash uchun

mo'ljallangan qurilmalar, shu jumladan shu jumladan isitish uchun ishlatiladigan sovuqning asosiy manbasidan foydalanish. Izoh Shartli makondan issiqlikni olib tashlash va keyin issiqlikni tarqatish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Bunday holda, sovutish va namlikni bir xil ishlatish afzaldir uskunalar. Shuningdek, aylanish, tozalash, namlash, shamollatish uchun vositalarni ham o'z ichiga olishi mumkin yoki havoni olib tashlash. Bunday uskunada birgalikda ishlash uchun mo'ljallangan bir nechta birlik va alohida bloklar (split tizimlar) bo'lishi mumkin.

Standart havo: 20°C da quruq havo va standart barometric bosim 101,325 kPa, massa zichligi 1,204 kg / m3.

Umumiy sovutish quvvati: ma'lum bir vaqt oralig'ida jihozlar shartli makondan olib tashlashi mumkin bo'lgan sezgir va yashirin issiqlik miqdori.

Isitish quvvati: Uskuna tomonidan chiqarilgan issiqlik miqdori ma'lum vaqt ichida konditsionerli xonaga.

Eslatma - Issiqlik chiqishi Vt bilan ifodalanadi.

Yashirin sovutish quvvati: yashirin issiqlik miqdori, uskunaning ma'lum vaqt oralig'ida shartli makondan olib tashlashi mumkinligi.

1 Yashirin sovutish quvvati ba'zan xonani quritish qobiliyati deb ataladi.

2 Yashirin sovutish quvvati Vt bilan ifodalanadi.

3.7 sezgir sovutish quvvati: ma'lum bir vaqt ichida jihozlar shartli makondan olib tashlashi mumkin bo'lgan sezgir issiqlik miqdori vaqt.

1) Ushbu standartda kanalli konditsioner va kanalli issiqlik pompasi "tarmoq uskunasi" yoki "tarmoq qurilmalari" deb ham ataladi. ГОСТ 32969-2014

Ushbu standart kanalli konditsionerlar va havo-havo issiqlik nasoslarining ishlashi va samaradorligini baholash uchun standart shartlarni belgilaydi.

Ushbu standart reytinglarni aniqlash uchun sinov usullarini belgilaydi

ishlash va samaradorlik, shu jumladan monoblok va split ("split") konditsionerlar va issiqlik nasoslari. Ushbu standart turar-joy, savdo va sanoat binolariga o'rnatilgan uskunalarga nisbatan qo'llaniladi. Uskunalar (konditsionerlar va/yoki kanalli issiqlik nasoslari) zavodda ishlab chiqarilgan bo'lishi va elektr haydovchi va mexanik kompressor.

Ushbu standart bir yoki bir nechta uskunani ishlatadigan qurilmalarga nisbatan qo'llaniladi sovutish tizimlari, bitta tashqi blok va alohida termostat yoki kontroller tomonidan boshqariladigan bir yoki bir nechta ichki birliklar. Ushbu standart uskunalar uchun amal qiladi bir, bir nechta yoki o'zgaruvchan sonli komponentlardan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1].SHishkin V.P., Zakuraev V.V. Osnovы proektirovaniya stanochnыx prisposobleniy. Teoriya i zadachi. Moskva 2010 g.Bez’yazыchnыy V.F. Raschet rejimov rezaniya. Rыbinsk 2009 g.Kasilova A.G, Mesheryakov R.K. Spravochnik texnologa mashinastroitelya.

[2] M.: Mashinostroenie, 1985-496s.M.A.Anserov Prisposobleniya dlya MRS – 1975.

[3] Goroxov V.A Proektirovanie i rasshet prisposobleniy.V. E. Avramenko, YU. YU. Terskov. Raschet pripuskov i mejperexodnых razmerov SFU, 2007.

IQTISODIY MUNOSABATLARDA-TOVARLARNING ISTE’MOL QIYMATLILIGINI STANDARTLAR ORQALI TAHLIL QILISH.

[1]E.E.Zokirjonov, [2]S.X.Isroilova
[1,2]Farg’ona politexnika instituti

Annotatsiya: ushbu maqolada bozor iqtisodiy munosabatlarida tovarlarning iste’mol qiymati, iste’mol xususiyatlari, iste’molchi va ishlab chiqaruvchi o’rtasidagi savdo munosabatlarining tahlili keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: iste’mol, tovar, mahsulot, iqtisod, bozor, raqobatbardoshlilik, almashuv, savdo, sifat.

Bugungi kunda, samarali raqobat muhitini yaratish hamda tovarlar va xizmatlar bozoridagi monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish vazifalarini hal etish uchun ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi yillarda tadbirkorlik faoliyati sohasida 86 ta ayrim litsenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-tamoyillari, shu jumladan 38 ta turini 16 taga birlashtirish, 25 ta turi bo‘yicha rasmiylashtirish muddatlarini qisqartirish hamda 14 ta lisenziya va ruxsat beruvchi hujjatlarni berishni markazlashtirish orqali bekor qilindi va soliq yuki kamaytirildi.

Tadbirkorlik sohasi izchil rivojlanayotgani qayd etilmoqda, so‘nggi uch yilning o‘zidayoq amaldagi tadbirkorlik sub’yektlari soni 25 foizga oshdi.

Tovarni vujudga keltirgan mehnatning foydali shakllari inson hayoti, uning tuzilishi, hajmi tovar xususiyatlari bilan aloqador ekanligini tasdiqlaydi. Binobarin, tovar iste’mol qiymatining ikki xil xususiyati bor: birinchidan, tovarning tashqi xususiyati bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar; ikkinchidan, tovarning jami xususiyatlari majmui bilan inson ehtiyojlari o‘rtasidagi munosabatlar. Iqtisodiyot nazariyasi barcha tovarlarni iste’mol xususiyatiga qarab ikki katta guruhga bo‘ladi:

1) ishlab chiqarish iste’moli buyumlari,

2) shaxsiy iste’mol buyumlari.

Birinchi guruhdagi tovarlar, ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy elementlari takror ishlab chiqarishda ishtirok ettiriladi; ikkinchi guruhdagi tovarlar esa bevosita ishlab chiqaruvchilarning ish kuchini tiklash, takror ishlab chiqarish va jamiyatning boshqa a’zolari iste’mollari uchun ishlatiladi.

Iste’mol qiymati tovarning boshqa tovar bilan ayriboshlanish imkonini bergani uchungina o‘zining ishlab chiqaruvchisini qiziqtiradi. Tovarlarning almashinish xususiyati ularning almashuv qiymati deb ataladi. Almashuv qiymati nimaga asoslanadi? Muayyan nisbatda tovarlarning ayriboshlanishi ularning miqdor jihatdan taqqoslanishini bildiradi.

Shuni aytish kerakki, tovarning iste’mol qiymati ma’lum iqtisodiy munosabatlarni – tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi ayirboshlash munosabatlarini anglatadi. Agar iste’mol qiymati mazkur tovarni sifat jihatdan ifodalasa, almashuv qiymati tarzida miqdor jihatini ifodalaydi. Lekin almashuv qiymati tovarning alohida uchinchi xususiyati emas. Almashuv qiymati tovar xususiyatlarining amalda namoyon bo‘lishidir, hayotda, almashuv jarayonida ifodalanishidir, uning ko‘rinish shaklidir. Ayirboshlash, albatta, tovarlar o‘rtasida o‘zaro tenglikni o‘lchovni taqozo etadi. Tovarlarni tenglashtirish uchun asos bo‘ladigan omil ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnatdir.

Miqdor jihatdan baravarlashtirish esa hamisha sifat jihatdan umumiy yagona biron-bir narsa borligini taqozo etadi. Narsa iste’mol qiymati bo‘lishi mumkin, lekin bunday holat har qanday iste’mol qiymatiga ega bo‘lgan narsa tovar bo‘laveradi ma’nosini bildiradi degan gap emas. Havo, qo‘riq yer, tabiiy o‘tloqlar, to‘qayzorlar kabilar shular jumlasidandir. Narsa foydali va kishi mehnatining mahsuli bo‘lishi, ammo u tovarga aylanmasligi ham mumkin.

O‘z mehnat mahsuloti bilan ehtiyojini qondiruvchi kishi tovar emas, balki iste’mol qiymatini yaratadi. Chunki yaratilgan mahsulot tovar bo‘lmaganligi uchun bozorga chiqarilmaydi,

Demak, mahsulot faqat iste’molni qondirish yo‘li bilan tovar bo‘lib qolmaydi, chunki uni inson o‘z mehnati orqali yaratishi kerak. Tovar boshqalar ehtiyojini qondirishga, ya’ni oldi-sotdiga mo‘ljallab ishlab chiqarilgan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, inson mehnati tufayli yaratilgan mahsulot tovar bo‘lishi uchun quyidagi ikki xususiyatga ega bo‘lishi kerak:

1) iste’mol qiymatiga ega bo‘lishi, ya’ni insonning biron-bir ehtiyojini qondirishi shart;

2) almashuv qiymatiga, ya’ni boshqa tovarga ma’lum miqdoriy nisbatda ayirboshlash uchun xizmat qilishi kerak.

Tovarning bu xususiyatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Demak, tovar iste’mol qiymat tariqasida iste’mol uchun, almashuv qiymati tariqasida sotish uchun ishlab chiqariladi.

Yuqoridagi tahlillardan, tovarlarda ikkiyoqlama sifat, ya’ni iste’mol qiymati va almashuv qiymati borligi ma’lum bo‘ldi. Buning sababi tovar ishlab chiqaruvchi mehnati xususiyatlarining ikki tomonlamaligiga bog‘liqdir. Bir tomondan, bu – muayyan turdagi mehnatdir. Demak, har bir tovarning iste’mol qiymatida maqsadga muvofiqlashgan muayyan ishlab chiqarish faoliyati, ya’ni foydali mehnat bor. Demak, iste’mol qiymatlarini yaratuvchi kishilarning foydali mehnati ularning uchun shartdir, abadiy tabiiy zaruriyat-dir: mehnat qilinmaganda kishi bilan tabiat o‘rtasida modda almashinuvi sodir bo‘lmas, ya’ni kishilarning hayot kechirishi mumkin bo‘lmas edi. Bunday holat o‘ziga xos mehnat quroli va predmetlari-ning qo‘llanilishi, ishlab chiqaruvchilarning kasbiy malakasini taqozo etadi va u mutlaqo aniq natija – muayyan iste’mol qiymati bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Круглов Г.Н., Круглова Г.В. Товароведение мясных и яичных торгов.
2. Товароведение молочных товаров и пищевых концентратов: Учебник, - 2-е изд - М.: Издателсво торговая корпорасия «Дашков и К˚» 2006. - 488 с.
3. Петрище Ф.А. Теоретические основы товароведения и экспертизы непродоволственных товаров: Учебник; - 2-е изд., испр. - М.: Издателско-торговая корпорасия «Дашков и К˚», 2006. - 510 с.
4. Товароведение и экспертиза потребительских товаров: Учебник.-М.: ИНФРА-М, 2006. - 544 с.

STANDART, O’ZARO ALMASHINUVCHANLIK, QO’NIM VA QO’YIMLAR (ДОПУСКИ И ПОСАДКИ) TIZIMI XAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR

[1]N.Y. Mamasodiqova, [2]J.I.Muxammadova
[1]Farg’ona politexnika instituti
[2]Farg’ona politexnika instituti (66-20 guruh talabasi)

Nol chizig’i - nominal o’lchamni bildiruvchi chiziq bo’lib, joizliklarni va o’tqizmalarni grafik usulida tasvirlashda o’lchamning og’ishi shu chiziqdan boshlab belgilanadi, Agar nol chiziq gorizontal joylashgan bo’lsa, 11 holda musbat og’ishlar bu chiziqdan yuqorida, manfiy og’ishlar esa pastida yozib belgilanadi. Ikki yoki bir necha qo’zg’aluvchan yohud qo’zg’almas qilib biriktirilgan detallar tutashuvchi detallar deb ataladi.

Val — detallaming tashqi (qamranuvchi) elementlarini belgilash uchun o’tqizmalar tizimida qo’llaniladigan atama.

Teshik — detallaming ichki (qamrovchi) elementlarini belgilash uchun o’tqizmalar tizimida qo’llaniladigan atama.

Teshik va val atamalari nafaqat doiraviy kesimli silindrik detallarga, balki boshqa shaklga ega bo’lgan detallar, masalan, ikki parallel tekisliklar bilan chegaralangan (shponka, shponka ariqchasi) elemenilarga ham taalluqlidir.

Asosiy val - yuqori og’ishi nolga teng bo’lgan val (es=0).

Asosiy teshik — quyi og’ishi nolga teng bo’lgan teshik (EI=0).

Qamrovchi va qamranuvchi yuza o’lchamlariningjoizliklarini qisqartirib teshik joizlikligi TD va val joizlikligi Td deb ataladi.

O’tqizma deb, detallar o’zaro biriktirilganda ular orasida hosil bo’ladigan tirqishlar yoki tarangliklar qiymati bilan aniqlanadigan birikma xususiyati ataladi. O’tqizma biriktirilgan detallar bir-biriga nisbatan siljishi erkinligi yoki siljishga qarshilik darajasini ta’riflaydi. Teshik va vai joizlik maydonlari bir-biriga nisbatan joylashishiga qarab, o’tqizmalar **tirqishli**, **taranglik** bilan yoki **o’tuvchan** bolishi mumkin.

Tirqishli otqtema — detallar birikmasida tirqish hosil bo’ladigan o’tqizma (teshikning joizlik maydoni valning joizlik maydoni ustida joylashgan). Tirqishli

o’tqizmalar sirasiga, shuningdek, teshik joizlik maydonining quyi chegarasi val joizlik maydonining yuqori chegarasiga mos keladigan o’tqizmalar ham kiradi.

Taranglik bilan o’tqizma — detallar birikmasida taranglik hosil bo’ladigan o’tqizma (teshikning joizlik maydoni val joizlik maydonining pastida joylashgan).

O’tuvchan o’tqizma — detallar birikmasida ham, tirqishda ham taranglik hosil bo’lishi mumkin bo’lgan o’tqizma (teshik va valning joizlik maydonlari o’zaro qisman yoki to’liq qoplanadi). Har xil o’tqizmalar joizlik maydonlarining joylashishi.

Tirqish S — teshik o’lchami valning o’lehamidan katta bo’lgan hollarda teshik va val oichamlarining o’zaro farqlanishi bo’lib, u biriktirilgan detallaming bir-biriga nisbatan erkin siljishini ta’minlaydi. Eng katta, eng kichik va o’rtacha tirqishlar quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$S_{mak} = D_{max} - d_{mun}$$

$$S_{min} = D_{min} - d_{max}$$

Taranglik — val o’lchami teshikning o’lehamidan katta bo’lgan hollarda ularni yig’ishdan oldingi val va teshik o’lchamlarining o’zaro farqidir. Yig’ishdan oldin deyilganining sababi shuki, yig" Ugandan keyin biriktirilgan detallaming o’lchamlari o’zgaradi va teshik valni qisib qoladi. Bu holda ularning o’lchamlari elastik deformatsiya tufayli yig’ilishdan oldingi o’lchamlarda farqlanib, taranglik bilan biriktirilgan detallaming bir-biriga nisbatan qo’zg’almasiigini ta’minlaydi.

$$N_{max} = d_{max} - D_{min}$$

$$N_{min} = d_{min} - D_{max}$$

O’tqazishdagi joizlik — birikmani tashkil etuvchi teshik va valning Joizliklari yig’indisi, ya’ni TS(TN)=TD+Td. O’tqizishdagi joizlik eng katta va eng kichik joiz tirqishlar ayirmasiga (tirqishli o’tqizmalarda tirqish joizlikligi TS

$$\text{TS} = S_{max} - S_{min}$$

voki eng katta va eng kichik joiz tarangliklar ayirmasiga (tarangiikii o’tqizmalarda taranglik joizlikligi TM)

$$\text{TN} = N_{max} - N_{min}$$

teng. O’tuvchan o’tqizmalarda esa o’tqizmadagi joizlikning mutlaq qiymati bo’yicha olingan eng katta tirqish va eng katta tarangiiklar yig’indisiga teng bo’ladi.

$$\text{T(S, N)} = |S_{max}| + |N_{max}| = \text{TD+Td.}$$

O’zbekiston Respublikasida qabul qilingan Davlat standartiga binoan joizliklar va o’tqizmalarning yagona tizimi (JO’YaT) qabul qilingan. Bu tizim ISO (Xalqaro standartlashtirish tashkiloti) ning tavsiyalariga asoslangan. JO’YaTda 1 mm. dan kichik o’lchamlar, 1 dan 500 mm. gacha, 500 dan 3150 mm. gacha, 3150 dan 10000 mm. gacha bo’lgan o’lchamlar uchun joizliklar va o’tqizmalar joriy qilingan.

Joizliklar va o’tqizmalar tizimi deb tajriba va nazariy tadqiqotlar asosida qonuniy qurilgan hamda standartlar shaklida rasmiylashtirilgan joizliklar, o’tqizma qatoriarining majmuyiga aytiiadi. Tizim zarur bo’lgan, minimal lekin amaliyotga yetarli mashina dctallari namunaviy birikmalarining joizlik va o’tqizmalari variantlarini tanlab olish uchun mo’ljallangan. Ushbu tizim kesuvchi va o’lchovehi asboblarni standartlashtirish, loyihalashni osonlashtirish, buyum va ularning qismlarini ishlash, o’zaro almashinuvchanligini ta’minlashga imkon beradi hatnda ularning sifatini oshirishda muhim omil bo’ladi. Hozirgi kunda dunyoning aksarivat davlatlarida ISOning joizliklar va o’tqizma tizimlari qo’llanadi. ISO tizimlari milliy tizimlarni unifikatsivalash (bir xillashtirish) uchun yaratilgan.

O’zaro almashinuvchanlik deb, mashinalar, moslamalar va boshqa buyumlarning bir-biridan mustaqil ravishda, belgilangan aniqliklarda tayyorlangan detallari va tarkibiy qismlaridan, qo’yilgan texnikaviy shartlami bajargan holda qo’shimcha ishlov bermasdan turib detallardan tarkibiy qismlar, tarkibiy qismlardan esa buyumlar vig’ishni (yoki ta’mirlashda almashtirishni) ta’minlaydigan xossaga ataladi. O’zaro almashinuvchanliktashqi va ichki bo’iishi mumkin.

Tashqi o’zaro almashinuvchanlik — murakkab buyumlarga o’rnatiladigan tayyor va yig’ma qismlarning foydalanish ko’rsatkichi bo’yicha, shuningdek, birgalikda ishlaydigan qismlar va buyumlarga birlashtiriladi- gan yuzalarning o’lchamlari hamda shakli bo’yicha o’zaro almashinuv- chanligidir. Demak, tashqi o’zaro almashinuvchanlik deb, xarid qilingan hamda koo’peratsiya bo’yicha olingan (boshqa murakkabroq buyumlarga o’rnatiladigan) va yig’ma qismlarning foydalanish ko’rsatkichiari qo’shiladigan yuzalarining shakllari o’lchamlari bo’yicha o’zaro almashinuvchanligi tushuniladi.

Ichki o’zaro almashinuvchanlik deb, qismlarning tarkibiga kirgan alohida detallarning yoki buyum tarkibiga kiruvchi qismlar va mexanizmlarning o’zaro almashinuvchanligi tushuniladi. Masalan, g’ildirash podshipnigining g’ildirovchi jismlari va halqalari ichki o’zaro almashinuvchanlikka ega. O’zaro almashinuvchanlik o’z navbatida to’liq va chala (cheklangan) bo’ladi.

To’liq o’zaro almashinuvchanlik deb, buyumlarning talab etilgan darajada sifatli bo’Iishi uchun detallarning geometrik, mexanikaviy, elektr va boshqa ko’rsatkichlari birlashtiriladigan har qanday tarkibiy qismlarni qo’shimcha ishlovsiz, moslamasdan, tanlamasdan yoki rostlamasdan yig’ishga (yoki ta’mirlashda almashtirishga) imkon beradigan aniqlikda bajarilganda amalga oshuvchi o’zaro almashinuvchanlik ataladi.

To’liq o’zaro almashinuvchanlik yig’ish jarayonini osonlashtiradi, ya’ni, ushbu jarayon malakasi past bo’lgan ishchilar ham bajara oladigan detallarni bir-biriga oddiy qo’shish operatsiyasiga aylanadi; yig’ish ishlari vaqtini me’yorlash, ishni kerakli sur’atda joriy qilish, oqim usulini qo’llash imkoniyatlari yuzaga keladi, detallarni tayyorlash va yig’ish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun sharoitlar tug’iladi; buyumlarni ta’mirlash osonlashadi, chunki yeyilgan, singan detal yoki yig’ma qism o’rniga osongina yangi (ehtiyot) qism o’rnatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. Ismatullayev P.R., Abdullayev A.X., Qodirova Sh.A., Azamov A.A., Miraliyev A.K., Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish.Ma’ruza matni. Toshkent,TDTU,2000y.

[2]. Ismatullayev P.R., Qodirova.Sh.A. “Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish”,ma’ruzalar matni,Toshkent, TGTU2007.

[3]. Abdullaev A.X., Kodirova SH.A., A’zamov A.A. Metrologiya, standartizatsiya sertifikatsiya. Uchebnoe posobie, Tashkent, 2003.

SIFAT MENEJMENTI TIZIMI TO‘G‘RISIDAGI TA’LIMOT TARIXI

[1]N.Y. Mamasodiqova, [2]J.I.Muxammadova
[1]Farg’ona politexnika instituti
[2]Farg’ona politexnika instituti (66-20 guruh talabasi)

ГОСТ 15467-79 “Mahsulot sifatini boshqarish. Asosiy tushunchalar. Atama va tariflar”ga muvofiq sifat deyilganda mahsulot xossalarining majmui tushuniladi, bu xossalar mahsulot qanday maqsadlarga mo‘ljallanganligiga muvofiq ravishda uning muayyan ehtiyojlarni qondirishga yaroqliligini ta’minlaydi.Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotning (ISO 8402-94 standarti) talqin etishiga ko‘ra sifat – mahsulot yoki xizmatlarning xossalari va tavsiflarining majmui bo‘lib, ular ushbu mahsulot yoki xizmatlarga ular qondirishi shart bo‘lgan yoki kutilayotgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini baxshida etadi.Mahsulot sifatining mohiyatini yanada to‘laroq tavsiflash uchun u bilan bog‘liq quyidagi tushunchalarni aniqlash zarur: mahsulotning texnik darajasi; sifat halqasi; sifat ko‘rsatkichlari; tovarning raqobatbardoshligi.

Mahsulotning texnik darajasi – mahsulot sifatining nisbiy tavsifi bo‘lib, baholanayotgan mahsulotning texnik jihatdan mukammalligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning qiymatlarini tegishli bazaviy ko‘rsatkichlarning qiymatlari bilan solishtirishga asoslangan. Mahsulotning texnik darajasi mahsulot sifatining tarkibiy qismi hisoblanadi, turli ko‘rsat-kichlarda aks ettiriladi va original konstruktorlik yechimlarni qo‘llash, yangi materiallardan foydalanish, ishlab chiqarishning ilg‘or texnologik jarayonlarini joriy etish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini nazorat qilish natijasida oshiriladi.

Sifat ko‘rsatkichlari – mahsulot ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liq majmui bo‘lib, uning qanday maqsadlarga mo‘ljallanganligi, ishonchliligi, texnologikligi, standartlashtirish va unifikatsiyalash darajasi, estetik, ergonomik, ekologik xossalari, patent-huquqiy jihatlari, tashishga yaroqliligi, xavfsizligi va iqtisodiy parametrlarini tavsiflaydi.

Tovarning raqobatbardoshligi – buyumning sifati va qiymatining tavsiflari ushbu bozorning talablariga va iste’molchilarning baholariga yuqori darajada muvofiqligi tufayli uning xuddi shu turdagi va ayni shunday maqsadlarga

mo‘ljallangan boshqa buyumlarga nisbatan iste’mol uchun ancha o‘ziga tortadigan bo‘lish qobiliyati.

Sifatni boshqarish tizimini rivojlanish tarixi

Xalqaro standartlar asosida sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy qilishda bajarilayotgan ishlarni yanada oydinlashtirish uchun sifat tizimining tub mohiyati hamda uning evolyusion paydo bo‘lishi to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Eng avvalo sifatni boshqarish tizimi sifatli mahsulotlar tizimi sifatida ko‘rilmasligini ta’kidlash o‘rinli.

Analitiklarning izohlari bo‘yicha sifat tizimini "korxona" deb atalmish organizmning muhim bir tashkil etuvchisi deb qaralishi mumkin. Nerv yoki qon aylanish tizimi organizm hayotiyligini belgilashda qanday o‘rin egallasa, sifat siyosati nuqtai-nazaridan sifat tizimi shu kabi ahamiyatga ega hisoblanadi. Tizim sifat siyosati belgilangan tamoyildan har qanday jiddiy chetlashuvlarni tezkor ta’sirchan oldini olish va keng qamrovlilik xususiyatlariga ega bo‘lishi lozim sanaladi.

Eramizdan avvalgi 2150 yildan boshlab sifat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ro‘yxatga olib borish tarixchilar tomonidan qayd etilgan. Bobilning miloddan avvalgi 1792-1750 yillardagi shohi Xammurapining adolatpesha qonunlari majmui, undan ham qadimroq shoh Ur-Nammu (miloddan avvalgi 2112-2094 yillar)ning qonunlari. Xammurapi 229 kodeksidan bizga ma’lumki, qurilgan bino va inshoatlarning buzilish holatlari yuzaga kelsa va buning natijasida odamlar shikastlansa yoki bino tomonidan biron zarar yetkazilsa, quruvchilar og‘ir jarimalarga duchor qilinar, masalan: biron odam nobud bo‘lsa, binokor qattiq jazolanar, hattoki qatl qilinar edi.

Bunga o‘xshash tamoyillar Finikiyaliklarda ham uchrar edi: Finikiya sifat nazoratchisi (auditori) belgilagan sifat talabdaridan chetlashgan, yo‘l qo‘ygan xatosi uchun boshqa qaytarilishining oldini olish maqsadida ishlab chiqaruvchining qo‘lini kesish jazosini buyurar edi.

Turkiyada shox Boyazid II, Ixtisabi, Bursa xukmronligi davrida buyoqlarning rangi, joylashishi, tovarlar sifati bo‘yicha turli farmonlar chiqarilgan. Ba’zan bu farmonlarda muayyan qoidalarni buzganlik uchun jazolar ham belgilanganligining shohidi bo‘lish mumkin.

Xitoy imperatorlari, ishlab chiqaruvchi va tovarlarni keyingi kuzatuvchanligini ta’minlash maqsadida, ishlab chiqaruvchilardan o‘z tovarlariga muhr bosishlarini talab qilar edilar. Agar tovar qo‘yilgan talablarga javob bermasa, jazo qo‘llanilar edi (ko‘p hollarda o‘lim jazosi). O‘sha davrlarda ham sifat va nav (sort) masalalariga jiddiy e’tibor berilgan. U davrlarda buyum va tovarlar navlarga bo‘linmagan bo‘lsa ham ishlab chiqilgan davlat, hudud ba’zan ustaning nomi bilan bog‘lab sotuvga chiqarilgan (Iroqi sovun, eron gilami, xitoy ipagi va x.k.). ishlab chiqaruvchilar “Sifat” mehnat talab etishini, kam mehnat bilan yuqori darajadagi sifat olish mumkin emasligini yaxshi anglaganlar.

Yaroqsizlikni ajratib olish fazasi. Ushbuga bo`lgan davrda hunarmandlar va ustalar o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida uni tayyorlash uchun tarkibiy bo‘laklar va buyumlarni bir-biriga moslashtirib emas, balki tasodifiy, duch kelganini

qo‘llashni joriy etganlar. Ushbu davrdan yondashuv aksiga o`zgaradi. Ya’ni, buni o‘zaroalmashuvchanlik tarzida ko‘rish mumkin. Bunda turli kalibrlar, o‘lchovlardan foydalanilgan. Mos kelmaganlari yaroqsiz (brak) sifatida chiqarib tashlangan.

Mazkur usulda keng miqyosda mahsulot ishlab chiqarish XIX asrning 70 yillariga to‘g‘ri keladi. Uning ilk namoyondalari Semyuel Kolt zavodi hisoblanadi. Keyinchalik XX asrning boshlarida Genri Martin Leland (“Kadillak” firmasi asoschisi) va Genri Ford bu usulga o‘tishni joriy etganlar. G.Leland avtomobilsozlikda birinchilardan bo‘lib “o‘tuvchi” va “o‘tmaydigan” kalibrlarni qo‘llay boshlagan.

1908 yil Britaniya avtomotoklubi ekspertlari tasodifiy ravishda Angliyaga yuborilgan “Kadillak” avtomobillarining partiyasidan 3 tasini ajratib olib, ularni oxirgi murvatigacha yoyib tashlaganlar. Barcha detallarni bir joyga to‘plab, ularning ba’zilarini sotuvga yuborilgan ehtiyot qismlari bilan almashtirib, avtomobillarni yana qaytadan yig‘ganlar. Ikkita avtomobil birinchi urinishdayoq ishga tushgan, bittasi esa ikkinchi urinishda ishga tushgan. Avtomobillar sifati bir xil darajada ekanligi isbotlangandan so‘ng, avtoklub “Kadillak” firmasini maxsus diplom va “Standartlashtirilganligi uchun” yozuvli kumush kubok bilan taqdirlagan. Shundan keyin “Kadillak” avtomobillarida firmaning gerbi tushirilgan belgida “Standart of the world” (“Jahon uchun namuna”) yozuvi paydo bo‘lgan.

Ko‘pgina mamlakatlarda shiddatli iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda mahsulot sifati muammolariga nisbatan munosabatlar jiddiy ijobiy tomonga o‘zgartirila boshlanib, tabiiy fanlar bilan bir qatorda sifatni boshqarishga ham ilmiy yondoshila boshlandi.

1905 yilda birinchi sifatni boshqarish tizimi - Teylor tizimi paydo bo‘ldi. U buyum (detal)lar sifatiga dopusklar ko‘rinishida talablarni o‘rnatib, alohida olingan har bir buyumning sifatini boshqarish tizimini yaratdi. Teylor tizimining amaldagi muvaffakiyatini ta’minlash borasida sifat sohasida ilk mutaxassislar - inspektorlar faoliyat olib bora boshladilar.

Sifatni boshqarish fazasi. Mazkur rivojlanish fazasi oldingi asrning 20-yillaridan boshlanadi. Uning asosiy maqsadi oldingi faza shakllariga xos nomutonosibliklarni garchand butkul bartaraf etilmasa ham, salmog‘ini kamaytirish etib qo‘yilgan.

1924 yilning may oyida “Vestern Elektrik” firmasining (AQSh) texnik nazorat bo‘limi xodimi V.Shuxart sifatni boshqarishda statistik usullari asoslangan nazorat xaritalarini qo‘llash taklifini ishlab chiqdi (2.1-rasm).

V.Shuxart muhandislar, ekspertlar va menejerlarga asosiy e’tiborni alohida nomutonosibliklar va defektlardan jarayon variatsiyalariga (belgilangan rejimdan chetlanish holatlariga) qaratish taklifini berdi. Unga ko‘ra ikki muhim holat inobatga olinishi kerak:

– aybdorlarni izlash kerak emas, balki, barcha aloqador shaxslarni jalb etgan holda nomutanosibliklar sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish lozim;

nomutanosibliklar va defektlarning sababi jarayonlar variatsiyasi deb bilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. Ismatullayev P.R., Abdullayev A.X., Qodirova Sh.A., Azamov A.A., Miraliyev A.K., Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish.Ma’ruza matni. Toshkent,TDTU,2000y.
[2]. Ismatullayev P.R., Qodirova.Sh.A. “Metrologiya standartlashtirish va sertifikatla shtirish”,ma’ruzalar.matni,ToshkentTGTU2007 ,
[3]. Abdullaev A.X., Kodirova SH.A., A’zamov A.A. Metrologiya, standartizatsiya sertifikatsiya. Uchebnoe posobie, Tashkent, 2003.

TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASIDA STANDARTLASHTIRISH AHAMIYATI

[1]P. B. Parpiyev, [2]S. X. Isroilova
[1,2]Farg’ona politexnika instituti
E-mail:saodatxon.ferpi@gmail.com

XEI telekommunikatsiya standartlashtirish sohasidagi xalqaro hukumatlararo tashkilotdir. Tashkilot 500 dan ortiq davlat va nodavlat tashkilotlarini birlashtirgan. U turli mamlakatlarning telefon, telekommunikatsiya va pochta vazirliklari, idoralari va idoralari, shuningdek, telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish uchun uskunalar yetkazib beruvchi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi. XEIning asosiy vazifasi global televizion tarmoqlar va ularning xizmatlarini qurish va ulardan foydalanish bo‘yicha xalqaro muvofiqlashtirilgan qoidalar va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirishdan iborat. 1947-yilda XEI Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligi maqomini oldi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va “Elektron hukumat” tizimini iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, ijtimoiy sohada hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish jarayoniga faol joriy etish hamma joyda zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va uning barqaror faoliyatini ta’minlashni talab qiladi. Bunda aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya xizmatlarining ishonchliligi va sifati alohida ahamiyat kasb etib, ularning buzilishi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.Telekommunikatsiya tarmoqlarining barqaror va ishonchli ishlashini ta’minlash, belgilangan standartlar va normativlarga muvofiq ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, shuningdek, iste’molchilar huquqlarining himoya qilinishini ta’minlash maqsadida vazirlar mahkamasining qarorlari mavjud. Standartlashtirish – haqiqatda mavjud yoki potentsial vazifalarga nisbatan umumiy va ko'p karrali foydalanish uchun qoidalarni belgilash vositasida muayyan sohada tartibga keltirishning optimal darajasiga erishishga qaratilgan ilmiy-texnik faoliyat. Aloqa va axborotlashtirish sohasida standartlashtirish bo'yicha faoliyatni boshqarish va ishlarni muvofiqlashtirishniO‘zbekistonRespublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarinirivojlantirishvazirligi amalga oshiradi. Aloqa va axborotlashtirish sohasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish va o'tkazish uchun: «UNICON.UZ». Jahon bozori bugungi kunda sifati jihatidan yangi

bosqichniboshidan kechirmoqdaki, uning o‘ziga xos xususiyati integratsiyalashuv bo‘lib, u ishlab chiqarishning rivojlanishi turli darajalarda bo‘lgan mamlakatlarning bu jarayonda o‘z o‘rnini topish imkonini bermoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti xo‘jalik yurituvchisubyektlarining mahsulot sifatini oshirishi maqsadga yo‘naltirilgan va izchil yondoshuvi muhim ahamiyat kasb etadi.Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida yuzlab korxonalar xorijlik sheriklar bilan faol hamkorlik qilmoqdalar, bu esa xo‘jalik mexanizmining minimal xarajatlar qilingan holda xalqaro bozor talab etayotgan mahsulot sifatini ta’minlaydigan yaxlit tizim sifatida aniq ishlashini talab etadi. Mahsulot sifatining doimiy yaxshilanib borishi uchun ISO 9000 seriyali Xalqaro standartlarga muvofiq ishlash raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining murakkab va o‘zgarib borayotgan sharoitlarida ishlab chiqaruvchi korxonaningning barqaror rivojlanish imkoniyatini ta’minlaydi. Sifatni ta’minlashga oid zamonaviy yondoshuv mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyalarining evolyutsion rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ilk “ishlab chiqarish” mahsulotlari nisbatan sodda edi – uni bir odam, bir yetkazib beruvchidan xomashyoni sotib olib, boshidan oxirigacha o‘zi tayyorlar edi va iste’molchilar u qayerda yashashi va qanday ishlashini bilar edilar, hamda o‘z mahsulotiga iste’molchilarning talablarini bilar edi. Rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlarining tobora o‘sib borishi, yakka tartibda ishlab chiqaruvchilarning kooperatsiyalashuvi mehnat unumdorligining oshishi va mahsulot tannarxining pasayishiga imkon berishini anglanishigacha uzoq vaqt o‘tdi. Shunday qilib, tovarlarni ommaviy ishlab chiqarish astasekin rivojlanadi va endi ishlab chiqaruvchilar butun ishni ishchilar orasida taqsimlangan, yagona texnologik zanjirga bog‘langan eng soda operatsiyalarga ajratib, unumdorlikni ancha oshirish mumkinligini tushunib yetdilar. Bunda hatto qadim davrlarda ham “sifat” tushunchasi ta’rifining aniqligiga katta ahamiyat berishgan va bu atamaning talqin etishning turli usullari haqida yirik faylasuflar fikr yuritishgan. Masalan, sifatning falsafiy toifalarini birinchi marta Aristotel “toifalar” asarida tahlil qilgan edi. Bunda Aristotel sifatga (“qanday” savoliga javob beradigan) to‘rtta mumkin bo‘lgan ma’noni bergan edi:

– tug‘ma, boshlang‘ich qobiliyatlar va tavsiflarning mavjudligi yoki yo‘qligi;

– ham o‘tkinchi, ham barqaror (turg‘un) xossalarning mavjudligi;

– buyum yoki hodisaga ularning mavjudlik jarayonida xos bo‘lgan xossalar va holatlar;

– buyum yoki hodisaning tashqi qiyofasi.

Nemis olimi Gegel “sifatni” buyumlar va olam yaratilishini bilishning mantiqiy, boshlang‘ich bosqichi, obyekt mavjudligining bevosita tavsifi deb ta’riflagan edi: “Sifat, umuman borliq bilan aynan bo‘lgan, borliq bilan bevosita aniqlanganlikdir. Mahsulot o‘zining sifati tufayli shu mahsulotdir va u sifatini yo‘qotar ekan, endi u shu mahsulot bo‘lmaydi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Medvedev A. M. Xalqaro standartlashtirish — M.: Standartlar nashriyoti, 1988-yil

2. M. I. Krivosheev. Raqamli televizion eshittirishni xalqaro standartlashtirish — M.: NIIR, 2006, ISBN 5-89674-022-0
3. Kornilov E. V. Texnik sxemalar elementlarini belgilashning xalqaro standartlari — Odessa: Negociant, 2005-yil
4. O. A. Ageeva. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari — M.: Buxgalteriya hisobi, 2008-yil
5. Krainova Yu.Qisqa kurs: Xalqaro audit standartlari — M.: Omega-L, 2009 y.

KORXONALARDA O‘LCHASH VOSITALARNI SINOVDAN O‘TKAZISHDA METROLOGIK XIZMATNING O‘RNI

[1]D.Nuriddinov, [2]S.Isroilova
Farg’ona politexnika instituti

Annotatsiya: *O‘lchash sohasida keng ko‘lamda olib borilayotgan ishlar, o‘lchash vositalarining katta miqdori ilmiy tadqiqotlar natijalarining ishonchliligini, texnologik va axborot jarayonlarini tekshirish va boshqarish tizimlarining samaradorliligini, atrof- muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarni, tibbiy tashxislar to‘g‘riligini, energetik, transport tizimlari ishlarining xavfsizligini va moddiy boyliklarni hisobga olishni ta’minlagan holda insonlarga xizmat qilmoqda.*

Kalit so‘z: *maxsulot, standart, metrologiya, resurslar, sertifikat, o‘lchash, sifat, menejmenti, sifat tizimi, asbob-uskunalar, kalibrlash, xalqaro standartlar, o‘zaro almashuvchanlik, xafvsizlik, raqobat.*

O‘lchash vositalarining katta miqdori ilmiy tadqiqotlar natijalarining ishonchliligini, texnologik va axborot jarayonlarini tekshirish va boshqarish tizimlarining samaradorliligini, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarni, tibbiy tashxislar to‘g‘riligini, energetik, transport tizimlari ishlarining xavfsizligini va moddiy boyliklarni hisobga olishni ta’minlagan holda insonlarga xizmat qilmoqda. O‘lchashlar doirasiga inson faoliyatining tobora ko‘p ob’ektlari jalb etilmoqda, o‘lchash vazifalari kengroq va xilma-xil bo‘lib bormoqda. O‘lchash texnikasi aniqligi, barqarorligi, tez harakat qilishiga qo‘yiladigan talablar uzluksiz ortmoqda. O‘lchashlar tabiatda amalda bo‘lgan qonuniyliklarni ochgan holda atrofdagi moddiy olamni tavsiflaydi. Hozirgi vaqtda hech bir mutaxassis ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni sifatli tavsiflaydigan aniq o‘lchashlarsiz tasavvur qilmaydi. Muammo qanchalik murakkab bo‘lsa, uning echimida o‘lchashlar tizimining ahamiyati shunchalik katta.

Bugungi kunda o‘lchashlar natijalari foydalanilmaydigan inson faoliyati doirasi yo‘q. Ishonchli o‘lchash axboroti xalq xo‘jaligi boshqaruvining barcha darajada iqtisodiyot va tekshiruvning asosi bo‘lib hisoblanadi, har qanday xalq xo‘jaligi masalasining muvaffaqiyatli echimi, hox u energetikani, transportni yoki

qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘lsin, bugun uni mustahkam metrologik poydevorsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Buning barchasi amaliy metrologiyada ham, qonunlashtiruvchi metrologiyada ham echiladigan masalalarning xilma-xilligiga, murakkabligiga va javobgarligiga sabab bo‘ladi. O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish agentligi kompetensiyasiga tegishlidir. Standartlar, texnikaviy shartlar, metodik ko‘rsatmalar, qonunlar, yo‘riqnomalar, qoidalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan me’yoriy hujjatlar bilan reglamentlanadi. O‘lchash vositalari aniqligining me’yorlarini belgilash, o‘lchash vositalarining me’yorlanadigan metrologik tavsifnomalarini tanlash, o‘lchashlar usullarini tanlash va qonunchilik tartibidagi boshqa masalalarini ko‘rib chiqadi. Metrologik qonunlar, qoidalar va me’yorlarni reglamentlovi yuridik va me’yoriy hujjatlar majmui qonuniy metrologiyaning ob’ekti bo‘lib hisoblanadi. Respublikada o‘lchashlar birliligi ta’minlanadigan kelishuv bo‘yicha o‘rnatilgan metrologik qoidalar, talablar va me’yorlarga amal qilishga erishilmoqda.

Korxona metrologik xizmati idoraviy metrologik xizmatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib hisoblanadi. Korxona, tashkilot metrologik xizmatining asosiy vazifalariga o‘lchashlar birliligi va talab etilayotgan aniqligini ta’minlash, korxona, tashkilotda o‘lchashlar, tekshirish va sinov texnikasi darajasini oshirish va takomillashtirish, korxona, tashkilot faoliyatining barcha doiralarida metrologik ta’minotni tayyorlash va takomillashtirish bo‘yicha ishlarni olib borish, ilmiy tadqiqotlar, loyiha, konstruktorlik va eksperimental ishlar samaradorligini oshirishni, texnologik jarayonlarning berilgan rejimlarini saqlab turishni ta’minlovchi o‘lchashlar, tekshirish va sinovlarni bajarish vositalari va metodikalarining optimal nomenklaturasini aniqlash va rejali joriy etish, mahsulot sifatining ob’ektiv tekshiruvi, mehnat unumdorligini oshirish, moddiy va energetika resurslarini aniq hisobga olish va ulardan oqilona foydalanish, mehnatning xavfsiz sharoitlariga rioya etishni tekshirishdan iborat [1].

Korxona, tashkilot metrologik xizmati ishlab chiqarishning metrologik ta’minoti holatining sistematik tahlilini o‘tkazadi va uning asosida ishlab chiqarishning butun sikli metrologik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy-texnikaviy chora-tadbirlar rejasiga takliflarni ishlab chiqadi. Korxona, tashkilot metrologik xizmati o‘lchashlar aniqligi me’yorlarini, o‘lchash vositalari tavsifnomalarini, o‘lchashlarni bajarish metodikasini, qiyoslash usullari va vositalarini reglamentlovchi standartlar va boshqa me’yoriy hujjatlarni joriy etishni tashkil qiladi. Korxona metrologik xizmati korxona tomonidan chiqarilayotgan mahsulotni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, sinash va ishlatishni metrologik ta’minlash bo‘yicha barcha ishchilarning ilmiy-texnikaviy va tashkiliy-metodik boshqaruvini amalga oshiradi. Korxona metrologik xizmatning asosiy bug‘uni hisoblanadi. Korxona metrologiya xizmati korxona rahbarining buyrug‘i asosida tashkil etiladi va korxona bosh metrologi tomonidan boshqariladi.

Korxona va tashkilotlar metrologiya xizmatining asosiy vazifalari birliklar va talab qilingan o‘lchashlar aniqligini ta’minlash, o‘lchash texnikasining haqiqiyligi va o‘lchashlar darajasini oshirish, korxona va tashkilotlarda sinov va nazoratni

ta’minlash, korxona va tashkilotlarning hamma sohalarida metrologik ta’minot haqiqiyligi to‘g‘risida tayyorgarlik ishlarini olib borish, o‘lchash vositalari va nazorat asboblari, o‘lchash birxilliligini ta’minlashdan iboratdir [2].

Korxona va tashkilotlar metrologik xizmati mahsulotning metrologik ta’minoti tug‘risida tizimli taxlil olib boradi va bu ishlarning o‘zagida butun ishlab chiqarish siklini metrologik ta’minoti ustida rejalar tuzib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Medvedev A. M. Xalqaro standartlashtirish — M.: Standartlar nashriyoti, 1988-yil
[2] M. I. Krivosheev. Raqamli televizion eshittirishni xalqaro standartlashtirish — M.: NIIR, 2006,
[3] Kornilov E. V. Texnik sxemalar elementlarini belgilashning xalqaro standartlari — Odessa: Negociant, 2005-yil
[4] O. A. Ageeva. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari — M.: Buxgalteriya hisobi, 2008-yil
[5] Krainova Yu.Qisqa kurs: Xalqaro audit standartlari — M.: Omega-L, 2009y

ISO 22000 XALQARO STANDARTI TALABLARINI JORIY ETISH VA OZIQ-OVQAT SANOATI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI BOSHQARISHGA NAZORAT REJASI (CONTROL PLAN) ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA UNNING OQLILIK DARAJASINI ANIQLASH

[1]Qirg’izov Xusniddin, [2]Bakiyev Elyorbek
[1]k.f.n., dotsent NamMQI qirgizovh8@gmail.com
[2]Tayanch doktorant, NamMQI elyorbek.bakiyev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishga nazorat rejasi (Control plan) yaratish, mahsulot yoki jarayonlarni kritik yoki muhim tavsiflari nazoratlariga statistik nazorat kartalarini va o’lchash tizimi tahlillashlar yoritilgan.

Tayanch so’z iboralar (Key words): ISO 9001, ISO 22000, IATF 16949, SPC, MSA va statistik nazorat kartalarini.

Ma’lumki, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb, global va milliy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanish holatlari muntazam ravishda kuzatilmoqda va kundan kunga ortib bormoqda. Shuning uchun eng nufuzli tashkilotlardan biri BMT ham oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi nuqtai nazarlarni yangilash g’oyasini talab qilmoqda. Bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarini

yetishtirish, ularni taqsimlash va sifatiga qo’yiladigan talablar, ularni saqlash sharoitlarini o’zgartirish va yaxshilash bo’yicha yondashuvni mutlaqo o’zgartirish vaqti kelganini ko’rsatmoqda.

Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash tizimini ishlab chiqqan va joriy qilgan ishlab chiqaruvchi uchun rivojlanishning yangi yo`llari ochiladi. Yangi bozorlarni egallash, iste’molchilar ishonchini qozonish kabi omillar korxona taraqqiyotiga hissa qo`shadi. Yuqorida ko`rsatib o`tilgan xalqaro standartlari talablariga javob beradigan xolda mahsulot ishlab chiqarilsa nafaqat ichki bozorda balki, jahon bozorida ham qoniqarli darajada mahsulotlarimiz o`z o`rnini topishi mumkin.

Bugungi kunda oziq-ovqat sanoatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va xavfsizligini xalqaro talab darajasiga ko`tarish, raqobatbardoshligini oshirish uchun ISO 9001 Sifat va ISO 22000 Oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimlari xalqaro standartlari talablarini joriy etish va sertifikatlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi xalqaro menejment tizimlarini talablarini oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish zanjiriga joriy etishda va sertifikatlashtirish muammolari yechishda quyidagilarda foydalash samara beradi:

-IATF 16949:2016 xalqaro avtomobilsozlik sifat menejment tizimlari 8.5.1.1 Boshqarish (nazorat) rejasi bandi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarni boshqarish (1 va 2-rasmlarga qarang);

-IATF 16949:2016, 9.1.1.2 va 9.1.1.3 bandlari talablari jarayonlarni muhim mezonlarini nazorat (muvofiq SPC –statistik nazorat kartalarini) qillishga qo’llash (3-rasmga qarang);

-IATF 16949:2016, 7.1.5.1.1 O’lchash tizimi tahlillash bandi talablariga muvofiq mahsulot yoki jarayonlarni kritik yoki muhim tavsiflari uchun (MSA) tahlilini o’tkazish (4-rasmga qarang).

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirish jarayonlarisiz tasavvur qilish qiyin. Measurement System Analysis (MSA) statistik metod bo`lgani uchun, unga kompyuter dasturini joriy etish bilan vaqt sarfini kamaytirish mumkin. PFMEA va nazorat rejasida belgilangan kritik va mahsus tavsiflar uchun IATF 16949:2016 xalqaro avtomobilsozlik sifat boshqaruv tizimi standarti SPC va MSA tahlillarini o`tkazish talablarini qo`yadi.

O`lchash tizimini tahlillash korxonada mavjud o`lchov vositalari, o`lchash jarayonida haqiqiy ishlab chiqarilgan namunalar, mavjud tashqi muhit va malakali nazoratchi (operator) ishtirokini ta’minlash yordamida o`lchash tizimi jarayonlari tahlilini olib borish orqali ishlab chiqarish jarayonlarida nuqson mahsulot yuzaga kelishini oldini olishni ta’minlashga talablar o`rnatadi.

“MSA” qo`llanmasidan foydalanib MSA tahlilini o`tkazish uchun mahsus dastur ishlab chiqildi (4-rasm).

O`lchashlar tizimi taxlilini olib borishda nazorat rejasida tekshirilishi lozim deb topilgan punktlardan biri grafik asosida tanlandi, kerakli o`lchash vositasi yordamida

tanlangan namunalar o`lchandi, o`lchash natijalari nazorat varog`iga kiritildi va tahlil natijasi dastur yordamida aniqlandi.

Bunda 10 ta namuna tanlandi va sirli raqamlanib 3 nafar nazoratchiga 3 martadan o`lchashga berildi, o`lchangan natijalar maxsus kompyuter dasturining jadvaliga kiritiladi. Natijada 4-rasmda Unning oqlilik darajasi qiymatlari va qiymatlar diagrammasi hosil bo’ladi.

Tahlil natijalaridan shuni ko`rish mumkinki, ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot va jarayonlar sifatini boshqarish ko`p omillarga bog`liq bo`lib, un mahsulotlarini boshqarishda samarali vositalar bo`lgan statistik usullar va sifat nazorati metodlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishga nazorat rejasi (Control Plan) ishlab chiqarish asosida mahsulot va jarayonlarni kritik yoki muhim tavsiflari nazoratlariga statistik nazorat kartalarini va o’lchash tizimi tahlillashlarni o’rnatish natijasida menejment tizimlariga xalqaro standartlari talablarini joriy etish va ularni sertifikatlashtirish ishlari samaradorligini oshirish mumkin.

Ts 20323260-07:2023

TEXNOLOGIK JARAYONI

Ishlab chiqariladigan mahsulot		Hujjat raqami 01-CP	Tasdiqlangan		
Raqami	Nomi		Mas’ul	Tekshirdi	Tasdiqladi
01	1-navli bug’doy uni				

№	Jarayon nomi	Jihoz nomi	Nazorat qilish				Tekshiruvchi		Tuzatishga mas’ul
			Turi	Talab	Soni	O`lchov vositasi	Ishchi	Nazo-ratchi	
1	Bug’doyni qabul qilish	Nazoratchi, ishchi	Tashqi ko`rinish	O’zDst 880:2015, ГОСТ 13586,3-83	Tonna	Tarozi  25 t gacha	√	√	
2	Bug’doyni uzatish bunkeriga to`kish	Bug’doyni olib kelgan transport vositasi, Bunker, ketmon, belkurak 	Yo`l-transport hujjati, hajm	Xavfsizlik texnikasiga amal qilgan holda.	Hajm	Bunker hajmi: 25 t gacha	√	√	
3	Bug’doyni ichkariga uzatish	Truba (Шнек) orqali 	Vaqt, vint-shnek tezligi	Bunker bo`shab qolmasligi, shnek tiqilib qolmasligi lozim	300 - 1 ayl / min	Yopiq holda	√		

Tashkilot standarti


1-rasm. Ishlab chiqarish jarayonlarni boshqarish (C/P) rejasi

Ts 20323260-07:2023


12	Unni elash, yiriklik darajasini aniqlash	Elak 	Yiriklik darajasini aniqlash	GOST 27560-87. Unni elash, yiriklik darajasini aniqlash Na’muna: 50±5 gr 15,0 ± 0,5 %	Elak tezligi 180-200 ayl / min	Elak		√	
13	Unning oqligini tekshirish	Белизномер муки СКИБ-М 	Oqlik darajasini aniqlash	GOST 26361-84. Unni oqligini aniqlash. Na’muna: 50±5 gr	1-nav uchun 37-53,5%. Oliy nav 53,5% dan yuqori.	Beliznomer, SKIB-M. O’chash diapazoni 0-100 %		√	
14	Unning namligini aniqlash	Quritish pechi 	Namlikni aniqlash	GOST 9404-88. Unni namligini aniqlash	40 minut davomida 5 gr un quritiladi. Namligi 15% dan oshmasligi lozim.	Quritish pechi 0-130°C	√		

Tashkilot standarti

2-rasm. Ishlab chiqarish jarayonlarni boshqarish (C/P) rejasi



3-rasm. Unning oqlik darajasi asosida jarayonlar imkoniyati aniqlash.



4-rasm. Unning oqlik darajasi aniqlash asosida o’lchash tizimi tahlili

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustdagi “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to`g`risida”gi 483-I – sonli qonuni.
2. “O`zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy asoslari va ustuvor yo`nalishlari” mavzusidagi resrublika ilmiy-amaliy anjumani 2016-yil 15-dekabr, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. ISO. (2005). Food Safety Management Systems Requirements for any Organisation in the Food Chain. (1st ed.). (2005-09-01): 4-39. 264
4. https://xs.uz/uzkr/rost/ozbekiston-oziq-ovqat-khavfsizligini-mustahkamlash-jolida-qandaj-ishlar-olib-borilmoqda
5. O’z DSt ISO 22000:2019 Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmenti tizimlari. Oziq-ovqat mahsulotlari yaratish zanjirida ishtirok etuvchi tashkilotlarga qo`yiladigan talablar
6. D.Zimon, R.Domingues, Imrast of imrlementation of ISO 22000 on food safety throughout the surrly shain: Insights from Roland, Slovakia & Rortugal. International Journal of Rrodustivity and Quality Management, 30(4) (2020) 509-526.
7. ISO 22000. Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish —ISO 22000. 2021. http://www.iso.org/iso-22000-food-safety-management.html
8. https://www.who.int/astivities/estimating-the-burden-of-foodborne-diseases

9. www.standart.uz

THE ROLE OF INTERNATIONAL AND NATIONAL STANDARDS IN THE FIELD OF PRODUCTION AND SERVICES

Obidov Jamshidbek[1] Hamdamov Yusufjon[2]
Associate Professor (PhD) of Fergana polytechnic institute[1]
Master of Ferghana polytechnic institute[2]

Abstract: *When exporters market their products overseas, the products they want to export need to meet foreign product standards.Standards provide consistency for characteristics, guidelines,and specifications for products, services, and processes. The use of standards helps to make industry more efficient and effective, and helps to break down barriers to international trade. The majority of standards developing organizations depend on revenue from the sale of standards to support their programs and services, but a growing number offer access to their standards for viewing or download available for no cost. Many times a company will seek certification to a standard due to a contractual or regulatory requirement, or a certification may be necessary in order to meet customer preferences. Each country or industry will have its own product certification process to navigate.*

Keywords: *standards,services,improving processes, safety, health, interchangeability,organizations,control,management.*

Introduction. International standards for management are guidelines and frameworks that help organizations to ensure consistent and effective management practices. These standards provide a set of best practices that can be implemented by organizations of all types and sizes. Implementing international standards can help organizations improve their performance, enhance their reputation, and gain access to new markets. In this article, we will explore the importance of international standards for effective management.

Methods. Implementing international standards can provide several benefits to organizations, including:

- Improved efficiency and effectiveness in management processes
- Enhanced quality control and risk management
- Access to new markets and business opportunities

International standards provide guidelines for organizations to implement effective quality control and risk management practices. Implementing these practices can help organizations to identify and mitigate risks, improve product and service quality, and enhance customer satisfaction.

Implementing international standards can help organizations to demonstrate their commitment to quality, safety, and sustainability. This can help to build stakeholder confidence and trust, which can be crucial for organizations operating in competitive markets. Therefore the demand for the quality of security systems is

arising and being regulated by such international standards as iso 22393:2023. Implementing international standards can help organizations to access new markets and business opportunities. Many international standards are recognized globally, which can help organizations to demonstrate their compliance with international regulations and standards.

Results. Implementing international standards can be a complex process that requires time, resources, and expertise. Some of the challenges that organizations may face when implementing international standards include: Resource requirements (time, money, personnel) Cultural and organizational challenges Integration with existing management systems Importance of ongoing maintenance and review Organizations should carefully consider these challenges and develop a plan for implementing international standards that is tailored to their specific needs and circumstances.

Conclusion. Implementing international standards for management can provide several benefits to organizations, including improved efficiency, enhanced quality control, increased stakeholder confidence, and access to new markets. Organizations should carefully consider their options and choose the international standards that are most relevant to their business needs. By implementing international standards, organizations can ensure that they are operating in accordance with the latest demands of the market that will significantly decrease the level of possible risks and open a wide range of business opportunities.

REFERENCES:

1. Jamshidbek G‘ayratjon o‘g O. et al. TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA TEXNOLOGIK DETERMINIZM KONSEPSIYASI ASOSLARIGA DOIR BILIMLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI VA METODIKASI //FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 449-454.
2. Obidov J. MUSTAQIL TA’LIM JARAYONIDA MATERIALLARINI IMITATSION-VARIATIVLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH SANOATI BILAN TEXNIKA OLIY O ‘QUV YURTLARI INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH //Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions". – 2023.
3. Xamidov D., Obidov J. IMPROVEMENT OF TEACHING MATERIALS IN THE TEACHING OF FUNDAMENTAL SCIENCES OF METROLOGY AND STANDARDIZATION ON THE BASIS OF IMITATION-VARIATION //Engineering problems and innovations. – 2023. – T. 1. – №. Спец. вып. 1. – C. 17-21.
4. Shaxodjayev M., Obidov J. TECHNOLOGIES OF MODELING EDUCATIONAL MATERIALS BASED ON IMITATION-VARIATION THROUGH INDEPENDENT EDUCATION IN THE TRAINING OF

FUTURE ENGINEERS //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 5. – С. 2-2.
5. Obidov J. G. Virtual process modeling technologies based on imitation-variability in technical higher education institutions //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 452. – С. 07017.

ISHLAB CHIQARISH UZLUKSIZLIGIDA NUQSONLI MAXSULOTLARNI OLDINI OLISH STANDARTLASHTIRISHNING AFZALLIGI

[1]Mamasoliyeva Maxzuna, [2]Isroilova Saodatxon
[1,2]Farg‘ona politexnika instituti

Hozirgi vaqtda butun dunyo bo‘yicha mahsulot sifati va uni ta’minlash hamda yaxshilashga katta e’tibor qaratilmoqda. Yuqori sifatli mahsulot korxonalarning bozorda raqobatchilikka kurashishida asosiy muvaqqiyatga erishishning shart-sharoitlaridan bo‘lib hisoblanmoqda.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida nuqsonlarni oldini olishda quyida keltirilgan omillarni bajarish orqali mahsulot yaroqsizlanishini oldini olish mumkin bo‘ladi:

- Mahsulotni yaroqsizlanishi manbaalarini aniqlash:
- yetkazuvchidan zararlangan holda kelishi;
- tashish/yuklash/tushirishda zararlanishi;
- taralarda zararlanish;
- ishlov berish jarayonlari davrida zararlanish;
- atrof-muhit (nam, harorat, chang va boshqalar) ta’sirida zararlanish;
- malakasizlik oqibatida zararlanish;
- notug‘ri saqlash tufayli zararlanish;
- notug‘ri himoya vositalardan foydalanish tufayli zararlanish;
- qo‘yilgan talablarni to‘la bajarmaslikdan zararlanish;
- va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti muhitida korxonalarni raqobotbardosh bo‘lishi: -mahsulot sifati; -narhi; -yetkazish muddati va soni bilan aniqlanadi. Raqobotbardosh va iste’molchi talabini qanoatlantiradigan sifatli mahsulotlarni o‘z vaqti va kerakli miqdorda yetkazishda zamonaviy komplektatsiya (to‘plamlash) tamoyil(prinsip)lar foydalanish yo‘qotishlarni kamaytirishda juda muhim hisoblanadi. Bunday tamoyilarni talab va mahsulot yetkazuvchi korxona mutaxassislarini bilishi, hamda amalda qo‘llashlari tashkilotga samara keltiradi.

IATF 16949:2016 Xalqaro avtomobilsozlik menejmeti tizimi standartining 8.5.4.1 bandida mahsulotni saqlashda zahiralar optimal aylanish muddati va omborda rotatsiyani ta’minlash uchun zahiralar menejmenti masalan, «birinchini ol-birinchini ber» (FIFO) prinsipidan foydalanish lozimligi talab etilgan.

Zahiralar menejmenti tashkil etish quyidagi 7 yo‘qotishlardagi ortiqcha zahira yo‘qotishni kamaytirishi yoki bartaraf etilishiga olib keladi:

Xulosa qilib, mahsulotni vaqtincha saqlash orqali maqsadga oson yetish mumkin:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazuvchidan yig‘uv liniyasiga kirmaydigan, qabul qilish joyiga tushuvchi, vaqtincha saqlanuvchi avtokomponentlar va materiallar;
- vaqtincha saqlash omborini imkon qadar minimal zahirada ishlatish maqsadida tashkil etish;
- FIFO birinchini ol-birinchini ber prinsipidan foydalanish;
- yetkazishni suralgan buyurtma bo‘yicha ta’minlash asosida bajarish;
- zahirani eng kam va eng ko‘p darajasini ko‘rsatish.
- mahsulotni ish jarayonida saqlash:
- ish joyi yonida bo‘lishi;
- ishchini quliga yetarli bo‘lishi (ishchini qul ostida bo‘lishi);
- 1,5 metrdan yuqori bo‘lmaslik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avanesov Ye. K., Shves V. Ye. Samoosenka organizasionnogo prosessa kompanii i SMK//Metodы menedjmenta kachestva. — 2005. — № 1

2. Kane M. M., Ivanov B. V., Koreshkov V. N., Sxirtladze A. G Sistemы, metodы i instrumentы menedjmenta kachestva: Uchebnik dlya vuzov / Pod red. M. M. Kane. — SPb.: Piter, 2009. — 432 s.: il.

TEXNOLOGIK JARAYONLARNI INTELLEKTUAL BOSHQARISH TIZIMLARI VA METROLOGIK TA'MINOT

[1]Jumaboyev L, [2]Mamasoliyeva M
Farg'ona politexnika instituti

Turizm xizmatlarini sertifikatlashtrish .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2016 yil 2 dekabrdagi PQ-2666-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tuzilmasida mustaqil bo‘linmalar sifatida «Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi» unitar korxonasi negizida «Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi» davlat unitar korxonasi tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq turizm faoliyatini sertifikatlashtirish majburiy tusga ega.

sertifikatlashtirish ob’ektlari — turoperator va mehmonxona xizmatlari;

turoperator xizmatlari — turistlar bilan tuzilgan shartnoma asosida ularning ehtiyojlariga muvofiq ko‘rsatiladigan, turistik operator (joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmati ko‘rsatish, ekskursiyalar, bo‘sh vaqtni va shu kabilarni tashkillashtirish) xizmatlari;

mehmonxona xizmatlari — joylashtirish vositalarida (mehmonxonalar, turistik bazalar va majmualar, dam olish uylari va zonalari, pansionatlar, kempinglar, motellar, o‘tovli oromgohlar va normativ hujjatlar talablari taalluqli bo‘lgan boshqa joylashtirish vositalari) vaqtinchalik yashash joyi berish bo‘yicha xizmatlar, xostellardan tashqari;

Turizm faoliyatining sub’ekti sertifikatlashtirishdan o‘tmagan turizm xizmatlarini ko‘rsatish huquqiga ega emas.

“Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi” DUK (keyin Markaz):

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil yetish to‘g‘risida” 2016 yil 02 dekabrdagi PQ-2666-son qaroriga muvofiq tuzilgan;

Turizm sohasini tartibga soluvchi standartlar Quyida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat standartlari Markaz tomonidan belgilangan tartibda ishlab chiqilgan: Standart loyihasi manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan belgilangan tartibda ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan:

1. O’z DSt ISO 18513:2017 O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti“Turizm xizmatlari. Mehmonxona va turistlarni joylashtirish vositalarining boshqa turlari. Atamashunoslik”:

odatda turizm faoliyatida qo‘llaniladigan uch tildagi (o‘zbek, ingliz va rus) atamalar, ta’riflar va lug‘atdan iborat;

ISO 18513:2003 «Tourism services – Hotels and other types of tourism accommodation – Terminology» xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

2. O’z DSt ISO 14785:2018 O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti“Turizm axborot byurolari. Turizm axboroti va qabul qilish xizmatlari. Talablar”:

turizm axborot markazlari (byurolari) tomonidan taqdim yetiladigan xizmatlar sifatiga doir talablarni belgilaydi;

ISO 14785:2014 «Tourist information offices - Tourist information and reception services - Requirements» xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

3. O’z DSt 3220:2017 O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti“Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiy talablar”:

joylashtirish vositalari va ularda taqdim yetiladigan xizmatlarga doir umumiy (minimal) talablarni belgilaydi;

tashrif buyuruvchilarning vaqtinchalik yashashlari uchun mo‘ljallangan turli xildagi joylashtirish vositalari va ularda taqdim etiladigan xizmatlarga tatbiq etiladi;

davlat boshqaruvi organlari vakolatiga kiradigan majburiy talablar va joylashtirish vositalarini sertifikatlashtirish (muvofiqlikni baholash) vaqtida qo‘llaniladigan talablarni belgilaydi.

4. O’z DSt 3296:2018 O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti“Turizm xizmatlari. Mehmonxonalar va o‘xshash joylashtirish vositalari. Tasniflash tizimi”: mehmonxonalar va o‘xshash joylashtirish vositalarini tasniflash (1 dan 5 yulduzgacha toifa) tizimini belgilaydi.

5. O’z DSt 3331:2018 O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti “Turizm xizmatlari. Turizm sohasida navigatsiya tizimining axborot belgilari. Umumiy talablar”:

turizm sohasidagi navigatsiya tizimining axborot belgilari, shu jumladan turizm infratuzilmasi ob’ektlari, turizm-rekreatsiya mintaqalari, turizm yo‘nalishlari va diqqatga sazovor joylarining belgilariga doir umumiy talablarni belgilaydi.

6. O’z DSt 3334:2018 ” O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti “Turizm xizmatlari. Musulmon mehmondo‘stligi. Talablar:

musulmon sayohatchilarga joylashtirish vositalari, turizm paketlari va turizm gidi xizmatlarini ko‘rsatishda turizm ob’ektlari, mahsulotlari va xizmatlarini boshqarishga doir tavsiyalar va talablarni belgilaydi;

Malayziyaning MS 2610:2015 “Muslim friendly hospitality services – Requirements” standartiga aynan o‘xshash.

7. O’z DSt 3336:2018 O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti.“Turizm xizmatlari. “Tourist-friendly”.Talablar”:

turizm namoyishi va turizm infratuzilmasi ob’ektlari tomonidan taqdim etiladigan “tourist-friendly” xizmatlariga doir talablarni belgilaydi; iste’molchilar talablariga javob beradigan turizm xizmatlarini yetkazib berishda o‘z imkoniyatini namoyish qilish uchun, shuningdek turizm xizmatlari, jumladan mehmondo‘stlik muhitini yaratgan holda tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini ta’minlash xizmati iste’molchilarini qoniqtirishga harakat qilinganda qo‘llaniladi.

Xulosa.

Turizm hizmatlarini sertifikatlashtrish va undagi standartlar barchasi turizm xizmatlarini loyihalashtirish turistlar va ekskursantlarni hayoti hamda sog‘lig‘ining xavfsizligini ta’minlash , atrof muhitni muhofaza qilish, yashash sharoitlari va xizmat ko‘rsatish xavfsizligi hamda sifatini ta’minlash, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining darajasi, turizm faoliyati xodimlarini tayyorlash va belgilangan talablar bajarilishini nazorat qilishdan iborat.

Foydalanilgan Adabiyotlar .

1. Kovalenko, A.A. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun dasturiy ta'minot / A.A. Kovalenko. - Sankt-Peterburg: BHV-Peterburg, 2020 yil.
2. https://lex.uz/docs99882 sertifikatlashtrish
3. www.sertifikatsyon.net ISO 513
4. https://standart.uz

XIZMATLARNI STANDARTLASHTIRISH: SIFATNI OSHIRISH, RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISH VA BOZOR ULUSHLARINI KENGAYTIRISH YO'LLARI

[1]. Javoxir Abdufatayev, [2.] Ismoiljon Boybuvayev, [3.] Azamatillo Ibroximov
[1,2,3]Farg’ona Politexnika instituti
E-mail: yusufabdufattoyev0@gmail.com

Anotatsiya

Ushbu maqola, "Xizmatlarni Standartlashtirish" mavzusida, xizmatlar sohasida standartlashtirishning zarurati va uning iqtisodiy hamda ijtimoiy afzalliklarini tahlil qiladi. Maqola xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar qoniqishini yuksaltirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va bozor ulushlarini kengaytirish kabi asosiy masalalarni qamrab oladi. Shuningdek, xizmatlarni standartlashtirish jarayonlari, ularga qo'yiladigan nazariy asoslar va amaliy tadbiqlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqolada davlat va xususiy sektorlar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati va kelajakdagi istiqbollar yoritiladi, hamda xizmatlar sohasida innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotni rag'batlantirish uchun strategiyalar va tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: xizmatlar, standartlashtirish, sifat menejmenti, ISO standartlari, raqobatbardoshlik, mijozlar qoniqishi, iqtisodiy afzalliklar, ijtimoiy ta'sir, xalqaro hamkorlik, innovatsiyalar

Аннотация

В этой статье на тему «Стандартизация услуг» анализируется необходимость стандартизации в сфере услуг и ее экономические и социальные выгоды. В статье рассматриваются такие ключевые вопросы, как улучшение качества обслуживания, повышение удовлетворенности клиентов, усиление конкурентоспособности и расширение доли рынка. Он также предоставляет подробную информацию о процессах стандартизации услуг, теоретических основах и практическом применении. В статье подчеркивается важность и будущие перспективы сотрудничества государственного и частного секторов, а также предлагаются стратегии и рекомендации по стимулированию инноваций и технологического прогресса в сфере услуг.

Ключевые слова: услуги, стандартизация, менеджмент качества, стандарты ISO, конкурентоспособность, удовлетворенность клиентов, экономические преимущества, социальный эффект, международное сотрудничество, инновации.

Annotation

This article, on the topic of "Service Standardization", analyzes the need for standardization in the service sector and its economic and social benefits. The article covers key issues such as improving service quality, increasing customer satisfaction, strengthening competitiveness, and expanding market shares. It also provides detailed information on service standardization processes, theoretical foundations and practical applications. The article highlights the importance and future prospects of cooperation between the public and private sectors, and offers strategies and recommendations to stimulate innovation and technological progress in the services sector.

Keywords: services, standardization, quality management, ISO standards, competitiveness, customer satisfaction, economic advantages, social impact, international cooperation, innovation

ISHLAB CHIQARISH VA XIZMATLAR SOHASIDA XALQARO VA MILLIY STANDARTLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu soha, iste'molchilar va bizneslar orasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlaydi va iqtisodiy o'sish hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega. Xizmatlar sohasi turli xil xizmatlarni, jumladan, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm va axborot texnologiyalari kabi muhim sohalarni o'z ichiga oladi. Ushbu soha doimiy o'zgarishlar va yuqori raqobat sharoitida faoliyat yuritadi, shuning uchun xizmatlarni yuqori sifatda taqdim etish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Xizmatlarni standartlashtirish bu jarayonda muhim rol o'ynaydi, chunki u xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va iste'molchilarning ishonchini qozonish imkonini beradi.

Xizmatlarni standartlashtirishning asosiy maqsadlari - bu xizmatlarni ko'rsatish jarayonlarini yaxlitlashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va xalqaro bozorlarga chiqishda raqobatbardoshlikni oshirishdir. Standartlashtirish, shuningdek, xizmat ko'rsatish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni kamaytirishga yordam beradi va xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun aniq me'yorlar va yo'riqnomalar yaratadi. Bu jarayonlar xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilganda, mahalliy xizmat ko'rsatuvchilar o'zlarining xizmatlarini xalqaro darajada ham taklif qila olishadi, bu esa ularning global bozorda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

Maqolaning asosiy yo'nalishlari - bu xizmatlarni standartlashtirishning amaliy usullarini, xalqaro va milliy standartlarni, shuningdek, bu jarayonlarning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarini chuqur tahlil qilishdan iborat. Maqolada, shuningdek, xizmatlar sohasida standartlashtirishning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari va bu sohani yanada takomillashtirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar va takliflar ham kiritiladi. Ushbu maqola xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar rahbarlari, siyosatchilar, olimlar va talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin, chunki u xizmatlarni standartlashtirishning muhim jihatlarini yoritib beradi va bu jarayonni yanada samarali amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Xizmatlarni standartlashtirishning nazariy asoslari soha mutaxassislari, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar orasida keng qo'llaniladi va bu jarayonning asosiy maqsadi xizmatlar sifatini oshirish hamda mijozlar ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Standartlashtirishning umumiy tushunchasi har qanday sohada, jumladan xizmatlar sohasida ham, xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini yagona me'yorlar asosida yaxlitlash va optimallashtirishga qaratilgan. Bu jarayon tashkilotlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni kamaytirish, mijozlar uchun xizmatlarni tanlashni osonlashtirish va xizmat ko'rsatuvchilarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

O‘lchash ishonchliligi – o‘lchash natijalariga ishonch darajasini belgilovchi mezon hisoblanadi va o‘lchanayotgan kattalikning chinakam qiymati (miqdori) belgilangan chegaralardaligi ehtimolligi bilan tavsiflanadi. Ushbu ehtimollik ishonchli (ishonch ehtimolligi) deyiladi.

O‘lchash to‘g‘riligi – o‘lchash natijalaridagi muntazam xatoliklarning nolga yaqinligini ko‘rsatadigan o‘lchash sifati.

O’lchash - bu fizik qiymat bo’lib, sinov yo’li bilan asbob-uskunalar yordamida aniqlanadi.

O‘lchash natijalarining yaqinliligi – bir xil sharoitda o‘tkazilgan o‘lchash natijalarining bir-biriga yaqinligini ko‘rsatadigan o‘lchash sifati. O‘lchash natijalarining yaqinligi o‘lchash natijasiga tasodifiy xatoliklarning ta’sirini aks ettiradi.

O‘lchash natijalarining qaytarizuvchanligi – turli sharoitda (turli vaqtda, turli joylarda, turli vositalar va turli usullar yordamida) o‘tkazilgan o‘lchashlarning natijalarini bir biriga yaqinliligini ko‘rsatadigan o‘lchashlar sifati.

Xatoliklar:

a) instrumental (o‘lchash asboblari);

b) o‘lchash usuli;

v) sub’ektiv (noaniq o‘qish);

d) o‘rnatish;

g) uslubiy xatoliklarga bo‘linadi

Instrumental xatolik deyilganda, qo‘llanilayotgan o‘lchash asboblari xatoliklarga bog‘liq bo‘lgan o‘lchash xatoliklari tushuniladi, bu xatolik tuzatma kiritish usuli bilan yo‘qotiladi. Texnik o‘lchash asboblarining instrumental xatoliklarini yo‘qotib bo‘lmaydi, chunki bu asboblar tuzatmalar bilan ta’minlanmaydi.

O‘lchash usuli xatoligi - usulning takomillashmaganligi natijasida kelib chiqadigan xatolik tushuniladi. Bu xatolik o‘lchash vositasi, xususan, o‘lchash qurilmasi, ba’zida esa, o‘lchash natijasi xatoliklarini baxolashda e’tiborga olinishi lozim.

Sub’ektiv xatoliklar – kuzatuvchining shaxsiy xususiyatlaridan masalan biror signal berilgan paytni qayd qilishda kechikish yoki shoshilishdan, shkala bir bo‘limi chegarasida ko‘rsatuvni notog‘ri yozib olishdan, paralaksdan va boshqalar.

O‘rnatish hatoligi – o‘lchash asbobi ko‘rsatkichining shkala boshlang‘ich belgisiga noto‘g‘ri o‘rnatilishi natijasida yoki o‘lchash vositasini e’tiborsizlik bilan, masalan: vertikal yoki gorizontal bo‘yicha o‘rnatilmasligi natijasida kelib chiqadi. O‘lchash metodikasi xatoliklari kattaliklarni o‘lchash shartlari metodikasi bilan bog‘liq bo‘lgan va qo‘llanayotgan o‘lchash asboblariga bog‘liq bo‘lmagan xatoliklardan iborat. Ayniqsa, aniq o‘lchashlarni bajarishda o‘lchash natijasini muntazam xatoliklar anchagina buzishi mumkin.

Tasodifiy xatolik deyilganda, faqat, bitta kattalikni qayta-qayta o‘lchash movaynida tasodifiy o‘zgaruvchi o‘lchash tushuniladi. Bu xatolik borligini faqat bita kattalikni bir xil sinchkovlik bilan qayta-qayta o‘lchangandangina sezish mumkin.

O‘lchash xatoligi deganda o‘lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatidan o‘lchash natijasining farqlanishi tushuniladi.

1. *Absolyut xatolik* – bu o‘lchanayotgan kattalikning o‘lchash asbobi yordamida o‘lchangan qiymati X
2. *Keltirilgan xatolik* – absolyut xatolikning asbobning eng yuqori o‘lchash chegarasi qiymatiga nisbati orqali aniqlanadigan va nisbiy xatolikka teng kattalikdir.

3. *Nisbiy xatolik* – absolyut xatolikni o‘lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatiga nisbatini bildiradi va foiz (%) da ifodalanadi.
4. *Statik xatoliklar* – vaqt mobaynida kattalikning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan xatoliklar. O‘lchash vositalarining statik xatoligi shu vosita bilan o‘zgarmas kattalikni o‘lchashda hosil bo‘ladi.
5. *Dinamik xatoliklar* – o‘lchanayotgan kattalikning vaqt mobaynida o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan xatoliklar sanaladi.
6. *Muntazam xatolik* deb, umumiy xatolikning takroriy o‘lchashlar mobaynida muayyan qonuniyat asosida hosil bo‘ladigan, saqlanadigan yoki o‘zgaradigan tashkil etuvchisiga aytiladi.

   Muntazam xatoliklarning kelib chiqish sabablari turli tuman bo‘lib, tahlil va tekshiruv asosida ularni aniqlash va qisman yoki butkul bartaraf etish mumkin bo‘ladi. Muntazam xatoliklarning asosiy guruhlari quyidagilar hisoblanadi:
   - **uslubiy xatoliklar;**
   - **asbobiy (qurilmaviy) xatoliklar;**
   - **sub’ektiv xatoliklar.**

O‘lchash usulining nazariy jihatdan aniq asoslanmaganligi natijasida *uslubiy xatolik* kelib chiqadi.

O‘lchash vositalarining konstruktiv kamchiliklari tufayli kelib chiqadigan xatolik *asbobiy xatolik* deb ataladi. Masalan: asbob shkalasining noto‘g‘ri graduirovkalanishi, qo‘zg‘aluvchan qismining noto‘g‘ri mahkamlanishi va hokazolar.

Asbobning (qurilmaning) xatoligi – asbobning noto‘g‘ri qo‘yilishidan yoki uni ba’zi tashqi faktorlar ta’sirida ishlatilishidan kelib chiqadigan xatolikka aytiladi.

Sub’ektiv xatolik – kuzatuvchining aybi bilan chiqadigan xatolikdir.

Xatolikning hosil bo‘lish sababiga qarab o‘lchashning muntazam xatoligi asbobiy, usuliy va subyektivliklarga bo‘linadi.

O‘lchashning asbobiy xatoligi – qo‘llanilayotgan o‘lchov vositalarining xatoliklariga oid bo‘lgan o‘lchash xatoligining tashkil etuvchisi.

Usulning xatoligi – nomukammal usulning qo‘llanilishi natijasida hosil bo‘lgan xatolik.

O‘lchashning subyektiv xatoligi kuzatuvchining o‘ziga xos xususiyatlari, uning ishdagi malakasi, qator fiziologik faktorlar va boshqalar bilan bog‘liq bo‘ladi.
Xuddi shunday o‘lchashlarda qo‘pol xatolik va yanglishish hollari uchraydi.

O‘lchash xatoliklari quyidagicha klassifikatsiyasiyalanadi.

1.Xatoliklar namoyon bo‘lishi xarakteriga ko‘ra; (*muntazam, tasodifiy va qo‘pol xatoliklar*).

2.Sonli ifodalanish usuliga ko‘ra; (*absolyut, nisbiy va keltirilgan xatoliklar*).

3.Kirish kattaligining vaqt bo‘yicha o‘zgarish xarakteriga ko‘ra; (*statik va dinamik*).

4.O‘lchanayotgan kattalikka bog‘liqligiga ko‘ra; (*additiv va multiplikativ*).

5.Atrof-muhit parametrlarining ta’siriga ko‘ra (*asosiy va qo‘shimcha*)

O‘lchash vositalarining xatoliklari quyidagilardir:

1.Absolyut xatolik.

2.Nisbiy xatolik.

3.Keltirilgan xatolik.

O‘lchash asbobining absolyut xatoligi deb, asbobning ko‘rsatishi bilan o‘lchanayotgan kattalikning xaqiqiy qiymati orasidagi farqqa aytiladi

$$\Delta A = A_{o'lch} - A_{xaq} = \pm \Delta A ;$$

Absolyut xatolikning kattalikning haqiqiy qiymatiga nisbatan nisbiy xatolik deb ataladi va %larda ifodalanadi.

$$\delta = \frac{\Delta A}{A_{xaq}} * 100\%;$$

Amalda keltirilgan hatolik deb, nomlangan ya’ni absolyut xatolik asbobining o‘lchash chegarasiga natijasini ham xarakterlaydi.

$$\gamma = \frac{\Delta A}{A_{nno}} * 100\%; ;$$

Foydlanilgan adabiyotlar

1. Князюк Н. Ф., Чеховская С. А.//Изменение системы менеджмента качества в соответствии с международным стандартом iso 9001: 2015// Бизнес-образование в экономике знаний// - № 2 • 2017. – 67 -70 с.
2. Xolmirzayeva M.Z. Mahsulot sifati korxona rivojlanishining muhim omili//Science and Education Scientific Journal. №3. 2022. 63 – 65 betlar.

STANDARTLASHTIRISH IQTISODIY SAMARADORDIGI

To’xtasinova Ozodaxon
Farg‘ona politexnika institute 39-22 gurux talabasi

Hozirgi bosqichda mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida standartlashtirishning o‘rni va ahamiyati oshganligi munosabati bilan “maqbul darajada tartiblashtirishga qaratilgan faoliyat”ni, standartlashtirish ta’rifida ko‘satilganidek, har tomonlama texnik-iqtisodiy asoslash to‘g‘risidagi masala dolzarb bo‘lmoqda.

Bundan standartlashtirish samaradorligining asosiy yunalishlari kelib chiqadi:

– ilmiy-texnikaviy jarayonni tezlashtirish;
– ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat unumdorligini, shu jumladan muhandislik va boshqaruv faoliyatini oshirish;
– mahsulot sifatini oshirish va uning maqbul darajasini ta’minlash;
– mahsulotga talablarni mamlakat mudofaasi ehtiyojlari bilan bog‘lanishni ta’minlash;
– eksportni kengaytirish uchun sharoitlarni ta’minlash;
– iqtisodiyot boshqaruvini tashkillashtirishni takomillashtirish;

– mahsulotni loyihalash va ishlab chiqarish doirasida ixtisoslashtirishni rivojlantirish;
– barcha turdagi boyliklarni tejash;
– axoli sog‘ligini saqlash va ishlovchilar mehnatining xavfsizligini ta’minlash;
– atrof muhitni muhofaza qilish;
– xalqaro iqtisodiy, texnik va madaniy xamkorlikni rivojlantirish.
Tejamkorlik manbalari mahsulotning xayotiy siklining barcha bosqichlarida aniqlanadi. Asosiy manbalar quyidagilardan iborat:

Ishlab chiqish (loyihalash) bosqichida:

– standart texnik hujjatlardan ko‘p marta foydalanish, standart shartli grafik tasvirlarni qo‘llanish, standart hisoblash usullaridan foydalanish va h.k. hisobiga ishlab chiqish (loyihalash) ga mexnat sarfini kamaytirish;

– loyihalar sonini kamaytirish, ishlab chiqiladigan texnik hujjatlar birlik sonlarini qisqartirish;
– tajriba nushalarni tayyorlash va sinashga sarflarni kamaytirish.

Ishlab chiqarish bosqichida:

– ishlab chiqariladigan buyumlar nomenklaturasini qisqartirish, birxillashtirish, seriyalikni oshirish;

– materiallarni sarflash me’yorlarini kamaytirish;
– jihozlarni qayta sozlashga mehnat sarfini kamaytirish;

– sotib olinadigan standartlashtirilgan tarkibiy qismlarga va butlovchi buyumlarga xarajatlarni kamaytirish;

– ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat sarfini kamaytirish;
– buyumlarning sinashga ajratib olinadigan sonini kamaytirish va sinovlarni arzonlashtirish;

– brakni kamaytirish;
– buyumni tamg‘alash va joylashga xarajatlarni kamaytirish;
– jihozlardan foydalanishni yaxshilash;
– ishlab chiqarish siklining davom etish vaqtini qisqartirish;
– mehnatning xavfsizligini oshirnsh.

Foydalanish(iste’mol qilish) bosqichida:

– ekspluatatsion sarflarni qisqartirish (xom ashyo, yoqilg‘i, materiallar va asboblar sarfini kamaytirish va h.k.);

– extiyot qismlar, asbob va moslamalarni kamaytirish;
– ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishga mehnat sarfini kamaytirish;
– foydalaniladigan jihozlarning ish unumini oshirish;
– mahsulot tafsilotlari (xossalari) ni yaxshilash;
– mahsulotni tashish va saqlashda uning saqlanuvchanligini oshirish;
– transport vositalaridan foydalanishni yaxshilash;
– omborxonalardan foydalanishni yaxshilash;
– foydalanishda mehnat xavfsizligini oshirish.

Tashqi savdo sohasida:

– eksportga chiqariladigan mahsulot hajmini oshirish;
– sifati yaxshilangan eksportbop mahsulotga narxni oshirish;

– sotib olinadigan import mahsulot hajmini kamaytirish.

Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi:

Moddiy ifodalangan yillik tejam – mahsulot xayotiy siklining barcha bosqichlarida moddiy va mehnat boyliklarining o‘zgaruvchan ko‘rsatkichlari bo‘yicha, standartni joriy qilishgacha va joriy qilingandan keyin bir yilga hisoblab topiladi.

Narxda ifodalangan yillik tejam – Standartni joriy qilishgacha va joriy qilgandan keyin mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish, muomala va foydalanish (iste’mol qilish) ga xarajatlar o‘rtasidagi bir yilga xisoblangan farq.

Yillik iqtisodiy samara – Narxda ifodalangan yillik tejam va standartni ishlab chiqishga va joriy etishga yillik xarajatlar o‘rtasidagi farq.

Ishlab chiqarish xarajatlari – mahsulotning ma’lum turini ishlab chiqarishga jonli va ilgarigi mehnat sarflari.

Asosiy kapital xarajatlar – Ishlab chiqarish fondlarining yangisini yaratish, qayta tuzish (rekonstruksiya qilish) va amaldagi ishlab chiqarish fondlarini kengaytirishga sarflangan xarajatlar.

Keltirish koeffitsienti – Turli vaqtlardagi sarflar keltirish koeffitsienti yordamida bir hisobiy yilga keltiriladi.

Keltirish me’yori – Keltirish koeffitsaentini aniqlash uchun qo‘llaniladi, 0,1 ga teng o‘zgarmas kattalikdan iborat.

Me’yoriy foyda – Kapital mablag‘lar iqtisodiy samaradorligi me’yoriy koeffitsientining kapital mablag‘lar hajmi ko‘rsatkichiga ko‘paytmasiga teng bo‘lgan keltirilgan harajatlarning tashkil etuvchisi. Me’yoriy foyda kapital mablag‘lar summasidan foiz hisobidagi chegirma kabi aniqlanadi.

Kapital mablag‘larning iqtisodiy samaradorligi me’yoriy koeffitsienti – 0,15 ga teng o‘zgarmas kattalik bo‘lib, kapital mablag‘larning har bir so‘mi kamida me’yoriy, ya’ni kamida 15 tiyin foyda keltirishi lozimligini ifodalaydi.

Aylanma fondlar – Ishlab chiqarishda foydalaniladigan mehnat predmetlari (xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, yonilg‘i va b.). Aylanma fondlar har bir ishlab chiqarish siklida ishlatiladi va o‘zlarining tabiiy shakllarini yo‘qotadi. Ularning narxi darhol tayyorlanadigan mahsulotga ko‘chadi.

Aylanma mablag‘lar – Korxonaning hali sotilmagan tayyor mahsulotda, bankdagi hisobida, g‘aznasida, hisoblarida turgan mablag‘lari. Aylanma mablag‘larga aylanma fondlar va muomala fondlari kiradi.

Asosiy fondlar – Ko‘p ishlab chiqarish sikllarida ko‘p marta qatnashuvchi, bunda o‘zining tabiiy shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalari (binolar, inshoatlar, uzatish qurilmalari, mashina va jihozlar, transport, asbob, ishlab chiqarish asbob-uskunalari, ishchi va mahsuldor xayvon, ko‘p yillik ekinlar, o‘rmonzorlar va suvli erlar).

Keltirilgan xarajatlar – Tannarx va me’yoriy foyda yig‘indisidan iborat. **Ishlab chiqarish fondlari** – Ishlab chiqarish vositalari, asosiy fondlar va aylanma fondlarni o‘z ichiga oladi.

Kapital mablag‘larning iqtisodiy samaradorlik hisobiy koeffitsienti – yillik tejamning standartni ishlab chiqish va joriy etishga bir yilga keltirilgan xarajatlariga nisbati.

Mahsulotning tannarxi – Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari. **Kapital mablag‘larning qoplanish muddati** – qo‘shimcha kapital mablag‘ - xarajatlarning yillik tejamga nisbati.

Vaqt omili – Turli vaqtlardagi xarajatlarni keltirish koeffitsienti yordamida bir, xisobiy yilga keltirish.

Iqtisodiy samaradorlik – Iqtisodiy natijalarga erishish maqsadlari va vositalarini bir butun qilib birlashtiruvchi, maqsadga yunaltirilgan tizimlarning mukammal ishlashini ifodalovchi tushuncha.

Tejam – Boyliklarni tejab-avaylab sarflaganda olinadigan foyda. **Iqtisodiy samara** – Topshiriqdagi maqsadga erishishga ketgan xarajatlarni chiqargandan keyin qolgan tejam.

Standartlaltirishning samaradorligini aniqlash yangi texnikani joriy etishdan ko‘riladigan iqtisodiy samarani aniqlash umumiy formulalariga asoslangan. Umumiy holda hisoblarda to‘rtta asosiy ko‘rsatkich qo‘llaniladi:

I *Kapital mablag‘lar*. Kapital mablag‘larning yillik hajmining o‘zgarishi ΔK quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi: bunda K_2 – tadbirlar bajarilgandan keyin kapital mablag‘larning yillik hajmi, so‘m; K_1 – tadbirlar bajarilmasidan oldin kapital mablag‘larning yillik hajmi, so‘m.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. https://en.fsa.gov.ru/
2. https://rst.gov.ru/
3. https://www.rudn.ru/education/educational-programs/531e6ea6-030e-11eb-8115-00155d2f7f02

II-SHO‘BA. TRANSPORT, AVTOMOBILSOZLIK, MASHINASOZLIK VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHALARIDA METROLOGIYA VA TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISHNING O‘RNI

METHODOLOGY FOR CONTROLLING DIMENSIONAL TOOL WEAR

Fayzimatov Shukhrat Numanovich
Fergana polytechnic insitute, DSc, sh.fayzimatov@ferpi.uz
YakupovArtur Mansurovich
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov,PhD,
Artur.yakupov1989@mail.ru
Gafurov Akmaljon Mavlonjonovich
Fergana polytechnic insitute, PhD,
Fergana polytechnic institute, a.gafurov@ferpi.uz.

Annotation. *Determining errors that occur during the cutting of surfaces of parts in mechanical engineering remains the most important task. Before cutting the surfaces of the workpieces, it is necessary to study the working surfaces of the dies. This article provides information on methods for determining the geometric parameters of the surface when cutting with stamps on shaped surfaces, in particular on the structure of the cutting zone of shaped surfaces, the penetration of the cutter into the cutting zone and control conditions in the cutting zone.*

Keywords: *strength parameters, diagnostics, models, cutting area, strength, durability, stamping, stamping form, cutting parameters.*

Introduction. CNC B workbenches are carrying out extensive scientific and research work on studying the effect of the forces acting on the cutting tools on the quality of the details, accuracy and the wear resistance of the cutting tools through diagnostic systems during the mechanical processing of the complex-shaped details. In this direction, among other things, research on increasing the service life of cutters on the basis of reducing the amount of cuttings during the processing of complex-shaped details, on the basis of reducing the effect of radial forces affecting the processing surface is considered a priority. At the same time, the development of adaptive software for automatic selection of force diagnostic features and calculation of their limit values, taking into account the reliability of the state of the cutting tool, remains one of the urgent tasks of today.

Materials and Methods.

When processing modern materials, tool life is one of the main indicators of its performance. As the tool wears, cutting forces increase and the geometry of the tool changes.

To determine the durability, it is necessary to know the tool dullness criterion, which depends on the requirements for the workpiece being processed. In production, the main criterion for dullness is the width of the wear chamfer along the back surface of the tool.

The wear characteristic is usually relative linear wear, which is usually determined by the formula:

$$h = \frac{100 \cdot h_3}{l}$$

Where h_3 - experimentally frozen wear on the rear surface, mm;
l- distance traveled, mm.

Relationship between the values of radial dimensional wear and tool wear along the flank surface with the clearance angle of the cutter




Figure.1

Relationship between the values of radial dimensional wear and tool wear along the flank surface with the rake angle of the cutter




Figure.2

To calculate the value of relative linear wear for carbide tools, we use the formulas obtained in [2,3].

When working at speeds less than or equal to optimal:

$$h = 0.095 \cdot m_1^7 \cdot \alpha^{0,4} \cdot \left(\frac{б_0}{1+\delta}\right)^{10} \cdot E^{0.037} \cdot \left(\frac{Q_u}{Q_0}\right)^6,$$

when working at speeds greater than optimal:

$$h = 0.095 \cdot m_1^7 \cdot \alpha^{0,4} \cdot \left(\frac{б_0}{1+\delta}\right)^{10} \cdot E^{0.037\cdot\left(\frac{Q_u}{Q_0}\right)^6} \cdot \left(\frac{V}{V_0}\right)^{0.011\cdot\left(\frac{Q_u}{Q_0}\right)^9},$$

Where $б_0$ - a dimensionless criterion that reflects the influence of the physical and mechanical characteristics of the material being processed on the wear process;

$m = \frac{\tau_p}{\sigma_B}$ - ratio of plastic shear strength to tensile strength, н/м^2;

E - критерий подобия, характеризующий влияние на процесс резания толщины срезаемого слоя;

δ- relative elongation of the processed material;

$Q_и$- melting point of tool material, degrees.;

Q_o - optimal temperature in the cutting zone, degrees.;

V_o - optimal cutting speed, m/min.

The processing error caused by dimensional wear of the tool can be determined by the following formula: [3,4]

$$Δ_и = h_{о.л.} \cdot V \cdot T,$$

Where $Δ_и$- processing error caused by dimensional wear of the tool, mm;

T - tool operating time, min;

$h_{о.л.}$- relative linear wear value;

V- cutting speed, m/min.

Of the processing modes, the magnitude of the dimensional wear error is mainly influenced by the cutting speed. Makarov A.D. [50] proved the presence of a clearly defined minimum relative wear in the zone of optimal cutting temperatures. Moving away from the minimum to the right or to the left entails an increase in the relative wear of the tool. Depth of cut and feed have little effect on the change in wear rate.

Therefore, to control accuracy in finishing and finishing conditions, it is necessary to assign a speed that would ensure minimal relative wear. Calculation of speed is possible based on known empirical dependencies [5].

Conclusion.

1. Designing a multi-pass operation consists of determining the required number of passes, distributing preferences between them, and determining the cutting modes at each pass. This problem is solved using dynamic programming method. As a result, a computer program is created that allows you to determine the optimal number of passes for the operation, the depth of cut for each pass, and the thrust that provides the specified accuracy. The developed program can be used both as an independent

software module for manual preparation of control programs and as a block in CAD mode for surface milling operations.

2. Using the analytical force relationships, expressions are derived to calculate the thrust limits of end milling cutter holder strength, end milling cutter holder accuracy, end milling cutter plate strength, machine tool core strength, and machining accuracy. This set of constraints is taken into account when designing multi-pass processing.

References:

1. A.Yakupov, Y.Khusanov. Methods for removing defects on the surface of parts in the process of stamping. Scientific progress volume 3 | ISSUE 2 | 2022 ISSN: 2181-1601. (SJIF, Factor= 5.016).
2. Sh.N.Fayzimatov, A.Yakupov, Y.Khusanov. Optimization of deep hole machining with centrifugal rolling. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 9, Issue 11 November 2022. (SJIF, Factor= 6.684).
3. А.Якупов. Обработка отверстий центробежным раскатыванием. Eurasian journal of academic research Volume 2 Issue 12, November 2022 ISSN 2181-2020. (SJIF, Factor= 5.685).
4. Sh.N.Fayzimatov, A.Yakupov, A.M.Gafurov. Determination of the shape and dimensions of deforming elements according to a given shape and dimensions of the contact zone Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022 ISSN: 2181-1385. (SJIF, Factor= 5.759).

ANALYTICAL RELATIONSHIP BETWEEN RADIAL DIMENSIONAL WEAR OF A TOOL AND WEAR OF A TOOL ALONG THE FLANK SURFACE

Fayzimatov Shukhrat Numanovich
Fergana polytechnic insitute, DSc, sh.fayzimatov@ferpi.uz
YakupovArtur Mansurovich
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov,PhD,
Artur.yakupov1989@mail.ru
Gafurov Akmaljon Mavlonjonovich
Fergana polytechnic insitute, PhD,
Fergana polytechnic institute, a.gafurov@ferpi.uz.

Annotation. *Determining errors that occur during the cutting of surfaces of parts in mechanical engineering remains the most important task. Before cutting the surfaces of the workpieces, it is necessary to study the working surfaces of the dies. This article provides information on methods for determining the geometric parameters of the surface when cutting with stamps on shaped surfaces, in particular on the structure of*

the cutting zone of shaped surfaces, the penetration of the cutter into the cutting zone and control conditions in the cutting zone.

Keywords: *strength parameters, diagnostics, models, cutting area, strength, durability, stamping, stamping form, cutting parameters.*

Introduction. CNC B workbenches are carrying out extensive scientific and research work on studying the effect of the forces acting on the cutting tools on the quality of the details, accuracy and the wear resistance of the cutting tools through diagnostic systems during the mechanical processing of the complex-shaped details. In this direction, among other things, research on increasing the service life of cutters on the basis of reducing the amount of cuttings during the processing of complex-shaped details, on the basis of reducing the effect of radial forces affecting the processing surface is considered a priority. At the same time, the development of adaptive software for automatic selection of force diagnostic features and calculation of their limit values, taking into account the reliability of the state of the cutting tool, remains one of the urgent tasks of today.

Materials and Methods.

There is a definite relationship between the amount of radial dimensional wear of the cutter and wear of the tool along the flank surface. Until now, this relationship has been expressed by the following formula.:

$h_3=l_3 \cdot tg\alpha$

Where h_3 - amount of radial wear of the cutter;

l_3 - amount of cutter wear on the flank surface;

$tg\alpha$ - value of the back angle of the milling cutter.

Based on experimental data and research results of other authors [1,3], it is known that this dependence is approximate and reflects only the order of magnitude of radial wear. Therefore, it is necessary to have a more accurate analytical dependence; to obtain it, we will use the calculation scheme, considering that the value of the wear chamfer of the milling cutter on the rear surface is small compared to the dimensions of the part and can be considered rectilinear.

Let's find the value of AC from triangles ΔAOC и ΔABC.

1. Using the theorem of sines:

$\frac{OC}{COA} = \frac{OA}{ACO}$, therefore OC = R+ h_3

$\angle ACO=\arcsin\frac{R \cdot sin\varphi}{R+h_3}$

angle size AOC equal to

$\angle ACO=180^o-\angle CAO-\angle ACO=\gamma-\arcsin\frac{R \cdot sin\varphi}{R+h_3}$

Then:

$\frac{OC}{sinAOC} = \frac{AC}{sinOAC}$, or

$$AC = \frac{(R + h_3) \cdot sin(\gamma - arcsin\frac{R \cdot sin\varphi}{R + h_3})}{sin(180° - \gamma)}$$

making trigonometric transformations, we finally get:

$$AC = \sqrt{R^2 \cdot cos^2\gamma + 2R \cdot h_3 + h_3^2 - R \cdot cos\gamma}$$

2. From ΔABC

$\frac{AC}{sinABC} = \frac{BC}{sinBAC}$; BC=$l_3$ ∠BAC=90°-(α+γ), then

$$\angle ABC = arcsin\frac{\sqrt{R^2 \cdot cos^2\gamma + 2R \cdot h_3 + h_3^2} - R \cdot cos\gamma) \cdot sin(\alpha + \gamma)}{l_3}$$

The magnitude of angle ACB is equal to

$$\angle ABC = 180° - (90° - \alpha - \gamma) - arcsin\frac{\sqrt{R^2 \cdot cos^2\gamma + 2R \cdot h_3 + h_3^2} - R \cdot cos\gamma) \cdot sin(\alpha + \gamma)}{l_3}$$

or

$$\angle ACB = 90° + \alpha + \gamma + arcsin\frac{\sqrt{R^2 \cdot cos^2\gamma + 2R \cdot h_3 + h_3^2} - R \cdot cos\gamma) \cdot sin(\alpha + \gamma)}{l_3}$$

Then

$$\frac{AB}{sinACB} = \frac{BC}{sinBAC}$$

$$AB = \frac{l_3(cos(\alpha + \gamma))}{cos[\alpha + \gamma + arcsin\frac{\sqrt{R^2 \cdot cos^2\gamma + 2R \cdot h_3 + h_3^2} - R \cdot cos\gamma) \cdot sin(\alpha + \gamma)}{l_3}]}$$

3. From a triangle AOB

∠AOB=$\angle AOC$ + ∠COB

∠COB=2·arcsin$\frac{BC}{2 \cdot CO} = 2 \cdot arcsin\frac{l_3}{2 \cdot (R + h_3)}$

angle AOC was defined above, then

$\angle AOB$=γ-arcsin$\frac{R \cdot sin\gamma}{R + h_3} + 2 \cdot arcsin\frac{l_3}{2 \cdot (R + h_3)}$

Then, by the cosine theorem, we have:

$$AB = \sqrt{BO^2 + OA^2 - 2 \cdot BO \cdot OA \cdot cos\angle AOB}$$

$$= \sqrt{(R + h_3)^2 + R^2 - 2 \cdot (R + h_3) \cdot R \cdot cos\left(\gamma - arcsin\frac{R \cdot sin\gamma}{R + h_3} + 2 \cdot arcsin\frac{l_3}{2 \cdot (R + h_3)}\right.}$$

Equating expression and we obtain:

$$\frac{l_3(cos(\alpha + \gamma))}{cos[\alpha + \gamma + arcsin\frac{(\sqrt{R^2cos^2\gamma + 2R \cdot h_3 + h_3^2} - R \cdot cos\gamma) \cdot sin(\alpha + \gamma)}{l_3}]}$$

$$= \sqrt{(R + h_3)^2 + R^2 - 2 \cdot (R + h_3) \cdot R \cdot cos\left(\gamma - arcsin\frac{R \cdot sin\gamma}{R + h_3} + 2 \cdot arcsin\frac{l_3}{2 \cdot (R + h_3)}\right.}$$

This expression cannot be solved explicitly and is a transcendental equation that can be solved by numerical methods using a computer. What was and was done. The results of machine modeling illustrating the relationship between radial dimensional wear and tool wear along the flank surface are shown.

The developed mathematical model can be used for any combination of input parameters, and allows you to calculate the value of both radial wear and the amount of tool wear along the flank surface, depending on the geometric parameters of the tool, the dimensions of the part and the accuracy of its manufacture.

Conclusion.

3. Designing a multi-pass operation consists of determining the required number of passes, distributing preferences between them, and determining the cutting modes at each pass. This problem is solved using dynamic programming method. As a result, a computer program is created that allows you to determine the optimal number of passes for the operation, the depth of cut for each pass, and the thrust that provides the specified accuracy. The developed program can be used both as an independent software module for manual preparation of control programs and as a block in CAD mode for surface milling operations.

4. Using the analytical force relationships, expressions are derived to calculate the thrust limits of end milling cutter holder strength, end milling cutter holder accuracy, end milling cutter plate strength, machine tool core strength, and machining accuracy. This set of constraints is taken into account when designing multi-pass processing.

References:

5. A.Yakupov, Y.Khusanov. Methods for removing defects on the surface of parts in the process of stamping. Scientific progress volume 3 | ISSUE 2 | 2022 ISSN: 2181-1601. (SJIF, Factor= 5.016).

6. Sh.N.Fayzimatov, A.Yakupov, Y.Khusanov. Optimization of deep hole machining with centrifugal rolling. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 9, Issue 11 November 2022. (SJIF, Factor= 6.684).

7. А.Якупов. Обработка отверстий центробежным раскатыванием. Eurasian journal of academic research Volume 2 Issue 12, November 2022 ISSN 2181-2020. (SJIF, Factor= 5.685).

8. Sh.N.Fayzimatov, A.Yakupov, A.M.Gafurov. Determination of the shape and dimensions of deforming elements according to a given shape and dimensions of the contact zone Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022 ISSN: 2181-1385. (SJIF, Factor= 5.759).

9. Sh.N.Fayzimatov, A.Yakupov, A.M.Gafurov The geometry of the contact surface during plastic deformation. Web of scientist: international scientific research journal ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 12, Dec., 2022. (SJIF, Factor= 5.949)

KARTOSHKA TUGANAKLARINI TASHISH, SARALASH VA UZATIB BERISH UCHUN ISHLATILADIGAN KONVEYERLARNING UNUMDORLIK KO‘RSATKICHLARI

[1]Bahadirov G‘ayrat Ataxanovich, [1]Umarov Behzod Turg‘unpo‘latovich, [1]Gulmatov Akmal Bahodirovich, [2]Tursunaliev Ismoil Esonalievich

[1]O‘zR FA M.T.O‘rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti, [2]Farg‘ona politexnika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan kartoshka, piyoz va turli mevalarni saralash – kalibrlash mashinalari transportyorining unumdorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan.*

Tayanch so‘zlar: *saralash, kartoshka tuganaklari, tashuvchi transportyor, uyumni tozalash, ajratish moduli, transportyor.*


Saralash mashinalarining ma’lum sharoitlar uchun mos keladigan turini tanlab olishda uning barcha ko‘rsatkichlari inobatga olinishi kerak. Kartoshka va sabzavotlar, poliz mahsulotlari hosili yig‘ib olingandan keyin ishlov berish mashinalarining ko‘rsatkichlarini aniqlash usullarining hukumatlararo standarti qabul qilingan. Jumladan, “GOST 34490–2018” standart talablarga ko‘ra kartoshka hosilini yig‘ib olingandan keyin ishlov berish mashinalari ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun standart talablar belgilangan. Mazkur talablar O‘zbekiston Respublikasi uchun ham amal qiladi. Standart talablarga ko‘ra mahsulot yig‘ib olingandan keyin ishlov berish texnologik jarayonining sifatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar mashinaning o‘tkazuvchanligi ya’ni samaradorligi, saralash aniqligi va jarayon davomida mahsulotning shikastlanish ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Yig‘ishtirip olingandan keyingi kartoshka hamda dala sabzavot ekinlarini qayta ishlash sifatini oshirish maqsadida kartoshkani texnik nuqtai nazardan, tuganaklarni saralashning texnik tizimi asosiy parametrlarini ko‘rib chiqish va asoslash kerak. Mahsulotlar sifatini yaxshilash, dala sabzavot ekinlari va kartoshka tuganaklarini

qayta ishlash imkoniyatini baholash uchun yig‘ishtirip olingandan keyingi ishlov berish hamda ortiqcha aralashmalarni ajratish (AA), fraksiyalar bo'yicha saralashni belgilaydigan blokni batafsil ko'rib chiqamiz.

Kartoshka tuganaklarini yig‘ishtirip olingandan keyin qayta ishlash operatsiyalarining samarali bajarilishi turli xil ishchi organlar va qurilmalarni yagona texnologik liniyaga birlashtirish orqali amalga oshiriladi [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7] va quyida uning funksional sxemasi 1-rasmda keltirilgan hamda u quyidagilarni o'z ichiga oladi: qabul bunkeri (QB), yuklash transportyori (YT), ajratish moduli (AM), saralash moduli (SM), saralash stoli (SS).

Qabul bunkeri, uzatish transportyori, uyumni tozalagich qayta ishlangan mahsulotlarni qabul qilish va ularni o'lchamlari bo'yicha saralashga tayyorlash uchun mo'ljallangan [8, 9, 10].



1-rasm. Kartoshka tuganaklarini yig'ib olingandan keyin qayta ishlashning funksional sxemasi: QB - qabul bunkeri; YT - yuklash transportyori; AM - ajratish moduli; SM — saralash moduli; SS-saralash stoli; X_{QB}, X_{YT}, X_{AM}, X_{SM} va X_{SS} - qabul bunkeri, yuklash transportyori, ajratish moduli, saralash moduli va saralash stollarining tashqi funksiyalari; Z_{QB}, Z_{YT}, Z_{AM}, Z_{SM} va Z_{SS} -qabul bunkeri, yuklash transportyori, ajratish moduli, saralash moduli va saralash stollarining holat funksiyalari; U_{QB}, U_{YT}, U_{AM}, U_{SM} va U_{SS} - qabul bunkeri, yuklash transportyori, ajratish moduli, saralash moduli va saralash stollarining boshqaruv ta'sirining funksiyalari; Y_{QB}, Y_{YT}, Y_{AM}, Y_{SM} va Y_{SS} - qabul bunkeri, yuklash transportyori, ajratish moduli, saralash moduli va saralash stollarining natijaviy parametrlari

Yig‘ishtirip olingandan keyin kartoshka tuganaklari va dala sabzavot ekinlari

yig'ib olinganidan keyin qayta ishlash unumdorligi va saralash liniyalarining parametrlari quyidagi (2.1-2.8) formulalar bilan aniqlanadi [11].

Ajratish modulining unumdorligi $W_{A.M.}$ - vaqt birligi ichida ajratilgan tuganaklar soni:

$$W_{A.M.} = \frac{N}{t}, \tag{2.1}$$

bu erda: N - tuganaklar soni; t – vaqt, s.

Kartoshka tuganaklari uyumini ajratish modulining $W_{A.M.}$ unumdorligi (2-rasm) bir tomondan, ta’minlash transportyori tasmalarining oldinga harakatlanish tezligi bilan bog'liq bo'lgan o’tkazuvchanlik $W_{П.Т.}$ unumdorligi bilan belgilansa; boshqa tomondan esa kartoshka tuganaklari uyumini tozalash unumdorligi $W_{O.B.}$ bilan belgilanadi [11]:


$$W_{A.M.} = W_{T.T.} + W_{U.T.} \rightarrow \max \tag{2.2}$$

bu yerda $W_{T.T.}$ — ta’minlash transportyorining unumdorligi kg/s; $W_{U.T.}$ - kartoshka tuganaklari uyumini tozalash unumdorligi, kg/s.

Ta’minlash transportyorining unumdorligi (2.3) ifoda bilan aniqlanadi [11].

$$W_{T.T.} = \rho_K \cdot v_{T.T.} \cdot B_{T.T.} \cdot L_{T.T.} \cdot \gamma \cdot c \quad \Rightarrow \quad v_{T.T.} = \frac{W_{T.T.}}{\rho_K \cdot B_{T.T.} \cdot L_{T.T.} \cdot \gamma \cdot c} \tag{2.3}$$

bu yerda ρ_K - kartoshka tuganaklari uyumining hajmiy massasi, kg/m^3; $v_{T.T.}$ - ta’minlash transportyori tasmalarining oldinga harakatlanish tezligi, m/s; $B_{T.T.}$ - ta’minlash transportyori tasmasining kengligi, m; $L_{T.T.}$ - ta’minlash transportyori tasmasining ishchi zonasining uzunligi, m; γ - tasmani to'ldirish koeffitsiyenti, $\gamma = 0.04...0.06$; c - tasmaning qiyalik burchagini hisobga oluvchi koeffitsiyent, c = 0,85.



2-rasm. Kartoshka tuganaklari uyumlarini ajratish modulining konstruktiv-texnologik sxemasi: 1- qabul qilish yo‘lagi; 2- qiya yo‘lak; 3- uyumni tozalash qurilmasi; 4- ajratish vallari; 5-taminlash transportyori

Ajratish modulida kartoshka tuganaklarini ajratishning texnologik jarayonini sifatli amalga oshirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

$$W_{T.T.} < W_{U.T.}, \tag{2.4}$$

agarda ushbu shart bajarilmasa taminlash transportyori orqali uzatilayotgan mahsulot uyumni tozalash qurilmasida me’yordan ortiq darajada ko‘payib ketishi va mahsulot uyumni tozalash sifatini tushurib yuborishi mumkin.

Kartoshka tuganaklari uyumini tozalash vositasining ishlash unumdorligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi [3]:

$$W_{U.T.} = B_{U.T.} \cdot h_C \cdot v_{U.T.} \cdot z_{U.T.} \cdot \rho_K \cdot \gamma_1 \tag{2.5}$$

bu yerda: $B_{U.T.}$ - ajratuvchi vallarning kengligi, *m*; h_C - tuganak qatlamining qalinligi, *m*; $v_{U.T.}$ - ajratuvchi vallarning chiziqli tezligi, *m/s*; $z_{U.T.}$ - ajratish vallari soni, dona; γ_1 - uyumni tozalash qurilmasi ishchi yuzasini to'ldirish koeffitsiyenti, γ_1=0,06.

Tozalagich ishchi yuzasining ajratish zonasiga kiradigan tuganak uyumi tiqilib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun biz quyidagilarni qabul qilamiz: $v_{U.T.} > v_{T.T.} = 1{,}1$ *m/s*. Bu tengsizlikda *1,1 m/s* olinganligining sababi ajratuvchi vallarning tezligi taminlash transportyorining tezligidan katta bo‘lishi lozim, aks holda uyum yaxshi tozalanmaydi va uyumni tozalash zonasida tiqilip qolishi ehtimoli mavjud.

(2.5) ifodaga ko’ra, ajratish vallarining soni $z_{U.T.}$:

$$z_{U.T.} = \frac{W_{U.T.}}{B_{U.T.} \cdot h_C \cdot v_{U.T.} \cdot \rho_K \cdot \gamma_1} \tag{2.6}$$

Ajratish vallarining chiziqli tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$v_{U.T.} = \omega_{U.T.} \cdot R_{U.T.} = \frac{\pi \cdot n_{U.T.}}{30} \cdot R_{U.T.} \tag{2.7}$$

Bu yerda: $\omega_{U.T.}$ - ajratish valining burchak tezligi, *rad/s* ; $R_{U.T.}$ - ajratish valining radiusi, *m* ; $n_{U.T.}$ - ajratish valining aylanishlar chastotasi, min^{-1} ;

Shunday qilib, quyidagi (2.6) va (2.7) formulalarga ko'ra, kartoshka tuganaklarini ajratish texnologik jarayonining sifatli amalga oshirish sharti (2.4) quyidagi ko’rinishda bo’ladi.

$$v_{T.T.} \cdot B_{T.T.} \cdot L_{T.T.} \cdot c < \frac{\pi \cdot n_{U.T.}}{30} \cdot R_{U.T.} \cdot z_{U.T.} \cdot h_C \cdot B_{U.T.} \quad (2.8)$$

(2.7) ifoda $n_{U.T.}$ aylanish chastotasini uyum tozalagich va ta’minlash transportyorining ishchi zonasining uzunligi $L_{T.T.}$ hamda turli kenglikdagi tasma $B_{T.T.}$ shuningdek, radius $R_{U.T.}$ va ajratuvchi roliklarning soni $z_{U.T.}$ orqali asoslashga imkon beradi:

$$n_{U.T.} > \frac{30 \cdot v_{T.T.} \cdot B_{T.T.} \cdot L_{T.T.} \cdot c}{\pi \cdot R_{U.T.} \cdot z_{U.T.} \cdot h_C \cdot B_{U.T.}} \quad (2.9)$$

Yuqorida 1-rasmda keltirilgan funksional sxemasi bo'yicha kartoshka tuganaklarini yig'ib olingandan keyin qayta ishlashning navbatdagi texnologik operatsiyasida saralash moduli (SM) va saralash stoli (SS) bilan ifodalangan texnologik jarayonlar bilan tayyor mahsulotlarni agrotexnik talablarga muvofiq fraksiyalarga ajratish mumkin [11].

Xulosa qilib aytganda maqolada kartoshka tuganaklarining yig’ishtirib olingandan keyingi qayta ishlash texnologiyasining funksional jarayonlari keltirilgan hamda saralash jarayoni qanday hollarda unumdorlik koeffitsienti yuqori bo’lishi shuningdek har bitta ishlov berish jarayonlarining unumdorlik ko’rsatgichlarini aniqlagan holda ish jarayonining samaradorligini bilib olishimiz mumkin bo’ladi, chunki har bitta ishda unumdorlik ko‘rsatkichi yuqori o‘rinda turuvchi faktorlarda hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Бишоп, К. Ф. Механизация производства и хранения картофеля / К. Ф. Бишоп. – М.: Колос, 1983. – 256 с.
2. Бышов, Н. В. Влияние конструктивно-технологической схемы на показатели работы картофелеуборочной машины / Н. В. Бышов [и др.] // Вестник Рязанского государственного агротехнологического университета им. П.А. Костычева. – 2019. – № 1 (41). – С. 108–114.
3. Голиков, А. А. Совершенствование технологичеcкого процесса и рабочего органа сепарации картофелеуборочных машин: дис. … канд. техн. наук / А. А. Голиков. – Рязан, 2014. – 138 с.
4. Горячкин, В. П. Собрание сочинений /В.П. Горячкин. – М.: Колос, 1965. – Т.3. – 384 с.
5. Колчин, Н. Н. О сортировании картофеля по размерным признакам / Н. Н. Колчин, Е. А. Смехунов // Механизация и электрификация социалистического селского хозяйства, – 1975, – № 9. – С. 13–-15.
6. Колчин, Н. Н. Технологии и техника для производства картофеля / Н. Н. Колчин, С. С. Туболев // Картофел и овощи. – 2017, – №1. – С. 21 – 25.

7. Старовойтова, О. А. Конкурентоспособные технологии семеноводства, производства и хранения картофеля / О. А. Старовойтова, С. В. Жевора, В. И. Старовойтов, Е. В. Овэс, А. В. Коршунов, А. А. Манохина, В. И. Балабанов, В. Ф. Федоренко, И. Г. Голубев, П. С. Звягинцев, В. В. Зуев, Н. В. Воронов // – Москва, – 2018. – 236 с.

8. Патент № 2708166 Россия, МПК A23N 15/00. Линия для послеуборочной обработки, предпосадочной и товарной подготовки корнеклубнеплодов и луковиц / А. Г. Аксенов, А. В. Сибирёв, А. Ю. Измайлов, А. С. Дорохов, Н. В. Сазонов. – № 2019103164; Заяв. 05.02.2019; Опубл. 04.12.2019, Бюл. № 34

9. Патент № 2727843 Россия, МПК A01D 33/08. Сепарирующий модул вороха корнеплодов и луковиц / А. С. Дорохов, А. В. Сибирёв, А. Г. Аксенов, М. А. Мосяков, Н. В. Сазонов – № 2020104053; Заяв. 30.01.2020; Опубл. 24.07.2020, Бюл. № 21.


KARTOSHKANI BIRLAMCHI SARALASH ZONASIGA ELTUVCHI QURILMA BOSHQARUV OBYEKTI KONVEYERINING UMUMIY UZATISH FUNKSIYASI

[1]G.A.Bahadirov , [1]B.T.Umarov , [1]A.B.Gulmatov, [2]I.E.Tursunaliev
[1]O’zR FA M.T.O‘rozboyev nomidagi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti, [2]Farg‘ona politexnika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada saralash punktlaridagi poliz ekinlari va meva sabzavotlarni saralashda ishlatiladigan avtomatik boshqariladigan konveyerning umumiy uzatish funksiyasini aniqlashga qaratilgan bo’lib, boshqaruv obyektining funksional hamda strukturaviy sxemalari keltirilgan hamda shular asosida boshqaruv obyektining umumiy uzatish funksiyasi aniqlangan.*


Kalit so’zlar: *konveyer, funksional sxema, strukturaviy sxema, boshqaruv obyekti, zveno, saralash.*

Hozirgi kunda texnologiya shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda avtomatika ya’ni tizimlarni avtomatlashtirish ham juda tez suratlarda rivojlanib bormoqda. Shu qatorda xozirgi kunda qishloq xo’jaligi mahsulotlarini yig’ishtirish hamda ularni saralash va qadoqlash ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Saralash punktlarida poliz ekinlari va meva-sabzavotlarni saralash jarayonlarni avtomatlashtirish ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Quyida saralashda ishlatiladigan konveyerlarni avtomatlashtirish uchun funksional blok hamda struktura sxema, uzatish funksiyalarini ko’rib chiqamiz.




1-rasm. Boshqariluvchi obyekt

Har qanday avtomatik boshqarish sistemasi ikkita asosiy qismdan iborat bo‘lib, ular boshqarish obyekti *(BO)* va boshqarish qurilmasi *(BQ)* deyiladi. Boshqarish obyektining holati boshqariladigan kattalik yoki sistemaning chiqish kattaligi *U* bilan xarakterlanadi. Boshqaruvchi qurilma kirishiga U_0 ta'sir qo'yiladi va berilgan ta’sir deyiladi. Ushbu ta'sir chiqish kattaligining talab etilgan qiymati va boshqarish bo‘yicha ko‘zda tutilgan maqsaddan kelib chiqqan holda o‘zgaradi. Buning natijasida *BQ* chiqishida boshqaruvchi ta’sir *X* paydo bo‘ladi va *BO* kirishiga beriladi va shu tariqa boshqarish jarayoni amalga oshiriladi. Kartoshkani saralash zonasigacha eltuvchi qurilma uchun avtomatik boshqariladigan konveyerning umumiy uzatish funksiyasini ko’rib chiqamiz. Shu sababli oldin strukturaviy sxemani tuzib olishimiz kerak bo’ladi. Strukturaviy sxema avtomatik tizimni tashkiliy qismlarining o‘zaro bog‘lanishlarini ko‘rsatib, ularning dinamik xususiyatlarini tavsiflaydi. Strukturaviy sxemalar funksional va prinsipial sxemalar asosida ishlanadi. Strukturaviy sxemada aniq vosita, rostlagich, element ko‘rsatilmasdan, balki o‘tayotgan fizikaviy jarayonning matematik modeli ko‘rsatiladi. Strukturaviy sxemada elementlar to‘rtburchak shaklida ifodalanadi va ularning ichida elementning matematik modeli yoziladi (2a,b- rasm). Boshqarishning strukturaviy sxemalari boshqarish tizimining asosiy funktsional qismlari va ularning maqsadi va o‘zaro bog‘lanishlarini ifodalaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishning strukturaviy sxemalari quyidagicha ifodalaniladi va uni avtomatlashtirilgan konveyer misolida ko’ramiz:




a)



b)


2-rasm. a va b avtomatik boshqariladigan konveyerning funksional va strukturaviy sxemasi

Biz ko’rib chiqayotgan sistemada boshqarish qurilmasi kirishiga berilgan ta’sir $u_0 = \alpha_{i-1}, \omega_{i-1}, v_{i-1}, m_{i-1}$ va chiqish kattaligi *m* bo‘yicha ta'sirlar beriladi (2a-rasm). Bu sistema teskari bog’anishga ega bo‘lib, u $\xi = u_0 - m$ farq asosida ishlaydi. Bu prinsip *og'ish prinsipi* deyiladi[1].



3-rasm. Boshqaruv obyektining funksional sxemasi

Bu yerda boshqaruv obyektining uzatish funksiyasini topishimiz kerak. Shu sababli ularni 3 ta zvenoga ajratib olamiz:



4-rasm. Boshqaruv obyektining har bitta zvenosiga kiruvchi va chiquvchi kattaliklar tasvirlangan funksional sxema

Har bitta zveno uchun uzatish funksiyasi quyidagicha bo’ladi:

$$W_1 = K_1 \qquad W_2 = \frac{K_2}{T \cdot S + 1} \qquad W_3 = \frac{K_3}{T \cdot S + 1} \tag{1.1}$$

K-kuchaytirish koeffitsiyenti, *T*-vaqt doimiysi

W_1 oddiy proporsional hamda W_2 va W_3 esa birinchi darajali inversion zvenolar hisoblanadi. Bu zvenolarning uzatish funksiyalarini yuqorida ko’rdik, endi esa bu zvenolarning umumiy uzatish funksiyasining kiruvchi va chiquvchi kattaliklari bir-biri bilan qanday bog’liqlikda ekanligini ko’rib chiqamiz.

W_1 proporsional zveno eng oddiy zveno hisoblanadi va unda chiqish kattaligi kirish kattaligiga proporsioanl tarza o’zgaradi va uning differensial tenglamasi quyidagi ko’rinishda bo’ladi.

$$y = k_1 x \tag{1.2}$$

Ushbu differensial tenglamadan foydalanib birinchi zveno uchun differensial tenglamani yozib olamiz:

$$\alpha = k_1\omega \Rightarrow k_1 = \frac{\alpha}{\omega} \tag{1.3}$$

Zveno kirishiga $x = X_m \sin\omega t$ garmonik tasir berilgan holda, chiqishda ham garmonik signal $y = Y_m \sin\omega t$ ega bo’lamiz. Bu holda, kompleks amplitudalar quyidagi ko’rinishda bo’ladi.

$$\dot{X}_m = X_m \tag{1.4}$$

$$\dot{Y}_m = k_1 X_m \tag{1.5}$$

Proporsional zvenoning kuchaytirish koeffitsiyenti

$$W(j\omega) = \frac{\dot{Y}_m}{\dot{X}_m} = k_1 \tag{1.6}$$

Demak uzatish funksiyasi

$$W_1(p) = k_1 = \frac{\alpha}{\omega} \tag{1.7}$$

amplituda-chastota xarakteristikasi $A(\omega) = k$, faza-chastotasi xarakteristikasi $\varphi(\omega) = 0$.

Inersion zveno avtomatik boshqarish sistemalarida eng ko’p tarqalgan zvenolardan hisoblanadi va uning differensial tenglamasi quyidagicha ko’rinishda[2,3].

$$y + T \cdot \frac{dy}{dt} = k \cdot \frac{dx}{dt} \tag{1.8}$$

Ushbu differensial tenglamadan foydalanib ikkinchi zveno uchun differensial tenglamani yozib olamiz:

$$m + T \cdot \frac{dm}{dt} = k_2 \cdot \frac{d\alpha}{dt} \Rightarrow k_2 = \frac{m + T \cdot \frac{dm}{dt}}{\frac{d\alpha}{dt}} \tag{1.9}$$

bu yerda α - kiruvchi kattalik, *m*- chiquvchi kattalik.

Ikkinchi zvenoning umumiy uzatish funksiyasi quyidagicha:

$$W_2(p) = \frac{k_2}{T \cdot S + 1} \tag{1.10}$$

$$W_2(p) = \frac{k_2}{T \cdot S + 1} = \frac{m + T \cdot \frac{dm}{dt}}{(T \cdot S + 1) \cdot \frac{d\alpha}{dt}} \tag{1.11}$$

Bu ifodadan foydalanib zvenoning kompleks kuchaytirish koeffitsiyentini topamiz.

$$W_2(j\omega)=\frac{k_2}{T\cdot j\cdot\omega+1} \tag{1.12}$$

Uchinchi zveno uchun differensial tenglamani yozib olamiz:

$$m+T\cdot\frac{dm}{dt}=k_3\cdot\frac{d\alpha}{dt}\Rightarrow k_3=\frac{m+T\cdot\frac{dm}{dt}}{\frac{dv}{dt}} \tag{1.13}$$

Uchunchi zveno ham inversion zveno bo’lgani uchun uning uzatish funksiyasi quyidagicha:

$$W_3(p)=\frac{k_3}{T\cdot S+1} \tag{1.14}$$

$$W_3(p)=\frac{k_3}{T\cdot S+1}=\frac{m+T\cdot\frac{dm}{dt}}{(T\cdot S+1)\cdot\frac{dv}{dt}} \tag{1.15}$$

bu yerda v - kiruvchi kattalik, m- chiquvchi kattalik.

Boshqaruvchi obyekt uchun umumiy uzatish funksiyasi quyidagicha:

$$W_{um}(p)=\frac{W_1(p)\cdot W_2(p)}{1+W_3(p)\cdot W_1(p)\cdot W_2(p)}=\frac{\frac{\alpha}{\omega}\cdot\frac{m+T\cdot\frac{dm}{dt}}{(T\cdot S+1)\cdot\frac{d\alpha}{dt}}}{1+\frac{\alpha}{\omega}\cdot\frac{m+T\cdot\frac{dm}{dt}}{(T\cdot S+1)\cdot\frac{d\alpha}{dt}}\cdot\frac{m+T\cdot\frac{dm}{dt}}{(T\cdot S+1)\cdot\frac{dv}{dt}}}= \tag{1.16}$$

$$=\frac{\frac{\alpha}{\omega}\cdot\frac{m+T\cdot\frac{dm}{dt}}{(T\cdot S+1)\cdot\frac{d\alpha}{dt}}\omega\cdot(T\cdot S+1)^2\cdot\frac{d\alpha}{dt}\cdot\frac{dv}{dt}}{\omega\cdot(T\cdot S+1)^2\cdot\frac{d\alpha}{dt}\cdot\frac{dv}{dt}+\alpha\cdot\left(m+T\cdot\frac{dm}{dt}\right)^2}=\frac{\alpha\cdot(T\cdot S+1)\cdot\frac{dv}{dt}}{\omega\cdot(T\cdot S+1)^2\cdot\frac{d\alpha}{dt}\cdot\frac{dv}{dt}+\alpha\cdot\left(m+T\cdot\frac{dm}{dt}\right)^2}$$

Jarayonlarni avtomatik boshqarishda uzatish funksiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan parametrlardan hisoblanadi hamda kirish va chiqish signallarining o‘zaro nisbati ko'rinishida aniqlanadi. Uzatish funksiyasi sistema yoki zvenoning dinamik xossalarini xarakterlab beradi. Shu sababli yuqorida konveyerning umumiuy uzatish funksiyasini topildi. Bu funksiya orqali biz sistemaning turg’un yoki turg‘un emasligini tekshirishimiz hamda boshqarish jarayoni to’g’ri yoki noto’g’ri ekanligini bilip olamiz.

Adabiyotlar

1. X.G‘.Karimov, M.Q.Bobojanov. Avtomatik boshqarish va rostlash nazariyasi asoslari-T.: «Fan va texnologiya», 2015. -112 b.

2. Теория автоматического управления. под редакцией А.В.Нетушила.-М.: «Высшая школа», 1976 г.
3. Е.И.Юрьевич. Теория автоматического управления. «Энергия», -Л., 1975.
4. Sevinov J.U. Avtomatik boshqarish nazariyasi. O’quv qo’llanma.-T.: «Fan va texnologiya» 2017, 248 b.
5. Gazieva R.T., Yunusova S.T. Avtomatika asoslari va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish. Oliy o’quv yurtlari uchun o’quv qo’llanma: TIMI, Toshkent-2019, 253
6. Baxadirov G‘.A., Umarov B.T., A.B.Gulmatov. Saralash punktlari uchun avtomatik boshqariladigan transportyor // Nauchno-texnicheskiy jurnal FerPI. – Fergana, 2023.T.27. – spes. vыp. №10 – 30-36- b.

PROKTOLOGIYA BO’LIMIDA VIZUALIZATSIYAGA OID JARAYONLARNI TAHLIL QILISH.

[1]Jo‘rayev Zafar, [2]Abduvohidov Xalilillo,
[3]Karimjonov Shaxriyorbek, Mamatqulov Hojiakbar
[1]Andijon mashinasozlik instituti, professori t.f.n,
[2]Andijon mashinasozlik instituti assistenti
[3] Andijon mashinasozlik instituti talabasi
zbjuraev@gmail.com

Kalit so’zlar: Proktologiya, Vizualizatsiya, Proktologiya bo’limi, Interaktiv vizualizatsiya, Proktologiya apparatlari, Operatsion muammolar.

Annotatsiya:


Proktologiya bo'limi to'g'ri ichak, anus va yo'g'on ichak kasalliklarini tashxislash va davolashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu bo'limda vizualizatsiya jarayonlari aniq tashxis qo'yish va samarali davolanishni rejalashtirish uchun juda muhimdir. Ushbu abstrakt proktologiyada qo'llaniladigan turli vizualizatsiya usullarini har tomonlama ko'rib chiqishni, ularning samaradorligini, afzalliklarini, cheklovlarini va kelajakdagi istiqbollarini tahlil qiladi.

Proktologiya bo’limida vizualizatsiya.

Proktologiya bo'limida vizualizatsiya jarayonlarining ahamiyati haqida umumiy ma'lumot. Bu gemorroy, anal yoriqlar, yo'g'on ichak saratoni va yallig'lanishli ichak kasalliklari kabi kasalliklarni tashxislash uchun aniq vizualizatsiya muhimligini ta'kidlaydi.

Endoskopik vizualizatsiya usullari, jumladan kolonoskopiya, sigmoidoskopiya va anoskopiya proktologiyada asosiy vositalardir. Ushbu bo'lim endoskopik texnologiyadagi yutuqlar, masalan, yuqori aniqlikdagi tasvirlar va tor diapazonli tasvirlar va ularning diagnostika aniqligi va bemor natijalariga ta'sirini o'rganadi.

Munozara shuningdek, ichakni tayyorlash, sedasyon protokollari va endoskopik muolajalar bilan bog'liq asoratlar kabi muammolarni hal qiladi.



1.rasm **Videocoloscope**.

Anal yoriqlari va gemaroy kasalligida vizualizatsiyaning ahamyati.

Anal yoriqlar va gemorroylar anorektal hududga ta'sir qiladigan keng tarqalgan tibbiy kasalliklardir. Semptomlar va davolashda ba'zi o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, ular o'ziga xos xususiyatlarga ega va turli xil boshqaruv yondashuvlarini talab qiladi. Vizualizatsiya usullari ushbu shartlarni tushunish, tashxis qo'yish va samarali davolashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.



2-rasm

Anorektal hududning anatomiyasi:

Vizualizatsiya rolini o'rganishdan oldin, anorektal mintaqaning anatomiyasini tushunish kerak. Anal kanal oshqozon-ichak traktining terminal qismi bo'lib, anorektal birikmadan anusgacha cho'zilgan. U maxsus epiteliy bilan qoplangan va uning distal qismida ichki anal sfinkter (IAS) va tashqi anal sfinkter (EAS) dan iborat anal sfinkter majmuasi mavjud. Anal kanal ichidagi qon tomir pleksuslar gemorroy shakllanishiga yordam beradi.

Anal yoriqlarini tekshirishning maxsus usullar quydagilardan iborat.

1. Tarixni olish: Anal yoriqlarini tekshirish odatda anamnezni to'liq yig'ish jarayonidan boshlanadi. Bu tibbiy yordam ko'rsatuvchi provayderning bemordan ichak harakatlari paytida og'riq, qon ketish, qichishish va ich qotishi yoki diareya kabi har qanday bog'liq holatlar haqida so'rashini o'z ichiga oladi. Semptomlarning davomiyligi va chastotasini, shuningdek, har qanday o'tmishdagi muolajalar yoki operatsiyalarni tushunish diagnostika va davolash uchun qimmatli ma'lumotlarni berishi mumkin.

2. Jismoniy tekshiruv : Anal yoriqlarni baholash uchun fizik tekshiruv juda muhimdir. Ko'pincha u bir nechta tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- Vizual tekshiruv : Tibbiy yordam ko'rsatuvchi provayder anus atrofidagi terida mayda yirtiqlar yoki kesiklar kabi yoriqlar belgilari uchun anal sohasini vizual tekshiradi. Hududni yaxshilab tekshirish uchun ular yorug'lik manbai va qo'lqopli qo'llardan foydalanishlari mumkin.

- Raqamli to'g'ri ichak tekshiruvi (DRE) : DRE paytida, shifokor yoriq, gemorroy yoki boshqa to'g'ri ichak kasalliklari kabi anormalliklarni his qilish uchun to'g'ri ichakka moylangan, qo'lqopli barmoqni kiritadi. Ushbu tekshiruv yoriqning hajmini, joylashishini va zo'ravonligini baholashga yordam beradi.

3. Anoskopiya: Anoskopiya - anus va pastki to'g'ri ichakning ichki qismini ko'rish uchun ishlatiladigan protsedura. Bu anal kanalga anoskop deb ataladigan nozik, moslashuvchan naychani kiritishni o'z ichiga oladi. Anoskopda yorug'lik manbai va kattalashtiruvchi linza mavjud bo'lib, u shifokorga anal kanalni yoriqlar, gemorroylar yoki boshqa anormalliklarni tekshirishga imkon beradi. Anoskopiya qimmatli diagnostika ma'lumotlarini taqdim eta oladigan nisbatan sodda va minimal invaziv protseduradir.

4. Proktoskopiya: Proktoskopiya - bu proktoskop deb ataladigan uzunroq va qattiq asbob yordamida to'g'ri ichak va pastki yo'g'on ichakni kengroq tekshirish. Ushbu protsedura anal kanalni, to'g'ri ichakni va ba'zan hatto sigmasimon ichakni ham to'liqroq baholash imkonini beradi. Agar shifokor ichakning yallig'lanish kasalligi yoki saraton kabi kengroq yoki murakkab anal patologiyaga shubha qilsa, proktoskopiya tavsiya etilishi mumkin.

5. Kolonoskopiya: Ba'zi hollarda yo'g'on ichakni va to'g'ri ichakni anormalliklarga tekshirish uchun kolonoskopiya o'tkazilishi mumkin. Ushbu protsedura to'g'ri ichak orqali va yo'g'on ichakka kamera va yorug'lik manbai (kolonoskop) bilan uzun, egiluvchan naychani kiritishni o'z ichiga oladi. Yallig'lanishli ichak kasalligi yoki yo'g'on ichak saratoni kabi asosiy sharoitlar haqida xavotirlar mavjud bo'lsa, odatda kolonoskopiya tavsiya etiladi.

6. Biopsiya: Anoskopiya, proktoskopiya yoki kolonoskopiya paytida shubhali shikastlanishlar yoki anormalliklar aniqlansa, biopsiya o'tkazilishi mumkin. Biopsiya mikroskopik tekshirish uchun zararlangan hududdan to'qimalarning kichik namunasini olishni o'z ichiga oladi. Bu, ayniqsa, saraton yoki boshqa jiddiy kasalliklarga shubha qilingan taqdirda, tashxisni tasdiqlash va keyingi davolashni boshqarishga yordam beradi.

7. Imaging tadqiqotlari: Qo'shimcha ma'lumot kerak bo'lgan kamdan-kam hollarda, magnit-rezonans tomografiya (MRI) yoki kompyuter tomografiyasi (KT) skanerlari kabi tasviriy tadqiqotlar buyurilishi mumkin. Ushbu tasvirlash usullari to'g'ri ichak, anus va uning atrofidagi tuzilmalarning batafsil rasmlarini taqdim etishi mumkin, bu esa anal yoriqlarining asosiy sabablarini yoki asoratlarini aniqlashga yordam beradi.

8. Diagnostik testlar: Ba'zi hollarda ichak faoliyatini baholash va ich qotishi yoki diareya kabi anal yoriqlariga yordam beruvchi omillarni aniqlash uchun diagnostik testlar o'tkazilishi mumkin. Ushbu testlar sfinkter funktsiyasini o'lchash uchun anal manometriyani, defekatsiya paytida to'g'ri ichak va tos bo'shlig'i anatomiyasini baholash uchun defekografiyani yoki ichak harakatini baholash uchun yo'g'on ichak tranzitini o'z ichiga olishi mumkin.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola proktologiya bo'limida vizualizatsiya jarayonlarini tahlil qilish bo'yicha qimmatli fikrlarni beradi. Turli texnikalarni, ma'lumotlarni yig'ish usullarini va asosiy topilmalarni o'rganib chiqib, klinik amaliyotni optimallashtirish va ushbu ixtisoslashgan sohada bemorlarga yordam ko'rsatishni yaxshilash uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Dedov, va V.A.Peterkova "Proktologiyada endoskopik vizualizatsiya" Toshkent, 2005 y.
2. V. Potemkin "Proktologiyada kolonoskopiya muolajalari" Moskva 1999 yil
Xodjibekov M.X, Ismoilova M.X. Ahmedova M.R "Sigmoidoskopiya yutuqlari" Darslik. 2020 yil

PAXTANI G‘ARAM VA OMBORLARGA UZATISH QURILMALARINI KAMCHILIK VA MUOMMOLARINI ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA TAHLIL QILISH

[1]Mo‘minov M.R., [2]Topvoldiyev A.A, [3]Turg‘unov D.U
[1]“Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ
[2]Farg‘ona politexnika instituti
abduqaxor246@gmail.com


***Annotatsiya**: Ushbu tezisda mavjud fizik qonuniyatlar asosida tashilayotgan paxtaning tarkibidagi iflosliklarni ajratib olish imkoniyati ko‘rib chiqilgan bo‘lib,*

unga ko‘ra transportyor lentasiga og‘irlik kuchlari berilganda lentaning ko‘chishi, deformatsiyalanishi, kuchlanishlari kabi masalalarga javob topilgan.

Kalit so‘zlar: *kuchlanish, deformatsiya, vaqt, burchak, transportyor, ochiq ombor, jalyuza, kuch, quvvat, kuchlanish.*

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida paxta tozalash sanoati korxonalari uchun ilmiy asoslangan usullardan foydalanib, jarayonlarni bir-biri bilan texnologik jixatdan to‘g‘ri bog‘lash asosida o‘z vaqtida qabul qilish, xomashyoni sifatli saqlash va uni qayta ishlashda paxta komponentlariga salbiy ta’sirni oldini olib ishlab chiqarishni takomillashtirishga e’tibor berib kelinmoqda. Shu sababli paxtani saqlashga tayyorlash ishlari axamiyati yuqori xisoblanib, tashilayotgan paxta xomashyosini qabul qilish va keyingi transport vositalariga etkazib berishda KLP-650, TLH-18 mobil qabul qilish-uzatish qurilmalaridan keng ko‘lamda foydalanib ishlatib kelinmoqda.

Paxtani qabul qilish va saqlash qurilmasi bo‘lgan lentali transportyorni loyihalashda Solid Works 2016 dasturi yordamida egilishga, buralishga va mustahkamlikka hisoblash ishlari olib borildi. Bu zamonaviy dastur asosida mavjud lentaning o‘rniga bo‘ylamasiga joylashgan jalyuzalar materiallini uchqun chiqishini oldini oluvchi yog‘och materiali tanlab olindi. Jarayonda detallarning mustahkamlik shartlarini bajarishini to‘liq ta’minlash uchun barcha qismlar bir-biriga biriktirib chiqildi va transportyor asosiga bolvashkani qo‘zg‘almas qilib mahkamlandi. Transportyor lentasiga tortuvchi kuch ta’sir etilib, materialning egilishi, bukilishi, jalyuzaning og‘ishi va deformatsiyalari o‘rganildi.



1-rasm. Mavjud texnologiyadagi lentali transportyor

Paxta g‘aramiga yuqoridan ta’sir etayotgan qoziqlarning zichligi yuqori bo‘lgan paxta qatlamidan aks ta’sir kuchlarini o‘rganamiz. Bunda Transportyor lentasiga ta’sir etayotgan kuchni hisoblaymiz. Transportyor ish unumdorligini 20 t/s hisobga olgan holda, 1 soniyaga nisbatan hisoblaymiz.

20000kg-1 soat → 333.3 kg-1 minut → 5,5kg-1sek

Transportyor lentasida bir vaqtning o‘zida transportyor lentasining 40 % i ta’sir qiladi deb olsak, Soniyasiga lentadan 5,5 kg paxta o‘tishi kelib chiqadi. Endi transportyor lentasiga ta’sir etadigan kuchni hisoblasak.


$$F = mg$$

Bu erda:
F- kuch, *m*- uzatilayotgan paxta massasi, g-erkin tushish tezligi;
F – bir sekunda qoziqchaga uriladigan paxtaning og‘irligi, F=55 N;
Unga ko‘ra,

$$F = 5{,}5 \cdot 10N = 55\ N$$


Transportyor lentasiga material tanlashda rossiya sasna daraxti olindi.

Ushbu transportyor lentasiga asosining diametri 14 mm, balandligi 550 mm o‘lchamdagi ellips yog‘ochdan tashkil topgan bo‘lib, ular qalinligi 5 mm bo‘lgan lentaga rezbali birikmalar orqali maxkamlangan. Paxta bilan ta’sirlashadigan yog‘och plankaning asosga va jalyuzalarga ta’sir etadigan kuch deformatsiya hisoblandi (2-rasm). Dastlab amaldagi lentali transportyor dastur orqali tekshirildi. Unga ko‘ra qalinligi 5 mm va 1800 mm uzunlikdagi yaxlit tentali transportyorga ta’sir etadigan kuchlar natijasida quyidagicha xulosalar kelib chiqdi.




2-rasm. Lentali transportyorning kuchlanishga sinash

2-rasmda transportyor lentasi zaxira kuchlari 215 marta katta kuchlanishga bardosh berishi kuzatildi. Bu erda kutilayotgan kuchlanish markazi bu xarakat uzatuvchi baraban bilan lentaning urinma xarakt nuqtalari bo‘lib, bu nuqtalarda maksimal va minimal kuchlanishlarni kuzatishimiz mumkun. Bundan lentali tranportyor lentasini boshqa materiallarda sinash imkonini beruvchi xulosalarga kelish mumkun.




3-rasm. Mavjud transportyorlar lentasining og‘ishi

3-rasmda mavjud transportyor lentasi maksimal ko‘chishi 493,3 mm ni tashkil qilayotganini ko‘rishimiz mumkun.



4-rasm. Transportyor lentasi deformatsiyalanishi

4-rasmdan transportyor lentasi asosida deformatsiyalanish kuzatildi. Deformatsiyalagish koeffitsienti 0,2 ni tashkil etdi. Bu qiymat lentaning elastik materialdan tayyorlanishiga bog‘liqligi kelib chiqdi.



5-rasm. Transportyor lentasiga ta’sir nuqtalarni aniqlash

Solid Works dasturi yordamida Transportyor lentasining qaysi qismiga ortiqcha kuchlanish tushayotganini aniqlandi(5-rasm). Unga ko‘ra tasvirdan ko‘rinib turibdiki zangori rang bilan ajratilgan qismda deformatsiyaga, egilishga buralishga moyillik mavjud. YUqoridan bu kiymatlarda rezina lentadan farq qiluvchi materillarni sinab ko‘rishni taklif qilinmoqda.

Bu olingan taxlillardan transportyor lentasi konstruksiyasini soddalashtirish, nisbatan soddaroq, konstruksiyani ishlab chiqishni talab qiladi. CHunki mavjud konstruksiya paxta va uning komponentlarini sifatiga ta’siri yuqori. Mavjud texnologiyada tarkibida iflos aralashmalar miqdori yuqori bo‘lgan paxtani g‘aram maydonlari va omborlaga joylanishi natidasida paxta va uning komponentlari sifat ko‘rsatgichlari tushib ketishiga olib kelmoqda. YUqoridagilarni inobatga olgan holda transportyor qaul qilish va uzatish qismlarini o‘zgartirish zarur deb xisoblaymiz.

Eksperimental qurilmani konstruksiyasini tayyorlashda qurilmaning bir nechta parametrlari ko‘rib chiqildi hamda ulardan qo‘yilgan talablarga javob beradigan muqobili tanlab olinib, keyingi tadqiqotlar ushbu qurilma bilan amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Salimov A.M. Razrabotka texnologicheskix usloviy i sposobov podgotovki xlopka-sыrsa vlajnostyu 10-15 % k xraneniyu: Diss…kand.texn.nauk: - Tashkent, 1987 – 167 s.

2. Rezultatы opыtov pressovaniya xlopka-sыrsa: Otchet opыtnogo zavoda/SNIIXprom; – Tashkent, 1982. – 16 s.

3. Mashina dlya nabivki xlopka-sыrsa v meshki / Gizlegprom; - Tashkent,1955. – 58 s.

4. Azizxodjaev U.X. K voprosu mexanizatsii operatsii buntovaniya xlopkasыrsa i vliyanie mexanicheskogo uplotneniya na ego kachestvo: Diss…kand.texn.nauk: - Tashkent, 1967. – 166 s.

5. Israilov SH.V. K voprosu uplotneniya xlopka-sыrsa v kuzovax kolesnogo transporta i usloviya soxraneniya prirodnыx kachestv xlopka pri etom: Avtoref. diss…kand.texn.nauk: - Tashkent, 1968. – 33 s.

6. A.s. №647368. Ustroystvo dlya uplotneniya voloknistogo materiala / X.K. Davыdbaev, D. YAkubov, G.P. Nesterov i YU.G. Belokurov; SNIIXprom., opubl. B.I., 1979, № 6. S.31.

7. Instruksiya po uborke i zagotovke xlopka-sыrsa /- M., SNIITEI, 1982. 1–71 s.

8. Xodjiev M.T. Razrabotka teorii i obosnovanie parametrov mexanizirovannogo texnologicheskogo protsessa minimodulnogo uplotneniya i skladirovaniya xlopka-sыrsa. Diss…d.t.n: - Tashkent, 1998, -318 s.

9. Ollayorov M.A., Xojiev M.T., Ruzmetov M.E. YOpiq ombordan paxtani ishlab-chiqarishga uzatish qurilmasini takomillashtirish: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari “XXI asr-yosh intellektual avlod asri”, Toshkent -2016. TTESI 29-mart, 129-131 betlar.

10. Suslin A.N. Issledovanie i vыbor optimalnыx parametrov rabochego organa dlya rытya tunneley v buntax xlopka-sыrsa. Kand.diss., Tashkent, 1972. – s.8.

11. Patent UZ №FAP00514. Tolali materialni uzatish va taqsimlash qurilmasi /Xodjiev M.T., Juraev A.J., Raxmonov X.K., Ruzmetov M.E.//Rasmiy axborotnoma. – 2010, -№1.

HAAS-VF-8 МОДЕЛДАГИ ДАСТГОХЛАРНИ УНУМДОРЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАРНИ АМАЛИЙ ТАХЛИЛИ.

Рубидинов Шохрух Ғайратжон ўғли
Фарғона политехника институти.

Машинасозлик ишлаб чиқариш корхоналарида фрезалаб ишлов бериш марказлари кенг қўлланилмоқда. Ишлов бериш марказлари кенг технологик имкониятларга ва юқори потенциалга эга бўлган дастгоҳлар қаторига киради. Фрезалаб ишлов бериш марказлари ёрдамида фрезалаш ишларидан ташқари пармалаш, марказлаш, зенкерлаш, разверткалаш, йўниб кенгайтириш, йўниш, жилвирлаш ишларини олиб бориш мумкин. HAAS VF-8 дастгохида механик ишлов бериш жараёнида тўғри ишлов бериш стратегиясини танлашдан фойдаланган холда унумдорлигини ошириш мумкин.

HAAS VF-8 кўп операцияли рақамли дастур билан бошқариладиган дастгоҳларни унумдорлиги оширишда механик ишлов бериш жараёнида тўғри ишлов бериш стратегиясини тўғри танлаш, кесиш асбобини тўғри танлаш ва кесиш маромларини тўғри танлаш муҳим ахамият касб етади. Рақамли дастур

билан бошқариш тизимларида ушбу масалаларни ҳал қилиш методологияси турли САД/САМ тизимларида кщп тамонлари бир ҳил ҳал этилади. Бизга маълум бўлган САД/САМ тизимларида қўлланилаётган стратегиялар тўплам бир САМ тизими бошқасидан анчагина фарқ қилади (албатта турли масалалар турли даражада ҳал этилган).

Рақамли дастур билан бошқариш тизимларини самарадор бошқарувни бажариши учун турли фрезерлаш стратегиялари қўлланилади. Бу фрезерлаш стратегиялари қуйидаги кўринишлари мавжуд.

Volume Milling (хажмий фрезерлаш) стратегияси материаллар массивини қаватма қават ишловини таминлайди. Агарда асбоб ўқи қаватлар текислигига перпендикуляр бўлса қаватлар гаризантал жойлашади. Қаватлар бўйича ишлов спирал, паралел ёки радиал ўтишларда амалга оширилади, улар қўшимча танланади. Фрезерлаш кенглиги ва қатлам баландлиги (фрезерлаш чуқурлиги) кесиш асбобини траекториясини хисоблаш параметри бўйича берилади. Ишлов берилаётган юзаларда зарур бўлса қўйимлар қолдирилиши мумкин.

Ушбу стратегияни уч хил кўриниши мавжуд– Pocketing, Waterline и Zcut. Pocketing – бу оролчалари бор текис чуқурчаларни энг оддий 2D ишловидир. Ишлов учун бошланғич геометрия сифатида текис контурларни бериш кифоя қилади.

Waterline (3D-ишлов) техналогиясида хар бир даражадаги қатлам учун ватерлиниялар деб аталувчи ишлов берилаётган юзаларни қатлам текислиги билан кесишиш чизиғлари кўринишидаги чизиғлар қурилади. Ушбу чизиқлар доимо берк (очиқ қисми ташқи контур билан чегараланади) ва қатламларни фрезерлаш ушбу берк контурлар ичида амалга оширилади. Юзалар билан чегараланган чуқурчаларни бутунлай қаватма-қават бир чуқурчадан иккинчи чуқурчага ўтиш билан ишлов берилиши мумкин ёки ушбу қатламдаги барча чуқурчаларга ишлов бериш ва сўнгра кейинги қатламга ўтиш билан амалга оширилади. Қатламлар орасида қолган материалларни қўшимча фрезалаш мумкин.

Агар қайта қора (ярим тоза) ишлов беришда маьлум қатлам қолдирилган бўлса, бошқарув тизими кесиш асбоби траекториясини олдинги фрезарлашда олиб ташланган материал зоналарини ишлов бермаган холда оптималлаштиради.

Z cut 3D-ишлов техналогиясида ватерлиниялар қурилмайди балки кескик харакати хар бир қатлам бўйича юзага теккунча (берилган қўйимни хисобга олган холда) довом этади. Бундан кейин кесувчи асбоб текисликдан вертикал тепага олдинги қатлам даражасидаги текисликгача кўтарилади.

Contour Milling стратегияси (контурли фрезерлаш) 2D ёки 3D контурларга ишлов беришда қўлланилади. Қўшимча танланадиган Pocket текислик ва чуқурчалар юзалари чегаралари бўйича тоза ишлов беришни таминлайди, Profile – турли профилларни битта ёки бир неча ўтишда фрезерлашда ишлатилади.

Surface Milling стратегияси (юзаки фрезерлаш) қўшимча танловни биринчи тўртта варианти детал юзаларини паралел, спирал ёки радиал ўтишларда фрезерлашни таминлайди. Бунда юзалар кетма кет эмас балки бутун бир бирлик сифатида кўрилган холда ишлов берилади. Бу ўз навбатида кўп холларда кўплаб турли юзаларга эга бўлган мураккаб кўринишдаги деталларни самарали ярим тоза ва тоза фрезерлашни таминлайди.

Мураккаб деталларга тоза ишлов беришда (тегишли РДБ технологик жихози бўлса) юқори тезлик билан ишлайдиган (High Speed Cutting) режимини қўллаш мумкин. Бу холда юқори тезликдаги ишлов ва ўтишлар орасидаги оз масофа, талаб этилган ишлов бериладиган юзалар сифатини таминлайди ва қўшимча слесарлик ишларига ўрин қолдирмайди.

Flow Line Milling стратегияси (параметрик эгри чизиқлар бўйича фрезерлаш) битта ёки бир неча қўшни юзалар занжирига параметрик эгри чизиқлар бўйича (Part Surface) фрезерлаш учун ишлатилади ёки параметрик эгри чизиқлар бўйлаб (Aiming Surface) қўшимча берилган юзаларни фрезерлаш.

Ушбу стратегия турли юзалар тўпламига 3-4 ва 5 кординатали ишловни таминлайди. Кўп кординатали ишловда фреза юзага нисбатан нармал холда ёки нармалга нисбатан берилган бурчак остида жойлашади. Шунингдек фрезани ён томони билан юзаларга ишлов беришни таминлайди.

Plunge Milling стратегияси (Кесиб кириб қора ишлови) янги ва самарали технология бўлиб Z ўки бўйича керакли куч ва кесиш режимини таминлайдиган тегишли РДБ жихози бўлишини талаб қилади. Ушбу технология бўйича фрезерлаш кесиш асбобини юқоридан пастга харакати билан амалга оширилади.

Cleanup стратегияси (Тозалаш) катта диаметрли фреза билан олдинги операцияларидан қолган материалларни тозалайди. Бу стратегия асосида тизим олдинги асбоблардан кейинги загатовкани холатини хисобга олган холда, берилган асбобни ишлов бериши мумкин бўлган зоналарни ва ишлов траекториясини аниқлайди. Cleanup стратегиясини қўллаш умумий ишлов бериш вақтини анчагина қисқартиради ва уни самарадорлигини оширади.

Pencil стратегияси (қалам) Cleanup стратегияси каби ишловни охирига етказишни бир кўринишидир. Детални ички бурчаклари (қўшни юзаларни бирлашган жойи)га ишдов беришни кесувчи асбобни бир ёки бир неча тоза ўтишларида амалга оширади.

Юқоридаги санаб ўтилган стратегиялар тўплами РДБ дастгохи технологига турли ишловларни бажариш учун кучли воситалар тўпламини беради, Асбоб траекториясини қуриш бўйича замонавий технологияларни қўллаш имкониятини беради.

Диссертация ишида мураккаб контурли юзаларга эга бўлган “матрица” пресс-формаларига ишлов беришда юқоридаги стратегиялардан фойдаланилган ходда ишлов берилди ва унумдорлиги аниқланди хамда унумдорликни ошириш имкониятлари аниқланди. Бунда оптималлаштириш имкониятига эга бўлган

тозалаш стратегиясидан фойдаланилди. Ишлов стратегиялари қуйидаги кетма-кетликда амалга оширилди:

- Volume Milling (хажмий фрезерлаш) стратегияси;
- Plunge Milling стратегияси (қора ишлов);
- Cleanup стратегияси (Тозалаш);

Бу стратегияларни механик ишлов бериш жараёнида муқобил ишлов бериш стратегиясини танлаш муҳим аҳамият касб етади. Стратегияни тўғри танлаш орқали ишлов бериш жараёнида деталимизни аниқлигини таъминлаган ҳолда вақтдан ютилади бу ўз навбатида унумдорликни ошишига олиб келади.

Адабиётлар рўйхати:


1. Врагов Ю.Д. и др.«Анализ формы координатного пространств расточных, фрезерных и многооперационных станков с ЧПУ», М: 1982г.
2. Малов А.Н. «Многооперационнне станки с ЧПУ», М:1985г.
3. Этин А.О. «Установление рациональных областей применения станков с ЧПУ», М: 1982г.

GURUCH SARALASH MASHINAGA TARKIBLI MUSHTUMCHALI MEXANIZMNI JORIY ETISHDAGI SINOV NATIJALARI

Djurayev Anvar Djurayevich t.f.d., professor
ToshTYESI,
Mamashayev Muzaffar Abdumalikovich tayanch doktorant,
NamMQI
Akbaraliyev Xusniddin Xursanali o‘g‘li tayanch doktorant,
NamMQI

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida yuqori ish unimdorlikka ega bo‘lgan energiya va resurstejamkor qishloq ho‘jaligi mashinalarini, shu jumladan, guruch saralash mashinalarini loyihalash hamda ularni takomillashtirib, ishlab chiqarishga keng joriy etish muhim hisoblanadi Qayd etilishicha, Respublika sharoitida aholi jon boshiga o‘rtacha yilga 9,8 kg dan guruch iste’moli talab etiladi. Ya’ni respublika aholisi to‘liq guruch mahsulotlari bilan ta’minlash uchun 353 ming tonna guruch zaxirasi talab etiladi [1]. Respublikamizning barcha sohalarida ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish, kam energiya iste’mol qiladigan mashina va mexanizmlarni yangi turlarini loyihalash hamda mavjudlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi uchun resurstejamkor mashinalarning yangi avlodlarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida don va donli mahsulotlarni o‘rim-yig‘imdan so‘ng qayta ishlash uchun mashina va uskunalarning tuzilishi tubdan o‘zgartirishni hamda yangi innovatsion texnologiyalarini yaratish va joriy etish, eng muhim vazifalardan hisoblanadi[2–5].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga, energiyatejamkor guruch saralash mashinasi ishlab chiqildi (1-rasm).\



1-2-3-tenzodatchiklar

1-rasm. Guruch saralash mashinasining umumiy ko‘rinishi

Laboratoriya sharoitidagi tajribaviy tadqiqotlarni o‘tkazishda guruch saralash mashinasini ishlash sharoitini inobatga olgan holda, tarkibli mushtumchalarni tayyorlash uchun 10-220 MBS, 6308 TMKЩ va 7317 MBS markali rezinalardan foydalanib, tarkibli mushtumcha ekssentrisiteti e=22 mm hamda barcha mushtumchalarning tashqi va ichki diametrlari bir xil qilib tayyorlandi (2-rasm).

Tajribaviy tadqiqotlarning maqsadi, guruch saralash mashinasi elagining vertikal va gorizontal yo‘nalishdagi tebranishlariga tarkibli mushtumcha ekssentrisiteti, uning tarkibidagi rezina bikirlik koeffisentining ta’sirini xamda mushtumcha valdagi burovchi momentning o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat.



a *b* *v*

a-rezina markasi 10-220 MBS; b-rezina markasi 6308 TMKЩ; v-rezina markasi 7317 MBS

2-rasm. Ekssentrisiteti e=22 mm bo‘lgan tarkibli mushtumcha

Tajribalar mushtumcha valining turli tezliklarida, ekssentrisiteti turlicha bo‘lgan tarkibli mushtumchada xamda mushtumcha tarkibidagi rezinaning turli bikirlik koeffisiyentlarida o‘tkazildi. O’kazilgan tajribalarda guruch saralash mashinasining ish unimini 1000 kg/soat etib belgilandi. Tajriba natijalarida olingan ma’lumotlar qayta

ishlanib, raqamlardan foydalanib kompyuterning Excel dasturi yordamida ossillogrammalar qurildi (3-rasm).


Tajribalardan olingan natijalar matematik va statistik usulda qayta ishlandi va tahlil qilindi [6, 7, 8].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, aylanishlar soni 150 ayl/min bo‘lganda mushtumcha vali 1 sekundda 2,5 marta, 200 ayl/min bo‘lganda 1 sekundda 3,3 marta, 250 ayl/min bo‘lganda esa 4,2 marta aylanar ekan. Shu boisdan 2 sekund vaqt oralig‘idagi jarayonni o‘rganish yetarli hisoblandi.

3-rasmda tarkibli mushtumcha ekssentrisiteti e=22 mm bo‘lganda guruch saralash mashinasi elagining tebranishlari va mushtumcha validagi burovchi momentni o‘zgarish qonuniyatlarini ifodalovchi ossilogrammalari keltirilgan.

3 a-rasmdan ko‘rinadiki, mushtumcha tarkibidagi rezinaning bikirlik koeffisiyenti c=0,25•104 N/m bo‘lganda, mushtumcha validagi burovchi moment M=1,8÷3,7 Nm oralig‘ida hamda guruch saralash mashinasi elagining vertikal va gorizontal yo‘nalishdagi tebranishlari mos ravishda X=21,6÷22,5 mm, Y=2,7÷8,5 mm oralig‘ida bo‘lishi aniqlandi.

3 b-rasmda mushtumcha tarkibidagi rezinaning bikirlik koeffisiyenti c=0,375•104 N/m bo‘lganda, mushtumcha validagi burovchi moment M=1,2÷2,8 Nm oralig‘ida hamda guruch saralash mashinasi elagining vertikal va gorizontal yo‘nalishdagi tebranishlari mos ravishda X=21,7÷22,3 mm, Y=2,7÷8,5 mm oraliqda o‘zgarar ekan.



а *б* *в*

а-c=0,25·10⁴ N/m; б-c=0,375·10⁴ N/m; в-c=0,5·10⁴ N/m

3-rasm. Guruch saralash mashinasi elagining tebranishlari va mushtumcha validagi burovchi momentni o‘zgarish qonuniyatlarini ifodalovchi ossilogrammalar

3 v-rasmda mushtumcha tarkibidagi rezinaning bikirlik koeffisiyenti $c=0,5\cdot10^4$ *N/m* bo‘lganda, mushtumcha validagi burovchi moment *M=2,7÷4,3 Nm* oralig‘ida hamda guruch saralash mashinasi elagining vertikal va gorizontal yo‘nalishdagi tebranishlari mos ravishda *X=21,8÷22,1 mm* va *Y=4,6÷8,2 mm* qiymatlarga erishadi.

Xulosa: Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, mushtumcha tarkibidagi rezinaning bikirlik koeffisiyentini ortishi bilan mushtumcha validagi burovchi momentni ortishini hamda guruch saralash mashinasi elagining vertikal va gorizontal yo‘nalishdagi tebranishlarini kamayishini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 .https://www.gazeta.uz/uz/2023/07/25/rice/

2. Дринча В.М. Проблемы и перспективы использования агрегатов ЗАВ и комплексов КЗС // Тракторы и сельскохозяйственные машины. – 2002. – № 3. – С. 31–33.

3. Зюлин А.Н. Перспективы механизации послеуборочной обработки и хранения зерна и семян // Механизация и электрификация сельского хозяйства. – 2002. – № 6. – С. 10–14.

4. Постнікова М.В. Енергозберігаючі режими роботи електромеханічних систем обробки зерна на зернопунктах: автореф.дис. канд. техн. наук / Мелітополь, 2011. – 22 с.

5. Прогноз развития техники для очистки зерна в сельском хозяйстве Советского Союза / ГСКБ. – Воронеж 1986. – 112 с.

6. Веденяпин Г.В. Общая методика экспериментального исследования и обработка опытных данных. М.: Колос. – 1973. – 199 б.

7. Менли Р. Анализ и обработка записей колебаний. М.: Машиностраение. – 1972. – 368 б.

8. Румшинский Л.З., Математическая обработка результатов эксперимента. М.: Наука. – 1971. – 192 б.

AQSH SHTATLARIDA PAXTA ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

Katta o'qituvchi Mamirov Abdurashid Rayimjonovich,
talaba Xamidullayev Abdujalil Abdusamat o'g`li
Farg‘ona politexnika instituti

Annotatsiya: Paxta yetishtirish va qayta ishlash bo ‘yiacha yetkchi davlatlarning bir-biridan farq qiluvchi yetishtirish va qayta ishlash usullari mavjud. Ushbu maqolada paxtani yetishtirish va qayta ishlash usullari bo’yicha Amerika texnologiyasi tahlil qilib chiqildi.

Kalit so‘zlar: paxta, seleksiya, nav, fermer, shtat, yillik xosil, aholi, ishlab chiqarish, mexanizatsiya, qishloq xo’jaligi, texnologiya.

Qo'shma Shtatlar boshqa mamlakatlarga qaraganda ko'proq paxta eksport qiladi. Paxta tolasining deyarli barcha o'sishi va ishlab chiqarilishi AQShning janubiy va G'arbiy Amerika Qo'shma Shtatlariga to'g'ri keladi, ularda Texas, Kaliforniya, Arizona, Missisipi, Arkanzas va Luiziana hukmronlik qiladi. AQSHda yetishtiriladigan paxtaning 99 foizdan ortig‘i Upland naviga to‘g‘ri keladi, qolgan qismi esa amerikalik pima hisoblanadi. Paxta ishlab chiqarish yiliga 21 milliard dollarlik sanoat bo'lib, jami 125 000 dan ortiq kishini ish bilan ta'minlaydi, 77 million akr yerdan yiliga 40 milliard funt sterlingga o'sgan. Paxta jahon to'qimachilik fabrikalari bozorini va 2023 yilda mos ravishda 748 milliard va 786 milliard dollarga baholangan keng foydalanish uchun kiyim-kechak ishlab chiqaradigan jahon kiyim-kechak ishlab chiqarish bozorini qo'llab-quvvatlaydi.

Qo'shma Shtatlarda paxta yetishtirishning dastlabki bosqichlari qullik bilan bog'liq. 1920-yillarning oxiriga kelib, barcha afro-amerikalik ijarachilarning uchdan ikki qismi va dehqonlarning deyarli to'rtdan uch qismi paxta fermalarida ishlagan va qora tanli yer egalari oilalaridan bo'lgan har uchinchi qora tanli ayoldan ikkitasi paxtachilik bilan shug'ullangan.

Paxta Amerika inqilobidan oldin AQShda, ayniqsa Janubiy Karolinada ekilgan va yetishtirilgan. U 1800 yildan keyin g‘arbga, ya’ni Texasga qadar — paxta tozalash zavodi tufayli keskin kengaydi. Plantatsiya egalari Afrika va Karib havzasidan hosilni chopish va yig'ib olish uchun ommaviy ishchi kuchi (qullar) olib kelishgan. AQSH fuqarolar urushigacha paxta yetishtirish 1830-yildagi 750 ming toydan 1850-yilda 2,85 million toygacha kengaydi. Bu mamlakatning asosiy eksport mahsuloti bo‘lib, Angliya va Fransiyada tez rivojlanayotgan paxta to‘qimachilik sanoati uchun asos bo‘ldi. Amerika Qo'shma Shtatlarining shimoli-sharqiy qismi.



1-rasm. AQSH Aklaxoma shtatida qo’l bilan paxta terish



2-rasm. Tolani saqlash bo‘yicha AQSH texnologiyasi

AQShda paxta sanoati 1920-yillarning boshlarida inqirozga uchradi. Paxta va tamaki narxi 1920-yilda ortiqcha ishlab chiqarish natijasida pasayib ketdi va 1921-yilda dengiz oroli paxta hosilini yo‘q qildi. Yillik ishlab chiqarish 1910-yillarda 1.365.000 toydan 1920-yillarda 801.000 tagacha pasaydi. Janubiy Karolinada Uilyamsburg okrugidagi ishlab chiqarish 1920 yilda 37 000 toydan 1922 yilda 2 700 toygacha kamaydi va Makkormik okrugidagi bir fermer 1921 yilda 65 ta, 1922 yilda esa atigi 6 ta toya ishlab chiqargan. 1922 yildagi halokatli hosil natijasida 50 000 ga yaqin qora tanli paxta ishchilari Janubiy Karolinani tark etishdi va 1930-yillarga kelib shtat aholisi asosan paxtaning turg'unligi tufayli 15% ga kamaydi.

2020 yilda ishlab chiqarish 14,061 million toyni tashkil etdi. Bu o'tgan yilga nisbatan 5 million toydan ko'proq pasayishdir. O'rtacha narx bir funt uchun 0,58 dollarni tashkil etdi. 1914-1915 yilgi mavsumda jami 16,5 million balya bo'lgan.[26] USDA Milliy Qishloq xo‘jaligi statistika xizmati tomonidan e’lon qilingan hisobotda 2020-yilda paxta yetishtiruvchi eng ko‘p shtatlar o‘rin olgan: Texas, Jorjiya, Arkanzas, Missisipi, Alabama, Missuri, Oklaxoma, Tennessi, Kaliforniya va Shimoliy Karolina.

Qo'shma Shtatlar paxta eksporti bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi.AQShda ishlab chiqarilgan paxta import qiluvchi beshtadan to'rttasi Shimoliy Amerikada; asosiy maqsad Gonduras bo'lib, jami 33% ga yaqin, garchi bu so'nggi yillarda bir oz pasayib ketgan. Keyingi eng muhim import qiluvchi Meksika bo'lib, taxminan 18%, bu ko'rsatkich keng miqyosda barqaror bo'lgan, keyin esa Dominikan Respublikasi, garchi so'nggi yillarda eksport jami ulush sifatida kamaydi. Xitoy o‘tgan yili AQSH paxtasining taxminan 11% ni import qildi, bu avvalgi mavsumlarga nisbatan keskin o‘sdi, bu esa jami paxtaning 8-9% ini doimiy ravishda import qilgan Salvadordan o‘zib

ketish imkonini berdi. Xitoyga paxta eksporti 2000 yildagi 46 million dollardan 2010 yilda 2 milliard dollardan oshdi. Yaponiyada, ayniqsa, Texas paxtasi juda yuqori baholanadi, chunki uning kuchli tolalari past kuchlanishli to'quvga juda mos keladi.

Texas

Texas Qo'shma Shtatlardagi boshqa shtatlarga qaraganda ko'proq paxta ishlab chiqaradi. Texas atrofida sakkizta ishlab chiqarish hududi va faqat to'rtta geografik hududi bilan u shtatdagi yetakchi naqd ekin hisoblanadi. Texas 6 million akrdan ortiq maydonda mamlakat paxta hosilining taxminan 25 foizini ishlab chiqaradi, bu 9000 kvadrat milya ekvivalentiga to'g'ri keladi (23 000 km2) paxta maydonlari. Texas Cotton Producers to'qqizta sertifikatlangan paxta yetishtiruvchi tashkilotni o'z ichiga oladi; u milliy va shtat miqyosidagi paxta yetishtiruvchi masalalar, masalan, milliy xo'jalik qonuni va atrof-muhit qonunchiligini ko'rib chiqadi.

Kaliforniya

Paxta Meksikaning Kaliforniya shtatida ham yetishtirish 1930-yillarga kelib asosiy ekin turiga aylandi. Kaliforniya paxtasi asosan San-Xoakin vodiysidagi ettita okrugda yetishtiriladi, ammo Imperial vodiysi va Palo-Verde vodiysida ham akr ekilgan. 1990-yillarda Sakramento vodiysida ham paxta ekilgan. Kaliforniya Qo'shma Shtatlardagi Pima paxtasining eng yirik ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Kaliforniya paxta sanoati shtatda 20 000 dan ortiq ish o'rinlarini ta'minlaydi va har yili 3,5 milliard dollardan ortiq daromad keltiradi.



4-rasm. Paxtani daladan tashish jarayoni

Mississippi

1817 yildan shtatga aylanganidan 1860 yilgacha Missisipi Qo'shma Shtatlardagi eng yirik paxta ishlab chiqaruvchi shtat bo'lgan. Paxta Missisipidagi asosiy ekin bo'lib, har yili taxminan 1,1 million akr ekilgan. Eng yuqori akr 1930 yilda qayd etilgan (4,163 million akr); eng yuqori ishlab chiqarish yili 1937 yil (3,421 million gektardan ortiq

maydonda 2,692 million balya ishlab chiqarilgan); eng yuqori paxta hosildorligi 2004 yilda bo'lgan (har bir akrdan 1034 funt lint ishlab chiqarilgan).

Missouri

2017-2023 yillarda Missuri AQShda paxta yetishtirish bo'yicha o'rtacha 191 004 400 dollar ishlab chiqarish qiymati bilan sakkizinchi o'rinni egalladi. Missuri tuprog'i o'rtacha besh yuz funt og'irlikdagi tog'li paxta o'sishiga imkon beradi. Missuri paxta ishlab chiqarishidan olingan paxta chigiti chorva uchun ozuqa sifatida ishlatiladi. Missuri universiteti ma'lumotlariga ko'ra, bu shtatda paxta etishtirish 1953 yilda eng yuqori cho'qqiga chiqdi va 1967 yilda eng past darajaga tushdi. Hosildorlik bo'yicha Missuri 1957 yilda rekord darajada past - 281 funt/akr hosilga erishdi va rekord darajadagi - 1097 don. funt/akr 2021 yilda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *"Overview". United States Department of Agriculture Economic Research Service. March 5, 2013. Retrieved 1 June 2013.*
2. ^ *United States. Congress. Office of Technology Assessment (1987). The U.S. textile and apparel industry : a revolution in progress : special report. DIANE Publishing. pp. 38–. ISBN 978-1-4289-2294-5.*
3. ^ Jump up to:[a] [b] [c] *Yafa, Stephen. Big Cotton: The Biography of a Revolutionary Fiber. Barnesandnoble.com/. Retrieved 2 June 2013.* {{cite book}}: |work= ignored (help)
4. ^ *"Cotton Newsline: May 15, 2013". National Cotton Council of America. Retrieved 2 June 2013.*
5. ^ *"National Cotton Council of America – Rankings". Cotton.org. Retrieved 2 June 2013.*
6. ^ *Voora, Vivek; Larrea, Cristina; Bermudez, Steffany (2020). "Global Market Report: Cotton". International Institute for Sustainable Development (IISD).* {{cite journal}}: Cite journal requires |journal= (help)
7. ^ Jump up to:[a] [b] [c] [d] *"Cotton Pickin' Blues". Mississippi Blues Commission. Retrieved 3 June 2013.*

ЭВОЛЮЦИЯ МЕТРОЛОГИИ В КОСМИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ: ГАРАНТИЯ ТОЧНОСТИ И НАДЕЖНОСТИ В ПРОСТРАНСТВЕ

[1] М.А.Тиллабева. [2]А.А. Маматов.
Ферганский политехнический институт

Аннотация: *В этой статье рассматривается роль метрологии в космической отрасли и ее значимость для успешного осуществления космических миссий. Обсуждаются основные аспекты метрологических систем и методов, применяемых в космической индустрии, а также их*

эволюция и вклад в развитие космической технологии. Особое внимание уделяется современным требованиям к метрологическим стандартам и инновационным методам измерений, необходимым для обеспечения точности и надежности в условиях космического пространства.

Ключевые слова: *Метрология, космическая отрасль, точность, надежность, стандартизация, инновации, измерения, эволюция, технологии, миссии.*

Введение: Космическая отрасль является одной из самых требовательных и сложных областей человеческой деятельности. От успешного запуска и функционирования спутников до мягких посадок на другие планеты, каждая космическая миссия требует высочайшей точности и надежности. В этом контексте метрология, наука об измерениях, играет решающую роль, обеспечивая необходимую точность и стандартизацию в процессах разработки, производства и эксплуатации космических технологий.

Роль метрологии в космической отрасли: Метрология в космической отрасли охватывает широкий спектр аспектов, начиная от измерения физических параметров космических объектов до разработки и проверки инструментов и систем, необходимых для выполнения космических миссий.

Важность метрологии проявляется в следующих областях:

1. **Точность измерений:** В космической отрасли даже небольшая ошибка в измерениях может иметь серьезные последствия. Метрологические методы и стандарты помогают обеспечить высокую точность измерений, необходимую для корректного функционирования космической техники.
2. **Стандартизация:** Единые метрологические стандарты играют ключевую роль в обеспечении совместимости и интероперабельности различных космических систем и компонентов.
3. **Надежность и безопасность:** Метрология помогает гарантировать надежность и безопасность космических операций путем обеспечения соответствия космической техники строгим требованиям качества и испытаний.

Эволюция метрологии в космической отрасли:

С развитием космической технологии и появлением новых вызовов перед индустрией, метрология также продолжает эволюционировать. Современные тенденции включают в себя:

Применение новейших технологий: Внедрение современных технологий, таких как лазерная интерферометрия, атомно-молекулярные часы и квантовые сенсоры, позволяет значительно повысить точность и разрешение измерений в космической отрасли.

Развитие космических стандартов: Постоянное обновление и развитие метрологических стандартов, учитывающих специфические потребности космической индустрии и новые технологические достижения.

Интеграция с областью искусственного интеллекта: Применение

методов машинного обучения и анализа данных для улучшения процессов измерений и обработки полученной информации в реальном времени.

1. **Формула для вычисления стандартной неопределённости измерения:**

$$U=\sum i=1n(ui)2U=\sum i=1n(ui)2$$

Где: UU - стандартная неопределённость измерения,

$uiui$ - компоненты стандартной неопределённости по различным источникам.

2. **Формула для расчёта относительной неопределённости измерения:**

$$U\text{отн}=UX\times100\%U\text{отн}=XU\times100\%$$

Где: $U\text{отн}U\text{отн}$ - относительная неопределённость измерения,

XX - измеренное значение.

3. **Формула для вычисления доверительного интервала:**

$$X\pm k\times UX\pm k\times U$$

Где: XX - измеренное значение,

kk - коэффициент доверия (например, для 95% доверительного интервала $k=2k=2$),

UU - стандартная неопределённость измерения.

4. **Формула для вычисления относительной ошибки:**

$$\text{Ошибка}=|X-X\text{ист}|X\text{ист}\times100\%\text{Ошибка}=X\text{ист}|X-X\text{ист}|\times100\%$$

Где: XX - измеренное значение,

$X\text{ист}X\text{ист}$ - истинное значение.

5. **Формула для преобразования между различными единицами измерения:**

$$X\text{новая}=X\text{старая}\times\text{Коэффициент}X\text{новая}=X\text{старая}\times\text{Коэффициент}$$

Где: $X\text{новая}X\text{новая}$ - значение в новых единицах,

$X\text{старая}X\text{старая}$ - значение в старых единицах.

Таблица 1. Сравнения метрологических методов в космической отрасли

Метод измерения	Преимущества	Недостатки
Лазерная интерферометрия	Высокая точность, высокое разрешение	Чувствительность к внешним воздействиям
Атомно-молекулярные часы	Высокая стабильность, низкое энергопотребление	Требуют сложной калибровки и обслуживания

Метод измерения	Преимущества	Недостатки
Квантовые сенсоры	Большая чувствительность, возможность измерения в экстремальных условиях	Требуют высокой стоимости и специализированной экспертизы

Таблица 2. Современных требований к метрологическим стандартам в космической отрасли.

Требование	Описание
Высокая точность	Обеспечение точности измерений на уровне сотых и тысячных долей единицы измерения
Интероперабельность	Совместимость и возможность обмена данными между различными системами и устройствами
Устойчивость к радиационному воздействию	Способность сохранять работоспособность в условиях космического излучения
Минимальное энергопотребление	Эффективное использование энергии для работы метрологических устройств в космосе

Заключение: Метрология играет фундаментальную роль в космической отрасли, обеспечивая необходимую точность, надежность и безопасность в условиях космического пространства. Постоянное развитие и инновации в области метрологии являются ключевыми факторами успеха в осуществлении космических миссий и дальнейшем исследовании космоса.

Цитированная литература:

1. Becker, U. (Ed.). (2015). **Metrology and Fundamental Constants**. Wiley-VCH.

2. Bos, M., et al. (Eds.). (2016). **Lecture Notes in Metrology**. Springer.
3. ESA Publications Division. (2018). **ESA Space Engineering & Technology: An Introduction**. European Space Agency.
4. JCGM. (2008). **Evaluation of measurement data – Guide to the expression of uncertainty in measurement (GUM)**. Joint Committee for Guides in Metrology.
5. Pilgrim, J., et al. (Eds.). (2018). **Metrology for Aerospace: Towards Industry 4.0**. Springer.
6. Thompson, A., et al. (Eds.). (2008). **Handbook of Dimensional Measurement**. Industrial Press.
7. U.S. Department of Defense. (2019). **Handbook for the Measurement of Environmental Degradation of Composite Materials**. DoD.
8. VIM. (2012). **International Vocabulary of Metrology – Basic and General Concepts and Associated Terms (VIM)**. Joint Committee for Guides in Metrology.

FLEKSOGRAFIYA QOLIP PLASTINALARI SOHASIDAGI YANGI ISHLANMALAR VA PLASTINKALARGA ISHLOV BERISH.

[1]Otaxanov Baxromjon Sadriddinovich
[2]Jumayeva Mahliyo Baxtiyor qizi
[1]Namangan muhandislik qurilish-instituti
TMJ kafedrasi dotsenti
[2]Namangan muhandislik qurilish-instituti
Tayanch doktorant
mahliyohainm94@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Fleksografik bosmaning ofset, chuqur va trafaret texnologiyalari bilan teng huquqli texnologiya sifatida o‘zini namoyish qilganiga ko‘p vaqt bo'lgani yo‘q. Yangi bosma uskunalari, yangi materiallari, bosma bo‘yoqlarining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan dastlabki to’liq rangli texnologiyalar 1980-yillardan boshlab yaratila boshlandi. Butun jahon matbaa yarmarkasi DRUPA-82 vaqtida DuPont, Zecher va Windmoller & Holscher firmalari fleksografik usulda rangli tasvir bosdilar. 1990-yilda, ya’ni DRUPA-90 yarmarkasidan boshlab fleksografiya mustaqil bosma usuli hisoblandi.*

KALIT SO‘ZLAR: *Fleksografiya, fleksografiya bosma qurilmasi, rastrli val,*

ANNOTATION: It has not been long since flexographic printing has established itself as an equal technology with offset, gravure and stencil technologies. The first full-color technologies, which served as the basis for the development of new printing equipment, new materials, and printing inks, began to be created in the 1980s. DuPont, Zecher, and Windmoller & Holscher have flexographically printed color images during the world printing fair DRUPA-82. In 1990, from the DRUPA-90 fair, flexography was considered an independent printing method.

KEY WORDS: Flexography, flexography printing device, raster shaft, shaft.

2001 yilning ikkinchi yarmida Shtutgart shahrida (Germaniya) tashkil etilgan Proflex fleksgrafiya texnikasi ko‘rgazmasida BASF Druksysteme GmbH firmasi - “BASF Druksysteme rangli kelajak uchun integratsiyalashgan qarorlar'' shiori ostida fleksografik bosma sohasidagi o'zining yangi ishlanmalari bilan ishtirok etdi. Firma fleksografiya uchun qolip plastinalari va bosma bo‘yoqlari to‘plamini taqdim etdi. Suvda ochiltiriladigan Proflex sprint qolip plastinalarini Ultraking FLX ultrabinafsha bosma bo‘yoqlarini birgalikda fleksografik bosma jarayonida qo'llash mumkin. Bunday qolip plastinasida qisqa vaqt ichida fleksografiya klishesini tayyorlash mumkin. U bo'yoqni yaxshi uzatish, ingichka chiziqlar va rastrli elementlarni qayta ishlashda yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi.

O'zaro muvofiqlashgan Proflex FAC-S qolip plastinalari va Aquaprint, Aqua sol, Aquastar hamda Aquaflex bo‘yoq seriyalari gofrokartonda bosish talablariga a'lo darajada javob beradi. Ular rastrli fleksografik bosmada hamda g‘adir-budir bosiluvchi yuzalarda bosishda qo'llanilishi mumkin.

Nyloflex ACE plastinasi va kirishuvchan polietilen plyonkalarda bosish uchun maxsus yaratilgan Flexup bo‘voq seriyalari birgalikda qo‘llanilganda egiluvchan o'rash-qadoqlash mahsulotlarida fleksografik bosmaning yuqori sifatiga erishiladi.

Yig‘ma qutilarda bosish singari fleksografiyaning murakkab sohasi uchun ham BASF firmasi o'zaro muvofiqlashgan qolip plastinasi va bosma bo'yog'i tizimini taklif qiladi. Bu ishlanma tasvirlaming nozik sifatli chiqishini va bo‘yoqlarning yuqori to‘yinganligini ta’minlaydi.

Fleksografiya bosma qoliplarini raqamli usulda tayyorlash uchun BASF firmasi Digiflex plastinalar assortimentini taklif qildi. Bu plastinalar tasvir yozadigan lazerlarning barcha turlari bilan muvofiqlashgan bo’llib, yaxshi natijalarni ta'minlaydi. Oldindan gilzalarga o’rnatilgan plastinalarga ega Digisleeve gilza tizimini ham unga kiritish mumkin.

Barco Graphics firmasi tomonidan taklif qilingan Power Beam-Lasertechnology texnologiyasi fleksografiya bosma qoliplarini raqamli tayyorlash sohasidagi eng so'nggi yutuqlardan hisoblanadi.

Bu kompyuterdan bosma qolipga raqamli yozish uchun {CtP yoki Compuler-to-Plate) yoki fleksografik gilzaga yozish uchun {CtS yoki Computer-to-Sleeve) mo‘Ijallangan lazerlarning uchinchi avlodi hisoblanadi. Bu lazer raqamli bosma qoliplarini eksponirlash uchun mo'ljallangan yozish qurilmasida {CDI yoki Cyrel Digital Imager) ishlatiladi. Power Beam yangi lazerli eksponirlash qurilmasi tufayli yozish unumdorligini 60% ga oshirishga erishildi. Yangi Power Beam lazerining unumdorligi qolip yoki gilzaga tasvir yozishda 4 m^2/soatni tashkil etadi.

Cyrel Digital Imager qurilmalarining birinchi va ikkinchi avlodlari Y A G - lazerlari bilanjihozlangan edi. Uchinchi avlodda esa, tolali lazerdan foydalaniladi. Bu yuqori unumdorlikdagi tolali lazer telekommunikatsiya 120 va sputnik kommunikatsiyalari sohalari uchun yaratilgan edi. U juda chidamliligi bilan farqlanadi. Ko‘p nurli ishlov beruvchi optika unumdoriikning ortishini ta'minlaydi. Yangi Cyrel Digital Imager qurilmasida amaiiyotda bir necha bor sinalgan prinsip qollanilgan: bitta nurlanish manbai - nurlarni taqsimlashning bitta prinsipi. Bunda har bir alohida nur tavanch nurning aniq nusxasi hisoblanadi. Shuning uchun u Cyrel raqamli fleksografik qolip plastinalarida shakllanadigan tasvir yuzasidan bir xil shakldagi niqoblovchi qatlamni olib tashlashni ta’minlaydi.

Fleksografik qolip plastinasining nisbatan notekis yuzasidan qatlamni bir tekis ketkazish nurlanish manbaiga yuqoriroq talablar qo‘yadi.

Boshqa Cyrel Digital Imager tizimlarida bo‘lgani kabi Power Beam texnologiyasi 1800 dan 2800 nuqta/dyuymgacha bo‘lgan o'zgaruvchan imkonli qobiliyatni ta ’ minlaydi. Tayyorlanadigan qoliplarning o ‘ lchamlari 1067x1524 mm dan 1270x2032 mm gachani tashkil etadi yoki uzunligi 2000 mm gacha bo'lgan

gilzalarni tayyorlash mumkin. Bu tizimlarda bir nurli (Single-Beam). ikki nurli (Twin-Beam) yoki unumdorligi 1,5 dan 4 m^2/soatgacha bo‘lgan kuchli (Power Beam) lazerlardan foydalaniladi.

Va nihoyat, qimmatbaho qog'ozlarni bosishda tasvirning imkonli qobiliyati 8000 nuqta/dyuymgacha bo‘lgan CDISecuFlex qurilmasi eng yuqori unumdorlik va aniqlikni ta’minlaydi.

Bosma qoliplarga bo'yoq surtish uchun ma’lum tuzilishdagi valiklar, aniqrog‘i vallar kerak bo‘ladi. Bo‘yoq apparatida taqsimlovchi va surtuvchi valiklardan iborat murakkab tizim qollaniladigan ofset usulidan farqli ravishda fleksografiyada bitta valik qatlamini bosma qolipga surtish imkonini beradi. Ammo chop etuvchi har bir ish uchun mos keluvchi val tanlashi kerak.

Bu val bosma sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Rastriangan (aniloks) vallari Germaniyada 45 yil oldin qo‘llanila boshlagan va shu vaqt davomida sezilarli o‘zgarishlarga uchragan.

1970-yildan keyin liniaturasi 140 lin/sm gacha bo’lgan vallar yaratilgan. Keyinchalik keramik (sopol) yuzali vallami tayyorlash, shuningdek, lazerli o‘yish usuli yaratildi. 1989-yilda Zecher firmasi liniaturasi 195 lin/sm bo‘lgan keramik (sopol) val tayyorladi.

Valni tayyorlash texnikalari tez rivojlanib bormoqda, ularning turli xillari mavjud.

Val tanlashda birinchi navbatda, uning yuzasidagi katakchalarning sm^3/m^2 dagi solishtirma hajmiga e’tibor qaratish lozim. Bu hajm asosan bosiluvchi materialga va ishlatiladigan bosma bo'yog'iga bog’liq.

So'nggi yillar tendensiyasi nisbatan mayda liniaturalarga - 240-260 va 280-320 lin/sm ga e’tibor qaratmoqda, lekin liniaturasi 500 lin/sm bo’lgan vallar ham mavjud. Lazer nuri bilan 1000 lin/sm liniaturagacha erishish imkonini beradi, bu bosma natijasining ofset bosmada olinadigan natijaga yaqin bo’lishini ta’minlaydi.

Поршень панжасининг ултратовушли назорати 2 расмда кўрсатилган чизиқ бўйича амалга оширилади. Ултротовушли дефектоскопни ишчи созлаш синов намунасида амалга оширилади. Бунинг учун дефектоскопни қиялик бурчаги 45-50^0 бўлган қайта ўзгартгичи 2,5 МГц ишчи частотада олдиндан мой суркалган синов намунаси устига қўйилади. Бураш тезлигини созлаш текширилаётган поршень панжасининг девори қалинлигига мос келиши керак. Призматик қайта ўзгартич билан назорат қилинганда дефектоскоп сезувчанлиги қайтаргичнинг қарама қарши томонида бажарилган эквивалент майдони 3,6 мм^2 (3ммх1,2мм) бўлган кертилган қайтаргич бурчаги бўйича созланади. Дефектоскоп экранида кертилган назорат нуқсонидан максимал амплитуда импулси қидирилади, сўнгра “Сезгирлилик” ва “Заифлашиш” дастаси билан амплитуда импулсини экран баландлигини 2/3 қисмигача етказади. Ҳалал берувчи сигналлар “Шовқинларни кесиш” дастаси ёрдамида йўқотилади. Нуқсонлар ҳақида автоматик сигнал берувчи (АСБ) худуд шундай ўрнатиладики, уни бошланиши зондлаш импулси билан бир қаторда, тугаш эса назорат қайтаргичи билан бир қаторда ўрнатилади.Зондловчи импулс АСБ таъсир худудидан ташқарида бўлиши керак.

АСБ сезувчанлиги шундай созланадики, у эхо сигнални қиймати дефектоскоп экрани баландлигини 2/3 қисмига тенг бўлганда ишласин. Шундай қилиб детални назоратида сезувчанлик қиймати ўрнатилади. Синов намунада назорат қайтаргични қайта топилади ва у ишончли тарзда топилганда поршень панжаси назоратига ўтилади. Ултротовушли ўзгартгич панжанинг олдиндан мойланган назорат қилинадиган юзасига ўрнатилади. Қайта қўшгич

“сусайтиргич” ёрдамида дефектоскопнинг сезувчанлиги 3-5 дБ га ошириб АСБ ни емирилиши кетидан дефектоскоп қидиришни бошлайди. Панжанинг цилиндрик юзаси атрофида қайта ўзгартиргич зигзаг симон харакатлантирилади. Текшириш дастлаб панжа юзасини бир йўналишида, сўнгра бошқа йўналишида ўтказилади. АСБ ишлаганда дефектоскоп ахтарувчи сезгирлик режимидан бахолаш сезгирлиги режимига ўтказилади ва қуйидагилар аниқланади:

1) нуқсон координатаси;
2) эхо сигналнинг максимал амплитудаси.
3) нуқсоннинг шартли узунлиги.

Нуқсон борлиги ҳақидаги якуний хулоса оператор – дефектоскопист томонидан нуқсон мумкин бўлган ҳамма йўналишларда аниқланган ва ўрганилгандан сўнг айтилади.


Ултротовушли дефектоскопия ёрдамида насос поршени панжалари, насос валлари каби материаллардаги ички, яъни метални қуюш вактида заготовка ичида ҳосил бўлган турли ўлчамдаги ғовакликлар, турли аралашмалар аниқланади.

Амалда бузмай назорат қилишнинг суюқликни сингдириш усули хам кенг қўлланилади. Бу усулнинг моҳияти нуқсон текислигига махсус индикатор суюқликни киритишдир. Детал юзасида кўзга кўринадиган ва кўринмайдиган нуқсонлар нуқсон текислигига индикатор суюқлик киритиб аниқланади. Индикатор суюқлик техник спиртга аралаштирилган қизил кукундан иборат.

Назоратнинг бусули технологияси ўта оддий бўлиб, дастлаб нуқсонли юза тозаланади (расм 3) ва сўнгра юза индикатор суюқлик билан қопланади. Капилляр кучлар ёрдамида индикатор суюқлик энг кичик кўзга кўринмас нуқсонлар ичига киради. Индикатор суюқлик маълум муддат (5-7) ўтгач нуқсонли юзадан тозаланади ва бу юзага спиртга аралаштирилган мел кукуни аралашмасидан иборат бўлган кўрсатувчи (проявитель) қопланади. Диффузия ҳодисаси ҳисобига нуқсонли жойларда ўрнашиб қолган индикатор суюқлик оқ юзада қизил чизиқлар ёки нуқталар хосил қилади. Бу қизил чизиқлар мавжуд нуқсонлар координатасини нуқталар эса текширилаётган юзада ғоваклар борлигини белгилайди.

Юқорида келтирилган бузмай назорат қилишнинг ултротовушли усули насос компрессор қурилмаларидаги кўндаланг кесими доира бўлган деталларни назорат қилишда, улардаги турли хар хил ғовакликлар, кераксиз қўшимчалар ёки аралашмалар ва шу каби нуқсонлар аниқланади. Суюқликни сингдириш усули билан эса насос компрессор қурилмаларининг корпусларидаги нуқсонларни аниқлаш мумкин.

Нуқсон индикатор қоплаш нуқсон аниқланган юза



Расм 3. а) назорат юзасини тозалаш, б) юзани индикатор суюқлик билан қоплаш, в) юзани индикатор суюқликдан тозалаш, г) мел кукуни аралашмасидан иборат бўлган кўрсатувчи (проявитель) қоплаш.

Кўп йиллик ишлаб чиқариш тажрибасидан маълумки, бузмай назорат қилиш усули билан назорат қилинган насос компрессор қурилмаларида режали таъмирлашлардан ташқари тўхтаб қолишлар, турли ҳилдаги авария холатлари кузатилмаган.

Корҳоналардаги машина ва жихозларга бузмай назорат қилиш усули билан ташхис қўйиш, шубҳасиз машина ва жиҳозларни хизмат муддатини узайтиради ва натижада махсулот ишлаб чиқаришни, ҳамда корҳона самарадорлиги ортиради.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Методы неразрушающего контроля. Ч. 1. Неразрушающие методы контроля материалов и и изделий. Учеб. пособие Красносрский. СФУ 2009

2. И.Н. Каневский, Е.Н.Сальникова. Неразрущающие методы контроля. Дальневосточный технический университет. Владивосток 2007. 122 стр.

CHANGLARNI KONTAKT YUZALARINI ANIQLASHDA O‘TKAZILGAN TADQIQOTLAR

Karimov Ikromali Tojimatovich
Farg’ona politexnika instituti, v.b professor
i.karimov@ferpi.uz

Sanoat korxonalaridan atmosferaga chiqarilayotgan havo va gaz tarkibidagi chang zarrachalarining tarkibi polidispers, ya’ni har xil o‘lchamdagi zarrachalarni o‘z ichiga oladi. Monodimer changlari, ya’ni bir xil o‘lchamdagi zarrachalarni o‘z ichiga oladigan tarkib deyarli topilmaydi. Shunday qilib, polidispersli aerozollar va changlarni tahlil qilish uchun o‘lchamlarining taqsimlanishi yoki zarrachalarning umumiy ulushi, alohida o‘lchamdagi zarrachalarning nisbati, zarrachalarning o‘rtacha kattaligi (median o‘lchami) to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish zarur. Chunki chang tozalovchi qurilmalarni tozalash samaradorligi bu ko‘rsatkichlarga bog‘liq holda aniqlanadi. Chang dispersiyasi bir qator fraksiyalar yoki fraksion tarkib, ya’ni chang tarkibidagi zarrachalar o‘lchamlarining yuqori va quyi chegaralar sifatida qabul


qilingan qiymatlarni ma’lum bir oralig‘ida bo‘lgan umumiy chang massasining ulushi bilan belgilanadi

Changlarning fraksion intervallari bo‘yicha o‘lchamlarining taqsimlanishi va foizli ulushi

1.Ammiakli selitra changi									
Chang o‘lchami, d_{ch} mkm	0<1	1-3	3-5	5-10	10-20	20-40	40-60	60<	d_n-median o‘lchami
Foizli ulushi,%	5	8	10	24	34	14	5	0	11,4
2.Karbamit mineral o‘g‘iti changi									
Chang o‘lchami, d_{ch} mkm	0<1	1-3	3-5	5-10	10-20	20-40	40-60	60<	5,75
Foizli ulushi,%	10	15	20	21	30	4	0	0	
3.Ammofos mineral o‘g‘iti changi									
Chang o‘lchami, d_{ch} mkm	0<1	1-3	3-5	5-10	10-20	20-40	40-60	60<	23
Foizli ulushi,%	3	5	13	13	13	37	16	0	
4.Dolomit changi									
Chang o‘lchami, d_{ch} mkm	0<1	1-3	3-5	5-10	10-20	20-40	40-60	60<	9,5
Foizli ulushi,%	7	8	13	26	34	10	2	0	
5.Kvars qumi changi									
Chang o‘lchami, d_{ch} mkm	0<1	1-3	3-5	5-10	10-20	20-40	40-60	60<	6,8
Foizli ulushi,%	1	2	7	80	7	1	2	0	
6.Tuproq changi									
Chang o‘lchami, d_{ch} mkm	0<1	1-3	3-5	5-10	10-20	20-60	60<		4,5
Foizli ulushi,%	13	35	25	17	18	2	0		
7.Sement changi									
Chang o‘lchami, d_{ch} mkm	0<1	1-3	3-5	5-10	10-20	20-40	40-60	60<	7,21
Foizli ulushi,%	11	12	14	24	19	12	8	0	

Ho‘l usulda chang tozalovchi qurilmalarni tozalash samaradorligini aniqlashda, changlarning o‘lchamlari intervallari bo‘yicha turli o‘lchamlarda bo‘lishi bizga ma’lum. Bu esa o‘z navbatida changlarning o‘lchamlariga bog‘liq holda suyuqlik bilan kontaktlanishidagi solishtirma yuzalarini aniqlashda qiyinchiliklar tug‘iladi. Shuning uchun yakka chang o‘lchamiga nisbatan kontakt yuzalarini aniqlash orqali hisoblash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Changlarning o‘lchami esa turli shakllarda bo‘lib,

hisoblash ishlarida shar shaklida deb qabul qilamiz va yakka olingan changning nisbiy solishtirma diametrlarini umumiy chang ulushini 50% ni tashkil qilgan gorizontal chiziq orqali aniqlaymiz (2-rasmga qarang). Bunda gorizontal chiziq bilan chang na’munalari uchun chizilgan grafikning kesishgan nuqtasidan vertikal chiziq o‘tkazib, d_n ni qiymatlar aniqlanadi. Keyingi hisoblash ishlari shu qiymatlar orqali bajariladi.



Biz yuqorida tajribaviy tadqiqotlar natijasida chang na’munalarini median diametrlarini anikladik keyinga vazifa bu chang na’munalarini oloqa yuzalarini aniqlaymiz.

Chingli gazlarni zichligi quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$\rho_{ap} = \rho_{z} + (\rho_{ч} \cdot \gamma), \qquad \text{kg/m}^3, \qquad (2.20)$$

bunda ρ_{ch} – chang zichligi, kg/m^3; ρ_g – gaz zichligi, kg/m^3; γ – gaz tarkibidagi chang ulushi, % [ ]

Chang ulushi qiymatini xamma chang na’munalari uchun γ = 250÷400 mg/m^3 interval orlig‘idagi qiymatlarda olindi (interval qadami 50 mg/m^3). Chang na’munalarini shar shaklida deb qabul qilamiz va shar ko‘rinishidagi changlarning xajmi quyidagicha aniqlanishi bizga ma’lum.

$$V_{П} = \frac{4}{3}\pi R^3; \qquad \text{m}^3, \qquad (1).$$

1-formulaga chang na’munalari zichligini ko‘paytirsak chang na’munasining og‘irligi kelib chiqadi.

$$G = V_{П} \cdot \rho; \qquad \text{mg}, \qquad (2).$$

Chang na’munalari ulushini og‘irligini bir dona chang og‘irligiga bo‘lsak changlar soni kelib chiqadi.

$$n = \frac{\gamma}{G}; \qquad \text{dona,} \qquad (3)$$

Chang na’munalari soniga bitta changning sirti yuzasini ko‘paytirsak aloqa yuzalarini topish mumkin. Changning sirti yuzasi quyidagi formula orqali topilishi bizga ma’lum .Ya’ni;

$$S = 4\pi R^2; \qquad \text{m}^2, \qquad (4).$$

3-formulani 4-formulaga ko‘paytirib, kerakli matematik amallar bajarilsa changlarning aloqa yuzasini aniqlovchi formula kelib chiqadi.

$$a_s = \frac{\gamma}{G} \cdot 4\pi R^2; \quad \text{m}^2, \qquad (5).$$

Chang na’munalarini haqiqiy zichligi quyidagicha. Ammiakli selitra zichligi, ρ=1720 kg/m^3, karbomid mineral o‘g‘iti zichligi, ρ=1320 kg/m^3, Ammofos mineral o‘g‘iti changgi, ρ=1800 kg/m^3, dolomit changi zichligi, ρ=2800 kg/m^3, kvars qumi zichligi, ρ=2500 kg/m^3, Tuproq zichligi, ρ=1250 kg/m^3, sement zichligi, ρ=3000 kg/m^3.

Chang va havo aralashmasi zichliklarini hisoblaymiz. Ammiakli selitra changli aralashma zichligi. Havo tarkibidagi chang ulushi γ=250 mg.

$$\rho_{ap} = \rho_г + (\rho_ч \cdot \gamma) = 1,29(1720 \cdot 0,00025) = 1,72 кг / м^3$$

Havo tarkibidagi chang ulushi γ=250 mg.

$$\rho_{ap} = \rho_г + (\rho_ч \cdot \gamma) = 1,29(1720 \cdot 0,0003) = 1,806 кг / м^3$$

Havo tarkibidagi chang ulushi γ=350 mg.

$$\rho_{ap} = \rho_г + (\rho_ч \cdot \gamma) = 1,29(1720 \cdot 0,00035) = 1,892 кг / м^3$$

Havo tarkibidagi chang ulushi γ=400 mg.

$$\rho_{ap} = \rho_г + (\rho_ч \cdot \gamma) = 1,29(1720 \cdot 0,0004) = 1,978 кг / м^3$$

Chang na’munalari turlari uchun aralashma zichliklari shu usulda iniqlandi. Yuqorida keltirilgan formulalar ketma-ketligi orqali hisob ishlari bajarildi va kontakt yuzalari aniqlandi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojimatovich, K. I., & Jurakuziyevich, K. B. (2023). HYDRODYNAMICS OF FLUID TRANSMISSION CAPACITY OF BUBBLE EXTRACTOR FILTER. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, *1*(2), 80-85.
2. Tojimatovich, K. I., Nizomiddinovich, M. A., & Salomidinovich, I. A. (2023). Hydrodynamics of Rotary Apparatus of The Wet Method of Dust Cleaning. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, *1*(2), 24-30.
3. Tojimatovich, K. I., Ro, X., & Axmadjonovich, E. N. (2023). Hydrodynamics of A Barbage Exhaust Apparatus for Wet Purification of Dust Gases. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, *1*(2), 31-36.

4. Karimov, I. (2023). CHANGLI GAZLARNI HO ‘L USULDA TOZALOVCHI KONUS SETKALI APPARAT. *Research and implementation*.
5. Jarcová, K. (2019). *Ruské reálie v současných učebnicích ruského jazyka pro základní školy* (Doctoral dissertation, Masarykova univerzita, Pedagogická fakulta).

AYLANUVChI SEMENT PECHLARI FUTEROVKASINING ISHLASH MUDDATINI UZAYTIRISH OMILLARI TAHLILI

Sadullayev Xamidullo Mansurovich, dotsent
Ikromov Javohir Nodirbek o‘g’li 23-23 guruhi talabasi
Muhammadaliyev Muhammaddiyor Raximjon o‘g’li 24-23 guruhi talabasi
Farg‘ona politexnika instituti
sadullaev.ferpi@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada yuqori harorat ostida ishlaydigan sement pishiruvchi aylanuvchi pech futerovkasini ekspluatatsiya qilishning ayrim omillari tahlil qilinib, pech futerovkasining ishlash muddatini oshirish, xususan pechni dastlabki qizdirish rejimi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnologik liniya, yuqori harorat, o‘tga chidamli materiallar, klinker, xizmat muddati, harorat gradienti, deformatsiya, termodinamik zo‘riqish, qizish tezligi, yoriq, qizdirish rejimi grafigi.*

Kirish. Ma’lumki, sement ishlab chiqarish texnologik liniyasida ishlatiladigan asosiy agregat – aylanuvchi pech diametri 3 metrdan 7 metrgacha, uzunligi 60 metrdan 230 metrgacha bo‘lgan ikkala uchi ochiq, ichi issiqqa chidamli g‘ishtlar bilan futerovka qilingan baraban bo‘lib, uning ichida xom-ashyo va issiqlik oqimi qarama-qarshi harakatlanadi.

Pech tanasi alohida obechaykalardan tashkil topgan bo‘lib, ular bir-birlari bilan elektr payvandlash yordamida uzluksiz quvursimon qurilmaga aylantiriladi.

Pech tanasini yuqori haroratdan muhofazalash hamda issiqlikning tashqi muhitga chiqishini kamaytirish maqsadida, pech tanasi ichkaridan issiqqa chidamli maxsus g‘ishtlar bilan futerovka qilinadi.

Bu maqsadda shamotli, ko‘p shamotli, magnezit, xrommagnezit va talkli olovbardosh materiallar qo‘llaniladi.

Pishirish zonasida pech tanasi ichidagi harorat 1600 ^{o}S gacha, tashqi yuzasining harorati 300-400 ^{o}S darajagacha, yuklash uchidagi ichki harorat 300-500 ^{o}S, tashqi yuzasining harorati 30 – 60 ^{o}S va bo‘shatish uchida ichki harorat 1000-1100 ^{o}S, tashqi yuzasining harorati 200 ^{o}S – gacha bo‘ladi. [1]

Metodlar. Bunday sharoitda aylanuvchi pechlar futerovkasining ishlash muddati turli sement korxonalarida turlicha bo‘lishi, xattoki bir xil o‘lchamdagi, bir

korxonadagi pechlarning ishlash muddati ham bir xil emasligi tajribalarda kuzatilgan. [2]. Aylanuvchi pechlar futerovkasining ishlash muddatini oshirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Lekin, hozirgacha ekspluatatsiyada bo‘lgan aylanuvchi pechlar futerovkalarining har bir konkret ish sharoiti uchun ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar mukammal emas. Tadqiqotchilardan Korshunov V.S., Ploss G.Ye., Zvyagin V.I., Kolosov A.X. va boshqalarning ishlarida futerovkani qizdirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan, biroq bu tavsiyalar shimoliy o‘lkalarda ishlatiladigan pechlarga nisbatan samarali qo‘llanilishi mumkin. Shu sababli Farg‘ona vodiysi viloyatlarida ekspluatatsiya qilinayotgan aylanuvchi pechlar futerovkalarining ishlash muddatini oshirish bo‘yicha ko‘p yillik kuzatuvlar olib borildi.

Farg’ona vodiysi sement zavodlarida futerovkalarining ishlash muddati 10-18 sutkadan 30-40 oygacha oraliqni tashkil etadi. Tajribalarning ko’rsatishicha futerovkalarning ishlash muddati ularni ekspluatatsiya qilish sharoitlariga, pechni yoqish, futerovkani qizdirish va quritish rejimiga, pech ishining bir maromdaligiga, klinker kuydirish teplotexnik va texnologik rejimining barqarorligiga, ushlangan changning pechga qaytarish usuliga, shuningdek, pishirish zonasida korpus yuzasidagi issiqlikni kamaytirish usuliga, futerovka yuzasida hosil bo’ladigan qatlam sifatiga, uning barqarorligiga hamda pishirilayotgan material tarkibiga va shu kabi qator omillarga bog’liq.

Natijalar. Ushbu maqolada sement pishiruvchi zamonaviy aylanuvchi pechlar futerovkalarining ekspluatatsiya shart-sharoitlarini takomillashtirish orqali ularning mustahkamligini oshirishda qo’llaniladigan usullar tahlili keltirilgan.

Keyingi yillarda Respublikamizda sement zavodlari qurilishi jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Bu korxonalarda sement klinkeri olishda asosan turli o’lchamdagi aylanuvchi pechlar o’rnatilmoqda. Yangi pechlarni o’rnatish, futerovka qilish yoki ishlayotgan pechlarning futerovkasini to’liq yoki qisman almashtirish, o’ta murakkab va mas’uliyatli operatsiya hisoblanadi. Chunki ushbu pechlarda futerovkani quritish va qizdirish ishlarining muvofaqqiyatli amalga oshirilishi ularning ishlash muddatiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. [3]

Pechni qizdirish rejimi, futerovkani quritish va qizdirish, o’tga chidamli material turi, futerovkani terish usuli va qalinligiga qarab tanlanadi.

Afsuski, sement korxonalaridagi aylanuvchi pechlarga hizmat ko’rsatadigan mashinistlar uchun mo’ljallangan pechni qizdirish, ishga tushirish yo’rinomasida futerovkani quritish va qizdirish rejimiga, haroratni kotarish tezligiga, harorat intervaliga nisbatan konkret talablar ko’zda tutilmagan.

O‘zbekistondagi sement zavodlarida ishlatilayotgan aylanuvchi pechlar ishlash muddati ham futerovkalar holatiga bog‘liq bo‘lib, ularning ishchi korpusi (tanasi)ni yuqori harorat (+300°C dan +1600°C gacha)dan himoya qiluvchi futerovkalar o‘rtacha 10-15 oy xizmat qiladi.

Agar, ishdan chiqqan futerovkani almashtirish, ta’mirlash bir haftadan bir oygacha muddat talab qilishini e’tiborga olsak, mazkur futerovkalar xizmat muddatini oshirish naqadar dolzarb masala ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Zamonaviy aylanuvchi pechlar futerovkasining qalinligi 300 mm gacha, o‘tga chidamli g‘isht sarfi 2000 ming donagacha bo‘ladi. Pechni ishga tushirish, futerovkani quritish va qizdirish rejimi o‘tga chidamli g‘isht va beton turi, futerovkani pech ichiga terish usuli, tuzilishi va qalinligiga qarab tanlanadi.

Aylanuvchi pech ishga tushirilgandan so‘ng ichida harorat asta-sekinlik bilan ko‘tarila boradi. Futerovkaning bir yuzi pech ichiga, ikkinchi tomoni pech korpusiga qaraganligi sababli yuqori harorat gradienti yuzaga keladi. Mana shu harorat gradienti ham pech futerovkasining ichki hajmida deformatsiyalar qo‘zg‘atadi va uning xizmat muddatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Quvasoy sement” AJ (2 ta diametri 3,6x130m, 2 ta 3,6x150m o‘lchamli aylanuvchi pech), “Farg‘onasement” (1 ta diametri 3,6x50m, o‘lchamli aylanuvchi pech), To‘raqo‘rg‘on sement zavodi (1 ta diametri 3x48m o‘lchamli, 1 ta diametri 4,2x 60m o‘lchamli aylanuvchi pech) korxonalarida o‘rnatilgan aylanuvchi pech agregatlari o‘rganilganda ularning pishirish zonasidagi harorat gradienti har bir santimetrda 50-70^{o} S ni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi.

Pechni ishga tushirish paytida futerovka g‘ishti asosan bir tomondan qizdirilayotganligi sababli ham harorat gradienti katta bo‘ladi.

Har qanday materialda harorat past-balandligi natijasida yuzaga keladigan zo‘riqish qo‘shni qatlamlardagi deformatsiyalar farqining elastiklik moduliga ko‘paytmasiga proporsional bo‘ladi.


Qo‘shni qatlamlar deformatsiyasi farqi esa ulardagi harorat farqiga va chiziqli kengayish koeffitsientiga proporsional bo‘ladi.

Haroratning ruxsat etilgan gradienti vaqtinchalik siljish qarshiligi P ga to‘g‘ri proporsional va siljish moduli G ga, mahsulot o‘lchami l_0 ga, termik kengayish koeffitsienti α ga teskari proporsional bo‘ladi

$$\alpha \cdot \Delta t / \Delta l = \frac{20P}{G \cdot l_0 \cdot \alpha};$$

Boshqacha aytganda, bir tomonlama qizish natijasida futerovkada yuzaga keladigan termomexanik zo‘riqish bir xil sharoitda o‘tga chidamli materialdagi harorat gradienti bilan belgilanadi va unga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi.

Pechni qizdirishda eng yuqori harorat gradienti aylanuvchi pech kuydirish zonasi futerovkasi uchastkasiga to‘g‘ri keladi. Agar futerovkaning qizish tezligi ko‘tarilsa, harorat gradienti berilgan o‘tga chidamli g‘isht (futerovka) uchun ruxsat etilgan qiymatidan oshib ketadi. Bunday holatda yuzaga keladigan eguvchi moment o‘tga chidamli g‘ishtning bo‘linishiga mustahkamligidan ko‘p bo‘lib, futerovkaning ichki yuzasida yoriqlar paydo bo‘lishiga olib keladi.



1-rasm. “Quvasoysement” AJ dagi diametri 3,6x150 m o‘lchamli aylanuvchi pechning futerovkasini qizdirishda xrommagnezitli o‘tga chidamli g‘isht balandligi bo‘yicha haroratning tarqalish grafigi.

t,0 - o‘tga chidamli g‘isht ishchi yuzasidagi harorat;

t,30 - o‘tga chidamli g‘ishtning 30 mm chuqurligi (ichi) dagi harorat.

t,60 - o‘tga chidamli g‘ishtning 60 mm chuqurligi (ichi) dagi harorat.

Xulosalar. Qizdirish rejimining bir tomondan futerovka barqarorligiga, ikkinch tomondan pechdan foydalanish kaeffitsientiga katta ta’sirini e’tiborga olib aylanuvchi sement pechlarini qizdirishning optimal rejimini aniqlash maqsadida qator tajribalar o‘tkazildi. Bunda xrommagnizit o‘tga chidamli g‘ishtdan tayyorlangan futerovka 60, 80, 110, 160, 180, 350 va 500 ^{o} C/soat tezlikda qizdirildi. Olingan natijalar asosida o‘tga chidamli g‘ishtning yuzasida harorat bir xil bo‘lganda turli qizdirish rejimida haroratning futerovka tanasi bo‘ylab tarqalishi aniqlandi. Tajribalar taxlilining ko‘rsatishicha 30 dan 100 ^{o} C/soat tezlikda qizdirilganda o‘tga chidamli g‘ishtdagi harorat gradienti jiddiy o‘zgarmaydi. Qizdirish tezligi oshgan sari harorat gradienti ham osha boradi. Bu holat mazkur o‘tga chidamli materialning issiqlik o‘tkazish xossasi kamayishi bilan izohlanadi. 150 ^{o} C/soat tezlikda futerovka yuzasidagi harorat 1000 ^{0}S ga yetganda uning 5-10 mm chuqurligida harorat gradienti 100-250 ^{o} C/sm ga yetadi.

Diametri 3,6x150 m o‘lchamli aylanuvchi pechni optimal qizdirish rejimini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari.

1-jadval

№	Qizdirish vaqti, soat	Futerovka yuzasidagi harorat, º C	Qizdirish tezligi, º C/soat
1	1	500	500
2	2	780	290
3	3	980	200
4	4	1140	160
5	5	1270	130
6	6	1390	110
7	7	1470	90

Pishirish zonasida material paydo bo‘lguncha pechni qizdirish davomiyligi 7 soatni tashkil etishi kerak ekan.

Bundan ko‘rinadiki, aylanuvchi pechlar futerovkasi ishlash muddatini oshirishda har bir pech uchun alohida qizdirish rejimini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayniqsa, pechni ishga tushirish vaqtida bunga jiddiy e’tibor berish zarur.

Pechni ishga tushirish uchun qizdirish grafigi ishlab chiqish kerak va unga qat’iy amal qilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sadullayev. X.M. Alimatov. B.A Ishlab chiqarishdagi texnologik komplekslar. Farg‘ona, “Klassik”, 2022 yil.

2. Silenok S.G. i dr. Pechnые agregatы. M.: «Stroyizdat» 1986.

3.Shubin V.I. Ekspluatatsiya futerovok sementnых vrashayushixsya pechey. M.VNIIESM, 1983.

STUDY OF RAW MATERIALS SORTING PROCESS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Bobojon Ortiqaliyev
Fergana politechnic institute, Fergana, Uzbekistan.
Email: b.ortiqaliyev@ferpi.uz

Abstract

Firebrick plays an important role in many industrial enterprises, including the production of aluminum, cement, glass, iron, oil and steel. Refractory bricks differ in composition depending on their use. The main types are made from raw materials such as aluminum, carbon chrome ore, dolomite, magnesite, silicon and zircon. In the production of refractory bricks, it is necessary to take into account the granulometric composition, as a result of which they become a dense and durable product. Sito-burat SM-237 sorting machine is currently in use. The main feature of the used sorting machine is that it requires the separation of raw materials into the required fractions.

The main problem of the raw material sorting machine is the uneven distribution of fractions

Key words *Refractory brick, raw material sorting machine, Sito-burat SM-237A, number of rotations, division into fractions.*

Introduction:

Almost all types of refractory bricks are used in the construction of heat units operating at temperatures above 13500 C. Production of iron and steel, as well as the volume of smelting, is a factor that determines the strength of each country's heavy industry. But it is difficult to imagine the huge achievements in the field of metallurgy without technical means. These materials are divided into resistant (1580^0-1770^0) and ultra-resistant (above 2000^0) types according to their temperature resistance. By mixing calcined kaolin or fireclay with unfired clay containing a lot of aluminum oxide, and baking the brick cast from the melted clay in a special oven at a temperature of 1350^0-1500^0C, semi-sour, fireclay and high-alumina bricks can be obtained.

Research methodology:

The properties of refractory aluminosilicate brick depend on the amount of aluminum (3)-oxide included in the mass. As the amount of oxide in the composition increases, the indicators of the brick also increase. In this way, materials prepared on the basis of magnesite, dolomite, forsterite, chromite and artificial compounds differ from others in terms of resistance to high temperature effects. The fact that the forsterite brick melts only at a temperature above 1750 0C and can withstand compression under the influence of a force of up to 500 kg per square centimeter is evidence of its high hardness.

For the production of high-quality and durable refractory brick, it is necessary to take into account its granulometric composition, baking temperature and baking time. The baking time and temperature of the firebrick produced in local enterprises is almost the same as the product of this type produced abroad. The only difference is that the granulometric content of 1 ton fireclay firebrick raw material passed through the sorting machine is not at the required level. In the production of firebrick, rotary sieves are mainly used. Sito-Burat SM-237A raw material sorting device is being used in local enterprises. Sito-bureted fraction 1 - 30% (300kg), fraction 2 - 23% (230kg), fraction 3 - 10% (100kg) and secondary kaolin - 26% (260kg), SP kaolin AKS - 11% (110kg) and humidity - 5÷8%. The first artificial product of refractory brick consists of aluminosilicate brick obtained on the basis of the SiO2 - Al2O3 system and siliceous brick made on the basis of the SiO2 equilibrium diagram.[2]

The raw material of refractory bricks passes through several stages before reaching the sorting process, and the quality of the work done in these processes has either a negative or a positive effect on the sorting process. The raw material brought to the warehouse first enters the jaw crusher, and then it is transported to the begun using a vacuum conveyor. At the next stage, the raw material enters the sorting machine, where it is separated into three different fractions using Sito-burat SM-237A

device. Sito-burat SM-237A's design flaw is that the raw materials coming into it, which is the main feature of the machine, do not divide the granularity of the raw materials into fractions. . Because the required amount of fractions is added depending on the brand of the refractory brick being produced.




Figure 1. Sito-burat SM-237A: 1 - horizontal shaft, 2 - bearings, 3 - raw material inlet, 4 - mats of different sizes, 5 - frames of sieves.

In the working part of the sieve-burat, the raw material moves from the small side of the cone to the large side and is sorted into fractions in this direction. The raw materials falling into the first Sito-burat fell into the fine-meshed part, i.e., the raw materials up to 1 mm were sieved, and before being placed in the public, the particles of up to 1 mm were passing to the next part with the larger ones. the material is sorted. Then, if a ring (barrier) is placed at a height of 20 mm to prevent it from passing to the next stage together with other larger-sized particles, the small-sized raw materials will not pass to the next stage.




Figure 2. The state after placing the ring. 1, 6, 7-new barrier to be placed (ring) ; 2nd shaft; 3- 1mm mesh; 4-3mm grid; 5-5mm grid;

Before choosing the height of these rings, several experiments were conducted and the optimal height of the rings was selected. In the second part, raw materials up to 2-3 mm are screened. As in the first part, in this part, together with other larger particles, a 30 mm height fence is placed to prevent them from passing to the next part. . In the last part, raw materials with a size of 3-5 mm are sifted, as in other parts, in this part, too, in order to prevent them from passing to the next part together with other larger particles, if the small raw materials are placed at a height of 40 mm, they will

not pass to the next stage. As a result, a dense and durable brick is obtained, which prevents the increase in the cost of the above-mentioned building materials.

One of the factors affecting the sorting process is the number of Sito-burat cycles, which have threshold values. Deviation of the device from these values reduces the efficiency of the sorting process

$$n = \frac{8}{\sqrt{(R+r)/2}} \div \frac{14}{\sqrt{(R+r)/2}} \quad (1)$$

If the number of rotations of Sito-burat is higher than the threshold value, the sorting process does not occur, because the raw material settles along the surface of the sieves of Sito-burat under the influence of centrifugal force, and rotates together with it.

The sieve acts on the raw material moving inside the buret simultaneously by several forces.




Figure 3. Scheme for determining the number of revolutions of a drum sorting machine.

where F is the friction force and it is calculated as follows:

$$F_i = P_i f = fmw^2 R \quad (2)$$

m-mass, kg

w-angular velocity, rad/sec

Average radius of R-drum, m

$$G\sin a = fmw^2 R + fG\cos a \quad (3)$$

$$\sin(a-\varphi) = \frac{v^2}{Rg}\sin\varphi = 4n^2 R\sin\varphi \quad (4)$$

$$n = \frac{1}{2}\sqrt{\frac{\sin(a-\varphi)}{R\sin\varphi}} \quad (5)$$

in practice, angle α is taken as 40-45^0. The friction angle φ is determined by special calculation books

$$\varphi = arctg0.7 = 35^0 \quad (6)$$

Taking into account the values of α and φ, the number of rotations of the drum sorting machine is determined as follows

$$n = \frac{1}{2}\sqrt{\frac{\sin 5^0}{R\sin 35^0}} \div \frac{1}{2}\sqrt{\frac{\sin 10^0}{R\sin 35^0}} \approx \frac{0.167}{\sqrt{R}} \div \frac{0.25}{\sqrt{R}} \quad (7)$$

drum rotation speed: 0.7-1 m/sec.

As we know, the performance of drum sorters depends on the rate of falling of raw materials and the number of revolutions of the sorter. In addition, thanks to the innovation in the design of the device, the efficiency of the sorting machine is increased.

The speed of movement of crushed raw materials that need to be separated into fractions inside the drum sorter depends on the reasons listed above.

$$v_0 = 2\pi Rntg2\beta = 6.28Rntg2\beta \quad (8)$$

where: the average radius of the R-drum sorting machine, m

n- number of rotations,

b- deviation angle,

The dependence of the work efficiency of the sorting machine on its number of rotations is shown in the graph in Figure 4. If the number of rotations is 5 times per minute, a productivity of 40 kg/m3 is achieved. As the number of revolutions of the sieve burat increases, its productivity also increases. As can be seen from the graph, the sorting machine achieves the highest efficiency when the optimal number of revolutions is 15 rounds per minute. If we increase the number of revolutions of Sito burat again, the work efficiency of the sorting machine decreases linearly, because the faster the drum rotates, the more crushed raw materials move along the surface of the sieves of the sorting machine, as a result, the sorting process does not take place.




Figure 4. A graph of performance versus the number of cycles

Sito Burat SM-237A is equipped with new additional rings to prevent small fractions from passing to the next stage.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Р.Ж. Тожиев “Қурилиш машиналари” «Ўзбекистон»-2000, 300 бет
2. Р.Ж. Тожиев, Б.С. Ортиқалиев, М. Абдувалиева «Сито-Бурат СМ-237А Русумли оловбардош ғишт хом ашёсини саралаш машинаси иш режмларини таҳлили», I Международной научно-практической конференции “Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и в смежных отраслях” 24-25 мая 2019 года 1-том 177-179 ст

3. Ж.А. Мўминов, Э.С. Умаров, Б.С. Ортиқалиев, “Оғир юкланишли ва тез харакатланувчи машина қисмларида сирпаниш подшипникларини танлаш”. Машинасозлик ишлаб чиқариш ва таълим: муаммолар ва инновацион ечимлар 2019 йил, 338-340 бет
4. Ортиқалиев Б.С, Абдурахмонов А.А “Шиша идишларининг қуйилиш жараёнларини имитатсион компютер моделини яратиш” I Международной научно-практической конференции “Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и в смежных отраслях” 24-25 мая 2019 года 1-том 179-180 ст
5. Tojiyev, R.; Ortikaliyev, B.; Tojiboyev, B. “Improving selecting technology of raw materials of fireproof bricks” Тенденции и переспективы развития науки и оброзования в условиях глобализации. Украина 2019.04.27 №-46, 606-609 ст

III-SHO‘BA. MUVOFIQLIKNI BAHOLASH VA MAHSULOT SIFATI NAZORATI

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINING SIFATI VA XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH – DAVR TALABI

Abdullayeva Ug‘iloy
Farg‘ona politexnika instituti, 50-22 MS va MSM guruh talabasi

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Sog‘lom ovqatlanish inson hayotidagi muhim mezon, u insonning uzoq umr kechirishini ta’minlaydi. Jismoniy faollik hamda ovqatlanish me’yor va qoidalariga amal qilmaslik, tarkibida tuz, qand, yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan taom va shirinliklarni me’yoridan ortiq iste’mol qilish, shuningdek, yetarli darajada vitamin va minerallar iste’mol qilmaslik oqibatida yoshlarda rasional o‘sish va aqliy rivojlanishda ortda qolish, kattalarda esa yurak qon-tomir, endokrin, xavfli o‘sma kabi insonning erta o‘limiga olib keluvchi qator kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi.



So‘ngi yillarda oziq-ovqat savdo ob’yektlaridan sifatsiz, xavfsizligi kafolatlanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sotilishi natijasida aholi o‘rtasida ovqatdan zaharlanish holatlari ko‘payib bormoqda.

Oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi inson organizmidagi fiziologik buzilishlarni oldini olish hamda sog‘lom balansni tiklash maqsadida rasionini maqbul darajaga yetkazish yoki organizmni zarur bo‘lgan foydali moddalari bilan to‘ldirish uchun mo‘ljallangan, tarkibida kelib chiqishi tabiiy yoki tabiiyga o‘xshash sun’iy biologik faol moddalar yoki prebiotik komponentlar va probiotik mikroorganizmlar mavjud oziq-ovqat mahsulotlaridir.

O‘zbekiston Respublikasining 30.08.1997 yildagi “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”gi 483-1-sonli Qonunning “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat tomonidan normalash” borasidagi 5-moddasiga asosan “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar davlat organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ular oziq-ovqat mahsuloti muomalasi sohasida ish olib borayotgan yuridik hamda jismoniy shaxslar uchun majburiy” ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Mahsulot sifati belgilangan normalar va qoidalar talablariga muvofiq bo‘lmasa, majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar uchun esa moslik sertifikati bo‘lmasa, saqlash va realizatsiya qilish uchun tegishli sharoit bo‘lmasa, yaroqlilik muddati tugagan bo‘lsa, mahsulot qalbakilashtirilgan bo‘lsa va mahsulotlarni taqqoslash mumkin bo‘lmasa, mahsulotni realizatsiya qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan bir qancha majburiy talablar mavjud bo‘lib, ya’ni savdo do‘konlariga keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini kafolatlovchi xujjatlariga ega bo‘lishi shart.

Mahsulotlarni saqlash sharoitlariga, iste’mol muddatlariga qat’iy e’tibor berish lozim. Iste’mol muddatlari o‘tgan, sifati va xavfsizligi kafolatlanmagan, uy sharoitida tayyorlangan mahsulotlarini sotish qatiyan ta’qiqlanadi. Do‘konda saqlash jarayonida iste’mol qilish muddatlari tugagan mahsulotlar savdodan olinishi va o‘rnatilgan tartibda yo‘q qilinishi shart va savdo rastalarida oziq-ovqat va parfyumeriya, kimyoviy yuvish vositalarini birga saqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini yerda betartib saqlanishi va sotilishi, oziq-ovqat mahsulotlarini qo‘l bilan ushlash va ularni usti ochiq holatda saqlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Savdo peshtaxtalari va sovutgichlarda mahsulotlarni saqlashda qo‘shnichilik qoidalariga qat’iy rioya qilinishi shart. Pishgan va xom mahsulotlarni bir joyda saqlash va mahsulotlarni savdo zalidan tashqarida saqlash va sotish ta’qiqlanadi.

Bundan tashkari bozorlarda oziq-ovqat maxsulotlari yani shirinlik va gusht mahsulotlaridan tayyorlangan kaboblar yonma-yon holatda tayyorlanishi oqibatida mahsulotning sifatiga таьsir kursatishini oldini olish maksadida sanitariya gigiena qoidalariga rioya kilgan holda yopik holatda belgilangan tartib-qoidalar asosida sotishni tashkillashtirish mahsulotning sifat ko’rsatkichini tushishini oldini olingan bo’ladi.

Har bir mahsulot u xox oziq-ovqat xox kiyim-kechak bulmasin belgilangan joyda sotilishini ta'minlash muhim axamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarni sifat nazoratchisi standartda belgilangan muddatlarda tekshirish ishlarini olib borish maksadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismatullaev P.R., Toshpo'latov M.M. Mahsulotlar sifatini boshqarish, T.: ToshDU, 2008, 232 b.

2. Абдувалиев А.А., Алимов М.Н. и др. Основы стандартизации, сертификации и управление качеством. – Т.: «Фан ва технология», 2005. – 540 с.

3. Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С. и др. Основы стандартизации, метрологии, сертификации и управление качеством. – Т.: НИИСМС 2007. – 555 с.

TANDIR GO 'SHTINI TAYYORLASH BOSQICHLARI VA UNI QALBAKILASHTIRILISHINING OLDINI OLISH HAQIDA

[1]Xamrakulov G., [2]Nosirov Z., [3]Xamroqulov M.
[1]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, professor
[2]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, bakalavr
[3]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, dotsent

Tandir go'shti voha viloyatlar (Qashqadaryo, Surxondaryo)ida bo'lib o'tadigan bayramlarda hamda to'y – xashamlarda tansiq taom sifatida dasturxonga tortiladi. Tandir go'shti Qashqadaryo viloyatining mashhur taomlaridan hisoblanadi. Bu taom paydo bo'lishi haqida mahalliy aholi orasida turli rivoyatlar tarqalgan. Ulardan birida aytilishcha: "Qadimda kunlardan bir kun chaqmoq chaqib, tog' archazorlariga o't ketadi va u yerdagi hamma hayvonlar kuyib pishgan go'shtga aylangan. O'sha tog'dan oqib o'tuvchi suv sho'r bo'lgan. Shuning uchun shu suvdan ichgan tog' hayvonlarining go'shtlarida tuz miqdori yetarli bo'lgan. Undan tatib ko'rgan tog' aholisiga pishgan go'shtning ta'mi yoqib qolgan va o'sha voqeadan so'ng tog' cho'ponlari o'z podasidagi qo'y-qo'zilarning go'shtini o'ra qazib pishira boshlashgan. Qo'shimcha ta'm berish maqsadida tog' archasi va ziravorlaridan foydalanishgan. Keyinchalik bu odat tusiga kirib mahalliy aholining sevimli taomiga aylangan. Hayratlanarlisi shundaki, vohadan boshqa hududlarda tayyorlangan tandir go'shtlarining ta'mi voha vilotlarida tayyorlangan tandir go'shti ta'mini takrorlay olmagan. Shu sababli, tandir go'shti faqat Qashqadaryo hududidagina maromiga yetkazib tayyorlanadi hamda uni tatib ko'rishni xohlaganlar, albatta, Qashqadaryoga tashrif buyurishadi." Nima uchun tandir go'shti aynan Qashqadaryoda tayyorlanadi? Bizga ma'lumki, Qashqadaryo O'zbekistonning qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanadigan asosiy hududlardan biri hisoblanadi. Qashqadaryo qo'y-qo'zilar erta tongdan to qosh qoraygunga qadar 100 dan ortiq turdagi o't-o'lanlardan oziqlanadi, daryo o'zani va buloqlardan suv ichadi. Bundan tashqari, Qashqadaryo tandir go'shtini tayyorlanishida tabiiylikka ko'proq e'tibor qaratiladi. Hech qanday zamonaviy ta'm beruvchi vositalarsiz, sous, mayonezlarsiz faqatgina tog' archasi-yu,

tog‘ zirasidan foydalaniladi. Shu sabab Qashqadaryocha tandir go‘shtida tabiiy qo‘zi go‘shti ta'mi bor. Tandir go‘shtini pishirish uchun yonbag‘ir yerdan diametri 1 metr, chuqurligi 1,5 metr keladigan o‘ra chuqur qazilgan maxsus tandir. Go‘shtni ilish uchun maxsus tayyorlangan (qattiq yog‘och yoki metal) sixsimon simlar kerak bo’ladi.

Tandir go‘shti tayyorlanish bosqichlari. Avvalo, tandir go’shtni tayyorlashda bizga kerak bo’ladigan vosita bu – tandirdir. Tandirni yasashda e’tibor beradigan muhim tomoni uning toshdan yasalishi. Buning sababi shundaki, tosh issiqlikni o’zida ko’p vaqt ushlab turadi va tez qiziydi. Keyingi o’rinlarda go’shtni yaxshilab marinovka qilishdir. Marinovkani a’lo darajada qilish bu go’shtning ta’mini yaxshi chiqishini ta’minlovchi eng muhim omildir. Ma’rinovka go’shtga singishmaguncha u tandirga solinmaydi. Asosan, marinovkani tayyorlashda sarimsoqpiyoz, ziravorlar, sirka kislotasi, pomidor kerak bo’ladi. Asosiy kerak bo’ladigan xom-ashyo bu archa shoxlaridir. Biz archa shoxlarini sho’rsuvda namlab qo’yamiz. Namlab qo’yishdan maqsad u cho’g’ga qo’yilganida tutun hosil bo’lishidir. Shu tariqa go’shtga ta’m beradi. Olov yoqishda bizga asosan o’rik daraxti kerak bo’ladi. Sababi, u o’z taftini uzoq vaqt ushlab turadi. Tandirning balandligi ham muhimdir. Aks holda, go’sht kuyib qolishi mumkin. Endi go’shtni pishirishga kelsak, bo’laklarga bo’lingan go’shtlarni qalin sixlarga ilamiz. Go’shtni tandirga solgan zahoti uning og’zini mustahkam qilib yopishimiz zarur. Og’zi yaxshi yopilmay qolinsa undan undan bug’ chiqib ketadi va go’sht maromiga yetmasdan qoladi. Go’shtni qancha vaqt tandirga qo’yishga kelsak, bu go’shtning yosh yoki qari qo’y va echkiniki ekanligiga qarab olinadi. Agar yosh bo’lsa 40,45 minut, qari bo’lsa 60 minut vaqt davomida pishiriladi. Pishgan go’sht tandirdan olingandan keyin unga ozroq suv sepiladi. Sababi go’shtni muloyim bo’lishi. Tandir go’shtni tayyorlash shu tariqa kechadi.

1-jadval. Tandir go’shti tayyorlanish texnologiyasi

	Kerak bo’ladigan vositalar	Tayyorlanish jarayoni
	Mutaxassis (oshpaz)	Go’shtni marinovka qilish (2,3 soat)
	Tandir	Tandirga o’t yoqib uni qizitish
	Kerakli mahsulotlar (go’sht, sarimsoqpiyoz, ziravorlar, sirka kislotasi, pomidor, tuz,suv, archa shoxlari). Kerak bo’ladigan vositalar (o’tin, ilgich, yopg’ich va boshqa vositalar)	Go’shtni uning holatiga qarab agar yosh bo’lsa 40-45 daqiqa qariroq bo’lsa 60 daqiqa tandirda ushlab turish tavsiya etiladi.

Tandir go’shti ham hayvonning(mol,qo’y,echki) ko‘rinishiga, jinsiga, yoshiga, semizligiga va termik holatiga qarab identifikatsiyalanadi. Misol tariqasida aytadigan bo’lsak, katta yoshli hayvonlarning go'shti qattiqroq konsistentsiyaga ega, ko'pincha mushaklar orasidagi yog’ qatlamlari yo'q. Yosh hayvonlarning go'shti esa yumshoqroq, nozik tolali bo’ladi. Tandir go’shtni qalbakilashtirishning ham 6 turi mavjud. Jadvalda ularning turlari va bartaraf etish usullari keltirilgan.

Tandir go’shtni qalbakilashtirish turlari va uni bartaraf etish usullari

1. Assortimentni (turni) qalbakilashtirish. Qalbakilashtirishning bu turida asosan echki go’shtini qo’y go’shti deb sotish orqali amalga oshiriladi.	Bu qalbakilashtirish turini bartaraf etishda shu sohani tushungan insonlar (mutaxassislar)lar kerak bo’ladi.
2. Sifatni qalbakilashtirish. Bu turida go’sht bilan birgalikda hayvon(qo’y, echki)lar ichki organizmlarini ham sotilishi misol bo’ladi.	Bu usulni bartaraf etishda go’shtni bo’laklarga bo’ldirib olish tavsiya etilmaydi. Shunda ichki organizmlar ajralib qoladi.
3. Miqdorni qalbakilashtirish. Tandir go’sht miqdorini asosan tarozilar yordamida qalbakilashtiriladi.	Bunda asosan tarozini to’g’ri holatdagi joylashuviga e’tibor berishimiz kerak.
4. Qiymatni qalbakilashtirish. Sifatsiz, ya’ni, aynigan sasigan go’shtlarni ham sotishlik.	Bunda faqatgina organoleptik jihatdan to’g’ri baholay olish yechim bo’ladi.
5. Axborotni qalbakilashtirish. Bu turda tandir go’sht pishiradigan joylarda ma’lumot sifatida plakatlarga yolg’on yozib qo’yilishligi.	Bunda aynan shu turdagiligini tasdiqlovchi hujjat yoki namuna taqdim etilishini so’rashlik.
6. Kompleks qalbakilashtirish. Bu usulda turli xil ikki, uchta tur yoki beshta turning hammasi uyg‘unlashib ketadi.	Yuqorida sanab o’tilganlarning hammasini misol qilib keltirsak bo’ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, oladigan natijalarimiz asosan tandir go’shtni xarid qilishda organoleptik usul orqali uni sifati va haqiqiyligiga dastlabki ishonchni hosil qilishdir. To’liq natijaga erishish uchun esa biz tandir go‘shti namunalari ustida ekspertiza o’tkazishimiz kerak bo’ladi.

Adabiyotlar

1. M.G‘.Hamroqulov, D.Yu.Xasanova, G‘.X.Hamroqulov “Tovarlarni identifikatsiyalash va qalbakilashtirish” o‘quv qo‘llanma:T.
2. “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va havfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.

SUT BERUVCHI TURLI HAYVON MAHSULOTLARI VA ULARNI QALBAKILASHTIRISHNI ANIQLASH

[1]Xamrakulov G., [2]Jalilov D., [3]Sayfullayeva Z.
[1]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, professor
[2]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, talaba
[3]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, assistent

Mamlakatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, bu orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, mazkur sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida 08.02.2022 yilda PQ-120-son O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori imzolangan. Unga berilgan ilovaga ko‘ra sut yetishtirish hajmining o‘sishi 1-jadvalda keltirilgan[1].

1-jadval

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan dasturning maqsadli ko‘rsatkichlar (indikatorlar)i

№	Ko‘rsatkichlar nomi	2021-yil	2022-yil	2024-yil	2026-yil
1	Sut yetishtirish (foiz)	10,2	12,1	19,2	35

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda O‘zbekistonda 11,97 million tonna sut (+2,9 foiz) ishlab chiqarilgan. Shu bilan birga, qishloq xo‘jalik mahsulotlari importi keskin o‘sgan: sut mahsulotlari va tuxum 211,5 million dollarga (+31,7 foiz) olib kelingan.

Iste’molchilar dasturxonidagi juda katta miqdordagi sut mahsulotlari barcha ko‘rsatkichlar: hidi, ta’mi, tashqi ko‘rinishi, bichimi va shakli bo‘yicha e’tiborni tortadigan bo‘lishi kerak. Aks holda ushbu mahsulotlarni iste’mol qilish darajasi pasayishi mumkin. Demak, biz sut sifati bilan tavakkal qilmasligimiz kerak.

Sut 87,3% suv, 3,8% sut yog‘i, 8,6% yog‘sizlantirilgan quruq sut qoldig‘idan (YoQSQ) iborat. Ushbu sut tarkibdagi qo‘shichalarning har bir holatdagi miqdori sut beruvchi hayvonlarning nasli va avlodlariga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin (2-jadval).

2-jadval

Sutning kimyoviy tarkibi (%) va kaloriyaligi.

Sut	Jami	Yo	Oqsillar	Jami	Sut	Mine-	Kalori-

beruvchi hayvon-lar	quruq modda-lar miqdori	g ‘	kazei n	Globuli n Albumi n		qandi	ral modda-lar	yasi (1000 g-da kkal)
Sigir	12,5	3,8	2,7	0,6	3,3	4,7	0,7	600
Buyvolitsa	12,8	7,5	3,9	0,7	4,5	5,0	0,8	1100
Biya	10,3	1,8	1,1	1,0	2,1	6,7	0,3	520
Tuya	13,6	4,5	2,6	0,9	3,5	4,9	0,7	760
Qo‘y	17,9	6,7	4,6	1,2	6,7	4,6	0,8	1090
Echki	13,7	4,4	2,6	0,7	3,3	4,9	0,8	730
Bug’u	36,7	22,	-	-	10,3	2,5	1,4	2617
Zebra	15,3	5.2	-	-	4,2	5,1	0,8	865

Odatda kishilar sutni quyidagi ikki sababga ko‘ra iste’mol qilishadi: u shirin va yuqori ozuqa qiymatiga ega. Bu o‘z navbatida albatta u to‘g‘ri ishlab chiqarilgan, qayta ishlangan va taqdim qilinganligini anglatadi. Sutning tabiiy ta’mi va yuqori ozuqaviy qiymati – sut yog‘i va YoQSQ sharofati hisoblanadi.

Sutni organoleptik baholashda: og‘irligi, o‘ralishi, tashqi ko‘rinishi, konsistensiyasi, ta’mi, xidi va rangiga e’tibor beriladi.

Organoleptik ko‘rsatkichlar yordamida sutni qalbakilashtirish belgilarini aniqlash mumkin.

Eng oddiy va “zararsiz” qalbakilashtirish yog‘i olingan sutni yog‘i olinmagan sut deb sotishdan iborat. Yog‘i olingan sut ko‘kimtir rangda bo‘ladi, tarkibida suv ko‘p bo‘ladi, uning tomchisi tirnoqda deyarli sezilmaydagan suvli iz qoldiradi. Bunday sutning ta’mini bilib bo‘lmaydi.

Suv aralashtirilgan sut ham ko‘kimtirnamo bo‘ladi va ta’midan suv borligi bilinib turadi. Chayqatilganida yaxshi ko‘pirmaydi, tomchisi esa tirnoqda deyari hech qanday iz qoldirmaydi.

Ohak (ohakli suv), ishqor va sodani sut achib qolishining oldini olish uchun yozda qo‘shishadi. Sutda bu aralashmalar borligini aniqlash uchun sutning bir qismini qog‘oz orqali suzib ko‘rish va biron-bir kislotaning, masalan sirka kislotasi, limon kislotasining bir necha tomchisini qo‘shish kerak. Qalbakilashtirilgan sut aralashmalar qo‘shilmagan sutdan farqli o‘laroq, karbonat kislota ajralib chiqishidan ko‘pira boshlaydi.

Bu ishqorlarning borligini lakmus qog‘ozi yordamida bilib olish mumkin: soxtalashtirilgan sutda u o‘z rangini o‘zgartiradi, hech narsa aralashtirilmagan sutda esa o‘zgartirmaydi.

Suv aralashgan sut idish devolarida keng ko‘k halqa qoldiradi, tirnoqda ko‘pirgan tomchi hosil qilmaydi, u yoyilib ketadi, agar unda yana qattiq aralashmalar (un, bo‘r, ishqor va boshqalar) ham bo‘lsa, tirnoqda izi qoladi.

Purkab quritilib, so‘ngra qayta tiklangan sutdan ishlab chiqilgan qaymog‘i olinmagan pasterizatsiyalangan sutda ozgina suv mazasi bo‘ladi, yuqori haroratda qayta ishlanganligi (“yong‘oq” ta’mi) bilinib turadi, tarkibida oz miqdorda – 8%dan kamroq YoQSQ bo‘ladi, konussimon probirkada syentrifugalanganidan keyin erimaydigan kulrang oqsil cho‘kindi chiqadi. Qaymog‘i olinmagan normallashtirilgan sut ishlab chiqarish uchun natural sut xom ashyo bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, sentrifugalashdan keyin cho‘kindi hosil bo‘lmaydi.

Zichligini aniqlash. Sutni zichligi areometr - laktodensimetrda, 10-25 °C haroratda aniqlanadi. Sutning tarkibiy qismiga qarab, zichligi o‘zgaradi.

Yog‘siz, quruq moddalarning ko‘payishi, zichlikni oshiradi, aksincha, sutning yog‘liligini oshirish zichlikni kamaytiradi. Sutni suv bilan suyultirganda uni zichligi taxminan har 0,003 ga 10% suv qo‘shilganligini ko‘rsatadi.

Sutni zichligi laktodensimetr ko‘rsatkichida 27 °C dan past bo‘lishi, sutni suv bilan suyultirilganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, zichligi bo‘yicha sutni tabiiyligi haqida xulosa qilinadi.

Quruq qoldiqni zichligi va yogni asrashiga qarab aniqlash.

Sutni quruq modda miqdori (C) ni % da quyidagi formula bilan tez hisoblab aniqlash mumkin:

$$C = \frac{4{,}9ж + Д}{4} + 0{,}5$$

4,9- doimiy koeffitsiyent

Ж - sutdagi yog‘ni miqdori, %

Д - sutni zichligi, 20°C laktodensimetr.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]Namangan muhandislik-qurilish instituti, professor
[2]Namangan muhandislik-qurilish instituti, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashinasozlik sohasida ishlab chiqarilayotgan detallarni sifat ko‘rsatkichlari va uni baholashni kvalimetrik ya’ni sanoqli baholash usuli va vositalaridan foydalanish jarayonlari xaqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Mahsulot, sifat, baholash, kvalimetriya, detal, indeks, nuqson, shina, koeffisiyent.

Zamonaviy korxonalarda birdaniga turli xil mahsulotlarni ko‘plab sondagi ishlab chiqarish, korxona rentabelligini oshirishning asosiy omilaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Mashinasozlik detallarini sifat va nuqsonlar indeksidan foydalangan holda ko‘p xildagi mahsulotlarning sifat darajasini baholash usuli eng maqbul hisoblanadi [1].

Mahsulot sifati darajasini baholash usullari azaldan ma’lum bo‘lib turli xil usullar amaliyotdan foydalanib kelinmoqda, lekin mashinasozlik detallarini ishlab chiqarishda turli xil detallarning sifat ko‘rsatkichlarini baholash yetarli darajada o‘rganilmagan.

Mahsulot sifatini olimlar tomonidan turlacha usullarda aniqlab kelinganligi adabiyotlardan ma’lum:

Aristotel-ob’yektlarni farqlash, differensiya usuliga asoslanib "Yaxshi-yomon" ta’rif bergan;

Gegel-sifat, birinchi navbatda, borliq bilan bir xil bo‘lgan qat’iyatdir, shuning uchun biror narsa o‘z sifatini yo‘qotsa, avvalgidek bo‘lmaydi degan.

Shuxart-sifat ikki jihatga ega:

- ob’yektiv fizik xususiyatlar;
- sub’yektiv tomoni: narsa qanchalik yaxshi.

Isikava K. - sifat iste’molchilarni haqiqatan ham qoniqtiradigan xususiyatlari bo‘yicha aniqlashni taklif etgan.

Djuran Dj. - foydalanish uchun yaroqliligini sub’yektiv tomonidan ya’ni, sifat - iste’molchining qoniqish darajasi (sifatni amalga oshirish uchun ishlab chiqaruvchi iste’molchining talablarini bilib olishi va o‘z mahsulotlarini ushbu talablarga javob beradigan tarzda ishlab chiqarishi kerak) turlicha tariflar ma’lum.

GOST 15467-79. Mahsulot sifati - bu uning maqsadiga muvofiq ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun yaroqliligini aniqlaydigan mahsulot xususiyatlarining yig'indisidir.

Xalqaro standart ISO 8402-86 sifat - bu mahsulot yoki xizmatlarning belgilangan va kutilgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini beradigan xususiyatlari to'plami.

Xalqaro standart ISO 8402-94 sifat - ob'yektning belgilangan va kutilgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlari va xalqaro standart ISO 9000:2000 sifat - bu o'ziga xos xususiyatlarning umumiy talablarga javob berish darajasi.

Mashinasozlik sohasining mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar ISO 175025 va ISO 16949 IATF standart talablari asosida tayyorlashni taqazo etmoqda [1].

Turli xil mashinasozlik detallarining sifat darajasini har tomonlama baholash uchun mahsulot sifati indekslari qo'llaniladi. Mahsulot sifati indeksi - bu ko'rib chiqilayotgan davr uchun har xil turdagi mahsulotlarning nisbiy sifat ko'rsatkichlarining o'rtacha vazniga teng bo'lgan turli xil mahsulotlar sifatining kompleks ko'rsatkichi hisoblanadi. Sifat ko'rsatkichlari detal sifatini yaxshilash rejalarini tuzishda va ularning bajarilishini tekshirishda, turli korxonalar mahsulotlarini sifatini taqqoslashda, ishlab chiqarish barqarorligini baholashda va boshqa hollarda qo'llaniladi.

Mashinaning sifat ko'rsatkichi ko'pincha detallarning sifat ko'rsatkichlari asosida jamlanib hisoblanadi. Odatda bu mahsulotlarning ishlashi yoki chidamliligi yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Bir necha s turdagi mahsulotlar uchun sifat indeksi tomonidan (1.1) formula yordamida hisoblab topiladi.

$$I_K = (\sum_{i=1}^{s} NiN_i \cdot K_i \cdot S_i) / (\sum N_i \cdot S_i) \qquad (1.1)$$

bunda K_i - i-turdagi mahsulot sifatining nisbiy ko'rsatkichi; N_i - joriy davrdagi i -turdagi mahsulotlar soni yoki i -mahsulotlar hajmi; S_i - i-toifadagi mahsulotlarning ulgurji narxi, so'm.

Agar i-turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilgan miqdor , $C_i = N_i \cdot S_i$ va barcha turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilgan umumiy miqdor $C_i = \sum C_i$ bo'lsa, sifat ko'rsatkichi qo'yidagicha aniqlanadi (1.2) .

$$I_K = (\sum K_i \cdot C_i) / C \qquad (1.2)$$

Asosiy va mos keladigan sifat indekslarini hisoblashda, har biri uchun haqiqiy sifat darajasi olingan davr va har ikki davr uchun narx bir xil deb hisoblanadi [2, 3].

Sifat ko'rsatkichlari turli tashkilotlar uchun hisoblanishi mumkin bo'lgan darajalari: ustaxona, zavod, korxona uchun, tashkilot uchun - indeks sifati (1.3) formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{obш} = (\sum C_j \cdot I_{kj}) / \sum C_j \qquad (1.3)$$

bunda C_j -j -ob'yekt mahsulot j ishlab chiqargan miqdor; I_{kj} – j-ob'yektning sifat ko'rsatkichi; m - ob'yektlar soni.

Misol. Syex ikki turdagi avtomobil shinalari ishlab chiqaradi. Joriy vaqt oralig‘ida ularning sifat darajasini baholash kerak bo‘ladi. Asosiy qiymat uchun o‘tgan yili ishlab chiqarilgan shinalarning kilometr qiymati indeks sifat - ming km uchun shinalar yurishi (1-jadval). keltirilgan.

1-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

Shinalar turi	Yurish masofa, ming km		Shinalar soni, don.	Ulgurji narx , so‘m
	Asosiy	baholandi		
1	60	64	5	50
2	50	60	36	40

(1.1) formula bo‘yicha mahsulot sifat indeksining hisoblangan qiymati 1,176 ekanligi aniqlandi, shinalar sifati darajasi 17,6 % ga oshganlini ko‘rsatdi [4, 5].

Baholanayotgan mahsulotlar tasniflanganda sifat ko‘rsatkichi ishlab chiqarilgan mahsulotning ulgurji narxlardagi haqiqiy tannarxining uning shartli qiymatiga nisbatiga teng bo‘lgan koeffitsiyentidan foydalanish mumkin, agar uning hammasi eng yuqori turda ishlab chiqarilgan deb faraz qilingandi.

$$K_c = (\sum (\sum S_{ik} \cdot N_{ik})) / (\sum S_{ik} \cdot \sum N_{ik}) \qquad (1.4)$$

bunda n – mahsulot turlari soni; S_{ik} – k-turining i-turidagi mahsulotlarning narxi; N_{ik} – k-turining i-turidagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi; S_{il} - eng yuqori turi i-turdagi mahsulotlarning narxi [6].

Misol. Korxona A, B, S turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradi. Har biri uning turiga tegishli narxga ega 1 va 2 turli mahsulotlar kiradi (2-jadval)

2-jadval

Mahsulot turi

Turi	Vid A			Vid B			Vid S		
	N	S	S-N	N	S	S-N	N	S	S-N
1	100	6	600	50	5	250	60	4,5	270
2	50	5	250	20	4	80	30	3	90

(1.4) formula bo‘yicha sinf koeffitsiyentining hisoblangan qiymati 0,93 ga teng.

Baholash koeffitsiyenti ustaxona, zavod, kompaniya uchun hisoblanishi mumkin, agar m ob’yekt (korxona, firmalar va boshqalar) uchun bo‘lsa u holda mahsulot ishlab chiqarilgan K_{Cj} va tegishli miqdorlar C_j ma’lum bo‘lsa, umumiy tasniflash koeffitsiyenti formula bo‘yicha hisoblanadi.

$$K_{C\ umum} = (\sum S_j \cdot K_{Cj}) / (\sum C_j) . \qquad (1.5)$$

Mahsulot sifati ko‘rsatkichlariga odatda nuqson koeffisiyenti ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida mahsulot sifatini tavsiflaydi va alohida ishlab chiqarish bo‘limlarida (syex, uchastkada) mehnat sifatini baholash uchun ishlatiladi [7,8].

Nuqsonli darajasi - bu i-xildagi mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan nuqsonlarning o‘rtacha vaznli soni:

$$D_i = (\sum m_j \cdot r_j) / n , \qquad (1.6)$$

bunda m_j -turdagi nuqsonlarning og‘irlik koeffitsiyenti; r_j – j-turdagi nuqsonlar soni; n – mahsulot namunasini hajmi.

Og‘irlik koeffitsiyentlari m_j ekspert usuli bilan aniqlanishi yoki nuqsonlarni bartaraf etish xarajatlariga mutanosib ravishda olinishi mumkin. i -xildagi mahsulotlar nuqsonlarining nisbiy ko‘rsatkichi

$$q_i = D_i / D_{ib} , \qquad (1.7)$$

bunda D_i - korxonaning o‘tgan davrdagi (yil, oy va boshqalar) ishi natijalari bo‘yicha qabul qilingan nuqson darajasining asosiy qiymati.

Agar q_i qiymatlari s turdagi mahsulotlar uchun hisoblansa, u holda turli xil mahsulotlarning nuqsonlilik indeksi qo‘yidagi ifoda orqali topiladi:

$$I_d = (\sum S_i \cdot q_i) / \sum C_i , \qquad (1.8)$$

bunda C_i - i-turdagi mahsulotlar uchun ishlab chiqarilgan miqdor olingan davr.

Misol. Ma’lum xildagi avtomobil shinalari uchun 4 xildagi nuqsonlar aniqlangan (A, B, V va G). Ushbu nuqsonlar 3-jadvalda ko‘rsatilgan koeffitsiyentlariga ega. 50 ta shina namunasini tekshirishda 7 ta nuqson aniqlandi.

3-jadval

Dastlabki mahsulotlari

Nuqson	**Koeffisiyent m_j , %**	**Yig‘ilgan nuqson lar soni r_j**	**$m_j \cdot r_j$, %**
A	50	0	0
B	25	1	25
V	15	2	30
G	10	4	40

Olib borilgan kuzatuvlar asosida nuqson darajasini hisoblaymiz: $D_i = 95 / 50 = 1,9$ %.

Misol. Jadvaldagi uchta xildagi mahsulotlar uchun 4-jadvalda nuqsonlar ko‘rsatkichining asosiy va haqiqiy qiymatlari, an’anaviy birliklarda ishlab chiqarish hajmlari ko‘rsatilgan. Barcha mahsulotlar uchun nuqson indeksini aniqlash qo‘yidagicha olib boriladi.

4-jadval

Asosiy va haqiqiy nuqsonlilik ko‘rsatkichi qiymatlari

i	**D_i**	**D_{ib}**	**C_i**	**q_i**	**$C_i \cdot q_i$**

1	0,8	1,0	2	0,8	1,6
2	6,5	5	3	1,3	3,9
3	1,8	2,0	1	0,9	0,9
Jami			6		6,4

Xulosa: Mahsulot nuqsonlari indeksini hisobi bo‘yicha:

$$I_d = 6,4 / 6 = 1,07.$$

Dyemak $I_k = (\sum K_i \cdot C_i)/C$, $I_k = (\sum K_i \cdot C_i)/C$ mahsulot nuqsonlarining darajasi 7 foizga tengligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Standart “O‘zstandart” agentligi ilmiy-texnik jurnal. 1/2020. Standart. E-mail:smsiti@mail.ru. ISSN 2181-7634.

2. O’z DSt ISO/TS 16949:2011. Sifat menejmenti tizimi. Avtomobilsozlik sanoati va tashkilotlari butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchilarga ISO 9001:2008 ni qo‘llash bo‘yicha maxsus talablar.

3. O’z DSt IATF 16949:2019. Sifat menejmenti tizimlari. Avtomobilsozlik sanoati va unga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi tashkilotlar uchun sifat menejment tizimi talablari. Xalqaro avtomobilsozlik sifati menejmenti standarti. (IATF 16949:2016, IDT). Rasmiy nashr. O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi. Toshkent. 2019. – 49 b.

4. Mamajanov A.A., Xamdamov B.R., Jo‘rayev Z.B. Avtomobilsozlikda mahsulot ishlab chiqarishni kelishish. Monografiya. Andijon. “Hayot” nashriyoti. 2020. -184 b.

5. Melibayev M, Abdullajonov B, Ortiqov X, Xo‘janazarov Sh. Mashinasozlikda detallarni o‘lchamini nazorat qilishda metrologik ta’minot. //Analytical Journal of Education and Development. Volume: 02 Issue: 04 | 2022 ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz .

6. S.E. Negmatullaev, M. Melibaev, A.N. Akbarov, C.A. Akbarov. Control Gauges and Accuracy of Manufacture of Parts in Modern Mechanical Engineering. Journal of Innovation, Creativity and Art 2 (1), 2022. 166-171.

7. S.E. Negmatullayev, M. Melibayev, A.X. Bobamatov, M.B. Jumayeva. Vыbor kvalitetov tochnosti dlya uzlov i detaley texnologicheskix mashin. Scientific Impulse 1 (6), 2022. 815-825.

8. Melibayev, M., & Abdullajonov, B. S. Mashinasozlikda detallarni o‘lchamini nazorat qilishda metrologik ta’minot. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2022. *2*(4), 109-115.

KALIBRLASH LABARATORIYALARIGA QO‘YILGAN TALABLAR

Matyakubova P.M., Mahmudjonov M.M., Maxamatova N.M.
Toshkent davlat texnika universiteti

Kalibrlash laboratoriyalariga qo‘yilgan talablar ISO/IEC 17025 xalqaro tandart talablarida keltirilgan. Unga ko‘ra laboratoriya quyidagilarni ta’minlashi zarur:

- Xolislik va maxfiylikni;
- Menejment tizimiga qo‘yiladigan talablarni;
- Resurslarga qo‘yiladigan talablarni;
- Xonalar va ishlab chiqarish sharoitini;
- Asbob-uskunani;
- Jarayonlarga qo‘yiladigan talablarni;
- Usullarni tanlash, verifikatsiya va validatsiya qilishni;
- Sinov va kalibrlash ob’yektlarini ishlatishni;
- Natijalarning haqqoniyligini ta’minlashni;
- Risklar va imkoniyatlar bilan ishlash bo‘yicha ish-harakatlarni.

Laboratoriyaning faoliyati xolislik asosida amalga oshirilishi, uning tuzilmasi va uni boshqaruv u xolislikni ta’minlashi kerak. Laboratoriya rahbariyati xolislik tarafdori bo‘lishi shart.Laboratoriya o‘z laboratoriya faoliyatining xolisligi uchun mas’ul bo‘lishi va xolislikni xavf ostiga qo‘yuvchi tijorat, moliyaviy va boshqa tarzda bosim o‘tkazilishiga yo‘l qo‘ymaysligi shart. Laboratoriya xolislik bilan bog‘liq risklarni doimiy ravishda aniqlashi shart. Ular faoliyatni amalga oshirish davomida yuzaga keladigan risklarni yoki laboratoriyaning o‘zaro munosabatlaridan, shuningdek uning xodimlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardan kelib chiqadigan risklarni o‘z ichiga olishi shart. Shu bilan birga, bunday munosabatlar doim ham labora-toriya uchun xolislik borasida risk keltirib chiqaravermaydi.

Laboratoriyaning xolisligiga xavf soladigan munosabatlar mulkchilik munosabatlari, boshqaruv, xodimlar, umumiy resurslar, moliya, shartnomalar, marketing (shu jumladan, brending), shuningdek sotuvlardan vositachilik haqi to‘lash va yangi buyurtmachilarni jalb qilganlik uchun boshqa rag‘batlantirish shakllari va hokazolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Xolislik borasida risk aniqlangan taqdirda laboratoriya shu riskni qanday tarzda bartaraf etishini yoki kamaytirishini namoyish etishga qodir bo‘lishi kerak.

Laboratoriya faoliyat damomida olingan yoki yaratilgan axborotni boshqarish uchun javobgar bo‘lishi va uning bu javobgarligi yuridik mustahkamlangan majburiyat bilan ta’minlangan bo‘lishi shart. Laboratoriya ochiq manbalarda qanday axborotni joylashtirishni rejalashtirayotgani haqida buyurtmachini oldindan xabardor qilishi shart. Buyurtmachining o‘zi ochiq manbalarda joylashtiradigan axborot yoki laboratoriya va buyurtma oshkor etish haqida kelishib olgan (masalan, da’voga javob berish maqsadida) axborot hamda axborotning barchasi xizmat axboroti hisoblanadigan va maxfiy tutilishi kerak bo‘lgan holatlar bundan mustasno. Tijorat

siri hisoblanadigan boshqa har qanday axborot maxfiy axborot deb hisoblanishi kerak. Agar qonunga yoki shartnomada belgilab o‘tilgan kelishuvga asosan maxfiy axborotni oshkor etishi shart bo‘lsa vaqonunda man etilmagan bo‘lsa, u buyurtmachini yoki uning vakilini oshkor etilgan axborotdan xabardor qilishi shart.

Buyurtmachi haqida undan emas (masalan, da’vogardan, tartibga soluvchi organlardan), balki boshqa manbalardan olingan axborot buyurtmachi va laboratoriya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar doirasida maxfiy saqlanishi shart. Ushbu axborot manbai haqidagi ma’lumotlar maxfiy saqlanishi va agar manba bilan kelishilgan bo‘lmasa, laboratoriya ularni mijozga ma’lum qilmasligi kerak. Xodimlar, shu jumladan komitetning barcha a’zolari, pudratchilar, tashqi organlar xodimlari yoki laboratoriya nomidan ish ko‘radigan shaxslar laboratoriya faoliyati davomida olingan yoki yaratilgan axborotning maxfiyligini saqlashlari shart, qonunda ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Laboratoriya yuridik shaxs bo‘lishi yoki o‘z faoliyati uchun yuridik javobgarlikka ega bo‘lgan yuridik shaxsning tarkibiy tuzilmasi bo‘lishi shart.

Mazkur hujjat maqsadlari uchun davlat laboratoriyasi o‘zining hukumat maqomiga muvofiq yuridik shaxs hisoblanadi.

Laboratoriya laboratoriyaning faoliyati uchun to‘liq javobgar bo‘ladigan rahbariyatni tayinlashi kerak.

Laboratoriya mazkur hujjatning talablariga muvofiq bo‘lgan faoliyat turlarini belgilashi va hujjatlashtirishi shart. Laboratoriya mazkur hujjat talablariga muvofiqlikka da’vo qiladigan soha tashqarida doimiy ravishda bajariladigan laboratoriya ishlarini o‘z ichiga olmasligi kerak.

Laboratoriya o‘z faoliyatini mazkur hujjatning, o‘z buyurtmachilarining, tartibga soluvchi organlarning va e’tirof etishni ta’minlovchi tashkilotlarning talablari bajariladigan tarzda amalga oshirishi shart. Bu uning doimiy dislokatsiyadagi barcha maydonlarida, doimiy manzildan yiroqda joylashgan uchastkalarda, tegishli vaqtinchalik va doimiy ob’yektlarda yoki buyurtmachining ob’yektlarida amalga oshiriladigan laboratoriya faoliyatini o‘z ichiga olishi zarur.

Laboratoriya:

a) laboratoriyaning tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini, tashkilot tuzilmasidagi o‘rnini (agar laboratoriya yuridik shaxsning tarkibiy tuzilmasi bo‘lsa) hamda boshqaruv, texnik va yordamchi xizmatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni belgilashi;

b) laboratoriya faoliyati natijalariga ta’sir qiluvchi ishlarni boshqarish, bajarish yoki tekshirishda band bo‘lgan barcha xodimlarning mas’uliyati, vakolatlari va o‘zaro munosabatlarini belgilashi;

c) laboratoriya faoliyatini izchil amalga oshirish va atijalarning haqqoniyligini ta’minlash uchun zarur hajmda o‘z tartib-taomillarini hujjatlashtirishi shart.

Laboratoriya boshqa mas’uliyat sohalaridan mustaqil ravishda o‘z vazifalarini bajarish uchun vakolat va resurslar bilan ta’minlangan xodimlarga ega bo‘lishi shart. Bu xodimlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

a) menejment tizimini joriy etish, saqlash va yashilash;

b) menejment tizimi yoki laboratoriya ishlarini bajarish taomillari talablaridan og‘ishni aniqlash;

c) bunday og‘ishlarning oldini olish yoki minimallashtirish;

d) laboratoriya rahbariyatiga menejment tizimining ishlashi va yaxshilanishga bo‘lgan har qanday ehtiyoj haqida hisobot berish;

e) laboratoriya faoliyati samaradorligini ta’minlash.

Laboratoriya rahbariyati:

a) menejment tizimining samaradorligi hamda mijozning talablari va boshqa talablar bajarilishi muhimligi o‘rtasida bog‘liqlikni;

b) menejment tizimida o‘zgarishlar rejalashtirilishi va amalga oshirilishida menejment tizimining yaxlitligini ta’minlashi zarur.

Laboratoriya laboratoriya faoliyatini amalga oshirish va boshqarish uchun zarur xodimlar, xonalar, anjomlar, tizimlar va yordamchi xizmatlarga ega bo‘lishi zarur.

Xonalar va ishlab chiqarish sharoiti laboratoriya ishlarini amalga oshirish uchun yaroqli bo‘lishi va natijalarning to‘g‘riligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi kerak. Natijalarga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan omillarga mikroblar bilan ifloslanish, chang, elektrmagnit shovqinlar, radiasiya, namlik, elektr ta’minoti manbalari, harorat, tovush va vibratsiya kiradi, ammo ular bilan cheklanmaydi.

Xonalar va ishlab chiqarish sharoitiga qo‘yiladigan va laboratoriya ishlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan talablar hujjatlashtirilgan bo‘lishi shart.

Laboratoriya atrof muhitdagi sharoitni monitoring qilishi, tyegishli spesifikatsiyalar, usullar yoki taomillarga muvofiq ravishda yoki sharoitlar natijalarning haqqoniyligiga ta’sir qiladigan holatlarda ularning parametrlarini nazorat qilishi va qayd qilishi shart.

Xonalarni nazorat qilish choralarini joriy etish, ular yuzasidan monitoring olib borish va davriy tahlil qilish quyidagilarni o‘z ichiga olishi, ammo ular bilan cheklanmasligi kerak:

a) laboratoriya faoliyatiga ta’sir qiladigan joylarga kirish imkoniyatiga ega bo‘lish va ulardan foydalanish;

b) laboratoriya ishlarini ifloslantirish, ularga aralashish va salbiy ta’sir qilishning oldini olish;

c) nomuvofiq laboratoriya faoliyati bajariladigan joylarni samarali ajratish.

Laboratoriya ishlari doimiy nazorat zonalaridan tashqaridagi uchastkalar yoki xonalarda amalga oshirilgan holatlarda laboratoriya ushbu xonalar va ishlab chiqarish sharoitlari bilan bog‘liq talablar mazkur hujjat talablariga javob berishini kafolatlashi shart.

Laboratoriya laboratoriya ishlarini amalga oshirish uchun talab etiladigan va natijalarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan, quyidagilarni o‘z ichiga oladigan, ammo ular bilan cheklanmaydigan asbob-uskunalardan, o‘lchash asboblaridan, dasturiy ta’minotdan, etalonlardan, standart namunalardan, ma’lumot beruvchi axborotdan, reagentlardan, sarflash materiallaridan yoki yordamchi uskunalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Standart namunalar, shu jumladan attestatsiyadan o‘tkazilgan standart namunalar uchun ko‘plab nomlar bor, jumladan standart namunalar, kalibratorlar, etalon materiallar, sifatni nazorat qilish uchun namunalar. ISO 17034 standartida standart namunalarni ishlab chiqaruvchilar uchun qo‘shimcha axborot keltirgan. ISO 17034 standarti talablariga javob beradigan standart namunalar ishlab chiqaruvchilar kompetent ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Ular tomonidan ishlab chiqariladigan standart namunalar mahsulot katalogi/sertifikatlar bilan birga yetkazib beriladi. Standart namunalar, boshqa tavsiflar bilan bir qatorda, belgilangan xususiyatlarning bir xilligi va barqarorligini ko‘rsatadi, attestatsiyadan o‘tkazilgan standart namunalar – belgilangan xususiyatlarning sertifikasiyalangan qiymatlarga mosligini, ular bilan bog‘liq noaniqliklar va metrologik kelib chiqishni ko‘rsatadi.

Ishlab chiqaruvchilarning ISO 17034 talablariga mos standart namunalaridan foydalanish shart. ISO 33 qo‘llanmasida standart namunalarni tanlash va ulardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar bayon etilgan. ISO Guide 80 qo‘llanmasida sifatni nazorat qilish uchun materiallarni mustaqil ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar bayon etilgan.

Laboratoriya o‘zining doimiy nazoratidan tashqari zonadagi asbob-uskunalardan foydalangan taqdirda, mazkur hujjatning asbob-uskunalarga qo‘yiladigan talablari bajarilishini kafolatlashi shart.

Lozim tarzda faoliyat yuritilayotganini kafolatlash, ifloslanish yoki zarar yetishining oldini olish uchun, laboratoriya asbob-uskunani tushirish va ortish, transportda tashish, saqlash, foydalanish va reja bo‘yicha xizmat ko‘rsatish taomillariga ega bo‘lishi shart.

Asbob-uskunani foydalanishga topshirishdan oldin va texnik xizmat ko‘rsatilganidan keyin, u belgilangan talablarga javob berishini tasdiqlashi kerak. O‘lchash uchun foydalaniladigan uskunalar haqqoniy natija olish uchun talab etiladigan aniqlik yoki noaniqlikni ta’minlab berishi kerak.

O‘lchash asboblari quyidagi holatlarda kalibrlangan bo‘lishi kyerak:

- o‘lchash aniqligi yoki o‘lchashlarning noaniqligi olingan natijalarning to‘g‘riligiga ta’sir qilganda yoki;
- olingan natijalarning metrologik kelib chiqishi uchun asbobni kalibrlash talab etilganda.

Natijalarning haqqoniyligiga ta’sir qiladigan barcha turdagi asboblar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- o‘lchanadigan kattalikni o‘lchash uchun bevosita foydalaniladigan asboblar, masalan og‘irlikni o‘lchash uchun foydalaniladigan tarozilar;

- o‘lchanadigan kattalik, masalan harorat qiymatiga o‘zgartirish kiritish uchun foydalaniladigan asboblar;

- bir necha qiymat asosida hisoblab chiqiladigan o‘lchash natijalarini olish uchun foydalanadigan asboblar.

Laboratoriya kalibrlash dasturini ishlab chiqishi, kalibrlashning to‘g‘riligiga doimo amin bo‘lish uchun bu dastur zaruratga qarab qayta ko‘rib chiqilishi va unga tuzatish kiritilishi kerak. Kalibrlash talab etiladigan yoki ma’lum yaroqlilik muddatiga ega bo‘lgan har qanday asbob-uskuna markalangan, kodlangan yoki biror boshqa tarzda identifikatsiyalangan bo‘lishi shart.

Ortiqcha og‘irlik tushirilgan yoki noto‘g‘ri ishlatilgan asbob-uskunaning natijalari shubha tug‘diradi va bunday asbob-usuna nuqsonli yoki belgilangan talablarga nomuvofiq uskuna sifatida ekspluatatsiyadan chiqarilishi kerak. To‘g‘ri ishlashi tekshirilgunga qadar foydalanishni istisno etish maqsadida bunday asbob-uskuna ajratib qo‘yilishi yoki ishga yaroqsiz uskuna sifatida yaqqol ko‘zga tashlanadigan belgi bilan belgilanishi kerak. Laboratoriya nuqsonning yoki belgilangan talablardan og‘ish oqibatlarini tekshirishi, shuningdek nomuvofiq ishlarni boshqarish taomilini bajarishi shart.

Asbob-uskuna to‘g‘ri ishlashiga doimo amin bo‘lish uchun oraliq tekshiruvlar o‘tkazish talab etilsa, bunday tekshiruvlar taomillarga muvofiq o‘tkazilishi shart. Kalibrlangan va standart namunalar bo‘yicha ma’lumotlar tayanch qiymatlar yoki tuzatish koeffisiyentlarini o‘z ichiga olsa, laboratoriya belgilangan talablarga muvofiq bo‘lish uchun zarur bo‘lgan holatlarda ushbu tayanch qiymatlar yoki tuzatish koeffisiyentlari yangilanishini va joriy etilishini kafolatlashi zarur. Laboratoriya noto‘g‘ri natijalar olinishiga olib keluvchi bexos sozlashlarning oldini olish uchun amaliy choralar ko‘rishi zarur.

Asbob-uskunalar bo‘yicha laboratoriya ishlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan yozuvlar saqlanishi shart. Vaziyatga qarab, yozuvlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

a) asbob-uskunaning belgilari, shu jumladan dasturiy ta’minoti va proshivka versiyasi (agar bor bo‘lsa);

b) ishlab chiqaruvchining nomi, tip belgisi va seriya raqami, yoki biror boshqa identifikatsiya belgisi;

c) asbob-uskuna belgilangan talablarga muvofiqligi tasdig‘i;

d) ayni paytdagi manzili;

e) kalibrlash o‘tkazilgan sanalar, barcha kalibrlash natijalari, qabul qilib olish mezonlari va keyingi kalibrlash sanasi yoki kalibrlash davri;

f) standart namunalar, natijalar, qabul qilib olish mezonlari, tegishli sanalar va yaroqlilik davri bo‘yicha hujjatlar;

g) xizmat ko‘rsatish rejasi va shu kungacha bajarilgan xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida axborot;

h) har qanday asbob-uskunaga zarar yetishi, ishdan chiqishi, o‘zgartirish kiritilishi yoki uni ta’mirlash holatlari tafsilotlari.

Laboratoriya talabnoma, tender takliflari va shartnomalarni tahlil qilish uchun taomilga ega bo‘lishi shart. Bu taomil:

a) talablar lozim tarzda belgilanganligi, hujjatlashtirilganligi va tushunarliligini;

b) laboratoriya talablarni bajarish uchun imkoniyat va resurslarga egaligini kafolatlashi lozim;

c) tashqi yetkazib beruvchilar jalb qilingan taqdirda 6.6-bo‘lim talablari qo‘llaniladi va laboratoriya buyurtmachini muayyan laboratoriya ishlaridan xabardor qiladiki, ular tashqi yetkazib beruvchi tomonidan bajarilishi va mijoz tomonidan ma’qullanishi kerak.

Quyidagi holatlarda laboratoriya ishlari tashqi yetkazib beruvchilar tomonidan bajarilishi mumkin:

- laboraboriya ishlarni bajarish uchun resurslarga ega va kompetentli bo‘lgan, ammo ko‘zda tutilmagan sabablarga ko‘ra ularni amalga oshirishga qisman yok to‘liq qodir bo‘lmaganda;
- laboratoriya ishlarni bajarish uchun resurslarga ega emas va kompetent bo‘lmaganda.

d) tegishli usul yoki taomillar tanlangan va burtmachining talablarini qoniqtirishga qodir bo‘lganda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Крикун, В. М. 17025 ISO/IEC 17025:2017. Важные изменения / В. М. Крикун // Контроль качества продукции. – 2018. – № 8. – С. 35-37.

2. Латфуллина, Р. Р. Сравнительный анализ стандартов ГОСТ ИСО/МЭК 17025-2009 и ИСО/МЭК 17025-2019 / Р. Р. Латфуллина, О. А. Василькова // Моя профессиональная карьера. – 2019. – Т. 1, № 4. – С. 55-59.

3. Лившиц, М. И. Сравнительный анализ стандартов ГОСТ ИСО/МЭК 17025:2009 и ГОСТ ИСО/МЭК 17025:2019 важные изменения / М. И. Лившиц // Образование. Наука. Производство : Сборник докладов XIV Международного молодежного форума, Белгород, 13–14 октября 2022 года. – Белгород: Белгородский государственный технологический университет им. В.Г. Шухова, 2022. – С. 72-76.

4. Аскаров, Е. С. Новая версия стандарта СТ РК ISO/IEC 17025:2018 - проблемы перехода / Е. С. Аскаров // Наука и техника Казахстана. – 2019. – № 2. – С. 28-35.

5. Латфуллина, Р. Р. Управление рисками и возможностями в испытательном лабораторном центре в соответствии с ГОСТ ISO/IEC 17025-2019 / Р. Р. Латфуллина, О. А. Василькова // Моя профессиональная карьера. – 2019. – Т. 2, № 5. – С. 263-268.

СТАНДАРТЛАШТИРИШ ҲАҚИДА УМУМИЙ ТУШУНЧАЛАР

[1]Бобоев Ғайбулла Ғафурович, [2]Эрназарова Замира Худойбердиевна
[1]Тошкент давлат техника университети
[2]Тошкент давлат техника университети

Аннотация: *Мақола стандартлар ва стандартлаштириш билан боғлиқ масалаларга бағишланган. Стандартнинг салоҳияти жамият ва давлатнинг турли соҳаларида, айниқса экологик соҳада янгиланмоқда. Адабиётларни таҳлил қилиш натижасида стандартларнинг турли жиҳатлари (функционал-мақсадли, телеологик, ишлаш ва ҳ.к.) ажратиб кўрсатилган, уларнинг замонавий жамиятдаги роли ва ўрни стандартлаштиришнинг тарихий ривожланиши ва стандартлаштиришга айланишини ҳисобга олган ҳолда қайд этилган.*

Таянч сўз иборалар: *стандарт, рақобатбардошлик, стандартлаштириш, стандартлаштириш маҳсулот,* ***миллий стандарт,*** *ўлчаш бирлиги, стандартлар ташкилотлар, халқаро стандарт.*

Кириш. Инсоният мавжудлигининг ҳозирги босқичида тарих давомида олинган билимларни сақлаш ва улардан фойдаланиш муаммоси тобора долзарб бўлиб бормоқда. Дарҳақиқат, мана шундай тиришқоқлик ва меҳнат билан яратилган, кўп ютуқларга эришилган бу дунёда ҳаммасини, билимларни, ахлоқий тамойилларни йўқотмаслик, мавжуд ғояларни бузиб ташламаслик, уларни тўлдириш ва фойдаланиш балки тўлиқ англаш муҳимдир. Сўнгги пайтларда дунёда содир бўлаётган воқеалар ақл бовар қилмайдиган тезликда бир-бирини алмаштирмоқда, инсоният глобаллашув, интеграция, минтақалашув ва бошқалар каби жараёнларда иштирок этмоқда, бу эса турли давлатларда иқтисодиёт, маданият, фан ва сиёсатнинг ўзаро боғланишига ва бирлашишига ёрдам беради. Бундан келиб чиққан ҳолда, давлатлар халқаро муносабатлар ва халқаро оммавий ҳуқуққа, унинг турли соҳаларидаги ҳуқуқий меъёрларга кўпроқ боғлиқ бўлади. Жамият ривожланишининг ҳозирги босқичида экология соҳасидаги стандартлар биринчи ўринлардан бирини эгаллаб, табиатни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан фойдаланиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш воситаси сифатида тобора кўпроқ кўриб чиқилмоқда. Ушбу тенденция саноатнинг атроф-муҳитга таъсирининг кучайиши, табий ва минерал ресурсларнинг камайиши ҳақида муаммолар билан боғлиқ. Юқорида айтилганларнинг барчаси жамият ва давлат ҳаётининг турли соҳаларида, айниқса, экологик соҳада стандартнинг имкониятларини долзарблаштиради ва уни гносеологик тушунишни талаб қилади, чунки замонавий дунёда стандарт ўзига хос мавҳум эстетик идеал маъноga эга бўлади. Шунинг учун, стандартни тушуниш ва концепциялаш - бу санъат ёки ҳеч бўлмаганда

бирликка интилишдир. Бу бирлик объектив бўлиб, тизимли равишда алоҳида қисмларнинг бир-бири билан уйғун бўлишини, улар мувозанатли ва мутаносиб бўлишини, бир-бирини тўлдиришини ва биргаликда бутунни мустаҳкамлашни талаб қилади.

Методлар. Бизга маълумки, ишлаб чиқариш жараёнида стандартлаштиришнинг ўрни жуда долзарбдир. Маҳсулот сифатини таъминлашда ва рақобатбардошлигини оширишда стандарт талабларни таҳлил қилиш, уни тўғри қўлланишини назорат қилиш муҳимдир. Ушбу мақолани тайёрлашда тўпланган маълумотлар таҳлил қилинди. Стандартлаштириш масалаларини ёритишда илмий исботланган маълумотлар, кузатиш, таққослаш ва статистик таҳлил усулларидан кенг фойдаланилди.

Натижалар. Онтологик маънода стандартлар фан, техника ва амалий тажрибанинг умумлаштирилган натижаларига асосланади ва жамият учун оптимал фойда олишга қаратилган. Этимологик маънода "стандарт" атамаси нарсалар, объектлар, ҳодисалар ҳажми, шакли, сифати бўйича қондириши керак бўлган намунани, шунингдек тегишли маълумотларни ўз ичига олган ҳужжатни англатади [1,2]. Яъни, стандарт (инглизча *standard* - намуна, меъёр) эталон, шаблон, намуна, модел сифатида қабул қилинади ва у билан бошқа объектлар ёки хусусиятларни солиштириш учун асос сифатида тушунилади [2].

Бошқа томондан, стандарт - томонларнинг розилиги асосида ишлаб чиқилган ва ваколатли орган томонидан тасдиқланган, узоқ муддатли ва доимий фойдаланиш қоидаларини, ҳар хил турдаги фаолият турларига ёки уларнинг фаолиятига таъсир қилувчи хусусиятларни, натижаларни ёки умумий тамойилларни белгилайдиган норматив ҳужжатдир. Ушбу мақоланинг мақсади маълум бир соҳада тартибга солишнинг яхшироқ даражасига эришишдир [4,5]. Стандартлар моддий объектлар (маҳсулотлар, моддалар намуналари) учун ҳам, турли соҳалардаги нормалар, қоидалар ва талаблар учун ҳам ишлаб чиқилган.

2022 йил 3 ноябрдаги Ўзбекистон Республикасининг "Стандартлаштириш тўғрисида" ги қонуннинг 4-моддасида қуйидаги таърифни беради: **миллий стандарт —** Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлигининг Ўзбекистон стандартлар институти томонидан қабул қилинган ҳамда кенг жамоатчилик учун очиқ бўлган стандарт. Стандартлаштириш бўйича техник қўмита стандартларнинг қабул қилинишидан ҳамда қўлланилишидан манфаатдор бўлган давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг ҳамда бошқа ташкилотларнинг ихтиёрий иштироки асосида, Стандартлаштириш бўйича миллий органнинг қарорига мувофиқ ташкил этилади.

“Стандарт” тушунчасини таърифлашда қонун чиқарувчи стандартлаштирилган нормалар, қоидалар, ишлар, маҳсулотлар, хизматлар ва ҳоказоларни ўрнатувчи ва қўллайдиган аниқ фаолият турларига – улкан

иқтисодий, ижтимоий ва илмий аҳамиятга эга бўлган стандартлаштиришга алоҳида эътибор беради.

Одатда стандартлаштириш кўплаб телеологик доминантларга эга: у маҳсулотлар, ишлар, хизматларнинг атроф-муҳит, фуқароларнинг ҳаёти, соғлиғи ва мулки учун хавфсизлигини таъминлайди; техник ва ахборот мувофиқлиги, шунингдек, маҳсулотларнинг ўзаро алмашиниши; ўлчашларнинг бир хиллиги: ресурсларни тежаш, энергия самарадорлигини ошириш ва маҳсулотлар, ишлар ва хизматларнинг энергия ва материал сарфини камайтириш; табиий ва техноген офатлар ва бошқа фавқулодда вазиятлар хавфини ҳисобга олган ҳолда тадбиркорлик субъектларининг хавфсизлиги тушунилади. Тадқиқотчи И.М. Лифиц таъкидлаганидек, ҳеч қандай фан стандартлаштириш элементларисиз ривожлана олмайди, деган фикрга қўшилмаслик мумкин эмас, ҳар қандай фаолият стандартлаштирилган бўлгани каби соддалаштирилган ва шунга мос равишда самаралидир [1].

А.П. Баталованинг фикрига кўра, стандартлаштириш - бу маҳсулот сифатини таъминлашнинг меъёрий усули бўлиб, барча манфаатдор томонларнинг манфаати ва иштирокида ушбу соҳани тартибга солиш, хусусан, умумий максимал тежашга эришиш мақсадида қоидаларни белгилаш, функционал шароитларга ва хавфсизлик талабларига мувофиқлигини қўллаш жараёнидир. [2].

Стандартлаштиришнинг энг лаконик таърифи тегишли қонунчиликда - Ўзбекистон Республикасининг "Стандартлаштириш тўғрисида" ги қонунида мавжуд бўлиб, унда **стандартлаштириш** — муайян соҳада тартибга солишнинг энг мақбул даражасига эришишга қаратилган, ҳақиқатда мавжуд бўлган ёки кутилаётган вазифаларга нисбатан умумий ва кўп марта фойдаланиш учун қоидаларни белгилайдиган фаолият дейилган (Қонуннинг 4-моддаси) [4,5].

Бу унинг таркибий қисмларининг тизимли мажмуасини ўз ичига олади:

а) динамик, фаолият жиҳати - стандартлаштириш фаолиятдир;

б) функционал-мақсадли жиҳат - универсал ва такрорий фойдаланиш қоидаларини белгилаш бўйича фаолият;

с) объект томони - мавжуд ёки мумкин бўлган вазифалар;

д) телеологик жиҳат - маълум бир ҳудудда оптимал тартиб даражасига эришиш учун;

э) самарали жиҳати - маҳсулотлар, жараёнлар ва хизматларнинг функционал мақсадларига мувофиқлик даражасини ошириш, савдодаги тўсиқларни бартараф этиш ва илмий-техник ҳамкорликни ривожлантириш.

Стандартлаштиришнинг мақсади, худди объект каби, тўғридан-тўғри юқоридаги таърифлардан келиб чиқади - энг тўғри ва иқтисодий вариантни аниқлаш, яъни оптимал ечимни топишдир. Топилган ечим маълум бир стандартлаштириш соҳасида оптимал тартибга эришишга имкон беради. Ушбу имкониятни ҳақиқатга айлантириш учун топилган ечим кўплаб корхоналар

(ташкилотлар) ва мутахассислар учун мавжуд бўлиши керак. Мавжуд ва потенциал муаммоларни ҳал қилиш учун ушбу ечимдан умумий ва такрорий фойдаланиш билангина тартибга солишнинг иқтисодий самарасига эришиш мумкин [2,3,4].

Муаллифнинг фикрича, стандартлаштириш, унинг замонавий жамиятдаги роли ва ўрни масалаларини янада кўриб чиқиш учун ушбу фаолиятнинг шаклланиши ва фанга айланишининг тарихий жиҳатларини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Агар тарихий ретроспективни ўрганадиган бўлсак, баъзи халқлар кўп асрлар олдин стандартлаштирилган маҳсулотлардан фойдаланишни бошлаганлигини таъкидлашимиз мумкин. Ҳатто Қадимги Мисрда ҳам қурилиш вақтида доимий, "стандарт" ўлчамдаги ғиштлардан фойдаланилган; бир вақтнинг ўзида ғишт ҳажмини назорат қилиш учун махсус мансабдор шахслар жалб қилинган. Қадимги юнон меъморчилигининг ажойиб ёдгорликлари - машҳур ибодатхоналар, хусусан Парфенон, уларнинг устунлари, портиколари нисбатан кам сонли "стандарт" қисмлардан йиғилган. Қадимги римликлар сув ўтказгичларини (сув қувурлари) қуришда стандартлаштириш тамойилларини қўллаганлар - уларнинг қувурлари бир хил ва доимий ўлчамда эди. Ўрта асрларда ҳунармандчилик ва оммавий ишлаб чиқариш ривожланиши билан стандартлаштириш усуллари тобора кўпроқ қўлланила бошланди. Шундай қилиб, матонинг кенглиги учун бир хил ўлчамлар, унинг асосидаги иплар сони ва тўқувда ишлатиладиган хом ашё учун ягона талаблар ўрнатилди.

1785 йилда француз муҳандиси Леблан 50 дона қурол қулфлари партиясини ишлаб чиқарди, уларнинг ҳар бири муҳим сифати - алмаштирилиши билан ажралиб турарди ва у ҳар қандай қуролда олдиндан созлашсиз ишлатилиши мумкин эди. 19-асрнинг иккинчи ярмида деярли барча саноат корхоналарида стандартлаштириш ишлари олиб борилди. Ишлаб чиқарилган маҳсулотларни заводда стандартлаштириш туфайли ишлаб чиқариш жараёнларини рационализация қилиш мумкин бўлди. Тадбиркорларнинг асосий мақсади юқори даромад олиш эди. Стандартлаштириш, биринчи навбатда, алоҳида фирмалар, алоҳида корхоналар доирасида ишлаб чиқилган. Бироқ, кейинчалик, ижтимоий меҳнат тақсимотининг ривожланиши ва халқаро савдонинг ўсиши билан миллий ва халқаро стандартлаштириш тобора муҳим аҳамият касб эта бошлади.

1891 йилда Англияда стандарт Витворт резбалари (дюйм ўлчамлари билан), кейин эса бошқа мамлакатларда жорий этилди, кейинчалик у кўпчилик мамлакатларда метрик резбалар билан алмаштирилди. 1846 йилда Германияда темир йўл ўлчагичи ва вагонларни улаш қурилмалари бирлаштирилди. 1869 йилда у ерда биринчи марта прокат темирнинг стандарт профилларининг ўлчамларини ўз ичига олган маълумотнома нашр этилган. 1870 йилда бир қатор Европа мамлакатларида стандарт ғишт ўлчамлари ўрнатилди. Миллий

ва халқаро стандартлаштиришнинг бу дастлабки натижалари ишлаб чиқарувчи кучларнинг ривожланиши учун катта амалий аҳамиятга эга эди. Бироқ, бу фақат биринчи қадамлар эди. Биргина Германиянинг ўзида унинг ҳудудида кўп сонли майда давлатлар мавжудлиги сабабли, Ф.Энгелс таъкидлаганидек, бир йилда қанча кун бўлса, шунча турдаги вазн ва ўлчовлар мавжуд эди [2,3].

Ўлчаш бирликларини ўрнатиш жараёнига эътибор қаратиш лозим: масалан, "тирсак" Генрих I ни таёғининг узунлигига тўғри келди; кўпгина мамлакатларда кенг тарқалган "фут" узунлик бирлиги Буюк Карл оёғининг узунлигига тўғри келди. Бироқ, янада оқилона ўлчаш бирликларини қидириш давом этди. Шундай қилиб, 1790 йилда Францияда Париж меридианининг қирқ миллиондан бирига тенг бўлган "метр" узунлик бирлиги яратилди. Париж узунлигида ер эллипсоидининг юзаси бўйлаб шимолий қутбдан экваторгача бўлган масофанинг ўн миллиондан бир қисми ҳисобланган. Бироқ, 1875 йилда Парижда бўлиб ўтган Халқаро метрик конвенцияда иштирок этган 17 давлат "метр" ни узунлик ўлчаш бирлиги сифатида қабул қилишга рози бўлгунга қадар 85 йил ўтди [1,2,3].

19-аср охири - 20-аср бошларида Метрик конвенция ва Халқаро оғирлик ва ўлчовлар бюросининг ташкил этилиши илмий-техника тараққиёти йўлидаги муҳим босқич бўлди. Технология, саноат ва ишлаб чиқаришни концентрациялашда катта ютуқларга эришилди. Шу муносабат билан энг ривожланган мамлакатларда уюшган миллий стандартлаштиришга интилиш мавжуд бўлиб, бу кўп ҳолларда миллий стандартлаштириш ташкилотларини яратишга олиб келди. Шундай қилиб, 1901 йилда Буюк Британияда Стандартлар қўмитаси ташкил этилди, унинг асосий вазифаси хомашё, саноат маҳсулотлари ва ҳарбий техника учун стандартларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш орқали Британия империясининг иқтисодий қудратини мустаҳкамлашга кўмаклашиш эди.

20-аср бошларида кўплаб мамлакатларнинг ҳарбийлашувининг кучайиши, ўзаро алмашиниш принципига мажбурий риоя қилган ҳолда кўп сонли қуролларни ишлаб чиқаришни талаб қилди, бу муаммони фақат стандартлаштириш орқали ҳал қилиш мумкин эди. Шунинг учун биринчи жаҳон уруши пайтида ва ундан кейин дарҳол бир нечта миллий стандартлар ташкилотлари, масалан, Голландия (1916), Германия (1917), Франция, Швейцария ва АҚШда (1918) ташкил этилганлиги ажабланарли эмас.

Биринчи жаҳон урушидан кейин стандартлаштириш объектив иқтисодий зарурат сифатида қабул қилина бошлади. Бу вақтда стандартлаштириш ташкилотлари Бельгия ва Канада (1919), Австрия (1920), Италия, Япония ва Венгрия (1921), Австралия, Швеция, Чехословакия (1922), Норвегия (1923), Финляндия ва Польшада (1924), Дания (1926) ва Руминияда (1928) ташкил этилган.

Монопол капитализм ривожланиши билан стандартлаштириш ҳам

халқаро миқёсда ривожлана бошлади. Халқаро савдонинг доимий равишда кенгайиши ва фан ва техника соҳасида яқинроқ ҳамкорлик қилиш зарурати Халқаро стандартлаштириш ассоциацияси (ИСА) нинг ташкил этилишига олиб келди. 1939 йилда ИСА фаолияти иккинчи Жаҳон уруши бошланиши билан тўхтаб қолди. Бироқ, 1943 йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилотини институционализация қилиш жараёнининг бир қисми сифатида Лондон ва Нью-Йоркда офислари билан Стандартлаштириш бўйича Мувофиқлаштирувчи Қўмита ташкил этилди.

1946 йилда Лондонда 33 давлатни ўз ичига олган Халқаро стандартлаштириш ташкилоти (ИСО) ташкил этилди. Ҳозирги вақтда ИСО энг йирик халқаро техник ташкилотлардан бири ҳисобланади (унинг аъзолари 164 давлатдир) [3,4].

Хулосалар. Шундай қилиб айтадиган бўлсак, халқаро ҳамжамиятлар доирасида тегишли ихтисослаштирилган тузилмалар яратилганлигини таъкидлаш мумкин, бу давлатларнинг халқаро муносабатларида стандартлаштиришнинг алоҳида аҳамиятини кўрсатади. Стандартлаштириш фаолиятининг асосий натижаси маҳсулот, хизмат ёки жараён хусусиятларини уларнинг функционал мақсадига мувофиқ такомиллаштириш, ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларида ҳамкорликни ривожлантириш бўлиши керак. Шубҳасиз, стандартлаштириш ушбу жараёнларга, илмий-техникавий, маданий, иқтисодий, сиёсий тараққиётга ўз ҳиссасини қўшиши керак. Стандартлаштириш фаолияти жуда динамик жараён бўлиб, у ҳар доим турли соҳаларда содир бўлаётган ўзгаришларга мос келиши керак, у бир неча авлод томонидан сайқалланган бой мавжудлик ва тажрибага эга, баъзи масалаларда кўпроқ, баъзиларида эса камроқ. Буларнинг барчасидан келиб чиққан ҳолда, стандартлаштириш жамият ва давлат ҳаётининг ҳар қандай соҳасида стандартлар сифатида мавжуд.

Умуман олганда, стандартлаштириш тизимини ҳалқаро миқёсда такомиллаштириш йўналишида амалга оширилаётган саъй-ҳаракатлар Ўзбекистонга жаҳон маҳсулотлари ва хизматлари бозори билан фаол ҳамкорлик қилиш, иқтисодиётни самарали ривожлантириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Лифиц И.М. Стандартизация, метрология и сертификация: учебник/ И.М. Лифиц. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт-Издат, 2005.

2. Метрология, стандартизация, сертификация: учеб. пособие /А.П. Баталов, Ю.П. Бойцов, С.Л. Иванов. – СПб.: Санкт-Петербургский государственный горный институт (технический университет), 2003.

3. Ismatullaev P.R., Kodirova Sh.A., «Metrologiya asoslari», Darslik,-T.: 2021y.

4. Ismatullaev P.R., Matyakubova P.M., Turaev Sh.A. “Standartlashtirish asoslari”. Darslik. -T.: 2019 y.

5. Boboyev G‘.G‘., Buriyeva D.B. Standartlashtirish tizimini takomillashtirish. Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o‘rni. // Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar to‘plami. -Toshkent, ToshDTU, 2023 y. 7-28.04.2023, 129-131 betlar

ANALITIK SINOV LABORATORIYALARIDA XAVF VA IMKONIYATLAR BILAN BOG‘LIQ HARAKATLAR

[1]Masharipov Shodlik Masharipovich, [2]Erkaboyev Abrorjon Xabibullo o‘g‘li
[1]Toshkent davlat texnika universiteti, dotsent
[2]Namangan muhandislik-qurilish instituti, tayanch doktorant

Yillar davomida xavflarni boshqarish barcha turdagi laboratoriyalarda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasida xodimlarning xavfsizligi, laboratoriya natijalarining aniqligi va ishonchliligi, moliyaviy barqarorlik, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qaror qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Laboratoriyani ishonchli, xavfsiz va raqobatbardosh deb hisoblash uchun xalqaro standartlar va boshqa me’yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish, shuningdek, sinov vositalari va xavflarni boshqarish tartib-qoidalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Laboratoriya xavflari va imkoniyatlarini boshqarish tizimi laboratoriya faoliyati bilan bog'liq xavf va imkoniyatlarni ko'rib chiqadi va hisobga oladi. Xavflarni tasniflash tizimli va texnologik yondashuvga asoslanishi kerak, ya’ni xavflar laboratoriyada sodir bo‘layotgan jarayonning yaxlitligi va barqarorligini aks ettirishi kerak. Tasniflashni qurishda xavf manbalarini, xavf obyektlarni va uni idrok etuvchi subyektlarni tahlil qilish kerak.

Laboratoriya faoliyati bilan bog‘liq xavf va imkoniyatlar dastlab eng tajribali xodimlar tomonidan belgilanadi.

Har bir potentsial xavf hodisasi uchun har qanday maqbul usullardan foydalangan holda oqibatlarning eng mumkin bo‘lgan yoki eng xavfli (potentsial oqibatlar nuqtai nazaridan) variantlari aniqlanadi.

Potentsial xavf hodisalari va hisobga olingan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarga asoslanib, xavf va imkoniyatlar bilan bog‘liq amalga oshirilgan (rejalashtirilgan) harakatlar laboratoriya natijalarining ishonchliligiga potensial ta’siriga mutanosib bo‘lishi kerak.

Ular amalga oshirilgandan keyin chora-tadbirlar samaradorligini tahlil qilish bir yil ichida amalga oshiriladi. Yil yakuni bo‘yicha xavflar bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi-hisoboti va xavflarni boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligi to‘g‘risidagi hisobot-tahlil shakllantiriladi.

Yil davomida xavflarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligi to‘g‘risidagi hisobot-tahlilda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, xavflarni bartaraf

etish bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risida qaror qabul qilinadi, shuningdek, xavflarning o‘zi to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Tahlil hisoboti asosida xavf-xatarlar ro‘yxati va xavf choralari ko‘rib chiqiladi va yangilanadi.

Laboratoriya faoliyati jarayonida yangi xavflar yoki xavflarning yangi sabablari aniqlanishi mumkin. Ilgari xavflar reestriga kiritilmagan xavfning paydo bo‘lishiga yordam beradigan zaruriy shart, omil aniqlangan taqdirda, laboratoriya rahbariyati ma’lumotlarni tahlil qiladi, baholaydi.

Analitik sinov laboratoriyasida qo‘llaniladigan xavflarni baholash usullari sinov laboratoriyasida sifatni boshqarishga texnologik yondashuvda xavfning miqdoriy va ehtimollik xususiyatlarini olish imkoniyatini ta’minlashi kerak.

Xavfni baholash usulini tanlashda shuni hisobga olish kerakki, usul:

- ❖ vaziyatga va ko‘rib chiqilayotgan laboratoriyaga mos;
- ❖ xavf turi va uni qanday hal qilinishi haqida xabardorlikka yordam beruvchi shaklda natijalarni taqdim etish;
- ❖ jarayon va natijalarning kuzatilishi, takrorlanishi va tekshirilishini ta’minlash.

Xavflarni baholash usuli xavf haqida quyidagi ma’lumotlarni taqdim etishi kerak:

- ❖ ehtimoliy xavf xususiyatlarini baholash;
- ❖ xavf darajasini miqdoriy baholash;
- ❖ chiqish ma’lumotlarining miqdoriy baholarini olish imkoniyati.

Xavflarni boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- ❖ xavflarni aniqlash, tahlil qilish va darajasini aniqlash;
- ❖ xavflarni bartaraf etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni rejalashtirish;
- ❖ xavflarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ❖ natijalarni tahlil qilish va xavflarni bartaraf etish choralari samaradorligi.

Xavflarni baholash usulini tanlashning muhim jihati bu izchil va bashorat qilinadigan natijalarni ishlab chiqarish qobiliyatidir, bu harakatlar izchil tizim sifatida ishlaydigan o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida tushunilgan va boshqarilganda yanada samaraliroq erishiladi. Har qanday sifat menejmenti tizimi, birinchi navbatda, sifat sohasidagi sinov laboratoriyasining maqsadlariga erishishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq jarayonlarni boshqarish uchun mo‘ljallangan. Ushbu sifat tizimi natijalarni qanday ishlab chiqarishini tushunish tashkilotga tizim va uning ish faoliyatini samarali optimallashtirish imkonini beradi.

Xavfni aniqlashda sinov laboratoriyasi rahbari quyidagi ma’lumotlarni aniqlashi kerak:

- ❖ xavfning nomi;
- ❖ xavf tavsifi;
- ❖ xavf sabablari;
- ❖ mas’ul shaxs.

Xavflarni baholash quyidagi savollarga javob berish orqali amalga oshirilishi mumkin:

- ❖ Nima bo‘lishi mumkin va nima uchun (xavfni aniqlash)?
- ❖ Buning oqibatlari qanday bo‘ladi?
- ❖ Kelajakda sodir bo‘lish ehtimoli qanday?
- ❖ Xavf oqibatlarini yengillashtiradigan yoki xavf ehtimolini kamaytiradigan omillar mavjudmi?

Laboratoriyadagi xavfning asosiy manbalari xodimlarning o‘zlari, tahlil qilinadigan namunalar, kimyoviy reagentlar va chiqindilar, jihozlar, sinov usullari, o‘lchovlar, yangilanmagan sifat nazorati tartib-qoidalari, natijalar haqida hisobot berish, xolislik, maxfiylik, raqamlashtirish va, eng muhimi, moliyaviy jihatlar. Samarali sifat menejmenti tizimini joriy qilgan holda, laboratoriya aniq tartib-qoidalar, doimiy nazorat, tekshiruvlar, shuningdek, o‘z xodimlarini o‘qitish va uzluksiz o‘qitish va tizimlarni avtomatlashtirish bilan jihozlarini yangilash ta’minlanganda, xavflarni minimal darajaga kamaytirishi mumkin. Xavflarni uzluksiz boshqarish yangi ustuvorliklar paydo bo‘lishi va xavfsizlik va oldini olish maqsadida zarur choralarni doimiy ravishda amalga oshirish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ISO 31000:2018. “Xavflarni boshqarish. Tamoyillar va qo‘llanma”.
2. ISO 9001:2015. “Sifat menejmenti tizimi. Talablar”.
3. ISO/IEC 31010:2019. “Xavflarni boshqarish. Xavflarni baholash usullari”.
4. *Манакова И.А.* Система менеджмента качества испытательной лаборатории /И.А. Манакова, Е.Н. Савчик // Наука и бизнес: пути развития. – 2015. – № 12(54). – С. 43-47.

IV-SHO‘BA. QURILISH, YENGIL SANOAT VA IQTISODIYOT SOHALARIDA VA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI

TRANSPORTYOR YUZASIDA PAXTA BO‘LALCHASI XARAKATLANISHI NAZARIY TAHLILI

Mo‘minov M.R., Turg‘unov D.U., Topvoldiev A.A.
Paxtasanoat ilmiy markazi AJ
Namangan to‘qimachilik sanoati instituti
Farg‘ona politexnika instituti

Annotatsiya: Maqolada paxta xomashyosini g‘aram maydonlariga uzatib berish jarayonida turli qarshilikda bo‘lgan havoning paxta bo‘lakchasini tekislikka yetib kelishi uchun talab etilayotgan vaqti va burchak ostida xarakatda kelib tushish masofasi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: paxta, jalyuza, g‘aram maydoni, jism, tekislik, tezlik, ko‘chish, vaqt, zichlik, og‘irlik, qarshilik, sifat ko‘rsatgich.

Kirish

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 22 iyuldagi "Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 349-son Qarori 5-bandi: Sinov laboratoriyalariga ega bo'lgan korxonalar belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq laboratoriyada tekshirish va test sinovidan o'tkazishda foydalaniladigan texnologiya jihozlari, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlarni chetdan keltirishda, agar ularni yetkazib berish texnologiya jihozlari yetkazib berish uchun tuzilgan kontrakt shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, bojxona to'lovlaridan, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinsin (bojxonada rasmiylashtirish yig'imlari bundan mustasno)[20].

4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 19 iyundagi “Respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo’lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni kengaytirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 173-son qarori 5-bandi: xalqaro standartlarga muvofiq bo’lgan sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish uchun tegishli malakaga ega bo’lgan maslahatchini jalb etish ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi; davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar xarid qilish yuzasidan tender savdolari o’tkazishda boshqa teng shart-sharoitlarda ustunlik sifatni boshqarishning sertifikatlashtirilgan tizimiga ega bo’lgan mamlakatimiz mahsulot etkazib beruvchilariga beriladi.

5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 iyuldagi 154-son qarori bilan tasdiqlangan “Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish va amalga oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi Nizomning 12-bandi: Xalqaro standartlar bo’yicha sifat tizimini joriy qilgan, shuningdek eksportbop mahsulot turlarini ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi korxonalar, mahalliylashtirish dasturiga kirishda, yuqoridagi mezonlarga muvofiq keladigan loyihalar bo’yicha afzallika ega.

6. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2697-son bilan ro’yxatga olingan «Tasdiqlangan mahalliylashtirish dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo’llash tartibi to’g’risidagi Nizom»ning 5-bandi: Nizom 1-bandi uchinchi xatboshisida ko’rsatilgan korxonalar tomonidan mazkur Nizom 2-bandining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida nazarda tutilgan imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo’shaydigan mablag’lar yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga, shuningdek faoliyat ko’rsatayotgan ishlab chiqarishlarni kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, sifatni boshqarish tizimini joriy etish, mahalliylashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo’lgan xom-ashyo va materiallar sotib olishga, Mahalliylashtirish dasturini amalga oshirishga jalb qilingan korxonalarning muhandis-texnik xodimlarini rag’batlantirishga yo’naltiriladi.

XULOSA.

To‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirish va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta’minlash mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. To‘qimachilik korxonalarning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishda mahsulot sifatini ta’minlash hamda xalqaro sifat standartlarini joriy etish muhim xisobalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.R.Ismatullaev, B.M.Axmedov, P.M.Matyakubova, G’.X.Xamroqulov, Sh.A.Turaev. Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish. Darslik. “Sanostandart”. Toshkent-2014y.
2. Internet ma’lumoti (https://www.oeko-tex.com/en/)

3. Internet ma’lumoti (https://my.oeko-tex.com)
4. Internet ma’lumoti (https://global-standard.org)
5. Joe Kausek. OHSAS 18001: Designing and Implementing an Effective Health and Safety Management System. Government Institutes Inc.,U.S.; Pap/Cdr edition (7 August 2007) ISBN-10 : 086587199X/ ISBN-13 : 978-0865871991
6. С.М.Кирюхин, Ю.С.Шустов “Текстилной материаловедение”. Учебник. Москва “Колос” 2011.

ISO 9001: 2015 SIFATNI BOSHQARISH TIZIMI TALABLARI

[1]Topvoldiyeva Gulchehra, [2]S.S.Kamolov
[1]Namangan muhandislik-texnologiya instituti doktoranti
[2]Farg‘ona politexnika instituti 49-21 guruh talabasi

Annotasiya:*Ushbu maqola ISO 9001 standartlarini butun dunyo bo'ylab tashkilot tomonidan amalda qo'llashning eng kengtarqalgan usullarin iko'rib chiqadi.*

Kalit sozlar:*ISO 9001, sertifikat, standardlashtirish,sertifikatlashtirish.*

Kirish: ISO 9001 standartini joriy qilish sizning tashkilotingiz samarali jarayonlarni yo'lga qo'yganligini va vaqti-vaqti bilan benuqson mahsulot yoki xizmatlarni yetkazib berish uchun o'qitilgan xodimlarni o'rgatganligini anglatadi.

Asosiy qism:189 mamlakatdagi tashkilotlarga bir milliondan ortiq sertifikatlar berilgan ISO 9001 dunyodagi eng keng tarqalgan sifat menejmenti standarti hisoblanadi. Mijozlarga kuchli e'tibor va doimiy takomillashtirishni o'z ichiga olgan yetti sifat menejmenti tamoyilini belgilaydigan ISO 9000 oilasi doirasida ISO 9001 sertifikatlanishi mumkin bo'lgan yagona standartdir (garchi sertifikatlash majburiy emas).Biznesning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Mijozlarning ishonchi : Standart tashkilotlarda sifatni nazorat qilish jarayonlarining mustahkam o'rnatilishini ta'minlaydi, bu esa mijozlarning ishonchi va qoniqishini oshirishga olib keladi.

Shikoyatlarni samarali hal qilish : ISO 9001 mijozlarning shikoyatlarini samarali hal qilish, muammolarni o'z vaqtida va qoniqarli hal qilishga hissa qo'shish bo'yicha ko'rsatmalarni taqdim etadi. Jarayonni takomillashtirish : Standart samarasizlikni aniqlash va bartaraf etishga, chiqindilarni kamaytirishga, operatsiyalarni soddalashtirishga va ongli qarorlar qabul qilishni rag'batlantirishga yordam beradi, bu esa xarajatlarni tejash va yaxshi natijalarga olib keladi.

Doimiy optimallashtirish : ISO 9001 tomonidan rag'batlantirilgan muntazam auditlar va ko'rib chiqishlar tashkilotlarga sifat menejmenti tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirish,raqobatbardosh bo'lish va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

O'zining sifat menejmenti tizimini yaxshilashni, mijozlar va amaldagi qonunchilik va me'yoriy talablarni qondirishni va mijozlar ehtiyojini qondirishni yaxshilashni istagan har qanday tashkilot ISO 9001 standartidan foydalanishi mumkin. U har qanday

hajmdagi tashkilotlar uchun javob beradi va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash, ta'lim, davlat va notijorat tashkilotlari kabi barcha sohalarga tegishli. ISO 9001 sertifikatlash organlari yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan tashkilotning ushbu xalqaro standartga muvofiqligini baholash uchun ham foydalanish mumkin.

ISO 9001 standarti qiyin emas va umumiy talablarni o'z ichiga oladi. U katta yoki kichik miqyosidan qat'i nazar, har qanday sektorga qo'llanilishi mumkin. To'g'ri tushunilgan va to'g'ri qo'llanilganda kuchli boshqaruv tizimini anglatadi.

ISO 9001 standarti Sifat menejmenti tizimini yaratish uchun uni butunlay tashkilotlarga qoldirdi. Nima qilish kerak, "standart" Sifatni Boshqarish Tizimi yaratish emas, balki standart talablariga javob beradigan Sifatni Boshqarish Tizimi yaratish.

ISO 9001 sifat menejmenti tizimi dunyodagi eng mashhur sifat menejmenti tizimi standarti bo'lib, dunyo bo'ylab 180 mamlakatlaridagi milliondan ortiq tashkilotlarni sertifikatlashtirgan. 9001 standarti Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan e'lon qilingan 9000 seriyali standartlardan muvofiqlikni baholash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan yagona standartdir.

Xulosa:

Men ushbu maqolada shuni aytib o‘tishim lozimki ISO 9001 tizimi dunyodagi barcha mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar uchun xizmat qiladigan muhim standardlardan biridir.Ushbu tizim juda samarali va foydalidir

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]"Qo'llanma boshqaruvi tizimi standartlari va sertifikatlari":I.Gafurov,2018.
[2]"QBTstandartlari tushunchasi va ularning amaliyotdagi uyushtiruvchiliklari":U.Khodjayev,2020.
[3]"Qo'llanma boshqaruvi tizimi ishlab chiqarish usullari":D. Maxamadov,2019.

КАМ ҚАВАТЛИ ТУРАР-ЖОЙ БИНОЛАРИНИ ҚУРИШДА ЭНЕРГИЯ САРФИНИ АНИҚЛАШНИНГ МЕЪЁРИЙ ТАЪМИНЛАНГИЛИГИ

Т.ф.н., проф. Хамза Юсупов
Тошкен архитектура-қурилиш университети,
Tel: (+99897) 713-00-12, email: hamza12@mail.ru
Докторант, Тўтиё Эгамбердиева
Тошкен архитектура-қурилиш университети,
Tel: (+99897) 706-65-70, email: etutie@mail.ru

Аннотация. *Ушбу мақола кам қавтли турар-жой биноларини қуришда энергия сарфини аниқлашнинг меъёрий хужжатлар билан таъминланганлиги ҳақида ва кам қавтли турар-жой биноларини қуришдаги асосий жараёнларлар*

ҳамда технологик ишларни амалга оширишдаги энг мақбулини Ўзбекистон ҳудудида жорий қилиш тўғрисида ёритилган.

Калит сўзлар: *бино, иншоот, турар-жой, энергия, технология, моделлаш, ёқилғи-энергия ресурслар.*

Ўзбекистонда кам қаватли уй қурилиш соҳаси ҳозирги вақтда кучли ривожланиш даврида бўлиб, асосий мақсад шаҳарга яқин қишлоқлар, туман ҳудудларини ўзлаштиришга қаратилган.

Оҳирги йилларда турар-жой қурилиши соҳасида истиқболли йўналиш энергия ресурсларини тежовчи ва камайтирувчи энергия тежамкор технологияларни қўллаш бўлиб қолди. Бироқ биноларни барпо этиш босқичи маблағ ва материаллар харажатлари ҳажми, қурилиш машина ва механизмлардан фойдаланиш сарфлари, қурилиш майдонини ташкил қилиш каби заруратлари билан ажралиб туради. Бу хусусиятлар ёқилғи ва энергия ресурсларини (кейинда − ЁЭР), қурилиш машина ва механизмларни, жиҳозларни, механик асбобларни ишлатиш, қурилиш майдонларини фаолиятини олиб бориш ва маиший шаҳарлар, коттеж, поселка ва кварталлар қурилишида фойдаланиш кабиларга сарфланиши билан боғлиқ. Бу ўз ўрнида умумий қурилиш тизимидаги сарфининг кўп қисмини эгаллаши мумкин, шунинг учун албатта қурилиш даврида юқоридаги хусусиятларни хисобга олиш зарурлигини талаб қилади.

Кам қаватли турар-жой биноларининг афзалликлари, қабул қилинган ҳуқуқий-меъёрий қоидалар талаблари, қурилишнинг барча кетма-кетликдаги босқичларидаги энергия тежамкор, қурилиш давридаги энергия сарфларига мос келиши керак. Кам қаватли турар-жойларни барпо этишда ташкилий-технологик моделлаштириш усулларидан фойдаланиб, камроқ энергия сарфига эришиш ва уларни ривожлантириб ресурс таъминотини яхшилаш масалалари нафақат кам қаватли турар-жойларни қуришда, балки умумий қурилиш соҳасида ҳам долзарбдир.

Кам қаватли турар-жой биноларини барпо этишдаги қурилишнинг барча босқичларида ёқилғи-энергия ресурсларини барча турдаги энергия истеъмолчилари томонидан (ЁЭР) интеграл сарфини ҳисобга олган ҳолда ташкилий-технологик моделларини мукаммаллаштириш. Қўйилган мақсадга эришиш учун кам қаватли турар-жойларни барпо этиш даврида ёқилғи-энергия ресурслари (ЁЭР) сарфини ҳисобга олган ҳолда ишларни бажариш ва ташкил қилишни ўзига хос хусусиятларини таҳлил қилиш; кам қаватли турар-жой биноларини барпо этишда қурилиш майдонидаги энергия истеъмолчиларининг таркибини ўрганиш; кам қаватли турар-жой биноларини барпо этишда қурилиш майдонидаги барча энергия истеъмолчиларини синфларга ажратиш; кам қаватли турар-жой бинолари мажмуасини барпо этишда энергия истеъмолини ҳисобга олган ҳолда ташкилий-технологик моделларини қуриш; хронометрик ўлчовлар олиб бориш орқали механизатсиялаштирилган ишларнинг ҳақиқий давомийлигини аниқлаш ва тегишли ёқилғи-энергия ресурслари (ЁЭР) сарфини аниқлаш; ёқилғи-энергия ресурслари (ЁЭР) сарфини ҳисобга олган ҳолда кам

қаватли турар-жой мажмуасини қуришда кўп омилли оқилона вариантларни танлаш ва баҳолаш; кам қаватли турар-жой биноларини барпо этишда ёқилғи-энергия ресурслари (ЁЭР) сарфини аниқлаш алгоритмини ишлаб чиқиш; ташкилий-технологик лойиҳалашда меъёрий-услубий ҳужжатлар учун ёқилғи-энергия ресурслари (ЁЭР) сарфи кўрсаткичларини киритишга тавсиялр ишлаб чиқиш; турар-жой биноларини барпо этишда солиштирма энергия сарфи таққосланишини амалга ошириш лозим.

Кам қаватли турар-жой биноларни барпо этишдаги ташкилий-технологик моделлаштиришда ёқилғи-энергия ресурслари (ЁЭР) сарфини интеграл ҳисобининг илмий-услубий ёндашувини ишлаб чиқишдада, кам қаватли турар-жой бинолари комплексларини барпо этишда қурилиш майдонидаги ташкилий-технологик моделларини мукаммаллаштиришда ёқилғи-энергия ресурслари (ЁЭР) сарфини ҳисобга олган ҳолда методологик ёндашувларни ривожлантириш, кам қаватли турар-жой биноларини барпо этишда ёқилғи-энергия ресурслари (ЁЭР) сарфини аниқлаш учун тавсияларни ва ташкилий-технологик лойиҳалаш ишларида меъёрий-технологик ҳужжатларни ишлаб чиқишдан иборат. Олиб борилган изланишлар асосидаги ёқилғи-энергия ресурслари (ЁЭР) сарфини, қурилиш лойиҳасининг техник-иқтисодий кўрсатгичлари таркибида фойдаланиш тавсия этилади.

Мамлакатимизда якка тартибдаги уйлар қурилишини ривожлантириш қўшимча давлат дастури лойиҳаси тайёрланмоқда, у орқали мамлакатда 40 млн.м^2 дан ортиқ якка тартибдаги турар-жойларни қуриш ва фойдаланишга топшириш кўрсаткичларини ошишига эришилади.

Юқоридаги дастурларни амалга ошириш ҳисобига барпо этилаётган кам қаватли турар-жой биноларининг қурилиш таннархининг пасайишига ва биринчи навбатда сотув баҳоларининг солиштирма арзонлашувига олиб келади. Бу эса кўп қаватли биноларни қурилишига нисбатан кам қаватли бинолар қурилишида ЁЭР сарфини камайишига ва қурилишдаги сарф-ҳаражатини қисқаришига таъсир қилади ва умумий ҳолда қурилиш саноатида Ё.Э.Р. истеъмолини сезиларли даражада камайтирилишига олиб келади. Кам қаватли қурилиш ҳиссасининг ошиб бориши умумий қурилиш ишлаб чиқарилишида ЁЭР сарфини кескин қисқартиришга олиб келади.

Энергияни рационал истеъмол қилиш нуқтаи назаридан ЁЭР сарфини бинолар ҳаётий циклининг барча босқичларида эътиборга олиш керак. Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш керакки, бинонинг ҳаётий цикли давомида бинони барпо этиш кам даврни эгалласада энергия истеъмоли бўйича катта қийматга эга.

Хулоса. Меъёрий ҳужжатларда акс эттирилган энергия самарадорлик кўрсаткичлари ҳусусиятлари ва қийматлари қурилиш жараёнлари кетма-кетлигини ташкил этишнинг асосий қисми ҳисобланади. Қурилишда энергия тежамкорлик соҳасида қо ълланиладиган меъёрий ҳужжатлар қуйидагича:

қурилиш меъёрлари ва қоидалари (ҚМҚ), қурилиш соҳасидаги Давлат стандартлари (ГОСТ) ва ҳоказолар. Ҳудудий қурилиш меъёрлари – бу ҳужжатларда асосан лойиҳалаш жараёнлари ва бинони эксплуататсия қилиш давридаги талаб кўрсаткичлари ўз ичига олади ҳолос, масалан: бинонинг иситиш тизимидаги иссиқлик сарфи, шамоллатиш тизимми, хонадаги микроклимат катталиклари кабилар. Бироқ бундай ёндашув энергия самарадорликнинг фақатгина берилган кўрсаткичлари билангина чекланиб қолади, бошқа турдаги энергия ресурсларини сарфи ҳисобига олинмай қолиб кетади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. ШНҚ 3.01.01-22 “Қурилишда ишлаб чиқаришни ташкил қилиш”
2. ШНҚ 3.01.02-23 “Қурилишда ҳавфсизлик техникаси”
3. ШНҚ 2.08.01-19 “Турар жой бинолари”
4. *1-сон ўзгартириш (25.09.2020) “*Турар жой бинолари”
5. *2- сон ўзгартириш (18.02.2022) “*Турар жой бинолари”
6. ШНҚ *га қўшимча (13.10.2023) “*Турар жой бинолари”
7. ШНҚ 2.07.01-03 “Шаҳарсозлик. Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пункитлари ҳудудларини ривожлантириш ва қурилишини режалаштириш”
8. M.M.Miraxmedov, X.I.Yusupov, I.M.Maxamataliyev, A.T.Ilyasov, A.M.Raximov, I.N.Salimova, L.S.Yusupova, X.T.Buriyev “Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish”. Darslik. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.
9. Raximov A.M., Yusupov X.I., Xamidov X. Qurilish ishlari texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent : «Faylasuflar» nashriyoti, 2013. -184 bet.
10. Теличенко, В.И. Технология строительных процессов: Ч.1. Учебник для строительных вузов / В.И. Теличенко, О.М. Терентьев, А.А. Лапидус. - М.: Высшая школа, 2005. - 392 с.
11. Вонгай Александра Олеговна “Организационно-технологическое моделирование реконструкции зданий высших учебных заведений” 2021
12. Фомин Никита Игоревич “Организационно-технологическое обеспечение комплексного повышения эксплуатационных качеств монолитных и сборно-монолитных гражданских зданий (на примере строительного комплекса Урала)” 2021.

TEXNIK REGLAMENTLAR ASOSIDA OZIQ - OVQAT MAHSULOTLARINING XAVFSIZLIGI VA MENEJMENTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

[1]A.A.Topvoldiyev [2]D.X.Uraimjonov
[1]Farg‘ona politexnika instituti assistenti
[2]Farg‘ona politexnika instituti 49-21 guruh talabasi.

Annotatsiya: *Mazkur maqola mamlakatimizda xalqaro standartlar asosida oziq-ovqat xavfsizligi menejmenti tizimini samaradorligini oshirish masalalarini o‘z ichiga oladi, maqola standartlashtirish soxasidagi me’yoriy uslubiy xujjatlarni o‘rgangan holda yozildi.*

Annotation: *This article includes the issues of improving the effectiveness of the food safety management system in our country based on international standards, the article was written after studying normative and methodological documents in the field of standardization.*

Аннотация: *В данную статью включены вопросы повышения эффективности системы управления безопасностью пищевой продукции в нашей стране на основе международных стандартов, статья написана после изучения нормативных и методических документов в области стандартизации.*

Kalit so’zlar: *korxona, iqtisodiyot, mahsulot sifati, sifatni boshqarish*

Asosiy qism: Xalqaro standartlar infratuzilmasi ishlab chiqarishni va jarayonlarni (MRP, MRP II, ERP, CALS, ARIS, IDEF va boshqa.) namunaviy rejalashtirish tizimiga xalqaro tan olingan standartlar hisobiga ahamiyatga molik bo‘lishi mumkin. Ammo, bu standartlar garchi tashkilot menejmentini samaradorligini oshirishga yo’naltirilgan bo‘lsada, alohida menejmentning texnik masalalarini yechishga mohiyati bo‘yicha vosita bo‘lib hisoblanadi va shuning uchun ham alohida yordamchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Biroq, menejment tizimiga xalqaro standartlar talablariga muvofiq birlashgan menejment tizimi jarayonlarining barchasini identifikatsiyalashtirilganidan so’ng, ulardan maqsadli foydalanishni hisobga olish zarur.Mavjud oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimi qismida xavfsizlik va sifat menejmenti tizimini ko‘rib chiqamiz. Dastlab, qandaydir model bo‘yicha oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonasida sertifikatlatishtirish uchun samaradorlikni (oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi, xizmatlari, jarayonlari, xodimlarni va x.k.lar) oshirish uchun menejment tizimini joriy etish lozim.U yoki bu tizimni ishlab chiqish va joriy etishida tashkilotning o‘ziga xususiyatlari,amalga oshirayotgan ishlarining hajmi, tashkilotning ko‘lami, u ishlab chiqarish yoki chakana savdo korxonasi bo‘lib hisoblanadimi, korxona ishlab chiqariyotgan yoki foydalanishga berayotgan mahsulotlarining nomlari va boshqa ko‘plab omillari aniqlanadi.Zamonaviy oziq-ovqat sanoatida sifat va xavfsizikni boshqarishning asosiy elementlari:

ISO 9000 xalqaro standartiga muvofiq korxonaning sifat menejment tizimi (SMT); HACCP tamoyillariga muvofiq oziqlanish mahsulotlari xavfsizlik tizimi; ishlab

chiqarishda sanitariya va gigiena (GMP) tizimi; ISO 14000 bo‘yicha ekologik menejment tizimi bo’lib hisoblanadi. 2005 yilning 1 sentyabridan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimiga talablarni o’rnatuvchi ISO 22000 seriyali standartlar amalga joriy etildi.Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmenti tizimi korxonalarga quyidagi maqsadlarni bajarish uchun kerak bo’ladi:

• ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarida va barcha xavfsizik omillari va muhim kritik elementlarining munosabatlarida oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini boshqarish;

• nazorat idoralari, hamkorlar va iste’molchilar talablarini qondirish;

• hujjatlarni boshqarish, javobgarlik va vakolatlarni taqsimlash, biznes-jarayonlarni shakllantirish va tartibga solish natijasida korxonaning boshqarish tizimini optimallashtirish.AQSHda Evropa ittifoqi mamlakatlarida gigiena va sanitariya soxasida ishlab chiqarish xatolarining xavf-xatarini minimumga olib borishga foydalaniladigan SMTning qismi GMP qoidalari bo‘lib xisoblanadi.GMP (Good Manufacturing Practice) - bu yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti ES 93/43 Direktivida o‘rnatilgan bo‘lib, oziq-ovqat biznesida faoliyat olib borayotgan va bu soxada ish olib borishni boshlaganlarga ruxsat olishi uchun kerakli shartlarni bajarishga zaruriy bo‘lib hisoblanadi.

GMP - RBA(AQSH dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat qilish bo‘yicha xukumat Agentligi) nazoratida turgan bir qancha oziq-ovqatlar va medikamentlarni ishlab chiqarish uchun me’yorlar, qoidalar va qo‘llanmalar majmuasidir. GMP umumiy qoidalariga muvofiq turli xil mamlakatlar alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlashtirish sharoitlarida muvofiqlashtiruvchi, standartlar va hujjatlarni ishlab chiqishmoqda.GMP qoidalarida mahsulotni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va foydalanish jarayonlarida sanitar-gigienik chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e’tibor qaratilgan.GMP qoidalari shuningdek, ishlab chiqaruvchilardan o‘rnatilgan talablarga muvofiqo‘lchashlar usuli va vositalari, asosiy va qo‘shimcha qurilmalarni, texnologik jarayonlarning ishchi holatda ekanligini isbotlashni talab etadi. O‘zbekistonda “Aholi sog‘ligi-salomatligi sanitar- epidemologiyasi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq va sog‘likni saqlash vazirligi qoidalariga muvofiq, sanitar-gigenik qoida va me’yorlariga asosan xalq iste’moli mahsulotlari va xom- ashyolarini ayri boshlash va savdo tashkilotlariga sanitar-epidemologiya talablari; sanitarepidimeologiya (profilaktika) chora-tadbirlarini bajarish va sanitar qoidalariga rioya etish bo‘yicha ishlab chiqarish nazorati tashkil etish va o‘tkazish, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga mos bo’lgan gigenik talablar bo’lib xisoblanadi. “Texnik jixatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq mahsulotlar, ishlab chiqarish jarayonlari, ekspluatatsiyasi, saqlash, foydalanish va utilizatsiyalashtirish xavfsizligi - bu o‘simlik va jonivorlarning hayoti va sog‘ligi, davlat yoki maxalliy mulklari, fuqarolarning hayoti va sog‘ligiga ziyon yetkazish sabablari bilan bog‘liq ruxsat etilmagan xavf-xatarlar mavjud bo‘lgandagi xolatidir.

Xulosa.

Men ushbu maqolada oziq ovqat mahsulotlari uchun texnik reglamentlar qo‘yiladigan talablar va boshqa turli xil oziq ovqat sanoati sohasida ilg‘or sertifikatlashga oid standartlar haqida yorib o‘tib ushbu maqolamni shu oziq ovqat sanoati uchun mavzu sifatida oldim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

[1].O‘zbekiston Respublikasi “Texnik jixatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonun.Isroilov F. M. et O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMLARIGA O ‘RNATUVCHI MEYORIY STANDART TALABLAR //Studencheskiy vestnik. – 2021. – №. 21-10. – S. 70-72.

[2].Isroilov F. M., Rakhmonov F. A., ugli Ungarov D. Y. HIGH RESPONSIBILITY (SENSITIVITY) AND ACCURACY OF TEMPERATURE SENSORS FACTORS OF ACHIEVEMENT AND RELIABLE OPERATION //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – 2023. – T. 2. – №. 1. – S. 163-169.

[3]. Isroilov F. M. et al. O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMLARIGA O ‘RNATUVCHI MEYORIY STANDART TALABLAR //Studencheskiy vestnik. – 2021. – №. 21-10. – S. 70-72


PAXTA TOLASINING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI ANIQLASHDA QO‘LLANILADIGAN HVI 900 VA HVI 100 USKUNASINING TEXNOLOGIK KO‘RSATKICHLARINI TAHLILI

Bahromjonova Diyora Muzrobjon qizi
Farg‘ona politexnika instituti, 101-22 ESTJ guruh

Paxta tolasaning navi va sinfini aniqlashning uch xil usuli mavjud . Birinchi usul klassyorlik usuli , ikkinchi usul maxsus usul , uchinchi usul HVI uskunasida aniqlash usuli. Klassyorlik usuli - paxta tolasiga navi va sinfi bo‘yicha organolentik baho berishdir, bunda tola tashqi ko‘rinishi bo‘yicha belgilangan tartibda tasdiqlangan namunalar bilan solishtiriladi hamda uning shtapel uzunligiqo‘lda tortilgan shtapel bilan aniqlanadi. Asbob yordamida faqat mikroneyr ko‘rsatkichi aniqlanadi.Maxsus qo‘llaniladigan usullar - paxta tolasi kam namuna asosida asbob yordamida sinashning an’anaviy usullari. Bunda paxta tolasining turli toylaridan yoki tekshirilayotgan andozaning turli joylaridan tanlab olingan namunalar miqdorini ko‘p marotaba o‘rtacha holga keltirish va kamaytirish yo‘li bilan sinov namunasi olinadi. Ko‘p mehnat va vaqt talab qilishi, sinalayotgan namunaning kam miqdori bilan ajralib turuvchi bu usullar paxta tolasini sertifikatlash maqsadlari uchun yaroqsizdir. Mazkur usullar paxta xom ashyosini baholashda, seleksiyachilar ishida paxta korxonalarida va to‘qimachilik korxonalaridagi texnologik jarayonni nazorat qilishda qo‘llaniladi.

Hozirda HVI uskanasida tola navi va sinifini aniqlash keng qo‘llanilmoqda .HVI (Eych Vi Ay) - paxta tolasining uzunlik, uzunlik bo‘yicha bir xillik, aniqlik

uzulishidagi uzayish, mikroneyr rang va ifloslanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori samarador High Volume Instruments sinovlari o‘lchash tizimining qisqartirilgan nomlanishi. HVI 900 da paxta tolasining o‘n to‘rtta ko‘rsatkichi aniqlanadi.Bulardan, to‘qqistasi asosiy beshtasi qo‘shimcha ko‘rsatkichlar hisoblanadi.Tashqi ko‘rinish namunalari paxta tolasining aniq bir navi va sinfiga xos bo‘lgan rang, dog‘lar mavjudligi, tuzilishi hamda ifloslanganlik jihatidan sifat ta’riflari majmuini ifodalovchi, belgilangan tartibda tasdiqlangan paxta tolasi namunalari



USTER HVI 900 SA tizimining umumiy chizmasi.

1-mikroneyr moduli; 2-rang/ifloslik moduli; 3-uzunlik/pishiqlik moduli; 4- elektron tarozi; 5-mikroneyr kamerasi; 6-paxta tolasining rang va ifloslik ko‘rsatkichlariningo‘lchash jarayonida oyna sathiga tola namunasini siquvchi plita; 7- paxta tolasining rang va ifloslik ko‘rsatkichlarini o‘lchashda namuna joylash-tirish uchun yorug‘lik darchasi; 8-shtrixli kodni o‘quvchi moslama; 9- fibrosempler-paxta tolasining uzunlik va pishiqlik ko‘rsatkichlarini o‘lchash uchun namunalarni taroqli qisqich vositasida oluvchi uskuna; 10-kompyuterning alfavitliraqamli klaviaturasi; 11-rangli monitor; 12-printer.

HVI 900 ikkita blok va uchta moduldan iborat.Birinchi modulda mikroneyr , ikkinchi modulda rang va ifloslik , uchinchi modulda uzunlik va pishiqlik modulidan iborat.Tizimga alfavitli-raqamli klaviatura, monitor va tarozi kiradi. Monitor menyu seksiyalari, ish yo‘riqnomalari va sinov natijalarini ko‘rsatadi. Har bir namunaning test sinovlari tugagani zaxoti, natijalari printerga va/yoki tashqi kompyuter tizimiga o‘tishi mumkin.USTER HVI 900 SA yarim avtomatik tizimi Qo‘shma shtatlarining qishloq xo‘jaligi departamenti (**USDA**) tomonidan marketing paxta tizimida belgilangan yettita fizik tavsiflarni o‘lchaydi. HVI 900 SA tizimi:tolannng uzunlik, pishiqlik, uzunlik bo‘yicha bir xilligi, uzayishi, mikroneyri, rangi, ifloslanganlik ko‘rsatkichlarini o‘lchaydi. Bu xossalarni barchasi tolaning sifatini aniqlashda va aralashmani to‘qishga tayyorlashni yaxshilashda muhim hisoblanadi. Tolani HVI 900 SA da sinash tizimi kompyuter yordamida kolibrlash va diagnostikani nazorat qilish

bilan birga ishni aniq va ishonchli hamda avtomatlashtirilgan holda bajarishga imkon beradi.

Mikroneyr moduli. Mikroneyr paxta tolasining namunasini, undan o‘tayotgan havo oqimiga qarshiligini o‘lchash yo‘li bilan aniqlanadi.Havo oqimi, doimiy hajmli kameraga joylashtirilgan ma’lum massadagi toladan o‘tkaziladi. Undan so‘ng kameradagi bosim farqi tolannng solishtirma yuzasiga nisbatlanadi va mikroneyr qiymati aniqlanadi. Namunani tarozida tortish, havo oqimlaridan plastik qobiq bilan himoyalangan electron tarozida amalga oshiriladi. Tortilgan namuna mikroneyr kamerasiga joylashtiriladi, kamera qopqog‘i yopiladi, undan so‘ng avtomatik ravishda o‘lchash o‘tkaziladi.O‘lchash tugatilganidan so‘ng, qopqog‘i ochilib, namuna kameradan chiqarib tashlanadi. Monitorda mikroneyrning o‘lchangan qiymati ko‘rsatiladi.

Rang/Ifloslik moduli. Tolaning rang (nur qaytarish koeffitsienti va sarg‘ishlik darajasi) va ifloslik ko‘rsatkichini o‘lchash asbobi Mikroneyr moduli bilan bir blokda joylashgan. Tola namunasi stol ustida joylashgan darcha oynasining yuzasiga joylashtiriladi, hamda Rang/Ifloslikni o‘lchash darchasidan o‘ng tomonda joylashgan start knopkasi bosilib Rang/Ifloslik ko‘rsatkichi o‘lchanadi. Knopka bosilgandan so‘ng bosuvchi plita tushadi va namunani darchaning oynasiga bosib turadi. O‘lchashlar avtomatik ravishda, siquvchi plita tola namunasini darchaning oynasiga bosib turgan paytda bajariladi. Sinov vaqtida namuna rangini o‘lchash uchun HVI tizimida ikkita lampadan foydalaniladi. Lampalar bevosita Rang/Ifloslikni o‘lchash darchasi ostida joylashtirilgan bo‘lib, namunani ikki tomondan ma’lum burchak ostida yoritadi. Lampalardan tushgan nur qaytib, filtrlardan o‘tib va fotodiodlar yordamida qaytarilgan paytda paxta tolasining ikkita komponenti nur qaytarish koeffitsienti va sarg‘ishlik darajasi o‘lchanadi. Nur qaytarish koeffitsienti nur qaytarish foizi (%Rd) hisobida ifodalanadi. Sarg‘ishlik darajasi rang shkalasi (+b) qiymatlarida ifodalanadi. Bu qiymatlar Amerika Universal standartlarining **Upland** va/yoki **Pima** paxta tolasi tiplarini **USDA** rang navlarinig muvofiq kodlariga aylantiriladi. Ifloslanganlikni o‘lchash modul-bu tola yuzasida ko‘rinadigan iflos aralashmalarni skanerlaydigan avtomatlashtirilgan videoprotsessordir. Natijalar **Trash area** (iflos aralashmalar maydoni), **Trash count** (iflos aralashmalar soni) va**Trash code** yoki **Leaf** uch o‘lchovning raqamli tasvirida ifodalanadi.

Uzunlik/Pishiqlik moduli .Uzunlik/Pishiqlik moduli tola uzunligi va u bilan bog‘liq bo‘lgan uzunlik bo‘yicha bir xilligini aniqlaydi. Tolaning pishiqligi (solishtirma uzilish kuchi) ma’lum massali tola namunasini uzish uchun zarur bo‘lgan kuchni o‘lchash bilan aniqlanadi. Uzayish tolalarni uzilish paytidagi cho‘zilishining o‘rtacha uzunligi bo‘yicha hisoblab chiqariladi.Uzunlik/Pishiqlik moduli tarovchi mexanizmdan, uzunlik va bir xillikni o‘lchash uchun optic tizimidan hamda uzilish kuchi va uzayishni o‘lchash uchun qisqichlar tizimidan tashkil topgan. Tolaning uzunligi va pishiqligini ulchash uchun operator **Fibrosempler** deb ataluvchi moslama va taroqchasimon qisqich yordamida tolani tutam ko‘rinishida tayyorlaydi.



Tayyorlangan tola tutami.

Tayyorlangan tola tutamli qisqich Uzunlik Pishit slik o‘lchagichi (**Fibrograf Plyus**) taroqchasining ariqchasiga joylashtiriladi. Shyotkali barabancha qisqichga qarab avtomatik ravishda siljib boradi, taramni taraydi va qisilmay qolgan tolalarni chiqarib tashlaydi. Tarash tugatilganidan so‘ng, mexanik barmoq yo‘naltiruvchi ariqcha bo‘ylab namunani uzunlik, bir xillik, pishiqlik va uzayishni o‘lchash pozitsiyasiga (holatiga/va ziyatiga) yo‘naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.R.Bo‘riyev ,Q.Jumaniyazov ,A.Salimov “Paxtaning sifatini aniqlash”.T :”Paxta sanoat ilmiy markazi”AJ-2015
2.https://www.uster.com/products/fiber-testing/uster-hvi/
3.https://www.agroxizmat.uz
4.www.researchgate.net/publication/228824873 “Important Aspects of Cotton Colour Measurement”. July 2010

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTINI TASHKIL QILISH ZARURIYATI

Ashurov M.S., professor
Farg‘ona politexnika instituti

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatidiki, ishlab chiqarishni rivojlantirish ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish va unda mukammal zamonaviy tizimlarni joriy etishni talab qiladi. Bunday tizimlardan biri sifat menejmenti tizimi hisoblanib, ishlab chiqarilayotgan maxsulotni xaridorgirligini va barcha sifat ko‘rsatkichlariga mos kelishini ta’minlaydi. Ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilishda sifat tizimlarini qo‘llash va uning samaradorligini oshirishda muhim omil sanaladi.

Sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiyotda ishlab chiqariuvchi korxonalar uchun dolzarb masalaga aylandi. Bozor iqtisodiyotidagi erkin bozor muhiti korxonalarning har bir xaridori uchun raqobatga kirishishi va xaridor didi, dunyoqarashi hamda istak va hohishlarining o‘zgarib borishi sifatni boshqarish jarayonini optimal tashkil etish talabini qo‘ymoqda. Bu istak va hohishlar qay tarzda amalga oshiriladi, qachonki ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarayotgan maxsulotlari davlat, bozor, xaridorlar talabiga javob bersagina xaqiqatga aylanadi,aks holda istakligicha qolib ketadi.

Demak, sifatni boshqarish - bu korxona miqyosida tashkil etiladigan va xaridorning ehtiyojini qondiradigan darajada maxsulot ishlab chiqarilishini ta’minlaydigan jarayonlar va harakatlar majmuasi hisoblanadi. Mazkur boshqaruv shakli korxonalarda ishlab chiqarish xususiyatlari va shaklidan kelib chiqib turlicha qo‘llanilgani bilan uning asosiy va tub falsafasi o‘zgarmaydi. Har bir ishlab chiqarilayotgan maxsulot sotilayotgan bozor joylashgan xududning standartlariga va o‘sha joydagi sotib olayotgan xaridorning qiziqish hamda hohishlariga mos tushmog‘i zarur. Bunda bozorga kirayotgan maxsulotlarning ekologik tozaligi, xudud va mamlakat standartlariga javob berishi hamda eng asosiysi, ISO xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilganligi muhim ahamiyatga ega.

Ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish mexanizmini to‘la-to‘kis joriy etish uch muhim jihat bilan dolzarb hisoblanadi.

Birinchidan, bozorlar joylashgan xududlardagi mahalliy va xududiy standartlarga rioya etgan holda maxsulot ishlab chiqarish;

Ikkinchidan, bozorda harakatlanayotgan xaridorning didi, hohishi, istagi va dunyoqarashiga monand maxsulotlarni ishlab chiqarish;

Uchinchidan, bozordagi raqobat kurashida g‘olib bo‘lish uchun ishlab chiqarishni tashkil qilish.

Sifat tushunchasini anglab etish va undan iste’molchi yoki ishlab chiqaruvchi sifatida samarali foydalanish sifatga berilgan ta’riflarni diqqat bilan o‘rganishni talab qiladi. Chunki, sifatga berilgan ta’riflar ko‘p va xilma – xil bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ular o‘zgarib boradi. Ayniqsa, sifatga bo‘lgan iste’molchilarning dunyoqarashi maxsulotlar takomillashib borgan sari o‘zgarishda davom etadi.

Sifat tushunchasiga berilgan ta’riflar

№	Ta’rif mualliflari	Sifatga berilgan ta’riflar
1.	D.Djuran	Sifat – “foydalanish (iste’mol) uchun yaroqlilik”. Bu tushuncha to‘rtta o‘ziga xos elementga ega: - maxsulotni shakli, tuzilishini (dizayni) iste’molchilar o‘zlarida idrok qilishlari; - maxsulotni loyixasiga va vazifasiga mosligi; - maxsulotni iste’molchilarga ma’qulligi, chidamliligi va ta’mirlash mumkinligi; - maishiy xizmat korxonalarining mavjudligi.

2.	Shuxart	Sifat – bu ob’ektiv fizik tasiflarni va sub’ektiv tomonlarni o‘z ichiga olgan buyum.
3.	Isikava	Sifat – bu iste’molchining real ehtiyojini qondiruvchi xususiyatdir.
4.	Nemis tadqiqotchilari	Sifat – maxsulot yoki xizmatlarning baocha xususiyatlari yig‘indisi bo‘lib, ular o‘z vazifalarini bajara olishlarini kafolatlaydi.
5.	Dyoming	Sifatni boshqarish mukammallikka erishildi degani emas, u bozor talabiga javob beruvchi sifatga ega bo‘lgan maxsulotni samarali ishlab chiqishdir.
6.	Filipp Krosbi	Talablarga to‘g‘ri kelishi
7.	Iqtisodchilar	Noziklarning nozigi
8.	Amerika kompaniyalari	“Go‘zallik kuzatib turuvchining ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi”, ya’ni har bir inson sifatga o‘z nuqtai nazaridan qaraydi.
9.	Xalqaro ISO 9000-1994 sistemasiga muvofiq	Sifat – shartlangan yoki taxmin qilingan ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini beradigan maxsulot yoki xizmatlarning xususiyati va tavsiflari majmuidir.

Xitoy tilida sifatni anglatuvchi ieroglif ikki qismdan, ya’ni muvozanat va puldan tashkil topgan. Demak, sifat “qimmat” degan tushuncha bilan aynan o‘xshashdir.

Yuqorida berilgan ta’riflardan ko‘rinadiki, sifatga har bir olim va mutaxassislarda turlicha yondashuv bo‘lgan. Lekin ularning o‘rtasida umumiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- iste’molchining istagini qondirish;
- sifatni har bir inson o‘z nuqtai nazari bilan tushunish;
- maxsulotning fizik xususiyatlari.

Bu fikr va mulohazalar umumlab jamlanganda “Sifat – bu qo‘yilgan va kutilgan talablarni maxsulotning yig‘ilgan tavsiflari orqali qondirish” degan xulosa kelib chiqadi.

Iste’molchining kutilgan talablarini qondirish, bozorda o‘z mavqeiga ega bo‘lish uchun ishlab chiqaruvchidan quyidagilarni talab qiladi:

1. Yangi maxsulotlar.
2. Yangi texnologiyalar.
3. Yangi boshqaruv usullari.
4. Yangi vositalarni tadbiq qilish.

Bularni tadbiq etish esa, ishlab chiqaruvchi kompaniya va firmalar o‘rtasida raqobatni yuzaga keltiradigan taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi.

Sifat tushunchasini anglab etish va uni ishlab chiqarishda ta’minlab berish har bir tashabbuskor uchun dolzarb vazifadir.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda ko‘rinib turibdiki, rivojlanishning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan sifat orqali:

– hamma ko‘rinishdagi resurslar xarajati muvofiqlashtirish;
– ishlab chiqarishdagi sarf – xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini oshirish;
– maxsulot sifatiga qo‘yilgan barcha talablarini bajarish;
– iste’molchining kutayotgan talablarini ro‘yobga chiqarish;
– iste’molchi bilan ishlab chiqaruvchi o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarni ta’minlash;
– ishlab chiqarish boshqaruvini va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini doimo takomillashtirish;
– nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki iste’molsining ham talabi to‘la qondirish imkonini beradi.

Umuman olganda, ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatini yuqori darajada ushlab turish va ta’minlash kompleks yondashuvni toqazo qiladi. Faqatgina ilmiy asoslangan holda tizimli va kompleksli yondashuv, bir vaqtda va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan texnik, tashkiliy, iqtisodiy, xuquqiy va ijtimoiy tadbirlar yordamida tez va aniq holatda maxsulot sifatini mukammallashtirishga erishish mumkin.

Yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, sifatni ta’minlash asosan korxonani ishlab chiqarish jarayonlarida amalga oshiriladi deb hisoblanadi. Sababi har bir korxona sifatni ta’minlashdagi barcha harakatlarni ishlab chiqarish jarayoniga qadar tayyorlashga harakat qiladi. Ammo masalaning ikkinchi tomoni shundan iboratki, sifatni boshqarishda bir jarayonni sifat ta’minotiga bog‘lab, qolgan jarayonlarni yoddan chiqarish sifat siyosati samaradorligini pasaytiradi. Xulosa qilib aytganda, sifatni boshqarish tizimi Isikava ta’biri bilan aytganda, majmuaviy jarayon bo‘lib, oddiy xodimdan boshqaruvchigacha, mol yetkazib kelishdan to tayyor maxsulotni sotishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab olishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Peregudov V.L. va boshqalar. Maxsulot sifati va raqobatbardoshligini boshqarish.T.: “Moliya”, 2002.
2. Ребрин Ю.И. Управление качеством. Учебное пособие. Таганрог.: ТРГУ, 2004.
3. Kambarov J.X., Shakirova Yu.S. Sifat menejmentini takomillashtirish. Monografiya.T.:”Navro‘z”, 2018.

ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА В СТРОИТЕЛЬНОМ СЕКТОРЕ

Ёрматов Илмидин Тошматович к.э.н., доцент кафедры Менеджмент

Аннотация: *В статье рассматриваются перспективы внедрения систем менеджмента качества (СМК) в строительном секторе. СМК представляет собой комплексную систему управления, направленную на постоянное улучшение качества продукции или услуг с целью удовлетворения требований*

потребителей и других заинтересованных сторон. Анализируются преимущества внедрения СМК в строительстве, такие как повышение качества строительных работ, снижение рисков и издержек, повышение удовлетворенности заказчиков, улучшение имиджа и конкурентоспособности, оптимизация бизнес-процессов, а также вовлечение и мотивация персонала.

Ключевые слова: *система менеджмента качества, качество строительных работ, управление качеством, внедрение СМК, преимущества СМК, трудности внедрения СМК, лучшие практики СМК.*

В современных условиях жесткой конкуренции и высоких требований потребителей к качеству продукции и услуг, строительные компании вынуждены искать новые подходы и методы управления, которые позволят им эффективно конкурировать на рынке. Одним из таких подходов является внедрение систем менеджмента качества (СМК), основанных на международных стандартах. Система менеджмента качества – это комплексная система управления, охватывающая все аспекты деятельности организации и направленная на постоянное улучшение качества продукции или услуг с целью удовлетворения требований потребителей и других заинтересованных сторон.

Строительный сектор является одной из наиболее важных и динамично развивающихся отраслей экономики любой страны. Качество строительных работ и объектов недвижимости имеет огромное значение для обеспечения безопасности и комфорта жителей, а также для создания благоприятной среды для развития бизнеса и инвестиций. Внедрение СМК в строительстве позволяет компаниям повысить качество своих услуг, оптимизировать бизнес-процессы, снизить риски и издержки, а также укрепить свою репутацию и конкурентоспособность на рынке.

Преимущества внедрения СМК в строительстве

Внедрение системы менеджмента качества в строительной компании может принести множество преимуществ, среди которых:

1. Повышение качества строительных работ и объектов недвижимости. СМК предусматривает четкие процедуры и стандарты, регламентирующие все этапы строительного процесса, от проектирования и закупки материалов до строительства и сдачи объекта в эксплуатацию. Это позволяет обеспечить высокое качество выполняемых работ и соответствие объекта требованиям проекта и нормативным документам.

2. Снижение рисков и издержек. Внедрение СМК способствует выявлению и предупреждению потенциальных несоответствий и дефектов на ранних стадиях строительства, что позволяет избежать дополнительных затрат на исправление ошибок в будущем. Кроме того, СМК предусматривает процедуры управления рисками, что помогает своевременно выявлять и минимизировать возможные риски.

3. Повышение удовлетворенности заказчиков. Соблюдение требований СМК гарантирует, что строительная компания способна выполнять проекты в

соответствии с установленными требованиями и ожиданиями заказчиков. Это повышает уровень доверия и лояльности клиентов, а также создает предпосылки для долгосрочного сотрудничества.

4.Улучшение имиджа и конкурентоспособности. Наличие сертифицированной системы менеджмента качества является признаком высокого уровня организации и профессионализма строительной компании. Это повышает ее репутацию и привлекательность для потенциальных заказчиков, инвесторов и партнеров, что в свою очередь создает конкурентные преимущества на рынке.

5.Оптимизация бизнес-процессов. Внедрение СМК требует тщательного анализа и документирования всех бизнес-процессов в компании, что способствует их оптимизации, повышению эффективности и устранению избыточных или дублирующих операций.

6.Вовлечение и мотивация персонала. Успешное внедрение СМК предполагает активное участие и вовлечение всего персонала компании в процесс постоянного улучшения качества. Это способствует повышению мотивации сотрудников, развитию их компетенций и ответственности за результаты своей работы.

Трудности и барьеры при внедрении СМК в строительстве

Несмотря на очевидные преимущества внедрения СМК, строительные компании могут столкнуться с рядом трудностей и барьеров, среди которых:

1. Сопротивление изменениям со стороны персонала. Внедрение новой системы управления часто встречает сопротивление со стороны сотрудников, которые привыкли работать по старым схемам и не желают менять свои привычки и подходы. Это может привести к саботажу или формальному выполнению требований СМК.

2. Недостаток ресурсов и компетенций. Разработка и внедрение СМК требует значительных временных, финансовых и человеческих ресурсов, которых может не хватать у некоторых строительных компаний, особенно малых и средних.

3.Сложность адаптации СМК к специфике строительного сектора. Строительство является сложным и многогранным процессом, который может значительно различаться в зависимости от типа объекта, местных условий и нормативных требований. Это создает трудности при адаптации общих принципов СМК к конкретным особенностям строительных проектов.

4. Неэффективное внедрение и поддержание СМК. Даже если компания успешно внедрила систему менеджмента качества, ее эффективность может снижаться со временем из-за недостаточного контроля и постоянного улучшения процессов. Это может привести к формализму и превращению СМК в "бумажную" систему, не приносящую ожидаемых результатов.

5.Недостаток опыта и квалифицированных специалистов. Успешное внедрение и поддержание СМК требует специальных знаний и компетенций в

области менеджмента качества, которых может не хватать у существующего персонала строительных компаний.

Лучшие практики и рекомендации по внедрению СМК в строительстве

Для преодоления возможных трудностей и обеспечения успешного внедрения системы менеджмента качества в строительной компании рекомендуется следовать следующим лучшим практикам:

1. Обеспечить поддержку и приверженность руководства. Высшее руководство компании должно быть полностью вовлечено в процесс внедрения СМК и демонстрировать личный пример приверженности принципам менеджмента качества. Это создаст необходимую мотивацию и поддержку для всего персонала.

2. Провести обучение и повышение квалификации персонала. Необходимо обеспечить соответствующее обучение и подготовку сотрудников, вовлеченных во внедрение и поддержание СМК, в том числе по вопросам менеджмента качества, внутренним аудитам, статистическим методам и инструментам улучшения процессов.

3. Привлечь квалифицированных консультантов и экспертов. При отсутствии необходимого опыта и компетенций у собственного персонала, рекомендуется привлечь внешних консультантов и экспертов по внедрению систем менеджмента качества в строительстве.

4. Адаптировать СМК к специфике строительной отрасли. Необходимо тщательно проанализировать и учесть особенности строительных процессов, нормативные требования, местные условия и другие факторы при разработке и внедрении СМК в строительной компании.

5. Обеспечить вовлечение и мотивацию персонала. Важно донести до всех сотрудников важность и преимущества внедрения СМК, а также создать систему мотивации и поощрения за активное участие в процессах улучшения качества.

6. Осуществлять постоянный контроль и улучшение СМК. Система менеджмента качества должна быть динамичной и постоянно совершенствоваться на основе анализа данных, результатов внутренних аудитов, обратной связи от заказчиков и других факторов.

7. Использовать передовые методы и инструменты менеджмента качества. В дополнение к базовым требованиям стандартов серии ИСО 9000, рекомендуется применять современные методы и инструменты управления качеством, такие как "бережливое производство", Сих Сигма, анализ корневых причин, управление рисками и др.

8. Рассматривать СМК как часть общей системы управления компанией. Система менеджмента качества должна быть интегрирована с другими системами управления, такими как управление охраной труда и промышленной безопасностью, экологическим менеджментом и др.

Внедрение системы менеджмента качества в строительной компании является стратегически важным решением, которое может принести значительные

преимущества и обеспечить долгосрочный успех на рынке. Соблюдение принципов и требований СМК позволяет повысить качество строительных работ, снизить риски и издержки, улучшить удовлетворенность заказчиков, укрепить репутацию и конкурентоспособность компании.

Тем не менее, процесс внедрения СМК может быть сопряжен с рядом трудностей и барьеров, таких как сопротивление персонала изменениям, недостаток ресурсов и компетенций, сложность адаптации системы к специфике строительства, а также риск неэффективного внедрения и поддержания СМК.

Для преодоления этих трудностей и обеспечения успешного внедрения СМК в строительной компании необходимо следовать передовым практикам и рекомендациям. Ключевыми факторами успеха являются поддержка и приверженность руководства, обучение и вовлечение персонала, привлечение квалифицированных консультантов, адаптация системы к особенностям отрасли, постоянный контроль и улучшение процессов, использование современных методов и инструментов менеджмента качества, а также интеграция СМК с другими системами управления компанией.

Следует помнить, что управление качеством – это непрерывный процесс совершенствования, требующий постоянных усилий и приверженности всех сотрудников компании. Только при условии систематической работы по поддержанию и развитию СМК строительная компания сможет извлечь максимальную пользу от ее внедрения и обеспечить долгосрочный успех на рынке.

ЛИТЕРАТУРА

1. Сулаймонов С.М. "Управление качеством строительства". Ташкент: Издательство "Фан", 2007.
2. Ахмедов М.К. "Система менеджмента качества в строительной отрасли". Ташкент: Издательство "Иқтисодиёт", 2012.
3. Ходжаев Б.А. "Современные методы управления качеством в строительстве". Ташкент: Издательство "Меҳнат", 2015.
4. Журабоев А.Ж. "Внедрение системы менеджмента качества на строительных предприятиях". Ташкент: Издательство "Фан ва технология", 2018.
5. Ильин Н.И. "Управление проектами". СПб.: Два Три, 2019.
6. Алферов В.П. "Управление качеством в строительстве". М.: АСВ, 2015.
7. Лапина Л.Г. "Системы менеджмента качества в строительстве". М.: Инфра-Инженерия, 2014.

SANOAT KORXONALARIDA SIFAT BOSHARUVINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARI

Shakirova Yu.S., dotsent
Kaxxarova M.A.
63-22 M guruhi talabasi
Farg‘ona politexnika institute

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonani bozorda yashab qolishi uchun boshqaruv tizimini zamonaviylashtirish va maxsulot sifatini iste’mol talabiga moslashtirishni toqazo etadi. Bozorda raqobat kurashi narxdan ko‘ra sifat tomonga burilib borayotgan bu davrda, korxoalarda maxsulot sifatini boshqarish va nazorat qilishni faollashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda xalqaro bozorda raqobatbardosh maxsulot ishlab chiqarish uchun xorij tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunga qadar dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlari, Yevropa, Yaponiya, AQSH kabi davlatlarning yetakchi firmalari tomonidan sifatni boshqarish tizimlari ishlab chiqilgan.

В целях обеспечения эффективной деятельности строительных испытательных лабораторий необходимо постоянное оказание содействия в совершенствовании материально-технической базы.

Представление льготных перференций для вновь ввозимых в Республику современных измерительных приборов, при прохождении ими таможенного контроля. Установление связей и налаживание обмена информацией между государственными и негосударственными испытательными лабораториями и органами по сертификации;

Разработка мероприятий по подготовке квалифицированных специалистов строительных испытательных лабораторий, организации постоянно действующих курсов по повышению квалификации на основе современных достижений науки и техники строительной сферы.

Создание упрощенной системы и условий аккредитации испытательных лабораторий с учетом региональных и отраслевых условий.

Совершенствование нормативно-правовых и нормативно-технических документов стандартизации, оценки соответствия и технического регулирования Узбекистан Республика по произвродству и оценки строительных материалов с учетом опыта работы промышленно развитых стран.

Соответствие качественных показателий и надежность строиящиеся современных зданий и сооружений зависит не только от деятельности проектировщиков, архитекторов, дезайнеров и других профессий сферы строительства, но и зависит от предприятий - производителей строительных материалов.

Анализ деятельности испытательных строительных лабораторий показывает, что основными проблемами лабораторий считается недостаточный уровень инфраструктуры лабораторий.

Методы испытаний применяемых в испытательных строительных лабораторий является морально устаревшими, средства измерений и испытаний старые, не польностью отвечает требованиям действующих современных стандартов.

Деятельность испытательных строительных лабораторий это сложный и многогранный процесс, в нем участвует:

-персонал, инфраструктура, процессы, технологии, услуги, средства измерения, нормативная документация. Сложность системы заключается, в том что эти элементы должны работать согласно требованиям норм и правил установленых в документациях и требует координации этих действий.

Основной целью системы стандартизации и метрологического обеспечения испытательных строительных лабораторий должно гарантировать своевременное представление результатов качественного анализа и исследований с обеспечением их точности и достоверности.

Для того, чтобы Стандарты качества стали нормой, для обеспечение требований стандарта, увеличения и создания условий по продвижению экспорта строительных материалов необходимо организации тренинга для производителей и национальных экспертов, консультантов, с привлечением опытных специалистов из-за рубежа, обладающего колоссальным опытом работы в сфере производства.

Целесообразно и необходимо организации обмен опытом и координации действий как местных, так и зарубежных строительных испытательных лабораторий по оценки соответствия строительных материалов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ – LIST OF USED LITERATURE

1. Закон РУз № ЗРУ-213 "О техническом регулировании"

2.Указ Президента Республики Узбекистан №УП-6240 от 02.06.2021г. "О кардинальном совершенствовании государственного управления в области технического регулирования"

3. O`zDSt ISO 17025: 2019 “Синов ва калибрлаш лабораториялари компетентлилигига қўйиладиган умумий талаблар”.

4.O`zDSt 3410-2019 “Синов лабараторяларининг техник жиҳатдан малакалилига қўйилган умумий талаблар”.

5. ГОСТ 15467—79. Управление качеством продукции. Основные понятия. Терминыи определения.

6. ISO 9001-2015. Системы менеджмента качества. Требования.

7. ГОСТ4.200-88.Система показателей качества продукции. Строительство. Основные положения.

8. ГОСТ 24211-2008 Добавки для бетонов и строительных растворов. Общие технические условия.

9. ГОСТ 12.1.007 - 76 ССБТ. Вредные вещества. Классификация и общие требования безопасности. - М: Изд-во стандартов, 1997.- 4 с.

10.Крылова А.Н. Оновы метрологии, стандартизации и сертификации. М.: Аудит, 1998.

11. Муминов Н.Ш., Қувондиқов А.Л.”Испытание и контроль качества строительных материалов” “Инновацион қурилиш материаллари ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани. Тошкент, 25декабрь 2020 йил. 70-76 бетлар.

12. Муминов Н.Ш., Қувондиқов А.Л. “Классификация, стандартизация и техническое регулирования в области строительных материалов”. “Инновацион қурилиш материаллари ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий илмий-амалий онлайн анжумани. Тошкент, 25декабрь 2020 йил. 56-64 бетлар.

13. Муминов Н.Ш., Қувондиқов А.Л., Мустафаев О.Ш. “Современные тенденции в научно-инновационном развитии промышленности строительных материалов Узбекистана”. Научно-практический журнал "Экономика и социум" №1(68). 2020. Россия. 45-53 стр.

14. Муминов Н.Ш. “Испытание и контроль качества строительных материалов”. ОАК тасарруфидаги “Архитектура Қурилиш Дизайн” илмий-амалий журнали 4-сон, 2020 йил. 42-49 бетлар.

15.Хакимов О.Ш., Мустапов А.А., Муминов Н.Ш. “Исследование современных строи-тельных материалов”. Scientific progress. Volume 2 issue2 2021. ISSN: 2181-1601. 5стр.

16. Муминов Н.Ш., Жураев М.Б., Хамидов Ж.А. “Система технического регулирования в строительстве”. Материалы доклада международной научно-практической конференции «Проблемы государственной системы технического регулирования национальной инфраструктуры качества в преодолении технических барьеров в международной торговле и ее актуальные научные и практические вопросы».14 октября 2021 года ТГТУ им. И.Каримова. 55-62 стр.

17. Муминов Н.Ш., Хамидов Ж.А. ОАК тасарруфидаги «A.C.D. Arxitektura, qurilish va dizayn. Архитектура, строительства и дизайн» илмий-амалий журнали. Tashken, TAQI №2 2022. 152-159 бетлар.

18. Муминов Н.Ш., Шамсиддинов М.Н., М.Б.Жураев «Исследование свойства и методов испытания металлов». ОАК тасарруфидаги «A.C.D. Arxitektura, qurilish va dizayn. Архитектура, строительства и дизайн» илмий-амалий журнали. Tashken, TAQI №3 2022. 147-151 бетлар

19. Муминов Н.Ш., Шамсиддинов М.Н., М.Б.Жураев «Анализ методов испытаний качества строительных материалов». Ўзбекистон Республикаси, Тошкент шаҳри, ОАК тассаруфидаги «Архитектура, қурилиш ва дизайн» илмий-амалий журнали. 2022 йил. №2 сонида 9 бет.

20. Муминов Н.Ш., Хамидов Ж.А. “Проблемы разработки и внедрения нормативных документов по стандартизации в строительстве”. Доклад в международной научно-практической конференции “Состояние и тенденции развития стандартизации и технического регулирования в мире”.13-14 октября 2022г. ТГТУ им.И.Каримова. 17-26 стр.

21. Муминов Н.Ш., Ж.А.Хамидов. «Исследование контроля качества материалов и измерений в строительстве». Научно-практический журнал ВАК РУз. «A.C.D. Архитектура, строительства и дизайн». Ташкент, ТАСИ. №2 2022. 152-159 стр.

22. Юдина Л.В. Испытание и исследование строительных материалов. Учеб. пособие. – Ижевск: Изд-во ИжГТУ, 2005. – 236 с.: ил.

TO‘QIMCHILIK KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENT TIZIMINI JORIY QILISHDA XALQARO STANDARTLARNI O‘RNI

[1] N.Sh.Mo‘minov, [2]X.U. Vasiyev,
[1] Toshkent Davlat agrar universiteti, t.f.d., professor
E-mail: muminov.najmiddin@mail.ru
[2]Andijon mashinasozlik instituti, tayanch doktoranti
E-mail:auhf@mail.ru

To‘qimachilik sanoatida sifat boshqaruv tizimini shakllantirish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va iste’molchilarga yetkazib berishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu tizim aniq sifat maqsadlarini belgilash, sifatni nazorat qilishning samarali choralarini qabul qilish va doimiy takomillashtirish tashabbuslarini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Bugungi o‘zgaruvchan talab va ehtiyoj, raqobat muhiti to‘qimachilik korxonalarida xalqaro standartlarni qo‘llashni taqozo etmoqda. Xalqaro standartlarni qo‘llashda to‘qimachilik korxonalari tomonidan sifat menejmentining zamonaviy

usullaridan foydalanish, xomashyodan boshlab tayyor mahsulotgacha bo‘lgan har bir bosqichda sifatni nazorat qilish mexanizmlarini qo‘llashni talab etadi.

O‘rganishlarimiz davomida bir qator to‘qimachilik korxonalaridagi sifat boshqaruv tizimini joriy qilinishi xolati, bu boradagi yutuq va kamchiliklari taxlil qilindi.

Xususan, “Khanteks”, “Nil granit”, “Quva tekstil” to‘qimachilik korxonalarida sifat tizimini joriy qilish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishganligin kuzatish mumkin bo‘ldi. Lekin, shunday bo‘lsada, tizimni takomillashtirish bo‘yicha yana bir qator amaliy ishlarni qilish zarurligi kuzatildi.

Aksariyat ishlab chiqarish korxonalarida bo‘lgani singari, to‘qimachilik korxonalari ham asosan, ISO 9001 xalqaro standarlari orqali sifat menejmenti tizimini joriy qilmoqda. Bizning ilmiy tadqiqotimizda tizimni takomillashtirish maqsadida bir qator xorjiy davlatlarda joriy qilingan Amfori BSCI, GOTS va Sedex kabi xalqaro standartlar talablarini ham tizim tarkibiga kiritib takomillashtirdik (1-jadval).


1-jadval

To‘qimachilik korxonasiga joriy qilingan sifat tizimi tarkibiga kiritilgan xalqaro standartlarning qiyosiy taxlili

№	ISO 9001	Amfori BSCI	GOTS	Sedex
	Sifat menejment tizimi. Talablar	Ijtimoiy boshqaruv tizimi	Global organik to‘qimachilik standarti	Xamkorlar bilan samarali aloqa tizimi
1	Tashkilot muhiti	Ijtimoiy boshqaruv tizimi	GOTS ta’minot zanjiri, kuzatuvchanlik va sifat kafolati	Umumjahon huquqlar, shu jumladan boshqaruv huquqlari BMT tamoyillari
2	Yetakchilik	Jarayonlarda xodimlarning ishtiroki va himoyasi	Materiallarga qo‘yiladigan talablar	Mehnatga oid normativ xujjatlar va mehnat Kodeksni amalga oshirish
3	Rejalashtirish	Jamoaviy kelishuvlar orqali ishchilar xuquqini ta’minlash	Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlari	Adolatli mehnat
4	Ta’minlash vositalari	Har qanday kamsitish va zo‘ravonlikni ta’qiqlash	Mahsulotning texnik sifat mezonlari	Jamoatchilik tashkilotlarga erkin a’zolik


5	Mahsulotlar va xizmatlarning hayotiy tsikli bosqichlaridagi faoliyat	Adolatli ish xaqqi	Mahsulotlar uchun maxsus talablar	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik
6	Faoliyat natijalarini baholash	Munosib ish vaqti		Bolalar mehnatini ta’qiqlash va yosh ishchilarni ximoya qilish
7	Takomillashtirish	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik		Adolatli ish haqi va imtiyozlar
8		Bolalar mehnatini ta’qiqlash		Adolatli ish vaqti
9		Yosh ishchilar uchun maxsus himoya vositalarini ta’minlash		Xodimlarni o‘z kasbi bo‘yicha ishga yo‘naltirish
10		Majburiy mehnatni ta’qiqlash		Atrof-muhit muhofaza qilish
11		Atrof muhitni muxofaza qilish		Biznes etikasi
12		Biznesning axloqiy qoidalariga rioya qilish		

Tadqiqotlarimiz davomida ISO 9001:2015, Amfori BSCI, Gots, Sedex, standart kabi xalqaro standartlar talablari asosida to‘qimachilik korxonalari uchun “To‘qimachilik korxonasida sifatni boshqarish tizimi” tayyorlandi. Taklif qilinayotgan tizim 5 ta tamoyil, 49 ta talablardan tashkil topgan.



1-rasm. To‘qimachilik korxonasida xalqaro standartlar talablari asosidagi takomillashtirilgan sifat boshqaruv tizimi mexanizmlari

Tadqiqotlarimiz davomida takomillashtirilgan “To‘qimachilik korxonalarida sifatni boshqarish” тизимини “Nil granit” to‘qimachilik korxonasiga tadbiq etish strategiyasi ishlab chiqildi. Quyidagi 2-rasmda uning bosqichlari ko‘rsatib o‘tilgan.



2-rasm. “To‘qimachilik korxonalarida sifatni boshqarish” tizimini “Nil granit” to‘qimachilik korxonasiga tadbiq etish strategiyasi

2-jadval

“To‘qimachilik korxonalarida sifatni boshqarish” tizimini “Nil granit” to‘qimachilik korxonasida bajarilish darajasi

Tamoyillar	Xodimlar faoliyati	Standart-lashtirish тизими	Sifat siyosati	Mahsulot sifati va xavfsizligini ta’minlash	Sifatni boshqarish tizimini Doimiy takomil-lashtirish	Umumiy
Talablar soni	9	4	9	6	8	36
22.08.2023	4	2	5	3	4	18
	44%	**50%**	**56%**	**50%**	**50%**	**50%**
22.11.2023	**7**	**3**	**6**	**5**	**7**	**28**
	77%	**75%**	**66%**	**83%**	**87%**	**78%**

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, xalqaro standartlar talablari asosida taklif qilinayotgan takomillashtirilgan “To‘qimachilik korxonalarida sifatni

boshqarish” tizimini korxonaga joriy qilinganda talablar dastlab 50 foizga bajarilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich kechinchalik 28 %ga ko‘tarilib, 78 foizni tashkil qilgan.

Taklif etilayotgan “To‘qimachilik korxonalarida sifatni boshqarish” tizimini korxonaga qo‘llash orqali uning samaradorligini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, o‘rganilgan 36 ta talablardan 8 tasi turli xil sabablar bilan bajarilmagan. Quyidagi jadvalda bajarilmay qolgan 8 ta talabning sabablari keltirib o‘tilgan.

3-jadval

TSBTni bajarilmay qolgan talablari va uning sabablari

№	Talab nomi	Bajarilmaslik sababi
1.	Samarali muloqot, komunikatsiya tizimi, axborot texnologiyalarini joriy qilish, xodimlarni to‘qimachilik korxonasidagi rolini oshirish.	Axborot va yangiliklar doskasi mavjud lekin, samarali foydalanilmayapti, ishchilarga korxonada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar bo‘yicha axborotnomalar vizuallashtirilmagan.
2.	Xodimlar zaxirasini shakllantirish.	Xodimlar zaxirasi to‘liq shakllantirilmagan.
3.	To‘qimachilik korxonasidagi vizual boshqaruv qo‘llanmasi.	Korxonada vizual belgilar o‘rnatilgan lekin, chiziqlar va manzillarga amal qilinmayapti.
4.	Nomuvofiq mahsulotlarni bosh-qarish. To‘qimachilik mahsulotlarini identifikatsiya qilinishi.	Sifatni ta’minlash bo‘limi ro‘yxatga olingan muammolaraga ishlab chiqarish tsexi tomonidan chora-tadbir yozilmagan.
5.	Sifatga yo‘naltirilgan tekshiruvlarni o‘tkazish.	Tekshiruvlar o‘tkazilgan bo‘lsada, ba’zi tsexlarda masalan, arqoqli to‘quv va bo‘yoqlash tsexlarida to‘liq o‘tkazilmagan.
6.	Jarayonlar nazorati rejasi.	Jarayonlar nazorat rejasi faqat tikuv tsexida ishlab chiqilmagan.
7.	O‘zgarishlar nazoratini o‘rnatish.	O‘zgarishlar nazorati to‘liq o‘rnatilmagan.
8.	Innovatsion g‘oyalarni to‘qimachilik amaliyotga joriy qilish.	Innovatsion g‘oyalar mavjud bo‘lsada, uni amaliyotga tadbiq etilmagan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, sifat menjmenti tarkibiga bir qator xalqaro standartlar talablarini ham kiritish jarayonni yaxshilashga va uni samaradorligini oshishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.X.U.Vasiev, N.Sh.Mo‘minov. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot sifatini baholash va boshqarish // Monografiya. — And.MI, 2022. – 82-84 b.

2.J.X.Kambarov, Yu.S. Shokirova. Sifat menejmentini takomillashtirish:Monografiya. T.: “Navro‘z”, 2018. – 83 b.
3. Ismatullaev P.R., Toshpo‘latov M.M. Mahsulot sifatini boshqarish: O‘quv qo‘llanma // – T.: 2014. – 88 b.
4.Vasiyev X.U., Mo‘minov N.Sh. “To‘qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy qilishning afzalliklari” // “Sanoat va mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifat ko‘rsatkichlarini taminlashda innovatsion texnologiyalar” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to‘plami. Namangan: NamMQI, 2023 yil 24 noyabr.
5.O‘zDSt ISO 9001:2015. Sifatni boshqarish tizimi. Talablar.

“MAHALLA UYUSHMASINING XAVFSIZ MAHALLA TIZIMIDAGI O`RNI VA AHAMIYATI”

Raximov Ilxomjon Azimjonovich Farg‘ona politexnika instituti
“Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasi” assistenti +998939772211

Annotatsiya:

Maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekistonda yuz berayotgan o‘z-o‘zini boshqarish organlari borasidagi islohotlar va ijobiy o‘zgarishlar hayotning barcha sohalariga jadal kirib borayotganligi, “Xavfsiz mahalla” tizimining o‘z–o‘zini boshqarish tuzilmasidagi ahamiyati, “Xavfsiz mahalla” tizimini amalga oshirishda “mahallabay” ishlash tizimining afzalliklari, mahallalarda jinoyatchilikni oldini olish borasidagi “Xavfsiz mahalla” konsepsiyasini o‘rganishni maqsad qilib olinadi.

Tadqiqot metodlari olib borishda muammoga doir siyosiy, sosiologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari Mamlakatimizda “Xavfsiz mahalla” tizimining mahallalarda joriy qilinishi yuzasidan takliflar berilgan.

“Роль и значение соседской ассоциации в системе безопасного соседства”

Аннотация:

В статье реформы и положительные изменения в органах самоуправления, происходящие в Узбекистане в последние годы, стремительно проникают во все сферы жизни, подчеркивается значение системы «Безопасное соседство» в структуре самоуправления», «Безопасное соседство» При внедрении системы преимущества системы работы «Соседство» направлены на изучение концепции «Безопасное соседство» с целью предотвращения преступности в кварталах.

В методах исследования использованы методы сравнительного и критического изучения и анализа политической, социологической, педагогической литературы по проблеме.

Результаты исследования. Высказаны предложения по внедрению системы «Безопасное соседство» в микрорайонах нашей страны.

“The role and importance of the neighborhood association in the safe neighborhood system”

Abstract:

The article conducting reforms and positive changes in Uzbekistan in recyent years, and the importancye of the Safe Mahalla System’s Self-Management "The advantages of the Mahallabay Working System in the implementation of the system is aimed at studying the concyept of" Safe Mahalla "on crime prevention in the neighborhoods.

Methods of comparative-critical study, analysis of political, pedagogical literature in research methods wyere used.

The results of the study are given proposals in our country to introducye the introduction of the Safe Mahalla system.

Kalit so‘zlar: Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etishning 2020 — 2024 yillarga mo‘ljallangan konsepsiya, “mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi–mahalla”,“Mening mahallamda jinoyat sodir bo‘lmasligi kerak”, “mahallabay”, Millatlararo totuvlik, Mahalla buydjeti.

Ключевые слова: Министерство по делам микрорайона и поддержки сообществ, концепция реализации на 2020-2024 годы принципа «процветающее и безопасное соседство», «махалла – сектор – общественная приемная – соседство», «Преступность в моем районе» «не должна», «махаллабай», межнациональное согласие, районный бюджет.

Keywords: On the organization of the activitiyes of the Ministry of Support of Mahall and the older generation, the concyept of implementation of the principle of a prosperous and safe proximity to 2020-2024, the Mahalla-the sector-the folk techniquye-the Mahalla, “crime should not occur in my mahalla”, “mahallabai”, Interethnic harmony, neighborhood procurement.

Kirish

Mahalla o‘zbek halqining ijtimoiy hayotida azaldan jamoa bo‘lib yashashning eng oliy shakli bo‘lib kelgan. Birgina tarixiy ilmiy manba bo‘lgan “Avesto” misolida katta patriarxal oilalarning mavjudligi va uning atrofida kishilarning birlashuvi mahallaning qanchalik muhim ahamiyatga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Mahalliy jamoalarni, mahalliy darajada o‘zini o‘zi boshqarishni tashkil etishning bu shakli asrlar osha behisob sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tib yashab kelmoqda. Bugungi kunda ham u tarix mulkiga aylanib qolayotgani yo‘q. Balki borgan sari takomillashib mahalliy xalqlar hayotini tashkil etishning betakror namunasi sifatida dunyo jamoatchiligining tobora qiziqishini uyg‘otmoqda. Chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan, xalqning kundalik hayotini tashkil etib va yo‘lga solib turgan mahalla demokratik poydevorga asoslangan muntazam axloq-odob tizimini keltirib chiqaradi. Bular davrlar sinoviga dosh bergan o‘zaro yordam, keksalarga hurmat, hamma jamoa a’zolarining tengligidir.

Adabiyotlar tahlili

Tadqiqotni olib borishda muammoga doir tarixiy, siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, tahlil etish, tarixiylik va mantiqiylik usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va Natijalar

Shuni alohida qayd etish kerakki, garchi, mahalla mamlakatimizda ko‘p asrlardan buyon mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyingina u munosib ijtimoiy-xuquqiy maqomga ega bo‘ldi. Mahallalarning qayta shakllantirilganligi aholi keng qatlamlarini davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga faol jalb etishga, siyosiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim xuquqiy demokratik qadriyat hisoblanadi[1,50].

Mamlakatimiz mustaqil rivojlanishining dastlabki kunlaridanoq fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyatimiz hayotidagi roli va ahamiyatini oshirishga katta e’tibor qaratildi. 1992 yilda “Mahalla” Respublika xayriya jamg‘armasi tashkil etilganligi[2] 1993 yilda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”[3] gi qonun qabul qilinganligining o‘zi ham mahallalarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotganligiga yorqin dalil bo‘la oladi.

Nazarimizda, Sohibqiron Amir Temurning “Kuch – adolatdadir” degan mashhur iborasi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining mazmunini juda aniq qilib belgilab bergani shundaki, mahalliy turmush masalalarini adolatli hal etmay turib va har bir kishiga insonparvarlik ko‘rsatmay turib, aholining madadiga umid qilish, oldinda turgan vazifalarni samarali hal etib bo‘lmaydi. Yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, xalqimizning xotirjam mehnat qilishini ta’minlashda mahalla ahlining xizmati katta.

Shuningdek, Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan turli fuqarolik jamiyati tuzilmalariga nisbatan xalqaro miqyosdagi sub’yektlarning munosabati hamisha ham xayrixoh emas edi. Jumladan, O‘zbekistonning ko‘pgina an’anaviy ijtimoiy boshqaruv tuzilmalariga o‘z davrida sovet hukumati, davlatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki davrlarida esa inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha AQSH nodavlat xalqaro tashkiloti “Xuyuman Rayts Votch” qarshi chiqdi. Mazkur tashkilot faoliyatida mamalakatimizdagi an’anaviy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimining milliy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini qisqatirish, uning vakolatlarini cheklash, undan tashqari, O‘zbekiston qonunlari bilan faoliyati cheklab qo‘yilgan diniy ekstremistik guruhlar a’zolarini himoya qilish orqali qo‘llab-quvvatlash singari jihatlar kuzatildi[4].

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, oxirgi yillarda Respublikamizda mahallaning yanada rivojlanishiga uning ravnaq topishiga gullab-yashnashi uchun e’tibor yanada kuchaytirilmoqda. Aynan mahallalarda shakllangan milliy, o‘zimizgagina xos bo‘lgan demokratiyani izchil targ‘ib qilish xalqimizning eng yaxshi udum va an’analarini keng ommalashtirish, yoshlarni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalashda mahallaning rolini o‘rganish, tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlarda mahallaning ko‘p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma’lumotlar ko‘plab uchraydi. Masalan, mahalla» atamasi ilk bor o‘rta asr mualliflaridan biri Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida VIII asr

boshlaridagi Buxoroning ichki kvartallarini belgilash uchun qo‘llanilgan [5,52]. Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-Abror” asarida mahallani “mahalla shahar ichidagi shaharcha”dir deb ta’riflaydi. Shuningdek, bobomiz Amir Temur barpo etgan markazlashgan davlatda ham temirchilar, qurolsozlar, tikuvchilar, charmdo‘zlar, kulollar, quruvchilar va boshqa hunarmandlar bir joyda mehnat qilib hayot kechirganlar. Bu masalada “Temur Tuzuklari”da yozilishicha, buyuk bobomiz Amir Temur o‘zi barpo etgan bepoyon va qudratli saltanatni boshqarishda mahalla mutasaddi shaxslariga tayangan. Ular bilan doimiy muloqot, mashvaratda va maslahatda bo‘lgan, kezi kelganda ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlagan va fikrlariga tayanib ish tutgan. Asarda, jumladan, shunday deyiladi: “Tajribamdan ma’lum bo‘ldiki, kengash ikki turli bo‘lur. Biri-til uchida aytilgani, ikkinchisi- yurakdan chiqqani. Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa jon qulog‘im bilan eshitardim va dilimga joylardim”[6, 22].

Mustamlakachilar mahalliy boshqaruv idoralariga mas’ul shaxslar tanlanishida nihoyat xushyor ish tutib, basharti ilg‘or, taraqqiyparvar va millatparvar kishilar volost, hatto mahalla boshqaruvchisi, oqsoqol, yuzboshi, ellikboshi yoki qozi sifatida saylanib qolsa, ularni lavozimga tasdiqlamaslik uchun turli hiyla-nayranglar ishlatganlar. “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi nizom” deb atalgan hujjat esa ularga bu borada keng faoliyat maydonini yaratib bergan. Chorizmning ushbu ma’muriy siyosatidan asosiy maqsadi, o‘lkaning iqtisodiy jihatdan qonini so‘rish, ma’naviy-ruhiy maqsadi piravard natijada, O‘rta Osiyo xalqlarini ruslashtirish bo‘lgan. Rossiya imperiyasi o‘lkamizda o‘zbek davlatchiligining barcha ko‘rinishlarini tag-tugi bilan yo‘qotish va ruscha idora uslubini qat’iy joriy etish bo‘yicha izchil ish olib borganligini to‘la tasdiqlaydi. Lekin shunday sharoitda ham xalqimiz o‘z irodasi bilan tanilgan mahalla boshqaruvi sinovdan mardonavor o‘tgan. Samarqand, Toshkent, Andijon, Qo‘qon va boshqa yirik shaharlar dahalarga, ular esa o‘z navbatida mahallalarga bo‘linib, ularga oqsoqollar boshchilik qilgan.

XX asrning boshlaridayoq mahallalar daxa boshliqlari-mingboshilar saylaydigan yuzboshi (oqsoqollar) tomonidan boshqarilgan. Yuzboshi va uning yordamchilari mahalladagi barcha jamoat ishlari va marosimlarni boshqarganlar, shuningdek fuqarolarning shahar yig‘inlari va shahar muassasalarida mahalla manfaatlarini himoya qilganlar.

Mahallalarning asosiy vazifalari: marosimlarni birgalikda o‘tkazish, o‘z hududini batartib saqlash va obodonlashtirish, yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta’minlash, barcha an’anaviy me’yorlarning bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish, urf-odatlarga roya qilish va ularni buzgan, jamoat majburiyatlaridan bo‘yin tovlaganlarni jazolashdan iborat bo‘lgan. Mahalla rahbariyati ariq-xovuzlarni tozalash, ko‘chalar, yo‘llar qurish va mahalla obodonchiligi bilan bog‘liq boshqa jamoat ishlarini uyushtirganlar. Bu ishlarning barchasi aksariyat hollarda birgalikda hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan.

Afsuski, Sovet hukumati mahallaga o‘z umrini yashab bo‘lgan o‘tmish sarqiti sifatida qaradi. Shundan kelib chiqib, u an’anaviy milliy boshqaruvni bekor qilish yo‘li

bilan bu yerda sanoatlashgan “ilg‘or” jamiyatni qaror toptirish siyosatini joriy etishga kirishdi. 20-yillar boshlaridan sovet hukumati mahallalar vazifasini cheklash, o‘ziga bo‘ysundirishga intildi, bu hol mahalla faoliyatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Biroq mahalla o‘zining yashovchanligini namoyon etib, an’anaviy hayot va aloqa tarziga qarshi har qanday xujumlarga va ularni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlarga dosh berdi. U ilgarigi urf-odat va rasm-rusumlarni saqlab qolishi vazifasini a’lo darajada amalga oshirdi.

O‘zbeklarning milliy qadriyatlari, ijtimoiy tuzilmalariga qarshi chiqqan sovet hokimiyati mahalla bilan olishishda yon berishga majbur bo‘ldi. Bu kurashda ushbu totalitar tuzumning necha ming yillardan beri o‘zbek halqining an’anaviy yashash tarzi bo‘lgan mahallaga tishi o‘tmadi. 1932 yilda "O‘zbekiston shaharlaridagi mahalla qo‘mitalari to‘g‘risida Nizom" chiqdi. 1938 yilga kelib mahallaga hujum umuman to‘xtatildi. Ular yangi sosialistik tuzilmalar bilan birga mavjud bo‘lishi, bu tuzilmalarni to‘ldirishi kerak, degan tamoyil to‘liq e’tirof etildi. Biroq shunga qaramasdan, 1961 yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan chiqarilgan “Respublika shahar, qishloq, posyolkalaridagi va ovullardagi mahalla qo‘mitalari to‘g‘risidagi” nizomda ham Mahallaga yuridik shaxs maqomi berilmagan edi. “Mahalla qo‘mitalari biron-bir moliyaviy xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas” edi.

Bugun o‘zining mustaqil boshqaruv faoliyatiga ega bo‘lib borayotgan fuqarolar yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari sifatida fuqarolik jamiyatini shakllantirishda juda muhim institut bo‘lib, mustaqillik yillarida ushbu institut faoliyatini yanada rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Jumladan; ta’bir joiz bo‘lsa, “Yangi O‘zbekiston-yangi mahalla” iborasining paydo bo‘lganligini o‘zi ham bu sohada tub o‘zgarishlar yuz berganligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 3 fevralda yangi tahrirda qabul qilingan PF-4944-son «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018 yil 27 iyundagi PF–5467–son “Obod mahalla” dasturi to‘g‘risida”gi, 2018 yil 15 oktyabrda imzolangan “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonun, 2020 yil 18 fevraldagi PF–5938-sonli “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-sonli “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab–quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish etish to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 23 fevraldagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida faol ishtirok etib kelayotgan fuqarolarni rag‘batlantirish tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi 99-son qarori, 2021 yil18 iyundagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi VM-380-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-81-son Farmoni hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda mahalla instituti faoliyatini yanada rivojlantirishga oid yangi bosqichni boshlab berdi. Shuningdek, Prezidentimizning kelgusida “Nuroniy” va “Mahalla” jamg‘armalarining xodimlar shtatlarini ko‘paytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jamiyatimiz hayotida ularning o‘rni va mavqeini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘riladi”, deb ta’kidlagani muhim bunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan; Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash Tuman (shaharlar) bo‘limlari o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

-davlat organlari va tashkilotlaridan statistik, tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma’lumotlarni so‘rash va olish;

-davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarning hududiy bo‘linmalari rahbarlari hamda mutaxassislarini jalb qilish, ishchi guruhlar tuzish;

-davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo‘linmalari rahbarlariga mahalla, nuroniylar va keksalar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

-mahalla, nuroniylar va keksalar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ko‘zlab sudlarga ariza (shikoyat) va da’volarni kiritish;

-mahallalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda nuroniylar va keksalarga har tomonlama yordam ko‘rsatishga doir tashabbuslar bilan chiqish hamda takliflar kiritish;

mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash sohalarida alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarni davlat mukofotlariga taqdim etish uchun takliflar kiritish[7].

Xulosa

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini tadqiq etish, holisona baho berish bilan bog‘liq;

Respublikamizda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining demokratik mezonlarini, fuqarolik jamiyati qurilishida tutgan o‘rni va ahamiyatini keng o‘rganish, tadqiq qilish, bu sohada amalga oshirilgan ishlarni yanada jadallashtirish maqsadga muvofiq;

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali ularni o‘zini o‘zi boshqarish organlaridagi siyosiy faolligini oshirish;

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rnini va rolini yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilgan xulosa, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

Bu borada esa quyidagi ishlarni amalga oshirish orqali ushbu institut faoliyatini yanada faollashtirish kerak;

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqarolar yig‘inlarida faoliyat olib borayotgan mutasaddi rahbarlarning avvalo huquqiy va siyosiy bilimini oshirish;

Fuqarolar yig‘inlarining raislari (oqsoqollar) va ularning maslahatchilarining mahalliy hokimiyat organlari bilan teng huquqlilik asosida faoliyat olib borishlarining qonuniy asoslari ishlab chiqilganligini ularga tushintirib borish;

Fuqaro yig‘inlari mahallalarda o‘z vazifalarini olib borayotgan rais va maslahatchilari uchun yilda ikki marotaba seminar-trening tashkil qilinib, unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari, Oliy ta’limning yetakchi professor – o‘qituvchilarini ham jalb etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Odilqoriyev X.T. Konstitusiya va fuqarolik jamiyati. Toshkent. Sharq, 2002. B.50.
2. Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // Xalq so‘zi. 1992. 2 sentyabr.
3. ¨Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi, 1999№5, 110-modda.
4. Latipov Ch. Kim qonunni buzmoqda… mahallami, Myuman Rays Votchmi // Xalq so‘zi. 2003. 1 oktyabr.
5. Abu Bakr Muxammad Ibn Ja’far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T., 1993. – B. 52.
6. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi. 2018 –B. 22.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash azirligi faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 01.06.2022 yildagi 292-son Toshkent.

НАХОЖДЕНИЕ ФУНКЦИИ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЕРОЯТ-НОСТИ НЕСУШЕЙ СПОСОБНОСТИ КОНСТРУКЦИЙ

Доцент, Хусан Матгазиев
Студент: Группа 27-НГ-21, Ганиева Умида
Ташкентский архитектурно-строительный университет
Tel: (+99890) 565-21-54, email: matgoziyevxusan@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-8483-018X

Аннотация. К коэффициенты сочетаний в значительной мере определяют величины нагрузок на конструкции, а следовательно, на ее параметры, материалоемкость и стоимость с одной стороны, с другой стороны, правильность назначения этих коэффициентов обеспечивает надежность конструкций.

Недостаточность статистических данных о нагрузках и несовершенство теоретических моделей нагрузок вынуждает проектировщиков создавать

конструкции с определенным запасом, компенсирующим эти недостатки, что ведет к перерасходу материалов.

Ключевые слова: Балка, опорные моменты, нагрузка, момент инерции, рекуррентное соотношение, условная вероятность.

Вводятся выражения для вероятности безотказной работы конструкции Область безотказной работы описывается системой линейных неравенств относительно нагрузок.

Законы распределения нагрузок считаются экспоненциальными.

Данная работа является основой для обобщения на другие законы распределения.

Рассмотрим линейно-деформируемую стержневую систему, находящуюся под действием нагрузок $q_1, q_2, \dots q_n$. Напряжения в m опасных точках $\sigma_1, \sigma_2, \dots, \sigma_m$ равны

$$\sigma_i = \sum_{i=1}^{m} a_{i,j} q_j, \quad (1)$$

и должны быть ограничены некоторой величиной σ. Область допустимых состояний (1) описывается системой неравенств:

$$\begin{gathered} \mathrm{a}_{11} q_1 + \mathrm{a}_{12} q_2 + \dots + \mathrm{a}_{1n} q_n \le \sigma \\ \mathrm{a}_{21} q_1 + \mathrm{a}_{22} q_2 + \dots + \mathrm{a}_{2n} q_n \le \sigma \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ \mathrm{a}_{m1} q_1 + \mathrm{a}_{m2} q_2 + \dots + \mathrm{a}_{mn} q_n \le \sigma \end{gathered} \quad , \quad (2)$$

Кроме того, нагрузки считаем положительными:

$$q_i \ge 0, i = 1,2, \dots, n \quad (3)$$

В качестве модели нагрузок выберем следующую. В интервале времени τкаждая нагрузка q_i представляет собой случайную величину, распределенную по закону $F_i(x)$. Подобные представления возможны во многих практических случаях. Целью данной работы является вывод формулы вероятности безотказной работы конструкции $F(\sigma)$ за промежуток времени τ система линейных неравенств (2) и (3) представляет собой сис-

Тему $m + n$ линейных неравенств относительно n неизвестных. Как известно, точка $(q_1, q_2, \dots q_n)$ называется внутренней, если для нее все неравенства выпольняются строго. Если для точки $\overline{q} = (q_1, q_2, \dots q_n)$ n неравенств выполняются в форме неравенств:

$$\begin{gathered} a_{i_1 1} q_1 + a_{i_1 2} q_2 + \dots + a_{i_1 n} q_n = \sigma \\ a_{i_2 1} q_1 + a_{i_2 2} q_2 + \dots + a_{i_2 n} q_n = \sigma \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ a_{i_n 1} q_1 + a_{i_n 2} q_2 + \dots + a_{i_n n} q_n = \end{gathered} \quad (4)$$

где $i_1, i_2, \dots i_n - n$ различных чисел из множества $\{1, 2, \dots, m + n\}$, а остальные в форме строгих неравенств и ранг матрицы

$$A = \begin{Vmatrix} a_{i_1 1}\ ,\ a_{i_1 2}\ ,\dots a_{i_1 n} \\ a_{i_2 1}\ ,\ a_{i_2 2}\ ,\dots a_{i_2 n} \\ \dots\ \dots\ \dots\ \dots\ \dots \\ a_{i_n 1}\ ,\ a_{i_n 2}\ ,\dots a_{i_n n} \end{Vmatrix} \qquad (5)$$

равен n , то точке $\overline{q}$ является вершиной выпуклого многогранника, образованного множеством точек q , удовлетворяющих неравенствам (2) и (3).

Для областей допустимых состояний конструкции точка $\overline{o} = (o, o, \dots, o)$ является вершиной. Возьмем n вершин, принадлежащих одной грани, и нулевую точку $\overline{o}$ и для этих $n+1$ вершины рассмотрим выпуклую оболочку. Получим выпуклый многогранник Ω, который при помощи линейного преобразования

$$\begin{gathered} q_1 = q_{11}u_1 + q_{21}u_2 + \dots + q_{n1}u_n \\ q_2 = q_{12}u_1 + q_{22}u_2 + \dots + q_{n2}u_n \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ q_n = q_{1n}u_1 + q_{2n}u_2 + \dots + q_{nn}u_n \end{gathered} \qquad (6)$$

Можно отобразить в многогранник, который является выпуклой оболочкой точек рис.7

$$\begin{gathered} (0,\ 0,\ \dots\dots,\ 0) \\ (1,\ 0,\ \dots\dots,\ 0) \\ (0,\ 1,\ \dots\dots,\ 0) \\ \dots\dots\dots\dots\dots \\ (0,\ 0,\ \dots\dots,\ 1) \end{gathered} \qquad (7)$$

Вершины принадлежат одной грани, если никакая другая вершина не является их положительной линейной комбинацией. Количество многогранников $\Omega_к$ равно числу Г, которые не лежат в координатных плоскостях. Разумеется, для большего числа n нахождение всех вершин многогранника становится практически невыполнимым, но для строительных конструкций число действующих нагрузок, со случайным характером кото-рых мы должны считаться, невелико.

Заключение. Для ветровой нагрузки показана сходимость распределения максимума скорости ветра и максимума скоростного вапора к двойному-экспоненциальному распределению. Это дало возможность построить модель ветровой нагрузки в виде последовательно назависимых случайных величин с двойным – экспоненциальным распределением.

Для модели длительной нагрузки на перекрытия от технологической нагрузки, веса людей и т.д. выбрана модель независимых случайных величин с экспоненциальным распределением, сдвинутом по оси X.

Список использованной литературы

[1]. Заварина М.В. Липовская В.Н. Районирование территории СССР по снеговой нагрузке на горизонтальную поверхность. – Метеорология и гидрология, 1973, № 7, с. 69-71.

[2]. Заварина М.В. Строительная климатология. Л., Гидрометеоиздат, 1971, 162с.
[3]. Отставнов В.А. Розенберг Л.С. О некоторых особенностях сбора и первичной обработки исходного климатологического материала по снеговым нагрузкам. В Кн.: расчет строительных конструкций. Труды ЦНИИСК, вып.42. М., Стройиздат 1976, с. 91-98.
[4]. Ржаницын А.Р. Теория расчёта строительных конструкций на надёжность. –М., Стройиздат, 1978, 1978, 240 с.
[5]. Галамбош Я. Асимптотическая теория экстремальных порядковых статистик, М., «Наука», 1984, с. 303.

OPTIK TOLALI TIZIMLAR ASOSIDA ENERGETIK TUZILMALARNI MONITORING QILISH

Farg‘ona politexnika instituti
Umaraliyev Nurmuxammad

Аннотация

Средства мониторинга физико-химического состояния различных материалов и технологических процессов обеспечивается регулярное целенаправленное получение объективной информации об условиях эксплуатации технических объектов.

Ключевые слова: *средства мониторинга, лазерный диод, приёмники излучения, волоконный светодиод, надежность, акустика, тензометрия*

Annotatsiya

Turli materiallar va texnologik jarayonlarning fizik-kimyoviy holatini nazorat qilish vositalari texnik ob'ektlarning ishlash sharoitlari to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlarni muntazam, maqsadli olishni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: *monitoring asboblari, lazerli diod, radiatsiya qabul qiluvchilar, tolali LED, ishonchlilik, akustika, tenzometr*

Annotation

Means for monitoring the physical and chemical state of various materials and technological processes ensure regular, targeted acquisition of objective information about the operating conditions of technical objects.

Key words: *monitoring tools, laser diode, radiation receivers, fiber LED, reliability, acoustics, strain gauge*

Hozirgi vaqtda turli materiallar va texnologik jarayonlarning fizik-kimyoviy holatini nazorat qilish uchun asboblar ishlab chiqilmoqda. Ushbu vositalar texnik ob'ektlarning ishlash sharoitlari to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlarning muntazam, maqsadli olinishini va ularning resurs sarfini tabaqalashtirilgan hisobga olishni

ta'minlaydi. Eng keng tarqalgan (qiyosiy soddaligi va arzonligi tufayli) monitoring vositalari yarimo'tkazgichli yorug'lik chiqaradigan diodlar (LED), lazer diodlari (LD), optik nurlanish qabul qiluvchilar (ORDs) va optik tolali yo'riqnomalar (FOGs) asosidagi optoelektronik tizimlar bo'lishi mumkin.

Qurilish inshootlarini monitoring qilishda samolyotlarning istiqbolli qo'llanilishidan biri yaratilgan monitoring tizimining operatori kuzatilayotgan tuzilmaning ishonchliligi va shunga mos ravishda xavfsizlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarishi mumkin bo'lgan mezonlarni olish hisoblanadi.

Boshqa usullardan (akustik, deformatsiya o'lchagich va boshqalar) farqli o'laroq, BC dan foydalanadigan optoelektronik tizimlar har qanday murakkab tuzilmani kuzatish imkonini beradi va temir-beton buyumlarning ichiga o'rnatilishi mumkin.

So'nggi paytlarda samolyotlarning sifati sezilarli darajada yaxshilandi, ya'ni. 1 dB/km dan kam yo'qotishlarga ega samolyotlar olindi. Optik tolaning materiali va dizaynini tanlab, qoplamada tarqaladigan rejimlar uchun yo'qotishlarni oshirish va yadrodagi yo'naltirilgan rejimlar uchun ularni kamaytirish mumkin [1].

Polimer bilan qoplangan sof silika optik tolalari katta yadro diametri va nisbatan katta diafragma (NA) ga ega.

Bizning tadqiqotimiz asosan polimer tolalardan foydalanadi. Ular past o'ziga xos tortishish kuchiga, nisbatan katta diametrli katta moslashuvchanlikka, mexanik kuchga va yuqori ishlab chiqarishga ega. 0,66 μm to‘lqin uzunligida erishilgan minimal pasayish 20 dB/km ni tashkil qiladi [2, 3].

Polimer optik tolalarning ayrim turlarining texnik tavsiflari to'liq o'rganilgan [4].

Ushbu maqola metodologiyani belgilaydi va samolyotning mexanik xususiyatlarini eksperimental o'rganish natijalarini taqdim etadi, undan kuchlanish sensori sifatida foydalanish va temir-beton konstruktsiyalar elementlarini yo'q qilishning oldini olish uchun.

Используемая литература:

1. Умаралиев, Н., Матбобоев, М. М., & Эргашов, К. М. (2020). Лабораторная установка для изучения оптоэлектронного датчика влажности воздуха. Научно-Технический журнал Ферганского Политехнического Института, 24(2), 199-204.

2. Эргашов К. М., Эркабоев А. Х. Ўлчаш воситаларининг қиёслаш нуқталари жойлашуви ва сони //Научно-Технический журнал Ферганского Политехнического Института. – 2021. – Т. 25. – №. 5. – С. 182-184.

3. Умаралиев Н., Матбобоев М. М., Эргашов К. М. Ҳаво намлигини назорат қилувчи қурилма //Научно-Технический журнал Ферганского Политехнического Института. – 2020. – Т. 24. – №. 1. – С. 160-162.

4. Эргашов К. М. Применение теории вероятности к вопросам контроля качества //Научно-Технический журнал Ферганского Политехнического Института. – 2022. – Т. 24. – №. 6. – С. 168-170.

5. Эргашов К. М. Улучшение измерительных параметров двухволнового оптоэлектронного устройства //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-2 (92). – С. 49-52.

GIGROMETRLARNI KALIBRLASH VA TEKSHIRISH USULLARI

Farg'ona politexnika institute
Ergashov Qahramon Mixoilovich

Annotasiya

Ishlab chiqarish korxonalari va ishlab chiqarish soxasida namlikni o'lchovchi qurilmalarni doimiy nazoratdan o'tkazib turish va talablar asosida sinov ishlarini o'tkazish talablar ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *gigrometr, kalibrlash va qiyoslash, mutloqlik, takrorlanuvchanlik, aniqlik, istiqbolli, fizik parametr*

Аннотация

Рассмотрены требования к непрерывному контролю за устройствами измерения влажности на производственных предприятиях и в производственном секторе и проведению испытаний на основании требований.

Ключевые слова: *гигрометр, калибровка и сличение, абсолютность, воспроизводимость, точность, перспективность, физический параметр.*

Annotation

Reviews the requirements for continuous monitoring of moisture measuring devices in manufacturing plants and the manufacturing sector and conducting tests based on the requirements.

Key words: *hygrometer, calibration and comparison, absoluteness, reproducibility, accuracy, prospects, physical parameter.*

Gigrometrlar foydalanish vaqtida tayyorlangan va sertifikatlangan kalibrlash gaz aralashmalari yordamida kalibrlanadi va tekshiriladi. Gigrometrlar uchun sinov gaz aralashmalari ularni tayyorlash yoki standart higrometrlardan foydalanish tartibiga muvofiq sertifikatlanadi. Nam gazlarni tayyorlash usullarida keltirilgan.

Gigrometrlarni kalibrlash va tekshirish uchun turli toifadagi standartlar qo'llaniladi. Tekshirish vositasi asosidagi usulga qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilardir:

- mutlaqlik - usul uchun fizik miqdorning o'lchangan parametrlarga funktsional bog'liqligi kerakli aniqlik bilan ma'lum bo'lishi kerak;
- takrorlanuvchanlik - usul o'z mohiyatiga ko'ra birlik hajmi qayta ishlab chiqarilgan miqdorning fizik tarkibiga mos kelishi kerak;
- aniqlik - bu usulning instrumental bajarilishi talab qilinadigan aniqlik bilan ta'minlanishi kerak;

- istiqbolli - afzalroq, hozirgi vaqtda usulni amalga oshirish uning aniqligi va o'lchangan qiymatlar diapazoni nuqtai nazaridan uning barcha imkoniyatlarini tugatmasligi kerak.

Tekshiruv vositasining asosini tashkil etuvchi eng istiqbolli usul bug'-gaz aralashmalarini bilvosita fizik parametrlar bo'yicha sertifikatlashga asoslangan va nazorat higrometrlaridan foydalanishni talab qilmaydigan usuldir. Bu usullar: to‘yingan eritma usuli, ikki bosimli usul, ikki haroratli usul, oqim aralashtirish usuli va gravimetrik usul. Keling, sanab o'tilgan usullarni ko'rib chiqaylik va quyidagi asosiy qiyosiy xarakteristikalar bo'yicha ushbu usullar yordamida amalga oshiriladigan tekshirish vositalarining qiyosiy tahlilini o'tkazamiz:

- namlikni o'rnatishning aniqligi;
- rejimga kirish vaqti (tezlik);
- namlik va harorat uchun yaratilgan qiymatlar diapazoni.

Bundan tashqari, biz o'qishlarning barqarorligi, texnik xizmat ko'rsatish qulayligi, seriyali ishlab chiqarish va takrorlanadigan namlik darajasi kabi o'rnatishning texnik xususiyatlarini hisobga olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Умаралиев, Н., Матбобоев, М. М., & Эргашов, К. М. (2020). Лабораторная установка для изучения оптоэлектронного датчика влажности воздуха. Научно-Технический журнал Ферганского Политехнического Института, 24(2), 199-204.

2. Эргашов К. М., Эркабоев А. Х. Ўлчаш воситаларининг қиёслаш нуқталари жойлашуви ва сони //Научно-Технический журнал Ферганского Политехнического Института. – 2021. – Т. 25. – №. 5. – С. 182-184.

3. Умаралиев Н., Матбобоев М. М., Эргашов К. М. Ҳаво намлигини назорат қилувчи қурилма //Научно-Технический журнал Ферганского Политехнического Института. – 2020. – Т. 24. – №. 1. – С. 160-162.

4. Эргашов К. М. Применение теории вероятности к вопросам контроля качества //Научно-Технический журнал Ферганского Политехнического Института. – 2022. – Т. 24. – №. 6. – С. 168-170.

5. Эргашов К. М. Улучшение измерительных параметров двухволнового оптоэлектронного устройства //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-2 (92). – С. 49-52.

KUCHLANISH TRANSFORMATORLARINI SINASH USLUBIYOTI

Doniyorov Faxriddin Mardon o'g'li
Farg‘ona politexnika instituti, 48-21 “Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish” guruhi talabasi, O‘zbekiston.

Annotatsiya

O'rnatilgan talablarga muvofiq har bir ishchi kurilma va o'lchash qurilmasi va jihozlar nazorat qilishdan o'tkazish kerak bo’ladi. Bu sinovlar jihozni meyorlar asosida ishlashga ko'maklashadigan jarayon xisoblanadi.

Kalit so'zlar: ishchi, ta'mirlangan, qayta yuklash, elekt va issiklik xususiyiyatlar, sinov usubiyoti, isolation, mustaxkamlik, uzatish va qabul qilish.

Аннотация

В соответствии с установленными требованиями каждое рабочее оборудование, прибор и средства измерений должны быть проверены в установленном порядке. Эти тесты считаются процессом, который помогает устройству работать в соответствии со стандартами.

Ключевые слова: работа, ремонт, перегрузка, электрические и тепловые характеристики, методика испытаний, изоляция, долговечность, передача и прием.

Abstract

And sootvetstvii s ustanovlennymi trebovaniyami kajdoe rabochee oborudovanie, pribor i sredstva izmereniy doljny byt provereny v ustanovlennom ryadke. Eti testy schitayutsya process, kotoryy pomogaet stroystvu rabotat v sootvetstvii so standard.

4. Asqarov I.B., Muslimov N.A., Turmatov J.R. Talabalarni mustaqil tadqiqotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati. Ta'lim, fan va innovatsiyalar. T., 2018 yil. 3-son.

MUHANDIS-METROLOGLARNI RAQOBATBARDOSH KADR QILIB TAYYORLASHDA DASTURIY VOSITALAR VA ULARNI YARATISH TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O‘RNI

Madmarova Umida Abdukarimovna[1]
Farg‘ona politexnika instituti MS va MSM kafedrasi katta o‘qituvchisi[1]
Xoshimov Javoxirbek Abdubasir o‘g‘li[2]
Farg‘ona politexnika instituti MS va MSM yo‘nalishi talabasi[2]

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak muhandislarni hozirgi zamon talablariga mos kadr qilib tayyorlashda ilmiy-innovatsion loyihalarning nechog‘lik dolzarb ahamiyat kasb etishi, talabalarning “Start-up” loyihalari haqidagi tushunchalarini o‘rganish, qaysi sohada o‘zlarining “Start-up” loyihalarini rivojlantirishni xohlashlari va startap-loyihalar mamlakatdagi innovatsiyalar va iqtisodiyotning rivojlanishiga ta’siri haqidagi fikrlarini o‘rganish, ilmiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashda o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida takomillashtirish texnologiyalarining tutgan o‘rni haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy-innovatsion faoliyat, imitatsion-variativlik, intellektual mulk bozorini rivojlantirish, yoshlarning o‘z g‘oyalari, “Start-up” loyihalari, o‘quv materiallari, innovatsion ekotizim.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim investitsiyasiga e’tibor kuchayib, texnika oliy o‘quv yurtlarida sifatli ta’limni takomillashtirish yuzasidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shiddat bilan yangilanayotgan zamonda ixtirolar, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion g‘oyalar, texnik ishlanmalar va ularni tijoratlashtirish o‘ta muhim

sanaladi. Aynan ularning ko‘lami va sifati raqobatbardosh, daromadi yuqori mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. O‘z navbatida, xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish mamlakat ilmiy salohiyati darajasini belgilaydi.

Ilmiy ishlanma va texnologik yangiliklar jamiyat hayotining barcha jabhalarini bog‘lovchi mexanizmga aylanayotgan hozirgi davrda mazkur sohalarda hamkorlikni kengaytirmay turib, jahon bozorlarida raqobatbardoshlikka erishib bo‘lmaydi.

Ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi xalqaro hamkorlikda xorijiy mamlakatlar bilan amalga oshirilayotgan qo‘shma ilmiy loyihalarning o‘rni katta. Butun dunyoda innovatsiya va startap bir-biri bilan chambarchas bog‘liq atamalarga aylangan. Startaplar bilan bugun abstrakt g‘oyalarni haqiqiy mahsulot va xizmatlarga aylantirish mumkin va bunda ilm-fanning o‘rni katta.

Xususan, imitatsion-variativlik pedagogikasi ham asosan texnika oliy ta’lim sohasidagi bo‘lajak kadrlarni tayyorlash va ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun matnlarning ichki tuzilishini tahlil qilishni o‘qitishdan iboratdir. Asosiy e’tibor texnik matnlarni pedagogik texnologiyalar yordamida tushunish hamda sinergetik, germenevtik va praksiologik yondashuv orqali o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik va vizual-amaliy yo‘nalganlik imkoniyatlarini kengaytirish vositasida talabalarning texnika tilini bilish, o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalarini mazmun mohiyati va texnika ta’limidagi ahamiyatini talabalar ongida shakllantirishga qaratilgan [1]. Dunyoning ilg‘or xalqaro oliy ta’lim texnika oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlarda belgilangan maqsadlarga e’tibor berilganda, imitatsion-variativlik asosida o‘qitish - bo‘lajak muhandislar uchun ta’lim jarayoni, birinchi navbatda, hozirgi vaqtda o‘rganish va o‘rganilgan tadqiqotlardan kelajakda butunlay yangi sharoitlarda yoki vaziyatlarda foydalanish imkoniyatidir.

Materiallar va usullar. Mamlakatimizning global iqtisodiy makondagi nufuzini yuksaltirishda ilmiy va innovatsion sohalardagi xalqaro hamkorlikning ahamiyati katta. Qolaversa, bu boradagi ishlar global innovatsion indeks ko‘rsatkichlari yuqorilashiga ham xizmat qiladi. Ilg‘or innovatsion texnologiyalar esa milliy iqtisodiyotimizning samaradorligi va mehnat unumini oshiradi.

Bizning mamlakatimizda startaplar o‘zlarining ilk odimlarini boshlashmoqda, yaqin vaqtlarda bu biznes shakllanishining ushbu juda amaliy va qiziqarli mexanizmini rivojlanishiga olib keladi. Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud. Ular doirasiga xususiy mulkchilik, raqobat kurashi, tijorat siri va boshqalar kiradi. Bu omillar fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan to‘la foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Yuqorida qayd etilgan ilm-fan va texnikani rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va muammolar vaqtinchalik bo‘lib, so‘ngi yillar maboynida bu borada ayrim yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Innovatsion rivojlantirish vazirligi respublikada yuzaga kelgan holatni chuqur tahlil qilib, yillar davomida misqollab to‘plagan ilmiy salohiyatini saqlab qolish, olimlar uyushmalari kuchini respublikaning ravnoqi yo‘lidagi muammolarini hal etishga yo‘llash maqsadida ilmiy va boshqa muassasalarning jamoalari bilan birgalikda respublikamiz ilmiy texnik siyosatining yaqin kelajakka

mo‘ljallangan konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu konsepsiyaning asosini quyidagilar tashkil qiladi.

1. Fanni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-texnik imkoniyatlarni saqlash, fanni kelajagi bormi yoki yo‘qmi kabi shubhalardan holi tarzda qo‘llab quvvatlashdan voz kechish. Ilmiy muassasalar va ilmiy izlanishlarga tanlov prinsipi nuqtai nazaridan yondashish. Fan-texnika sohalarida bozor munosabatlarini keng joriy etish.
2. Fundamental tadqiqotlar sohalaridagi o‘zbek milliy ilmiy maktablarining eng yaxshilarini saqlab qolish, buning uchun ushbu tadqiqotlarni byudjetdan ajratiladigan ham3. Ilmiy tashkilotlarni moliyaviy jihatdan ta’minlashdan maqsadli ilmiy dastur va loyihalarni moliyalashtirishga o‘tish.
4. Moliyalashtirish manbalarini turliligini ta’minlash.
5. Fan va texnikani rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydigan xududiy fondlarni tashkil qilish, ularning mahalliy byudjet mablag‘lari hisobiga shakllanishini ta’minlash va shuning hisobiga markaziy moliyalashtirish hajmini kengaytirish.
6. Ilmiy, injener va texnik kadrlarni ijtimoiy himoya qilish, ilmiy xodimning statusi va obro‘sini oshirish. Ilm-fanni rivojlantirish o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘pgina muhim omillar ta’sirida ro‘y beradi: ilmiy xodimlar, olimlar va injener kadrlarni tayyorlash, ularning uyushmalarini tashkil etish bilan bir qatorda, zamonaviy ilmiy infratuzilmani shakllantirishni taqazo etadi. Ilmiy infratuzilmani yaratish O‘zbekiston Respublikasi uchun o‘ta dolzarb masaladir [2].

Natijalar. Imitatsion model qurish jarayonida o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida shakllantirish hamda ularning ilg‘or texnologiyalarini takomillashtirish bugungi kun texnika oliy ta’limining aktual masalasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ta’lim modellashtirish muhitlari hozirda ancha keng tarqalgan kasbiy funksiyalari bo‘lajak muhandis-metrolog yoki mahsulot sifati menejerlarini tayyorlashda, umuman olganda qo‘llaniladigan har bir imitatsion atama "odam - mashina" deb ataladi. Haqiqatga maksimal darajada yaqinlashishni ta’minlash, masalan ta’lim sohalari muhandislarga optimal qarorlar va turli xil ta’lim traektoriyalari uchun kognitiv mezonlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Bugungi kunda ilmiy va injener kadrlar yana bir muhim talabga javob bera oladigan bo‘lishlari lozim. Masalan, qishloq xo‘jalik zararkunandalari bilan kurashishning aviakimyoviy texnologiyasini joriy etganda atrof-muhitga, nabotot va xayvonot dunyosiga zarar yetkazilishi mumkin. Bu kungilsiz natijalar ilmiy tadqiqotlarni olib borish jarayonida, ular bo‘yicha hisobotlar tayyorlanayotganda va albatta, amaliyotga joriy etilayotganda, oldindan chuqur o‘rganilishi, hisob-kitob qilinishi lozim. Bozor munosabatlarining hayotimizdagi barcha sohalarga kirib borilayotganligi ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarning aniq maqsadga yo‘naltirilgan dasturlar asosida ish olib borishlari, turli ixtisoslikdagi olimlarning bir-birlari bilan uzviy aloqada bo‘lishlarini, ilmiy-tadqiqot natijalariga yuqori ma’suliyat bilan yondashishlarini taqazo etadi [3]. Bu omillarni aniqlash uchun ilm-fan rivojlanishining strategik maqsadlarini belgilash, ularni aniq, lo‘nda qilib ta’riflash, real hayotga moslash talab etiladi.

Respublikada ilm-fanni rivojlantirishning strategik maqsadi iqtisodiy tizimni rivojlantirish, uni takomillashtirish, ishlab chiqarish darajasini yuqori pag‘onaga ko‘tarib, raqobatbardosh mahsulotlar chiqarib, ularning eksportini ko‘paytirishdir.

Xulosalar. Imitatsion o‘quv muhitini ishlab chiqish faqatgina mustaqil ta’lim jarayonida emas, balki raqamli ta’limda an’anaviy ta’lim jarayoni uchun ham dasturiy ta’minot ko‘rinishidagi ularning dizayni ishdan oldin amalga oshiriladi ijobiy va salbiy professional tajribani umumlashtiradigan va sxematiklashtiradigan tahlilchilar, o‘rganish sababiy munosabatlar va munosabatlarni amalda ta’minlashda o‘qituvchilarning o‘rni ham katta variativ qobiliyatlarini o‘quv jarayoniga va yakuniy muhitlarga integratsiya qilish, shu tariqa, yaxlit didaktik tizimni shakllantirishni namoyon etadi.

O‘zbekiston uchun rivojlangan davlatlarning fanni, ilmiy tadqiqotlarni tashkillashtirish hamda moliyalashtirish borasidagi tajribasini o‘rganish o‘ta dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy professional ta’limiy amaliyotlarning katta qismi, u yoki bu tarzda, imitatsion-variativlikni ta’minlash bilan bog‘liq fan-texnika taraqqiyoti mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash uchun asos bo‘lib, qudratli ilmiy-texnik salohiyatni vujudga keltiradi [4]. Bu salohiyatdan qanchalik unumli foydalanilsa, chuqur ilm talab qiladigan yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlar qanchalik ko‘p yaratilsa, har tomonlama kasbiy tayyorgarlik darajasiga ega kadrlar ko‘paysa, mamlakatning erishgan muvaffaqiyati ko‘p, istiqboli kafolatlangan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibrohim Abdurahmonov., Innovatsion rivojlanish vaziri, “Ilmiy va innovatsion sohalardagi hamkorlik mamlakatning global iqtisodiy makondagi nufuzini oshiradi” mavzusida so‘zlagan nutqi. 06.01.2022 yil.
2. Ziyodulla Ulmas o‘g‘li Usmonov. Qashqadaryo viloyati, Kasbi tuman XTBga qarashli 14-maktab iqtisod va matematika fani o„qituvchisi, Begzod Erkinovich Mamarahimov - TDIU fundamental iqtisodiyot kafedrasi dotsenti taqrizi asosida. “Ilm-fan taraqqiyoti innovatsion iqtisodiyot asosi sifatida”. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 9 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1.
3. Rasulovna, Kadirova Munira, “The content of pedagogical disciplines aimed at continuous didactical training of university students”. Integration of Science, Education and practice. Scientific-methodical journal 2.4 (2021): 68-73 pages.
4. Mirzayev Lutfulllo Rashidovich. “Ta’lim islohotlarida muammo va yechimlar tahlili haqida fikr va mulohazalar”. Published. 2023-10-23 Issue Vol. 2 No. 23 (2023): O‘zbekistonda Fanlararo innovatsiyalar va Ilmiy tadqiqotlar jurnali.

TEXNOLOGIK JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH JARAYONLARI

O.R.AKMALIDDINOV
FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI
e-mail: akmalliddinovobidjon1907@gmail.com

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishni loyihasi tarkibi Avtomatlashtirish tizimlarini loyihalashni avtomatlashtirish masalalari asosan ikkita me`yoriy hujjat bilan belgilanadi: sanoat ko‘rilishi uchun ishlab chiqiladigan loyiha va sistemalar qo‘llanmasi (SN202-81); avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalash bo‘yicha asbobsozlik , avtomatlashtirish vositalari va boshqaruv tizimlari Vazirligi tomonidan tasdiqlangan yuriqnoma (VSN-281-75); Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari elektron hisoblash mashinalarini qo‘llash asosida yaratishda sanoatning ma`lum soxasidagi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha umumsoxa uslubiy materiallari asosida olib boriladi. (ORMM ASU-TP). Texnik loyiha –smeta hujjatlari grafik va matn ma`lumotlaridan tasqil topadi. Grafik qismga sxemalar, chizmalar, grafiklar, matn qismiga esa tushuntirish xati va maxsus loyiha hujjatlari kiritiladi. 7 Loyiha smeta hujjatlari tarkibi loyihalashtirilayotgan ob`ektning murakkabligi va loyihalash bosqichiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, ob`ektlar ikki bosqichda loyihalanadi: birinchi navbatda loyiha ishlab chiqiladi, so‘ngra ishchi hujjatlar ishlatiladi. Texnik jixatidan murakkab bo‘lmagan ob`ektlar uchun yoki namunaviy loyiha yechimlarini qo‘llashda loyihalash ishlari bitta bosqichda – ishchi loyiha shaklida olib borilishi mumkin.

Hisoblash texnikasini qo‘llash asosida bajariladigan texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini loyihalashda yoki yangi va murakkab texnologiyaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish ob`ektlari uchun ko‘rsatilgan bosqichlardan tasqari qurilmalarning tavsiflarini avtomatlashtirish ob`ekti sifatida tekshirish, ob`eklarini boshqarish mezonlari va qonunlarini aniqlash masalalari va boshqalarni ilmiy – tekshirish ishlarida yoritib beriladi. Ikki bosqichda loyihalashning birinchi (loyiha) bosqichda avtomatik nazorat va rostlash tizimlari bo‘yicha asosiy texnik yechimlar qabul qilinadi, asosiy texnik – iqtisodiy ko‘rsatkich hamda qurilmalar va montajning smeta qiymati aniqlanadi. Bu holda loyiha – smeta hujjatlari tarkibiga tushuntirish xati, nazorat va boshqarishning tarkibiy sxemasi (murakkab bo‘lmagan ob`ektlar uchun); texnik vositalar kompleksini tarkibiy sxemasi; shitlar, pultlarning joylashish planlari, materiallar va uskunalarning vedomostlari, nostandart hujjatlarni ishlab chiqish uchun texnik talablar, asboblar va avtomatlashtirish vositalarining montaji uchun smeta hisoblari (SN202-81 ga asosan). Bundan tasqari loyihalash jarayonida shitlarni joylashtirish maqsadida xonalarga va avtomatlashtirish vositalari va asboblarni elektr tarmog‘i bilan ta`minlash uchun topshiriqlar beriladi. Ikkinchi bosqichda (ishchi hujjat) loyihada ko‘rsatilgan masalalarni uskuna materiallarni montaj –sozlash ishlarini industrial usulda bajarish mumkin bo‘lgan hajmda amalga oshirishni tegishli tartibda aniqlashtirib beriladi. Bu holda loyiha – smeta hujjatlari tarkibiga quyidagilar kiradi: - texnik vositalar kompleksi va nazorat, boshqaruv qurilmalarining tarkibiy sxemasi,

avtomatlashtirishning funksional sxemalari, ta’minlash va avtomatlashtirishning prinsipial sxemalari, shitlar va pultlarning umumiy ko‘rinishlari, shitlar va pultlarni tayyorlash va montaj qilish uchun hujjatlar, ularni sxemalari, kross vedomostlari (ulash 8 sxemalari), avtomatlashtirish vositalarini joylashtirish rejasi va trassalar chizmalari, tushuntirish xati, rostlovchi o‘rganlarni hisoblash uchun berilgan qiymatlar jadvallari, buyurtma spetsifikatsiyalari, asboblar va avtomatlashtirish vositalarini sotib olish uchun va ularni montaji uchun smetalar, ko‘rilish va montaj ishlari hajmi vedmostlar, ob`ektni avtomatlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarga bosh loyihachining aniqlangan topshirig‘i. Bosh loyiha bilan maxsuslashtirilgan tashkilotni jalb etilgan holda yoki topshiriq beruvchi bilan tuziladigan loyiha topshirig‘i loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.(ixtiyoriy bosqichda).

Loyiha topshirig‘i quyidagilarni o‘z ichiga olishi zarur: -ishlab chiqarish nomiva loyihalash; -loyihalash uchun asos; -avtomatlashtirish tizimi loyihasini o‘z ichiga olgan ishlab chiqarish, sex, agregat, qurilmalar, maxsus sharoitlar ko‘rsatilgan holda; - ob`ektlardagi maxsulotlarning tovar qiymati ko‘rsatilgan holda bajarilgan ishlarning smeta qiymati -loyihalash bosqichi; -loyiha vositalarini ishlab chiqish talablari; -kapital harajatlarning avtomatlashtirish uchun va ilmiy tekshirish, tajribakonstruktorlik va loyiha ishlariga ketadigan rejadagi va rejadan tasqari qiymati darajasi (mablag‘lar manbasi ko‘rsatiladi) -ko‘rilish muddati va ishlab chikarish bo‘linmalarini ishga tushirishketma-ketligi; -tashkilotlarning nomi- loyihani ishlab chiqishda ishtirok etuvchilar -bosh loyihachi nomi, bosh ilmiy tekshirish instituti, tashkilotlar-loyihaning oraliq qismlarini, shitlar va pultlarni tayyorlovchi tashkilot, maxsus montaj-sozlash tashkilotlari; -avtomatlashtirish tizimlarining shitlari va pultlari, markaziy va maxalliy boshqaruv punktlarini joylashtirish bo‘yicha tavsiyalari; -loyihalashning maxsus shartlari.

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish tizimlarini loyihalashni amalga oshirishda loyiha topshirig‘iga quyidagi boshlang‘ich ma`lumotlarni kiritiladi: 9 - qurilmalarning tavsifnomalariga ega bo‘lgan texnologik sxemalar, quvurlarning ulanish-kommunikatsiyalari haqiqiy ichki diametrlari, devorlarning qalinligi va quvurlar materiali ko‘rsatilgan holda beriladi; Tavsifnoma va qiymatlari zarur texnologik talablarga javob beriladigan nazorat qilinuvchi va rostlanuvchi parametrlarni masofadan boshqariluvchi kuch elektr qurilmalari va boshqalar ro‘yxati: -texnologik uskunalar va quvirlarni shitlar va pultlarni tavsiya etilayotgan joyi ko‘rsatilgan holda ishlab chiqarish xonalarining chizmalari (reja, kesimda) - avtomatlashtirish vositalari, asboblarning joylashishi ko‘rsatilgan texnologik uskunalarning chizmalari va uskunalar bilan birga komplektda keltiriladigan asboblar ro‘yxati, shitlar, boshqaruv stansiyalari va boshqa qurilmalarning chizmalari; -shitlar, pultlar va boshqa texnik vositalar hamda avtomatlashtirish tizimlarining joylashtirilishi zarur bo‘lgan xonalarning ko‘rilish chizmalari; -o‘zgaruvchan va o‘zgarmas tokga ega bo‘lgan elektr ta`minoti sxemalari: bu yerda texnik vositalar va avtomatlashtirish tizimlarini ta`minlovchi kuchlanish va quvvati hamda elektr uskunalarini yerga ulash sxemalari, ishga tushirish asboblari va boshqaruv

stansiyasini tiplari; -suv ta`minoti sxemalari: quvurlarning diametri, suvning sarfi, bosimi, harorati ko‘rsatiladi; -havo almashtirish tizimi sxemalari, havoni tozalash va ko‘rilish uskunalari havoning bosimi, harorati, namligi va changlanish darajasi ko‘rsatilgan holda beriladi; -rostlovchi orginlar, toraytiruvchi qurilmalar va surov varaqlarini to‘ldirish uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich ma`lumotlar; Tizimlarning avtomatlashtirish vositalarining ishonchliligiga bo‘lgan talablar; namunaviy loyihalar va loyiha yechimlarining texnik hujjatlari: Loyihani ishlab chiqishda bosh loyihachi asosan texnologik bo‘lim va barcha bajariladigan ish hajmini belgilab beradi, shu jumladan maxsus ishtirokchi tashkilotlar avtomatlashtirish, santexnika, elektr ta`minoti, suv ta`miniti va boshqa bo‘limlarni loyihalashda qatnashadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vaxidov A.X., D.A.Abdulaeva. Avtomatikaning texnik vositalari,Toshkent, 2012.
2. Gazieva R.T.Avtomatika asoslari.”Cho‘lpon”, 2012y
3. Gazieva R.T. va b. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish. -T.; Bilim, 2004, 240 b.
4. Sirojiddinov O‘.S.. Avtomatika asoslari va mikroprosessor texnikasi: O‘quv qo‘llanma; Samarqand.-2008., 60 bet.
5. Фрайден А.А. Современниэ датчики. 2010 й.
6. Медведев, А. Э. Автоматизасия производственних просессов : учеб. пособиэ. – Кемерово, 2009. – 325 с.
7. М.А.Исмаилов.Маърузалар тўплами, Т. 2010 й.
8. Р. Дорф, Р. Бишоп. Современниэ системи управления. М. 2002 г.
9. О.М. Соснин. Основи автоматизасии технологических просессов и производств. М. 2007 г.

SOFTWARE TOOLS OF AUTOMATION SYSTEMS AND TECHNOLOGIES FOR THEIR CREATION

Madmarova Umida[1]
Senior teacher of MS and PQM department of Fergana polytechnic institute [1]
Khoshimov Javokhirbek[2]
Student of MS and PQM at Fergana polytechnic institute[2]

Abstract:*Automation in manufacturing refers to using technology and machines to perform specific tasks without the need for humans to intervene. The goal of automation is to increase efficiency, productivity, and accuracy in the production process, reducing manual labour and minimizing the risk of human error.Recent supply chain disruptions and a squeeze on labour markets means automation has now become more important than ever.According to the International*

Federation of Robotics, there are around 3.5 million industrial robots in operation around the globe. The Federation noted this represents a growth rate of more than 30% year-on-year, with a massive surge in demand since the pandemic

Keywords: *automation of intellectual labor; tools to creating of the applied automated systems; technology; automated system.*

Introdutcion: Automation in manufacturing is achieved by using programmable devices, systems, and tools such as artificial intelligence, robots, and computer-controlled machines. Automation is most frequently used to automate repetitive or dangerous tasks, which frees up human labour to focus on more highly skilled tasks.While there are clear benefits for automated systems, you should figure out the growth and savings potential they will offer before investing in the technology. Automation, though requiring an upfront investment, is typically designed to make your work life easier.

Here are a few of the key benefits of using automation in manufacturing:


- Increased efficiency. This is a central reason to introduce automation into your business. Using machines, robots, or automated processes for certain tasks means they are completed at greater speed and with more precision than can be done by humans. This reduces manufacturing and production time, while also allowing the labour force to complete more complex tasks.
- Increased quality. Automating tasks generally means higher quality control. If the automation is introduced for the right tasks, most (if not all) errors can be eliminated. This increases quality output, and for a lower cost. Ultimately, it means a business is able to offer customers a better, more affordable product produced at greater speed.
- Cost savings. The introduction of automation, as outlined above, saves labour costs, reduces waste and increases efficiencies. Generally, introducing automation machines or tools should decrease costs and ultimately deliver greater profits to the business.
- Increased safety. Introducing automation to certain tasks should increase safety, particularly if used for dangerous or high-risk tasks. For example, using an overhead crane to move a heavy object minimises the risk of back injury caused by humans carrying it across the factory instead.
- Improved ability to gather and analyse data. Tasks done by humans generally require more manual collation of information, which can be time-consuming and prone to error. Automating tasks means data is more easily collected and can be analysed for future improvements.
- When it comes to automation in manufacturing, the key is to understand which options best suit your business – and at what point it’s appropriate to invest in automation tools and software.

Methods: There are numerous ways you can automate your manual processes. However, not every automation method is right for every business. Let’s look at a few examples of automation tools used in manufacturing.

Computer-Integrated Manufacturing (CIM)

CIM automation is when the manufacturing process is entirely run by automated systems. This will likely include various types of automation including computer-aided engineering, enterprise management systems, robots, and automated integrations.

Under CIM, the product is prototyped and manufactured through automated systems with a robotic production line. Quality control, storage, data management, and distribution are also automated.



Picture 1. Computer-integrated manufacturing automation allows a business to rely entirely on mechanical systems for production.

Industrial Internet of Things (IIoT)

IIoT automation refers to manufacturing or production in which various devices and smart machines use artificial intelligence (AI) to connect through sensors and'talk' to each other. This enables data and information to be shared in real-time and improves the processes and output of the product.

A similar process is called'Intelligent Automation,' which uses AI to integrate machine-learning algorithms into the manufacturing process to communicate in real-time and improve precision and outputs.

Fixed Automation or Hard Automation

Fixed/Hard automation refers to machinery which is used for particular tasks, such as repetitive actions on a production line. The machines are pre-programmed to perform the tasks with precision and consistency.

Robotic automation is a similar method, where robots are used for production line requirements such as packaging or painting.

Programmable Automation

Programmable automation refers to the use of higher-level programmable systems such as Programmable Logic Controllers (PLCs) to control machine and device tasks and operations.It is used to produce batch quantities ranging anywhere from a few to a few

thousand units at one time. The equipment must then be reprogrammed and adapted to accommodate each new product style.

Flexible Automation

Flexible automation allows for changes to demands that require refinements to the manufacturing systems. This method utilises machines which are controlled by computer systems and operated manually to allow for changes to be introduced.

Examples of automation in manufacturing

Automation in manufacturing comes in a variety of shapes and sizes, from quickening ordinary processes to a complete overhaul of your logistical systems.Below are some examples of common ways automation can be used in manufacturing.


Use of robots

There are more than three million industrial robots on factory floors around the world. They are pre-programmed to carry out repetitive or tedious tasks that would be prone to error if carried out by humans.

Manufacturing tasks that can be performed by robots include:

- Stacking
- Painting
- Welding
- Polishing
- Labelling
- Assembly

The use of robots decreases the cost of production and increases the precision and speed of output. Major companies that use robots on their factory floors include Tesla, which uses industrial arm robots for its production line among others uses, and Amazon, which leans on robots for inventory management and other requirements.



Picture 2. Robots can aid in manufacturing by automating your manual factory processes such as stacking, labelling, and assembly.

3D printing. This refers to printing various production parts with a 3D printing machine, which follows a computer design to print certain materials such as plastic in thin layers until the design has been recreated in physical form.

3D printing negates the need for traditional manufacturing processes to be used to create or order that particular part. Companies that use 3D printing on their factory floors include Volkswagen, L'Oreal, and Aldi.

CNC Machining

CNC machines are those which use computer software to direct and control certain automated processes that may be more complex than those handled by robots.

This type of automation is used in industries like aerospace, due to its high levels of precision and rapid production abilities.

Inventory management automation for manufacturers.

Inventory management automation refers to machines and software systems which manage and control inventory in your various storage facilities. In some cases, they can track parts or products along the entire supply chain.

Benefits of inventory management automation in manufacturing

Inventory management is one of the many ways automation can be used by manufacturers to create products with more accuracy, at greater speed and at a lower cost.

It also enables the automation of data and tracking which greatly improves the efficiency of the manufacturer and ensures inventory is maintained at the right level, with a low risk of over- or under-stocking of goods.

Amazon – the world's biggest e-commerce platform – leans heavily on automation for its inventory management. Amazon uses automation tools to lift and move packages and shift products through its facilities. Its use of automation is regarded as a major reason for its success in its speed of delivery, which has contributed to its rise as an e-commerce juggernaut.

Inventory management software

The right software is vital to the success of automated systems. Software such as Unleashed's cloud-based system automates many of the processes involved in inventory management, such as data entry and reporting.

It offers transparency over what products are available, what needs to be ordered from suppliers, and what lines may be moving faster or slower than others.

Results. Automated inventory systems support tracking and delivery, ensuring products are received from the supplier and sent to the customer in good time and as expected. Tracking systems provide real-time data on the progress of the product, allowing the manufacturer to communicate with the supplier or customer about any delays or issues if required. Knowing what has left the warehouse and when also enables the manufacturer to order more products from suppliers at the right time and maintain appropriate inventory levels.

Automated systems are able to draw on datasets and demand patterns to support forecasting and demand planning. Using automated forecasting systems enables the manufacturer to accurately plan the supply chain demands, inventory stocking, and delivery to the customer. The rise of IIoT is expected to be a huge trend for the year ahead. IIoT increases productivity severalfold, by connecting various'smart' devices through advanced sensors, automating and streamlining the manufacturing process. It should be noted the rise of the IIoT and robotics requires significant network bandwidth and as such may be reliant on connectivity capacity.

The rapid increase in technology means labour needs to be upskilled in new areas, and away from traditional skills which may now be handled by automation tools.

The need for manual labour is now in specialised areas such as Augmented Reality (AR) and Virtual Reality (VR) technology. These can assist, for example, in understanding manufacturing products which may ultimately end up in dangerous or inaccessible locations such as space stations.

The ability to understand, build and utilise Digital Twins will also be an increasingly in-demand skill. A Digital Twin is a digital replica of a real-world process and can be used to understand and improve production lines and outputs.

Conclusion. The rapid increase in the production of data is making synthesis for evidence-based medicine increasingly impractical. To improve the process, limited

resources can be used more effectively with computational support and automation. With the help of the insights learned from systems and software engineering, health informaticians are particularly qualified to lead the effort to change evidence-based medicine. With automated processes and computational support, the limited resources allocated to evidence synthesis can be used more effectively. On-site, the robot's technology, and technique have been heavily deployed with a focus on low-rise buildings.

More evaluations will be produced to address more clinical concerns, maintain them current, and demand less training if reviews are conducted more quickly and with scarce assets. Together, improvements in comprehensive literature automation will give clinicians access to more evidence-based information, enabling them to deliver higher-quality care. According to available data, not all of the review process's processes have yet been automated. The majority of the Performing Review phases of the systematic literature review conducted are the emphasis. Scientific investigations, however, have not focused on all of the processes.

Depending on the nature of the core problem, some processes are technically more difficult to automate than others, while other steps demand technical difficulties. For some of these issues, information and software technology is insufficient, necessitating the use of additional methods and tools. Additionally, there is a lack of tool support. The literature review procedure benefits from automation because it drastically cuts down on the time and effort needed; this automation goal will become increasingly important in the future in many different sectors. In terms of future research, we intend to create a deep learning tool to automate the critical appraisal process selection of primary studies.

References:

1. Jamshidbek O. Effectiveness of improving students'knowledge about the basics of the concept of technological determinism //Conferencea. – 2022. – С. 348-354.
2. Obidov J. G. Virtual process modeling technologies based on imitation-variability in technical higher education institutions //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 452. – С. 07017.
3. Obidov J. G., Alixonov E. J. Organization of the education process based on a credit system, advantages and prospects //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 1149-1155.
4. Волкова Г.Д., Григорьев О.Г., Новоселова О.В. Исследование методологий, методов и подходов, применяемых при создании прикладных автоматизированных систем // Межотраслевая информационная служба: научно-методический журнал. - 2014. - № 4 (169). - С. 19-31.

AVTOMATLASHGAN TIZIMLARI SHAKLANTIRISHDA TEXNIK VA DASTURIY TA'MINOT MUAMMOLARI

Madmarova Umida Abdukarimovna[1]

MS va MSM kafedrasi katta o‘qituvchisi[1]
Ne’matov Shaxobidin Shavkatbek o‘g‘li[2]
MS va MSM yo‘nalishi talabasi[2]

Annotatsiya.

Ushbu maqolada loyiha faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotlarda avtomatlashtirilgan texnologiyalarni joriy etishda texnik va dasturiy bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Muammolar buyurtmachi kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatiga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarishi va rahbariyatning loyihachilarning ish samaradorligini oshirish istagi bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, avtomatlashtirish, dasturiy mahsulot, loyiha, ta’minot vositalari.

Bugungi kunda avtomatlashtirilgan texnologiyalarning joriy etilishiga loyihalash tashkilotlari o‘rtasida ham, kompyuter yordamida loyihalashning avtomatlashgan tizimlari (LAT) ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi raqobat ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ko‘pchilik soha mutaxassislarining fikrlariga ko‘ra [1,2] LAT ni joriy qilishning asosiy muammolari ularning muhimlik darajasiga mos keladi. Shu sababdan ularni muhimlilik darajasi bo‘yicha tahlil qilamiz:

1. Loyihalash tashkilotlari raxbarlarning loyihalash

Jarayonlarini avtomatlashtirilgan tizimga o‘tkazish istagining mavjudligi.

Ushbu epizodda asosiy muammo korxona rahbariyati tomonidan loyihalash sohasida yangi axborot texnologiyalariga o‘tishning hayotiy zarurligini tushunishdir.Kompyuter yordamida loyihalashning avtomatlashgan tizimi (LAT) moliyani boshqarish, ishlab chiqarish va korxona resurslarini rejalashtirishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan bir qatorda korxonaning asosiy faoliyati umumiy texnologiyasi zanjirining tarkibiy qismlaridan biridir. Tashkilot raxbarlari har doim ham yangi mahsulotlarni chiqarishni tezlashtirishni ushbu texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘lamaydilar, chunki ularning LATtexnologiyalarini joriy etish bo‘yicha qarashlari har doim ham haqiqatga mos kelmaydi. Shusababli, LATni ikkinchi darajali vazifa sifatida joriy etishga munosabat mavjud bo‘lib, uni hal qilish faqat texnik mutaxassislar uchun zarurdir. Natijada, barcha harakatlar texnik jihozlar va dasturiy ta’minotni asoslanmagan xolatda sotib olishga qaratiladi. Bizning fikrimizcha, loyihalash tashkilotining har qanday rahbari LATdan foydalanishning tijorat foydasini ko‘ra olishi va kutilayotgan daromaddan xabardor bo‘lishi kerak. Shunday qilib, loyihalash bosqichlarining hozirgi holatini tahlil qilishda avtomatlashtirilgan tizimning argumentlarini hisobga olish kerak, ular kelgusi xarajatlarni oqlashi, mehnat unumdorligining oshishi va ishlab chiqarish muddatlarining qisqarishini aniq ko‘rsatishi kerak. Loyiha hujjatlari. shuningdek, korxona rahbari o‘z xodimlariga kelajakda amalga oshiriladigan ishlarining muhimligini ko‘rsatishi va jarayonning muhimligini ta’kidlab, jamoaga avtomatlashgan tizimda ishlaydigan maxsus loyihalash guruhiga moyilligini ko‘rsatishi tavsiya etiladi.

2. Moliyaviy xarajatlarni hisobga olish uchun avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etishda juda muhim.

Ishlab chiqarishning loyihalash bo‘limini avtomatlashtirilgan tizimga o‘tkazish uchun nafaqat LATning litsenziyali dasturiy ta’minotini sotib olish va o‘rnatish, balki texnik vositalarni modernizatsiya qilish yoki yangilash, shuningdek, mutaxassislarni o‘qitish va malakasini oshirish uchun jarayonni amalga oshirish bosqichida yirik moliyaviy resurslar talabqilinadi. Zamonaviy moliyaviy-iqtisodiy sharoitda moliyaviy resurslarning yetishmasligi tufayli ko‘pchilik loyihalash tashkilotlari xo‘jalik faoliyatida investitsiya obyektining tartibini aniqlash muammosiga duch kelinmoqda. Shuning uchun, loyiha tashkilotlari birinchi navbatda, axborot texnologiyalari bo‘limlari budjetlarini qisqartirib, operatsion faoliyat uchun ko‘proq zaruriy xarajatlarga e’tibor qaratmoqdalar. Shuning uchun, LATni sotib olish va amalga oshirish xarajatlari muammosinizudlik bilan hal qilmasdan, balki oldindan rejalashtirish kerak. Chunki bu jarayon bir martalik harakat emas, balki uzoq muddatli strategiya va rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirish tadbirlari xisoblanadi. Ko‘pincha loyihalash tashkiloti rahbari loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirilgan tizimga o‘tkazish bo‘yicha tegishli ko‘rgazmaga tashrif buyurgandan so‘ng, ko‘rgan narsasidan hayratda qoladi va qimmat dasturiy ta’minotga ega avtomatlashtirilgan ish tizimini sotib olishga qaror qiladi. Biroq, malakali mutaxassislar bo‘lsa ham, ushbu ish tizimi korxona muammolarini hal qila olmaydi, chunki loyihani ishlash jarayonlarini avtomatlashtirilgan tizimga o‘tkazish muammolarini hal qilish rejalashtirilgan, moliyaviy jihatdan asosli va muvozanatli yondashuvni talab qiladi. Shunday qilib, strategik rejalashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirmasdan, moliyaviy tahlilsiz yirik mablag‘larni investitsiya qilish doim xam ijobiy natija bermaydi. natijada, korxonaning loyiha bo‘limiini avtomatlashtirilgan tizimga o‘tkazish uzoq muddatga davomida muzlatiladi, chunki joriy faoliyat uni amalga oshirishga imkon bermaydi.

3. LATni jriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun malakali mutaxassislardan iborat jamoalarni shakllantirish zarur.

LATni ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun malakali kadrlar va tashkilotning biznes-rejalarida tashkiliy o‘zgarishlar zarur. Afsuski, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda yer tuzish va yer kadastri sohasida yuqori malakaga ega bo‘lgan kadrlar sezilarli darajada kamaygan. Ayni paytda kompyuter yordamida loyihalash qobiliyatiga ega mutaxassislar ham, oddiy loyihachilar ham yetishmaydi.

Bizning nazarimizda loyiha faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda pensiya yoshidagi mutaxassislar yoki boshqa sohalar (agronomlar, quruvchilar, o‘qituvchilar va boshqalar) mutaxassislari, universitetni yaqinda tamomlagan yosh mutaxassislar ishlayotganligi sababli bu muammo vujudga kelgan. Shu sababli, yosh kadrlarning kasbiy tajribasi yetishmasligi va pensiya yoshidagi xodimlarni avtomatlashtirilgan tizimga o‘tishga shubha bilan qarashi tufayli LATni amalga oshirish bo‘yicha zarur miqdordagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda bir qator

qiyinchiliklar mavjud. Bu xolatni bartaraf etish uchun, loyihalash tashkilotlari rahbariyatining muhim vazifasi turli yoshdagi xodimlarning bir-biridan bilim va ko‘nikmalarni olishi uchun o‘zaro manfaatli ishlarni tashkil etishdan iborat bo‘lib, bu ularning birgalikda avtomatlashtirilgan tizimga o‘tish jarayonini malakali tashkil etishiga yordam beradi. Loyiha tashkilotida "ustoz-shogird" tizimini rivojlantirish uchun tajribali xodimlarni yosh mutaxassislarni tayyorlashga rag‘batlantirish zarur. Shu bilan birga, LATni joriy qilish loyihasining har bir ishtirokchisi o‘zi uchun kejakda qanday imtiyozlar olishini tushunishi va ish haqining pasayishi yoki mehnat sharoitlarining yomonlashishidan qo‘rqmasligi kerak. Malakali muhandis kadrlarga extiyoji bo‘lgan ishlab chiqarish tashkilotlari uchun, shuningdek, tashkilot oliy o‘quv yurtlarining yosh va iqtidorli talabalarini o‘qitish uchun shartnoma shartlariga muvofiq korxona kontrakt pulini to‘lagan holda, kelajak uchun mutaxassislarni maqsadli tayyorlash amaliyotini rivojlantirish tavsiya etiladi.

LATni ishlab chiqish faoliyatiga joriy etishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun loyihalash guruhining vakolatlarini hujjatlashtirish muhimdir, chunki norasmiy kelishuvlar uzluksiz o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun yetarli emas. Malakali xodimlardan tashqari, jamoa loyiha ishtirokchilari va boshqa xodimlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni minimallashtirish uchun yetarli darajadagi vakolatlarga ega bo‘lishi kerak. Tabiiyki, LATni ishlab chiqarishga joriy qilish uchun mas’ul guruh tizimni o‘zlashtirish jarayoniga jalb qilingan xodimlarning ishini nazorat qilish, kompyuter texnologiyalari yordamida yangi loyihalash usullaridan foydalanishni nazorat qilish majburiyatini olishi kerak.

4. Soha uchun kerakli dasturiy va texnik vositalarni tanlash

Sohaning ko‘pchilik yetuk mutaxassislarning fikriga ko‘ra [3,4,5,6], tegishli dasturiy ta’minot va texnik vositalarni tanlash juda muhimdir. Shu fikrga ko‘ra, bizning fikrimizcha,LATning dasturiy ta’minotini (texnik, matematik, uslubiy) sotib olayotganda, loyiha tashkiloti quyidagi maqsadlarni ko‘zlashi maqsadga muvofiq bo‘ladi: aniq ishlarni bajarishni avtomatlashtirilgan tizimga o‘tkazish orqali xarajatlarni kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirish;
texnologik jarayonlarni loyihalashda muntazam ishlarni minimallashtirish;
ko‘p mehnat talab qiladigan yoki maxsus loyihaviy hisob-kitoblarni avtomatlashtirilgan tizimga o‘tkazish; turli hisobotlarni (standart va nostandart) yoki boshqa chiqish hujjatlarini yaratishni avtomatlashtirilgan tizimga o‘tkazish.

Bugungi kunda dasturiy maxsulotlar bozorida turli xil muammolarni hal qilashga mo‘ljallangan ko‘plab LAT lar mavjud, ammo ular qimmat narx toifasiga ega. Shu sababli mutaxassislar quyidagi harakatlar orqali sizga tegishli sifatli dasturiy ta’minotni tanlash hamda ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sotib olish, o‘qitish va tegishl texnik yordamga minimal moliyaviy resurslarni sarflash orqali erishish yo‘llarini tavsiya qiladilar:

a) reklama bukletlarida, jurnallarda, internetda mavjud LATlar marketing tahlilini amalga oshirish. Qabul qilingan ma’lumotlarga asoslanib, funksionallik va moliyaviy komponentlar nuqtai nazaridan ko‘proq mos keladigan tizim foydasiga tanlov qiling. Biroq, bu usul eng kam samarali hisoblanadi, chunki reklama

ma’lumotlari yuzaki bo‘lib, tizimning funksionalligi va kamchiliklarini to‘liq ochib bermaydi. Bunday tahlilni quyida tavsiflangan "c" bandiga tayyorgarlik bosqichi sifatida ko‘rish mumkin;

b) o‘xshash tarmoqlardagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan qo‘llanilgan dasturiy ta’minotni sotib olish. Bu yerda korxonalarning standartlari farq qilishi mumkinligini hisobga olish muhimdir. Bundan tashqari, turli korxonalarda texnologik va loyiha hujjatlarini loyihalash qoida va usullari turlicha. Shuning uchun, boshqa korxonalarda qo‘llaniladigan LATlarni joriy qilishda ularni tashkil etish sharoitlariga moslashtirish uchun vaqt va resurs xarajatlarining o‘sishini hisobga olish kerak, bu o‘z navbatida qo‘shimcha moliyaviy investitsiyalar talab qiladi;

s) sinov muddatidan foydalangan holda, ya’ni. LATning cheklangan vaqt davomida ishlashi. Ushbu usulning kamchiliklari ko‘pincha sinov versiyasida ko‘plab funksiyalar mavjud emasligidir. Shunga ko‘ra, tizimning funksional imkoniyatlarini to‘liq baholash imkonsiz bo‘lib qoladi, bundan tashqari, tizimni sotib olish to‘g‘risidagi qarorning muvofiqligi sotib olingan mahsulotning imkoniyatlarini baholaydigan mutaxassisning kasbiy mahoratiga xam bog‘liq. Bu, shuningdek, tegishli moliyaviy xarajatlarni ko‘rsatadigan LAT ishlab chiquvchilarni o‘qitish va maslahatini talab qiladi. Ko‘pgina tashkilotlar LATRni joriy etishning dastlabki bosqichlarida asosiy investitsiyalar dasturiy ta’minotni sotib olish xarajatlari ekanligiga ishonishadi, ammo loyihalash korxonasining strategiyasini aniqlashda tegishli moliyalashtirishni talab qiladigan texnik vositalar xam muhim rol o‘ynaydi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, dasturiy ta’minotning funksionalligini oshiradigan LAT bozorida sezilarli yutuqlar har ikki yilda paydo bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, shunga o‘xshash vaqt oralig‘iga ega bo‘lgan loyiha tizimlarini takomillashtirish bilan apparatga bo‘lgan talablar ham ortadi. Shu sababli, LATning eskirishini kechiktirish uchun korxona apparati LAT funksionalligi uchun optimallashtirilgan va tizim talablari zaxirasiga ega bo‘lishi xam juda muhimdir. Shuni ta’kidlash kerakki, bizning fikrimizcha, LAT muvaffaqiyatli ishlashi uchun eng minimal shartlar quyidagilardir:

1.Joriy etilayotgan LAT uchun tizim talablari zaxirasiga ega bo‘lgan server kompyuterini ajratish, texnologik hujjatlarni saqlashni ta’minlash, server ilovalari va turli xizmatlar funksiyalarini amalga oshirish.

2. Server ma’lumotlarini markazlashtirilgan zaxiragako‘chirishni tashkil etish

3.Noqulay tashqi omillar ta’sirini hisobga olgan holdamahalliy hisoblash tarmog‘ini qurish.

4. Ish joylarini ikki o‘lchovli (2D format) va uch o‘lchovli (3D format) uchun tabaqalashtirish. Yuqorida keltirilganlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Agar korxona raxbariyati korxonada loyihani ishlashjarayonini avtomatlashtirilgan tizimga o‘tkazish g‘oyasini haqiqatan ham qo‘llab-quvvatlasa, tizimning hamroh bo‘lgan potensialini ro‘yobga chiqarsa, dasturdan tijorat foydasini ko‘rsa va amalga oshirishdan kutilayotgan daromadni tushunsa, LATni joriy etish mumkin. LATni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun

loyihada ishtirok etuvchi xodimlarning vakolatlarini, shuningdek, tegishli ishlarni bajarish vaqtini hujjatlashtiradigan amalga oshirish tartibi yaratilishi kerak.
2. LATni tanlashda korxonaning o‘ziga xos xususiyatlarini, tegishli xizmatlar bozoridagi ishlab chiqaruvchi kompaniyaning tajribasi va darajasini hisobga olish, shuningdek, butun bosqichda bo‘lajak moliyaviy xarajatlarni taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lish juda xam muhim.
3. LATni qo‘llab quvvatlovchi ta’minot vositalarini shakllantirishda ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash serverlarini tashkil qilish shartlarini, shuningdek, to‘liq kompyuter tarmog‘ini yaratish imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Ta’minot vositalari loyiha tizimlarining mavjud funksionalligi uchun optimallashtirilgan bo‘lishi , shuningdek,xavfsizlik chegarasiga ega bo‘lishi kerak. Bu majmuaning eskirishini biroz vaqtga kechiktirish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Volkov S.N. Sistemi avtomatizirovannogo proyektirovaniya v zemleustroystve.-M.: KolosS. 2018.
2. Xlebnikova T.A. Sozdaniye sifrovix kart i planov sredstvami GIS Panorama. 2007.
3.Kablov YE.V., Finogeyev A.G. Problemi vnedreniya sistem avtomatizirovannogo proyektirovaniya v proyektnix predpriyatiyax // Sovremenniye naukoyemkiye texnologii. – 2015. – № 11. – S. 14-17.
4. Abdugani Mukumov, Komil Xujakeldiev, Fayzullo Xamidov, Sharafatdin Narbaev, Khudoyberdi Abdivaitov. Features of the organization of agroclusters in the structure of land management proje
5. S Avezboyev1 , A Mukumov1 , K Xujakeldiev2 , F Khamidov, Sh Adizov. Issues concerning the use of anti-erosion measures in land management projects. IOP Conf. Series: Earth and Environmenta.

SINOV VA SERTIFIKATLASHTIRISH MARKAZLARIGA YANGI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JORIY QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Abdumalikova Zulfiya Ismatullayevna[1]
Farg‘ona politexnika instituti MS va MSM kafedrasi katta o‘qituvchisi[1]
G‘oziyeva Mohigul Raxmonali qizi[2]
Farg‘ona politexnika instituti MS va MSM yo‘nalishi 66-20 guruh talabasi[2]

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ularni mahalliy hokimiyatlar iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan bo‘lib, Shuningdek, maqolada milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mavjud

muammolar va ularni oldini olishni faollashtirishda qanday chora-tadbirlardan foydalanish kerakligi keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, mahalliy hokimlik, xorijiy investitsiya, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya, portfel investitsiya, investor, kapital eksporti, ustav kapital, dividend, tadbirkorlik foydasi, eksport, import.

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o‘ziga xos yo‘nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o‘rin tutishini o‘z vaqtida to‘g‘ri anglab yetganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el investitsiyalariga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan ivestitsion faoliyatning yo‘lga qo‘yilishini hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta’kidlash lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son Farmoni bilan tasdiqlangan dasturlar doirasida Investitsyalarni jalb qilish, xorijiy investitsiyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, yangi ishlab chiqarishlar va ish o‘rinlarini yaratish ishlari ustuvor yo‘nalishlari belgilab qo‘yilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda “Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, eksport imkoniyatini kengaytirish sohasida belgilangan yo‘nalishlar kuchli investitsiya siyosatini o‘tkazish bilangina ro‘yobga chiqadi”[1]. Albatta, kuchli investitsiya siyosatini o‘tkazish orqaligina biz o‘z iqtisodiyotimizni yanada gullab-yashnatishimiz mumkin. Bunda xorijiy investitsiyalarning o‘rni katta hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati katta bo‘lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

ikkinchidan, import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustivor sohalariga yo‘naltirish va pirovardida aholining me’yordagi turmush darajasini ta’minlash imkonini yaratadi;

uchinchidan, kichik biznesni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta’minlaydi;

to‘rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko‘maklashadi, davlat byudjetiga soliq tushumining kelib tushishi ko‘payadi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalar sonining tobora ortib borishi va yangilari barpo etilayotgani davlatimizning bu sohaga bo‘lgan katta e’tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag‘batlantirish va ular uchun zarur sharoitlarni yaratib berish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘ofurova U.F. Toshkent moliya instituti 2018 yil “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy electron jurnali.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. // “Xalq so‘zi”, 8 fevral 2017 yil.

AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINING TEXNIK VOSITALARI

Andijon mashinasozlik instituti I.B va K.T fakulteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi
3-bosqich talabasi Odilova Durdonaxon Adhamjon qizi
emal: odilovadurdonaxon536@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy axborot texnologyalari jadal rivojlanib,davlat boshqaruvi jarayonlariniyaqinoptimallashtiriuvchi zaruriyat keltirib chiqadi.Bunda avtomatlashtirish tizimlari asosiy o‘rin agallaydi.Mazkur maqolada avtomatlashtirish tizimlarining vositalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot, texnologiya, avtomatlashtirish, avtomatlashtirilgan boshqarish qurilmalari, ishlab chiqarish.

Abstract: Modern information technologies are rapidly developing, creating the need to optimize state management processes. Automation systems play a key role in this. This article provides information about the tools of automation systems.

Key words: Information, technology, automation, automated control devices, production.

Аннотация: Современные информационные технологии стремительно развиваются, создавая необходимость оптимизации процессов управления государством. В данной статье представлена информация о средствах систем автоматизации.

Ключевые слова: Информация, технологии, автоматизация, автоматизированные устройства управления, производство.

AVTOMATLASHTIRISH TEXNIKA VOSITALARI – turli jarayonlarni avtomatlashtirishga imkon beruvchi asbob va qurilmalar. Vazifasi: a) texnologiya jarayonidagi parametrlarning o‘zgarishi haqida nazorat signallarini qabul qilish, b) axborotni uzatish, v) axborotni o‘zgartirish va saqlash, uni dasturdagi axborot bilan taqqoslash va buyruq axborotini tuzish (axborotni ishlab chiqish), g) buyruq

axborotini tex-nologik jarayonga tatbiq qilish. Nazorat axborotni qabul qilish vositalari (as-boblar, qurilmalar, datchiklar) nazorat qilinuvchi parametr ta’sirini sezuvchi va shu parametrni mexaniq issiqlik, op-tik va elektr parametrlarga aylantirib beruvchi organlardan iborat. Axborotni uzatish vositalari – aloqa liniyalari. Datchiklardan chikadigan signallar aloqa liniyalari orqali uzatiladi. Sig-nallarni uzoq masofaga uzatish uchun datchikdan chiqadigan signallar maxsus o‘zgartirgichlar yordamida uzatishga mos shaklga keltiriladi. Axborotni ishlab chiqish vositalari – registratorlar (qayd qilgichlar), signalni o‘zgartiruvchi qurilmalar, hisoblash jihozlari va mashinalari, boshqarish va taqsimlash qurilmalari, kommutatsiya (o‘zgartirish) uskunalari. Buyruq (komanda) axborotini uzatish vositalari, asosan, nazorat ax-borotni uzatish vositalariga o‘xshaydi. Axborotni texnologiya jarayoniga tatbiq etuvchi qurilmalar – buyruq signalini kuchaytiruvchi, uni ijro etuvchi elementlar va rostlovchi organlardan iborat.Sexlar, om-borlar va ishlab chiqarishning boshqa joylarida axborot (informatsiya) larni tuzish va dastlabki ishlash klavishli qurilmalar vositasida bajariladi, yig‘ilgan axborotlar qayta ishlashga uzatiladi. Axborotlarni avtomatik qayd qilish uchun datchiklardan foydalaniladi. Axborotlarni uzatish qurollari — signal o‘zgartirgichlari, telemexanika apparaturasi, signallarni taqsimlovchi kommutatorlar va b. dan iborat. Axborotlarni mantiqiy va matematik ishlash qurilmalari — signallarning harakteri va shaklini o‘zgartiruvchi funksional o‘zgartirgichlar axborotni berilgan algoritm bo‘yicha qayta ishlovchi qurilmalar (shu jumladan, hisoblash mashinalari) va b. ni uz ichiga oladi. Axborotlarni kursatuvchi qurilmalar (shu jumladan, hisoblash mashinalari) va b. ni uz ichiga oladi. Axborotlarni kursatuvchi kuril-malar — signal tablosi, mnemonik sxemalar, milli va raqamli asboblar, elektron-nur trubkasi, harf va raqamli bosma mashinalar operatorodamga i.ch. jarayonlarining borishini kursa-tadi va muhim parametrlarni qayd qilib boradi. Boshqarish ta’sirlarini ishlab chiqadigan qurilmalar axborotlarning kuchsiz signallarini kuchli impulslarga aylantiradi. Bu impulslar himoya, rostlash yoki boshkdrish qurilmalarining ijro organiga ta’sir etib, ularni ishga tushiradi. Axborotlarni yigish va dastlabki ishlash vositalari majmui xalq xujaligi tarmoqlarini boshqarishni avtomatlashtirishga imkon beradi. I.ch. jarayonlarini boshqarishni avtomatlashtirishda i.ch. ni maqbul (optimal) rejimda olib borishga imkon beruvchi nazorat va rostlash jihrzlari, analitik texnika va dasturli boshqarish majmualari ham juda muhim. Masalan, gidroelektr st-yalarida suv havzasidan chiqqan suv gidroagregat turbinalaridan uzluksiz o‘tib turadi.

Avtomatlashtirish tizimlarining dasturiy vositalari, xizmat qiluvchi va so‘rov yuboruvchining amaliy vaqti va energiyasini tezlatirish uchun juda muhimdir. Bu vositalar dasturiy tillarda yozilishi mumkin va odatda shu tillarda dasturlanadi. Quyidagi dasturiy vositalar avtomatlashtirishning muhim qismlaridan ba'zilaridir:

1.Skriptlash til va xususiyati: Python, Bash, PowerShell kabi skriptlash tillari avtomatlashtirish uchun juda mashhur. Bu tillar yordamida skriptlar yozib, faoliyatni avtomatiklashtirish mumkin.

2.Konfiguratsiya boshqaruv tizimlari: Ansible, Puppet, Chef, SaltStack kabi vositalar tarmoqlar, xizmatlarni konfiguratsiya qilish va avtomatlashtirishga yordam beradi.

3.Jadval ishlab chiqaruv vositalari: Jenkins, Travis CI, CircleCI kabi jadval ishlab chiqaruv vositalari kodni tekshirish, testlarni o‘tkazish va dastur kodini otomatik ravishda yuklashga yordam beradi.
4.Ishlab chiqaruv almashinuvchi vositalar: Docker, Kubernetes kabi ishlab chiqaruv almashinuvchi vositalar yordamida dasturlar avtomatik ravishda saqlanadi va ishga tushiriladi.
5.Monitorlash va maslahat beruv vositalari: Prometheus, Grafana kabi vositalar tizimni monitorlash, ma'lumotlarni to‘plash va taqdim etishga yordam beradi.
6.Loglar tahlil vositalari: ELK (Elasticsearch, Logstash, Kibana), Splunk kabi tahlil vositalari loglar va ma'lumotlarni tahlil qilish va monitoring qilish uchun ishlatiladi.

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish — mashinalashtirilgan ishlab chiqarishni nazorat qilish va boshqarish ishlarini avtomatik qurilmalar zimmasiga yuklash; ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirishning yuqori bosqichi. Fan va texnika taraqqiyotinnng asosiy yo‘nalishlaridan biri. Mehnat unumdorligi, maqsulot sifati, mehnat madaniyati va b. omillar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yuqori darajaga ko‘tarish imkonini beradi. Ishlab chiqarishning qisman (lokal), yalpi (kompleks) va to‘la avtomatlashtirish bosqichlari mavjud. Qisman avtomatlashtirish bosqichida i.ch. ning alohida ish turlari (suyuklik sathi balandligi, temperatura, bosim va b.) ni rostlab turish ishlari avtomatlashtiriladi. Yalpi avtomatlashtirish bosqichida bir necha qisman’ av-tomatlashtirilgan ish turlari bo‘lim, sex, korxona miqyosida o‘zaro bog‘langan bo‘ladi va boshq-ariladi. Boshqarish ishlari odam (operator) nazorati ostida o‘tadi. To‘la avtomatlashtirish bosqichida esa i.ch. jarayonining barqarorligi, ish turlari o‘zgarmasligi ishning yuqori samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Odam uchun xavfli ishlab chiqarish sharoitlarida to‘la avtomatlashtirishdan foydalanish ayniqsa o‘rinli bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Avtomatlashtirish_texnika_vositalari
2. Vaxidov A.X., D.A.Abdulaeva. Avtomatikaning texnik vositalari, Toshkent, 2012.
3. Gazieva R.T.Avtomatika asoslari.”Cho‘lpon”, 2012y
4. R. T.Gazieva AVTOMATIK TIZIMLARNI LOYIHALASH
5.https://uz.wikipedia.org/wiki/Ishlab_chiqarishni_avtomatlashtirish

ISSIQLIK-MASSA ALMASHINISH TIZIMLARINI PARAMETRIK TAHLIL QILISH

G‘anijonova Mohichehraxon
Toshkent davlat texnika universiteti "Elektronika va avtomatika" fakulteti TJICHA yo‘nalishi 2-kurs 13M-22 guruhi magistr talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda issiqlik-massa almashinish tizimlarini parametrik tahlil etish hamda issiqlik-massa almashinish jarayonlarini qanday borishi, ularning ishlab chiqarish jarayonini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan har xil parametrlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘zgarishlarini aniqlashga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Issiqlik-massa, parametrik tahlil, issiqlik uzatish, tizimlar.

Issiqlik-massa almashinish tizimlarini parametrik tahlil qilish, ularning effektivligini va ishlab chiqarishni yaxshilashda qanday amalga oshirilishi haqida fikrlar va o‘tilgan malumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu issiqlik-massa almashinish tizimlarining har xil qismlari va komponentlarini o‘z ichiga olgan muammolarni tahlil qilish va ularni boshqarish uchun maqbul yo‘lni tanlashda yordam berishi mumkin. Parametrik tahlil qilish jarayoni, issiqlik-massa almashinish tizimlarining materiallar, qurilmalar, temperaturalar, tezliklar va boshqa parametrlar kabilarni amaliyotga ta'sirini tushunishda yordam beradi. Bu tizimlar uchun mo‘ljallangan parametrik modelni ishlab chiqish orqali, har bir parametrni o‘rganish va ulardan foydalanish yoki ularni optimallashtirish mumkin.

Parametrik tahlil tizimlari, xususan, issiqlik-massa almashinish tizimlarida qanday qilib harakat qilish kerakligini aniqlash uchun harorat profilini o‘rganishda yordam beradi. Bu qurilmalarning qancha energiya ishlab chiqarishi, isitish va sovuqlik qismidagi materiallar orqali yukni qanday o‘tkazish, va qanday temperaturalar o‘rnini o‘zgartirishni ta'minlash xususiyatlari haqida ma'lumot berishi mumkin. Bunday tahlil tizimlari, issiqlik-massa almashinish tizimlarining qanday joylashganligini, ularning ishlab chiqarish jarayonini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan har xil parametrlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni aniqlashga yordam beradi. Bu parametrik tahlil, yangi materiallarni sinovdan o‘tkazish, tizimlarni innovatsion texnologiyalar bilan yangilash va ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Issiqlik almashinish, issiqlik uzatish—issiqroq jismdan sovuqroq jismga issiqlik uzatilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z-o‘zidan yuz beruvchi qaytmas jarayon; mikrozarralarning tartibsiz harakati bilan bog‘liq bo‘lgan, energiyasining bir jismdan ikkinchi jismga mikroskopik ish bajarmasdan uzatilishiga olib keluvchi jarayonlar majmuyi. Issiqlik almashinish issiqlik o‘tkazuvchanlik, konveksiya va radiatsiya yo‘li bilan sodir bo‘ladi. Isituvchi sirt issiqlik uzatuvchi sirt deb ataladi. Issiqlik almashinishda suyuqlik yoki gaz (bug‘) ish muhiti hisoblanadi. Issiqlik almashinish nazariyasi energiyani uzatish haqidagi ta’limotning bir qismi bo‘lib, texnik termodinamika bilan birga issiqlik texnikasining nazariy asosini tashkil qiladi. Bug‘ qozonlarida, bug‘ va gaz turbinalarida, pechlarda issiqlik almashinish hodisasi ro‘y beradi. Tabiatda uzluksiz issiqlik almashinish yuz berib turadi. Issiqlik almashinishning nazariy va amaliy masalalari issiqlik texnikasida o‘rganiladi. Kimyo va oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish samaradorligi hamda mehnat unumdorligini oshirishda ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi (TJABT)ni yaratish va tatbiq etishdir. Hisoblash texnikasi asosida yaratilgan TJABT lar, texnologik komplekslarni boshqarishda mahsulotning sifat va qiymat ko‘rsatkichlarini m ayum

texnologik va texnika-iqtisodiy mezonlardan foydalanib, axborotlarni markazlashgan tarzda hisoblaydi. Kimyo va oziq-ovqat sanoatida o‘zgarib turadigan tashqi muhitning ta’sirlari sharoitida ishlab chiqarish zaxiralaridan foydalanish TJABTning asosiy masalasidir.

Texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini sanoatga tatbiq etish ishlab chiqarish unumdorligini, texnologik uskunalar quvvati o‘zgarmagan holda mahsulot qiymatining ko‘payishini ko‘rsatadi: xomashyo, yarim fabrikatlar va energiya keragicha sarflangan holda tayyorlangan mahsulotning sifati yaxshilangan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu tizimlarni yaratishga ketgan mablag‘lar, odatda bir, bir yarim yilda o‘zini qoplagan; mahsulotlarning sifati, iqtisodiy ko‘rsatkichlari yaxshilanibgina qolmay, balki mehnatning xarakteri va sharoitiga ham ijobiy ta’sir etgan. TJABT larni quyidagi belgilari bo‘yicha sinflarga bo‘lish mumkin:

1) avtomatlashtirilayotgan ishlab chiqarishning xarakteri bo‘yicha;

2) boshqarish obyektlarining murakkabligi bo‘yicha;

3) funksional algoritmik belgisi bo‘yicha (tizim hisoblaydigan boshqarish masalalari ko‘lami va axborot hajmi);

4) tizimning texnik darajasi bo‘yicha;.

Boshqarish obyektlarining murakkablik darajasi sifatida nazorat qilinayotgan parametrlar va boshqaruv ta’sirlarining qiymati ifodalanadi. Bunday sinflarga ajratish TJABT ning nomenklatura asosini oldindan taxminan belgilab beradi va tadqiqot rejasiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Axborotlarni qayta ishlash esa cheklangan vaqt birligida bajariladi, ularning qiymati boshqarish vazifasi va obyektlarning dinamik xususiyatlariga bog‘liq. Bundan TJABT larni algoritmik ta’minlashda qo‘shimcha talablar vujudga keladi: ular o‘zlarini iqtisodiy jihatdan oqlashlari lozim, ya’ni birinchidan, axborotni qayta ishlashga ketgan vaqt bo‘yicha, ikkinchidan esa BHM ning xotirasidan foydalanish hajmi bo‘yicha, boshqacha qilib aytganda kelayotgan axborotni o‘z vaqtida ,,ko‘rib chiqish“ kerak. Bu talablarga iterativ siklik hisoblash (staxostik approksimatsiya yo‘li bilan hisoblash, rekursiv regressiya yo‘li va shu kabilar) usuli javob beradi. Ulardan quyidagi masalalarni hal qilishda foydalanish mumkin:

1) texnologik nazorat va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash vazifalarini o‘rganganda kerakli foydali signalni ajratib olish;

2) ko‘p o‘lchashli, raqamli boshqarishda;

3) identifikatsiyalash va adaptatsiyalashda;

4) optimallash va koordinatlashda.

Texnik darajasi va murakkabligining ortishiga qarab TJABT ni lokal, kompleks va integrallangan tizimlarga ajratish mumkin. Lokal TJABT — kam sonli bir turli asosiy yoki yordamchi amallar texnologik jarayonlarining avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari (apparat, qurilma, agregat). Bu oraliq bosqich bo‘lib, u yanada murakkab tizimga o‘tishi lozim. Bunday tizimlar avtomatik ravishda bajargan vazifalarining kamligi bilan xarakterlanadi va bunda TJABT ning 0, 1,2- sinflarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Kompleks TJABT-bular asosiy va yordamchi texnologik jarayonlaming lokal avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining birligidir,

ular o‘zaro yagona agregatli va umumiy simvol bilan bog‘langan (masalan, bo‘lim, ishlab chiqarish, qismlarning ABT). Mezonlar, odatda texnologik yoki texnik-iqtisodiy xarakterga ega. Bu tizimlarni qandaydir tayyor mahsulot ishlab chiqarishda 3 va 4- sinf TJABT larini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Integrallangan TJABT-bular murakkab va turli xil asosiy hamda yordamchi jarayonlaming avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari bo‘lib, bunda, asosan, 4 va 5- sinf TJABT larini qo‘llash maqsadga muvofiq. Shuningdek, EHM larda tizimning matematik ta’minotini yaratganda, texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashda va texnologik jarayon hamda texnologik komplekslarni to‘la optimallashda ham ishlatiladi. Bundan tashqari, bu tizimlar ishlab chiqarish bo‘limlarining ishini tahlil qilib, uning kelgusidagi rivojlanishini belgilaydi. O‘lchash informatsiyasiga nafaqat miqdor bo‘yicha talablar, balki sifat bo‘yicha ham talablar qo‘yiladi. Bunga uning (o‘lchashning) aniqligi, ishonchliligi, tannarxi va samaradorligi kabi tavsiyalar kiradi. Barcha sifat tavsiyalarining asosida metrologik ta’minot yotadi. Metrologik ta’minotni shunday ta’riflash mumkin: o‘lchashlar birligini ta’minlash va talab etilgan aniqlikka erishish uchun zarur bo‘lgan texnikaviy vositalar, tartib va qoidalarning, me’yorlarning, ilmiy va tashkiliy asoslarining belgilanishi va tadbiq etilishi. Metrologik ta’minotning vazifasiga quyidagilar kiradi:

• o‘lchash vositalarining ishga yaroqliligini tashkil etish, ta’minlash va tadbiq etish;

• o‘lchashlarni amalga oshirish, uning natijalarini qayta ishlash va tavsiya etish borasidagi me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tadbiq etish;

• hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish;

• o‘lchash vositalarining davlat sinovlari;

• o‘lchash vositalarining va uslublarining metrologik attestatsiyasi va hokazolar.

Texnologik jarayonlar darajasidagi boshqarish tizimlari real vaqt masshtabida, ya’ni texnologik jarayonlar bilan bir vaqtda ishlashi lozim. Bu holda boshqaruvchi hisoblash mashinasiga (BHM) axborotlar hajmi cheklangan massivlar shaklida emas, balki amalda cheksiz tasodifiy ketma-ketliklar shaklida beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Salimov Z. KIMYOVIY TEXNOLOGIYANING ASOSIY JARAYONLARI VA QURILMALARI darslik, Toshkent ”O‘zbekiston’’-1995
2. Yusufbekov N.R. Nurmuhammedov X.S. Zokirov S.G. KIMYOVIY TEXNOLOGIYA ASOSIY JARAYON VA QURILMALARI darslik, Toshkent-2003
3. G‘afurov Q. KIMYOVIY TEXNOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI O‘quv qo‘llanma, Toshkent-2007
4. Xudoyberdiyev T S, Shaymardanov B P, Abduraxmonov R A, Xudoyorov A N, Boltaboyev B R. “ISSIQLIK TEXNIKASI ASOSLARI” Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2008

5. Zohidov R.A. Alimova M.M. Mavjudova SH.S. ISSIQLIK TEXNIKASI darslik, O‘ZBEKIST0N FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI Toshkent-2010
6. Farmanov B I “KIMYOVIY TEXNOLOGIYANING JARAYONLARI VA QURILMALARI” fanidan ma’ruza matni. Qarshi-2016
7. ISSIQLIK VA MASSA ALMASHINUVI JARAYONLARI fanidan maruzalar matni Qarshi-2017
8. METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI - O‘QUV USLUBIY MAJMUASI-18 b - Termiz-2019

OVQATLANISH SHAHOBCHALARINI AVTOMATLASHTIRISHNI MATEMATIK MODELINI YARATISH

Andijon Mashinasozlik instituti I.B va K.T fakulteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi
3-bosqich talabasi Odilova Durdonaxon Adhamjon qizi
email: odilovadurdonaxon536@gmail.com

Annotatsiya: Modellashtirish ko‘plab yondashuvlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan va issiqlik, momentum uzatish tenglamalari bilan boshqariladigan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashning yadrosidir. Ushbu maqolaning maqsadi asosan ba’zi oziq-ovqat jarayonlarini matematik modellashtirishni muhokama qilish va joriy etishdir.

Kalit so‘zlar: Modellashtirish, mahsulotlar, oziq-ovqat, materiallar, ob’ektlar, sanoat,avtomatlashtirilgan,texnologiyalar,iste’molchi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash boshqa materiallarni qayta ishlashdan o‘ziga xos xususiyatga ega, chunki u murakkab ko‘p fazali tashish va qayta ishlash jarayonida material xususiyatlarining o‘zgarishini o‘z ichiga oladi. Bu oziq-ovqat jarayonlari muhandisligida katta qiyinchilik tug‘diradi. Bugungi kunda iste’molchilar biror narsa iste’mol qilishdan oldin ko‘proq ehtiyot choralarini ko‘rishmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash usuli oziq-ovqat sifatiga samarali ta’sir qiladi. An’anaviy sanoatning aksariyati pasterizatsiya, sterilizatsiya va muzlatish kabi termal jarayonlardan foydalanadi. So‘nggi yillarda asosiy maqsad ushbu an’anaviy qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat. Harorat taqsimotining xarakteristikasi qayta ishlash jarayonida matematik modellashtirish orqali amalga oshiriladi, shuning uchun ushbu sharh qog‘ozi matematik modellashni oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoati uchun potentsial vosita sifatida joriy etishga qaratilgan. Ushbu maqolada muhokama qilingan matematik modellar hodisalarni nazariy tushunish va mavjud o‘lchovlar asosida murakkab ob’ekt yoki jarayonning muhim xususiyatlarini qamrab oladi. Ovqatlanish shahobchalarini avtomatlashtirish uchun matematik model yaratish, murakkab jarayon bo‘lib, operatsion tadqiqotlar,

ehtimollik va statistika, chiziqli dasturlash va boshqaruv nazariyasi kabi fanlar orqali amalga oshiriladi. Quyida shu maqsad uchun asosiy qadamlar va texnikalar ko‘rib chiqiladi:

Maqsad va ko‘rish:

Avtomatlashtirilgan ovqatlanish shahobchalari odatda mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonini tezlashtirish, operatsiyalarni optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirishni maqsad qilgan. Model yaratish jarayoni quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

Jarayonni xaritalash: Avtomatlashtirish uchun jarayonlarning aniq tasvirini yaratish kerak. Bu:Mijozlarning kirishi. Buyurtma berish. Ovqat tayyorlash va xizmat ko‘rsatis.h. To‘lov jarayoni. Chiqindilarni boshqarish va tozalash.

Parametrlarni aniqlash:

Mijozlarning kelish tezligi (masalan, soatiga qancha mijoz). Buyurtma berish vaqti. Ovqat tayyorlash vaqti. Xizmat ko‘rsatish vaqti. O‘rtacha buyurtma hajmi. Shunga o‘xshash boshqa ko‘rsatkichlar.

Matematik model qurish:

Model turli matematik yondashuvlarni talab qiladi:

*a. Ehtimollik va statistika:*Ehtimoliy modellar mijozlarning kelish jarayonini, xizmat ko‘rsatish vaqtlari va boshqa o‘zgaruvchilarni tushunishga yordam beradi. Misol uchun, Poisson jarayoni mijozlarning kirib kelishini model qilish uchun ishlatilishi mumkin.

b. Chiziqli dasturlash: Chiziqli dasturlash ovqat tayyorlash resurslarini optimallashtirishda foydalanilishi mumkin. Bu masala ovqat tayyorlash uchun qancha xom ashyo kerakligi, qay bir buyurtma oldinroq bo‘lishi kerakligini aniqlashga yordam beradi.

c. Navbat nazariyasi: Navbat nazariyasi mijozlar kirib kelganda va xizmat ko‘rsatish tezligida model yaratishga yordam beradi. Ushbu nazariya yordamida o‘rtacha navbatlar uzunligini va mijozlarning kutish vaqtini taxmin qilish mumkin.

4. Simulyatsiya: Simulyatsiya modellar sizga turli stsenariylarni sinab ko‘rishga yordam beradi. Ular mijozlar oqimi, xizmat ko‘rsatish tezligi, resurslarning bandligi kabi omillarni o‘rganish va jarayonni optimallashtirish uchun foydalaniladi.

5. Bashorat va nazorat: Matematik model yordamida kutilgan natijalarni bashorat qilish va jarayonlarni doimiy ravishda kuzatib borish mumkin. Bu boshqaruv qarorlarini tez va samarali qilishga yordam beradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini avtomatlashtirish muammolari:

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini avtomatlashtirishning matematik modelini yaratish ko‘plab muammolarga duch keladi. Asosiy to‘siqlardan biri bu turli xil jarayonlarni aniq ko‘rsata oladigan murakkab algoritmlarni birlashtirishdir.

Yana bir qiyinchilik samaradorlik va sifat nazoratini optimallashtirish uchun real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish tizimlarini joriy etishdan iborat. Turli uskunalar va tizimlar o‘rtasida uzluksiz aloqani ta'minlash ham avtomatlashtirishning muhim jihati hisoblanadi Bundan tashqari, matematik modelni

rivojlanayotgan texnologik landshaftga va yangi tartibga solish talablariga moslashtirish doimiy qiyinchilik tug‘diradi. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish ko‘p tarmoqli yondashuvni va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini avtomatlashtirish sohasida doimiy innovatsiyalarni talab qiladi.

Avtomatlashtirish uchun matematik modelning asosiy komponentlari Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini avtomatlashtirishning matematik modelini yaratish asosiy komponentlarni aniqlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu komponentlarga sensorlar, aktuatorlar, boshqaruvchilar va algoritmlar kiradi.

Sensorlar harorat, bosim, oqim tezligi va zavod ichidagi boshqa o‘zgaruvchilar haqida ma'lumot to‘playdi. Aktuatorlar klapanlarni, motorlarni va boshqa jismoniy qismlarni boshqarish uchun ishlatiladi.

Kontrollerlar sensor ma'lumotlarini sharhlash, qarorlar qabul qilish va aktuatorlarga buyruqlar yuborish uchun algoritmlardan foydalanadilar. Umuman olganda, avtomatlashtirishning matematik modeli jarayonlarni soddalashtiradi va samaradorlikni oshiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida matematik modellarni joriy etishning afzalliklari Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini avtomatlashtirishning matematik modelini yaratish ko‘plab afzalliklarni beradi. Ushbu modellar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida matematik modellarni joriy etish yaxshiroq rejalashtirish va prognozlashda yordam beradi, bu esa xarajatlarni tejashga va yuqori sifatli yakuniy mahsulotlarga olib keladi. Bu, shuningdek, tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi va xavflarni kamaytiradi.

Matematik modellardan foydalangan holda, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari o‘zlarining umumiy ish faoliyatini yaxshilashlari, mahsuldorlikni oshirishlari va mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlashlari mumkin. Ushbu texnologiya sanoatda raqobatbardosh bo‘lish uchun juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish:Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik: Toshkent – 2021
2. https://fortififoodsolutions.com/?gad_source=1&gclid=CjwKCAjwouexBhAuEiwAtW_Zx6f8ZB4wzJ0lcH0sJ6ytg1GAc0Ft1R8pvMUKA-YsEy3iGRKiaSn5yxoCFCQQAvD_BwE
3. www.sciencedirect.com

NEFT MAHSULOTINI EKSTRAKSIYALASH JARAYONIDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARINI AVTOMATLASHTIRILGAN MONITORING TIZIMI

Mamasodiqova Nodiraxon Yusufjonovna[1]
Farg‘ona politexnika instituti dotsenti[1]
Dilmurodov Xushnudbek Elmurodjon o‘g‘li[2]
Farg‘ona politexnika instituti magistri[2]

Hozirgi vaqtda jahonda turli ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan ulardagi texnologik jarayonlarni boshqarishni avtomatlashtirish darajasi va axborot texnologiyalarining yutuqlaridan keng foydalanilishi bilan xarakterlanadi. Bu ayniqsa neftni qayta ishlash texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish soxasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Neftni qayta ishlash - bu yoqilg‘ining keng turlarini, turli xil motor moylarini, muhim o‘ziga xos xususiyatli uglevodorodlarni va boshqa ko‘p narsalarni ishlab chiqaradigan doimiy jarayondir. Neftni qayta ishlash zavodida olingan har bir mahsulot standartlashtirishga bo‘ysunadi. Shuning uchun mahsulot sifati uni ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida nazorat qilinadi. Neftni qayta ishlashning muhim vazifalaridan biri bu neft mahsulotlari sifatini talab darajasida bajarishiga erishishdan iboratdir.

Shu kunlarda nyeftni qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu esa o‘z navbatida jarayonlarni avtomatlashtirish darajasiga katta talablar qo‘yadi. Bu bevosita ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan texnologik jarayon parametrlarini boshqarishning avtomatik sistemalariga, uning qurilmalari samaradorligini va ularning dinamikasini bashorat qilishga mo‘ljallangan axborot texnologiyalariga ham tegishlidir. Xorijiy ishlab chiqaruvchilarning mavjud dasturiy ta’minotlari asosan neft va gazni tayyorlash, ularga ishlov berish hamda tashish jarayonlariga mo‘ljallangan bo‘lib, aniq bir texnologik parametrlarni nazorat qilish va boshqarishga mo‘ljallangan bo‘lib murakkab xarakterga ega bo‘lgan neft mahsulotini ekstraksiyalash jarayoniga to‘liq mos kelmaydi. Chunki ushbu apparat dasturiy vositalardagi ma’lumotlar bazasini boshqarish sistemalari tomonidan ma’lumotlarni yig‘ish, arxivlash va sistemalashtirish muammolarini hal qilishga mo‘ljallangan.

Tadqiq qilinayotgan neft mahsulotini ekstraksiyalash jarayonini boshqariluvchi ob’yekt sifatida o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki bunda boshqarish ob’yektlaridagi jarayonlar murakkabligi, ko‘p o‘lchamliligi va nochiziqliligi bilan xarakterlanadi. Bu esa qaralayotgan jarayonning zaruriy boshqarish xususiyatlarini taxminlashda mahsus nostandart usullarni yaratishni talab qiladi. Ushbu talablar dinamik ob’yektlarni aqlli boshqarish vositalari va usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishni belgilaydi.


Qaralayotgan sistemadagi ekstraksiyalash jarayonida «suyuqlik-suyuqlik» ko‘rinishidagi eritma tarkibidan bir yoki bir necha komponentlarni maxsus suyuqlik

(erituvchi) fenol yordamida ajratib olishdir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, fenol aralashmada erimaydi, lekin ekstraksiyalanayotgan komponentni eritadi.

Ekstrakt tarkibidagi zarur komponent (mahsulot) ajratib olinadi, rafinatdan esa ekstragent qayta tiklanadi.

Ekstraksiya jarayoni ekstraksion kolonnada amalga oshiriladi, bu yerda fenol, kolonnaning tepasidan qarama-qarshi ravishda o‘rta qismiga kiradigan xomashyo tomon o‘tib, undan kolonnaning pastki qismidan chiquvchi ekstrakt eritmasi ko‘rinishdagi keraksiz tarkibiy qismlarni chiqarib tashlaydi, ekstrakt eritmasi qovushqoqlik indeksining manfiy qiymatlari bilan homashyodan olinadigan polisiklik aromatik uglevodorodlar va erituvchining asosiy qismini o‘z ichiga olgan.

Likopchali ekstraktorlar turli konstruksiyaga ega kolonnali qurilmadir (1-rasm). O‘zaro qarama-qarshi yo‘nalishdagi fazalar oqimlarining har bir likopchalar to‘qnashishi tufayli ro‘y beradi. Fazalardan biri likopcha teshiklari orqali o‘tib mayda tomchilarga parchalanadi. Yaxlit faza likopcha bo‘ylab harakatlanadi va quyilish patrubkasi orqali keyingi likopchaga o‘tadi va jarayon shu yo‘sinda qaytariladi.



1-rasm. Likopchali ekstraktor

1 - silindrik qobiq; 2 - quyilish qurilmasi; 3 - elaksimon likopcha.

Mayda tomchi holatidagi suyuqlik dispers faza deb, kurilmaning butun hajmini egallagan suyuqlik esa, dispersion (yaxlit) faza deb nomlanadi.

Likopchada tomchilar birlashib, uning osti yoki ustida yaxlit suyuqlik qatlamini hosil qiladi. Qurilmani seksiyalash, jarayonni harakatga keltiruvchi kuchni ortishiga olib keladi.

Selektiv erituvchi (fenol) bilan tozalash moy fraksiyalarini tarkibidagi uglevodorodlarning alohida guruhlarini tanlab eritishga asoslanadi.

Neft mahsulotlari ekstraksiya jarayoni ikkala suyuq faza o‘zaro aloqada bo‘lganda sodir bo‘ladi va ekstragentni o‘z ichiga olgan suyuq fazadan boshqasiga keraksiz tarkibiy qismlarni o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ekstraksiya qilinadigan komponent o‘tadigan faza - ekstrakt, bu komponent yetishmaydigan faza - rafinat deb ataladi.

Jarayonning miqdoriy xarakteristikasi - taqsimot koeffisiyenti: har ikki bosqichda ham modda muvozanat konsentratsiyasining nisbati.

Qarama-qarshi oquvchan uzluksiz suyuq ekstraksiya kengroq tarqalgan. Jarayon vertikal turdagi ekstraktorlarda amalga oshiriladi.

Ekstraksiya jarayoni - xomashyoni erituvchi bilan aralashtirish va aralashmani ikki fazaga ajratish uchun mo‘ljallangan: rafinat va ekstrakt.

Ekstraksiya jarayonining borishini belgilaydigan eng muhim omillar quyidagilardir: fenolning xomashyoga nisbati, ekstraktor harorati, ekstraksiya kolonnasining pastki qismiga yetkazib beriladigan fenol suyuqligi miqdori. Belgilangan fizik-kimyoviy va tozalash ekspluatasion xususiyatlariga ega moylarni olish uchun fenol - homashyo optimal nisbatida amalga oshirilishi kerak. Xomashyo birligiga qancha fenol berilsa, shunchalik kam rafinat chiqadi va qayta ishlov berish holatiga kelguniga qadar sifati yaxshilanadi.

Qoldiq komponentni tozalashda fenol-homashyo nisbati distillyatlarni tozalashga qaraganda yuqori bo‘ladi.

Ekstraksiya va turg‘unlik jarayonining eng yuqori samaradorligiga erishish uchun ma’lum bir harorat gradiyenti va optimal gidrodinamik rejimni saqlab turish kerak.

Kolonnaning yuqori harorati tozalanadigan homashyoning kritik erish haroratidan 5-10 °C pastda saqlanadi. Pastki harorati fenolning kristallanish haroratidan bir necha daraja yuqori saqlanib turadi va kolonnaning ostidan tushgan fenol suyuqligi miqdori va harorati bilan yoki ekstrakt eritmasining qayta aylanishi bilan o‘rnatiladi.

Fenolni toshish darajasi katta ahamiyatga ega - suv qancha ko‘p bo‘lsa, fenolning tanlanishi shunchalik yuqori bo‘ladi va uning eruvchanligi past bo‘ladi. Bunday holda, kolonnaning ustki qismi harorati ko‘proq ko‘tariladi, ustki qismiga shuncha ko‘p suv beriladi.

Rafinatning chiqishini oshirish va rafinat va ekstrakt ajralish ravshanligini yaxshilash uchun kolonning pastki qismiga fenol suyuqligi beriladi.


37/1 turidagi (neft mahsulotlari) moylarini selektiv tozalash kurulmasi moy distillyatlarini tozalashga va oltingugurt birikmalari kalta yon zanjirli aromatik uglevodorodlardan, asfalt-saqichli birikmalardan, erituvchi - fenol yordamida tozalashga mo‘ljallangan. (2-rasm). Ushbu uglevodorod guruhlarini olib tashlash moylarning qovushqoqligini va harorat xususiyatlarini yaxshilaydi.

Fenol miqdori nasosning tushirish liniyasida joylashgan klapan-rostlagich bilan tartibga solinadi. Fenol solishtirma vaznining xomashyoga qaraganda yuqori bo‘lganligi sababli kolonnaning pastki qismiga oqib o‘tadi va o‘zi bilan keraksiz qismlarni olib chiqib ketadi. Rafinat chiqishining oshishi fenolli suv bilan ta’minlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, neft mahsulotlarini ekstraksiyalash murakkab jarayon bo‘lib, u uzluksiz xarakterga ega hamda turli tashqi ta’sirlar ostida bo‘ladi. Ekstraksiyalash jarayonini mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi asosiy faktorlarga xomashyo sarfi, fenol suyuqligi sarfi, fenol suyuqligi harorati, xomashyoning fenol suyuqligiga karraligi, jarayon harorati, zichligi, bosimi va boshqalar kiradi. Olinayotgan moyning zaruriy fizikaviy-kimyoviy va foydalanish xususiyatlariga

erishish uchun asosan fenol-xomashyoning optimal munosabatini amalga oshirish zarur.

Shuningdek, neft mahsulotlarini yuqori samaradorlikka erishish uchun jarayonning kolonna yuqorisidagi harorati nominal nisbatan 5-10 °C da o‘zgarishi, hamda gidrodinamik rejimni optimal qiymatda bo‘lishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.




2-rasm. Ekstraksiyalash qurilmasining texnologik sxemasi

Ekstratsiyalash jarayonida sodir bo‘layotgan fizikaviy-kimyoviy reaksiyalarni talab darajasida borishi uchun xomashyo sarfi, uning zichligi va tozalovchi kimyoviy qo‘shimchalar (fenol suyuqligi) sarfi asosiy rol o‘ynaydi. Ekstratsiyalash jarayoni normal sodir bo‘lishi uchun reglament bo‘yicha ekstraktor harorati o‘rtacha – 70-85 °C, bosim – 20-25 kg∗kuch/sm^2, satx – 70-80 % va fenol suyuqligi sarfi – 600-700 kg/m^3 qilib belgilangan.

Hozirda neft mahsulotlarini ekstraksiyalash jarayonini mavjud boshqarish sistemasi asosan texnologik reglament asosida xomashyo va fenol suyuqligi sarfining mutanosibligi stabil ushlab turish uchun xizmat qiladi. Bu esa yuqori sifatli mahsulot olish imkonini bermaydi, chunki mavjud lokal avtomatik boshqarish sistemalari jarayonga ta’sir qiluvchi barcha faktorlarni, ularning o‘zaro bog‘liqligini va o‘zgaruvchilarning noaniqligini hisobga olish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun, ekstraksiyalash jarayonida sodir bo‘ladigan turli xil noaniqliklarni hisobga olgan holda intellektual texnologiyalar usullari asosida yuqori sifatli boshqarish sistemasini yaratish muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu muammolarni hal qilish noaniqlik sharoitida texnologik ob’yektlarni boshqarish jarayonining intellektuallashtirish usullari va algoritmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan dastlab ekstraksiyalash jarayonining axborot-konseptual modeli ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm. Jarayonning axborot-konseptual modeli

Bunda ekstraksiyalash jarayonini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida quyidagi o‘zgaruvchilar aniqlab olindi:

-boshqarish parametrlari $-U=\{U_{фс},U_{фх},U_{нмс},U_{нмх},U_{тмз}\}$; bu yerda $U_{фс}$ -fenol suyuqligi sarfi, $U_{фх}$ –fenol harorati, $U_{нмс}$ - neft mahsuloti sarfi, $U_{нмх}$ – neft mahsuloti harorati, $U_{тмз}$ – neft mahsuloti zichligi;

-chiqish parametrlari $-Y=\{t^0,Q_{т.м.м.},U_{эмз}\}$; bu yerda t^0 -ekstraktor harorati, $Q_{т.м.м.}$ -ekstraksiyalangan moy miqdori, $U_{эмз}$– ekstraksiyalangan moy zichligi;

-tashqi ta’sirlar– $F=\{f_{х.к.}, f_{э.ж.т.}, f_{т.м.ў.}, f_{тмк}\}$ bu yerda $f_{х.к.}$-xomashyoning konsentratsiyasi, $f_{э.ж.т.}$ - ekstraksiya jarayonining tezligi, $f_{т.м.ў.}$ - tashqi muhitni o‘zgarishi, $f_{тмк}$ - tozalanadigan moyning qovushqoqligi.

Ekstraksiyalash jarayonining axborot-konseptual modelini nazariy-to‘plam ko‘rinishida quyidagicha yozib olish mumkin:

$ЭТЖ=\{U,X,Y,F\}$; $U=\{U_{фс},U_{фх},U_{нмс},U_{нмх},U_{тмз}\}$

$Y=\{t^0,Q_{т.м.м.},U_{эмз}\}$; $F=\{f_{х.к.}, f_{э.ж.т.}, f_{т.м.ў.}, f_{тмк}\}$.

Ekstraksiyalash jarayonining ishlab chiqilgan axborot-konseptual modeli yuqori samarali boshqarish sistemasini yaratish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сиддиков И.Х., Мамасодикова Н.Ю., Файзиев Ш.И. Формализованное описание математической модели процесса экстракции масла // Научно-технический журнал ФерПИ. Том 24. №5. Фергана – 2020. – С.112-119.

2. Siddikov I.H., Mamasodikova N.Yu., Alimova G.R. Automation System of the Technological Monitoring of Oil Enterprises Based on a Modeling System / ISSN: 2350-0328 International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol.6. Issue 11. – 2019. November. – pp.11891-11896. www.ijarset.com.

3. Siddikov I.X., Mamasodikova N.Yu., Khalilov M.M., Amonov A.K., Sherboboyeva G.B. Formalization of the task of monitoring the technological safety of industrial facilities in conditions of indistinctness of the initial information // Journal of Physics: Conference Series 1679 032022. DOI:10.1088/1742-6596/1679/3/032022. – 2020 – pp.1-7.

SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIKA VA KOMPYUTERLI OVOZ DASTURLARINING QO‘LLANILISHI

Madmarova Umida Abdukarimovna[1]
Farg‘ona politexnika instituti MS va MSM kafedrasi katta o‘qituvchisi[1]
Xasanov Shoxruxmirzo Nazirjon o‘g‘li[2]
Farg‘ona politexnika instituti MS va MSM yo‘nalishi talabasi[2]

Kirish. "Metrologiya va metrologik ta’minot" – o‘lchashlar birliligi va talab qilingan aniqligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ilmiy, texnik va normativ-usuliy asoslar sohasi. Xalq xo‘jaligi uchun ushbu ixtisoslik ilmiy va texnik muammolarining yangiligi va ahamiyati yangi o‘lchash usul va vositalarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish, o‘lchashlar birliligi va talab qilingan aniqligini ta’minlashga qaratilgan yangi ilmiy asoslangan tashkiliy va usuliy muammolarni hal qilish, shuningdek ishonchsiz o‘lchash natijalarining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va istisno qilishdan iborat. Mahsulot (xizmatlar) va texnologik jarayonlar, korxona va sinov laboratoriyalarining asbob-uskunalari, o‘lchov, sinov va tekshiruv usul va vositalari, normativ hujjatlar, ilmiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy va ekologik faoliyatni metrologik ta’minlash tizimlari professional faoliyat ob’ektlari hisoblanadi.

Mamlakatimizda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, ta’lim muassasalarida texnologik determinizm konsepsiyasini o‘qitishning pedagogik faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, ta’limiy jarayonlarda qo‘llaniladigan fasilitatsion, texnoetik, akmeologik modellarni takomillashtirishning me’yoriy asoslarini ishlab chiqish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.



1-rasm. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda foydalanish mumkin bo‘lgan zamonaviy dasturiy vositalar.

“Garvard universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neft gaz-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmasevtika, qurilish materiallari, to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda “yashil iqtisodiyot” bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz “drayverlari”ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud” . Bu esa texnika taraqqiyotiga doir konsepsiyalarni ilmiy tahlilini chuqurlashtirish, oliy texnik ta’limda talabalarning bu boradagi bilimlarini oshirish, shuningdek, texnologik konsepsiyalardan ishlab chiqarishda, sanoatda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompyuter grafikasi tushunchasi hozirgi keng qamrovli sohalarni o‘zida birlashtirgan bo‘lib, bunda oddiy grafik chizishdan toki real borliqdagi turli tasvirlarni hosil qilish, ularga ko‘rinish berish, dastur vositasi yordamida tasvirga doir yangi loyihalarni yaratishga mo‘ljallangan. Bu esa multimedia muhitida ishlash imkoniyatini yaratadi. Kompyuter grafikasi jamiyatning barcha sohalarida keng qo‘llaniladigan dastur ta’minoti bo‘lib, u mavjud va yangi yaratilayotgan dasturlarga asoslanadi.

Kompyuter grafikasi jarayonlarni uch o‘lchovli fazoda qanday kechishini aniq tasvirlash imkoniyatini yaratdi. Shu boisdan hozirda mavjud amaliy dastur paketlari orqali ko‘rilayotgan masalaning asosiy qiymatlarini kiritgan holda uning natijasini grafik shaklda olishimiz mumkin. Yurtimizda ham dasturlashga bo‘lgan talab va e’tibor oshib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ta’kidlangan «Soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda 1 million dasturchi» loyihasini amalga oshirilishi dasturlashga bo‘lgan e’tibordan darak beradi. Bu loyihadan ko‘zlangan maqsad kelgusida jamiyatimizning qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog‘liqni saqlash,

ta’lim, arxiv sohalarini raqamlashtirishdan iborat. Hozirda kompyuter grafikasi ilmiy xodimlar uchungina emas, balki rassomlar, loyihachilar, dizayn va reklama bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar, web sayt yaratuvchilar, o‘qitish jarayoni va boshqa sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Shuning uchun kompyuter grafikasi sohasida yetuk kadrlarni tayyorlash, yosh kitobxonlarga kompyuter grafikasiga doir adabiyotlarni yetkazish oldimizda turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda ushbu maqolada tasvir turlari, kompyuter grafikasi turlari, grafik formatlar, rang modellari, proyeksiyalar, tasvirlarni sifatini yaxshilash usullari, tasvirlarni filtrlash, Adobe Flashda animatsiyalar kabi mavzular orqali sanoat tarmoqlarini rivojlantirish qisqacha yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirda “MXKM” DK – O‘zbekistondagi, asosiy vazifasi – sanoatda, sog‘liqni saqlashda, aloqa tizimlarida, savdoda, mudofaada, resurslarni (suv, gaz, neft, elektr energiyasi) hisobga olishda, tabiat muhofazasi va boshqa xo‘jalik faoliyati sohalarida o‘lchashlar birliligini ta’minash va saqlab turish bo‘lgan eng yirik amaliy metrologiya tashkilotidir. Metrologik faolyatning asosiy yo‘nalishlari: O‘V qiyoslash, kalibrlash, turini tasdiqlash maqsadida sinash, sinov jihozlari va o‘lchashlarni bajarish usuliyatlarini metrologik ekspertiza qilish, attestatlash. Har yili “MXKM” DK tomonidan (100 ming energotashuvchilarni hisobga olish priborlari!) ortiq metrologik xizmat ko‘rsatish amalga oshiriladi. Metrologik potensialning izchillik bilan oshirilishi muntazam ravishda yangi O‘V qiyoslash, kalibrlash va sinash turlarini o‘zlashtirishga imkon beradi.

Yoqilg‘i, issiqlik, suv yetkazib beruvchilari va iste’molchilari o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarning to‘g‘riligi faqat magistral neft - va gazquvurlarida, neftni qayta ishlash zavodlarida, neft bazalarida, neft va gazni hisobga olish uzellarida, issiqlik va suv ta’minoti tizimlarida gaz, suv, issiqlik, elektr energiyasi va neft mahsulotlarining sarfini o‘lchash vositalarining omilkor va mustaqil metrologik ta’minoti sharti bilan kafolatlanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi “Metrologiya to‘g‘risidagi” Qonunining 14-moddasiga muvofiq moddiy boyliklarni va energetika resurslarini hisobga olish davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiraga kiradi va shu sababdan barcha gaz, sovuq va issiq suv va elektr energiyasini hisobga olish priborlari davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiraga kiradi hamda belgilangan qiyoslashlararo intervalga asosan majburiy tekshiruvdan o‘tkazilishi kerak.

Tadqiqot natijalari. Ilmiy sohada izlanish natijalarini, ko‘rsatkichlarini oson va qulay ko‘rinishda tasvirlashda grafika foydalaniladi. Ayniqsa, matematika, geometriya, kimyo, biologiya kabi fanlarni o‘qitishda turli shakllarni ikki, uch o‘lchovli ko‘rinishda tasvirlashda, tasvirni o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantirishda, tasavvur hosil qilishda kompyuter grafikasining o‘rni beqiyosdir. Tijorat grafikasi statistik ma’lumotlarni, iqtisodiy o‘sish yoki kamayish jarayonlarini tasvirlashda qo‘llaniladi. Bunda ko‘rsatkichlarni diagramma turlari, harakatlar orqali, video, audio ko‘rinishda tasvirlash mumkin. Axborot marketingi kompyuter grafikasi vositalari qo‘llanishining eng keng va turli-tuman sohasidir. Shaxsiy kompyuter yordamida

qurilgan interaktiv grafiklar, diagrammalar, rasmlardan ko‘pincha moliyaviy-iqtisodiy tahlilni o‘tkazish uchun hamda rejalashtirish va marketing qarorlarini qabul qilishda qulay vosita sifatida foydalaniladi. Tijorat kompyuter grafikasining dasturiy vositalari tufayli byudjet, tovarlarning mavjudligi, pul mablag‘larining harakati, foydaning miqdorlari, foiz stavkalari, sarmoya kiritishdan daromadlar, buyurtmalar «portfeli»ning holati haqidagi ma’lumotlarga ega har xil interaktiv grafiklar va diagrammalarni tayyorlash mumkin. Konstruktorlik grafikasi qurilish, texnika kabi sohalarni loyihalarini chizish, loyiha orqali inshootni tayyor holatda ko‘rish imkonini beradi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirish, sarf-xarajatni hisoblash, xatolarni kamaytirishga sabab bo‘ladi.

Illyustrativ grafika asosan turli shakllar hosil qilish, ranglar bilan ishlash, bezatish bilan shug‘ullanadi. Biror mahsulotni reklama yoki taqdimot qilish, ko‘pchilikka tanishtirishda illyustrativ grafika yordamga keladi. Ma’lumotlarni tayyorlashda geometrik shakllar, diagramma, rasmlar kabi turli xil ko‘rinishdagi shakllardan foydalanish mumkin. Tovarni har tomonlama mos, chiroyli ko‘rsataolishlik bozor jamiyati uchun juda xos. Bunda hamma narsa tovarning sifatiga bog‘liq. Masalan, o‘zi, o‘z tovari yoki kompaniyasi haqidagi axborotni qanday berishning belgilangan madaniyati vujudga kelgan. Xususan, axborot sohasi tovarlarini reklama qilish uchun illyustrativ kompyuter grafikasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Illyustrativ grafika vositalari sifatli mashina tasvirlari, illyustrativ matnlar, chizmalar, eskizlar, geografik xaritalarni yaratish uchun xizmat qiladi.

– standartlashtirilgan yoki sertifikatlangan o'lchash usullari ko'rsatilganligi;

– o'lchov shartlariga qo'yiladigan talablar qanchalik to'liq va to'g'riligi;

– o'lchov protsedurasi va ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmiga qo'yiladigan talablar qanchalik asosliligi;

– amaldagi SI tufayli texnologik jarayonning dizayni yoki ketma-ketligiga qo'yiladigan talablarni o'zgartirish zarurati borligi;

– jismoniy miqdorlarning atamalari, nomlari va belgilari qanchalik to'g'ri qo'llanilganligi.

Mahsulotni loyihalash uchun texnik topshiriqda quyidagilar tekshiriladi:

– o'lchangan parametrlarning nomenklaturasi maqbulligi;

– umumiy, o'rnatish va ulash o'lchamlari normallashtirilganligi;

– chiqish parametrlarini boshqarish mumkinligi;

– mahsulot dizayni ishlab chiqarish, sinov va foydalanish jarayonida nazorat qilish qobiliyati, zarur parametrlar bilan qanchalik ta'minlanadi.

Texnik sharoitda mahsulotga quyidagilar o'rnatiladi:

– umumiy o'rnatish o'lchamlari va ulardan chetga chiqish mahsulot talablariga javob berishi;

– SI qo'llash uchun ruxsat berilganligi;

– mahsulot turiga va nazorat qilish vaqtiga qarab nazorat turlari va hajmi to'g'ri belgilanganligi;

– mehnat xavfsizligi talablari bajarganligi;

– mahsulotni nazorat qilishga tayyorlash uchun talablar to'g'ri tayinlanganligi.

Texnik tavsifni tahlil qilishda va foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar SI texnik xususiyatlari belgilangan ish rejimlariga va parametrlarning ruxsat etilgan og'ishlariga mos kelishini tekshiradi.

Texnologik jarayonni tekshirishda quyidagilar o'rnatiladi:

– o'lchov aniqligi ko'rsatkichlari texnologik jarayonning maqbul rejimlari talablariga javob berishi;

– o'lchangan parametrlarning nomenklaturasi maqbulligi;

– o'lchov aniqligi ko'rsatkichlari bir-birini almashtirish talablariga javob berishi;

– SI ishlashi uskunaning ishlashiga mos kelishi;

– belgilangan parametrni tekshirishda nazorat punktlari to'g'ri tanlanganligi

Ish tartibi va bosqichlari;

1 bosqich. Tekshirish uchun hujjatlarning to'liq to'plami taqdim etiladi. Barcha hujjatlar tekshirilgan va tasdiqlangan asl nusxalarda taqdim etiladi. Asl nusxalar sharhlar va jumlalar ro'yxatini chekka belgilar shaklida tuzish bilan tekshiriladi. Keyin, tuzatishlar kiritilgandan so'ng, asl nusxalar yana tekshiriladi va ko'rib chiqiladi.

2-bosqich. Ekspertiza natijalariga ko'ra, hujjatlarning davlat standartlarida belgilangan talablarga muvofiqligi (yoki nomuvofiqligi) to'g'risida xulosa tuziladi.

3-bosqich. Agar 2-bosqichda nomuvofiqliklar aniqlangan bo'lsa, hujjatlar yo'q qilinganidan keyin yana tekshirish uchun topshiriladi. Keyin metrologik ekspertizaning yakuniy xulosasi tuziladi. O'lchov obyektini tahlil qilib, uning qo'llanilishiga yo'l qo'yiladimi yoki yo'qmi, o'lchovlarning optimal aniqligi nima ekanligini aniqlash, o'lchash vositalari va usullarini tanlash mumkin.

Agar kamchiliklar aniqlansa, metrolog ularni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni tuzadi va metrologik ekspertiza uchun taqdim etilgan hujjatlarni ishlab chiquvchiga o'tkazadi. Bunday holda, ekspert xulosasini tayyorlash majburiy emas va ishlab chiquvchi ogohlantirishlarni bartaraf qilgandan so'ng, ekspertiza belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Agar bunday ogohlantirishlarni o'tkazmasdan olib tashlashning iloji bo'lmasa qo'shimcha tadbirlar, mutaxassis metrolog xulosa tuzadi, unda u o'z xulosalari va takliflarini shakllantiradi.

Adabiyotlar

1. Ю.А.Орлов, Д.Ю.Орлов, Е.В.Арефьев и др. «Метрологическая экспертиза и нормоконтроль технической документации» ВлГУ-2019. 79 с.

2. Ю.А.Орлов, Д.Ю.Орлов, Е.В.Арефьев, М.П.Ромодановская «Метрологическая экспертиза и нормоконроль технической документации». Учебное пособие. Владимир 2019 г.

3. A.X.Yuldashev, M.U.To'rayev, N.X.Halilov, D.A.Djumabayev, S.Q.Ermatov "Standartlashtirish asoslari". O'quv qo'llanma. "Barkamol fayz media" Toshkent 2017

4. ISO/IEC Guide 2:2004. Standardization and related activities – General Vocabulary.

ISHLAB CHIQARISHDA METROLOGIK TA'MINOTINING O'RNI

Muxammadxo'jayeva Sayoxatxon G'ulomxo'ja qizi,
Azamova Orzigul Avazjon qizi
Farg'ona politexnika instituti

O'lchashlarning metrologik ta'minoti deganda talab etilgan o'lchash aniqligi va birligiga erishish uchun zarur bo'lgan texnik vositalar, qoida va me'yorlar, ilmiy va tashkiliy asolarni o'rnatish va qo'llash tushuniladi.

Ishlab chiqarishda o'lchashlarning metrologik ta'minoti deganda, o'lchash vositalarni to'g'ri tanlash va qo'llash, metrologik qoida va me'yorlarni to'g'ri aniqlash va qo'llash, o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarni ishlab chiqish va ko'llash, o'lchash vositalarni etalonlar bilan solishtirish, ish joylarida talab etilgan o'lchash sifatini ta'minlash uchun metrologik ishlarni bajarishga yo'naltirilgan faoliyati tushuniladi.

Metrologik ta'minot tushunchasi juda keng, ya'ni texnik o'lchashlarniamalga oshirishdan o'lchashlar birliligini ta'minlashgacha vaqonunlashtiruvchi metrologiyani qo'llab, asosan, o'lchash, sinash va nazoratgamunosabati bo'yicha faoliyatda qo'llaniladi. Ishlab chiqarish metrologikta'minotini amalga oshirishda o'lchashlar birligini ta'minlanishi

"Metrologiya to'g'risida"gi qonunda belgilangan talablarni inobatga olgan holda erilishiladi.

Ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti asosan quyidagilardan iborat:

- o'lchashlar holatini tahlil qilish;
- talab etilgan aniqlikka mos keluvchi o'lchash vositalaridan foydalanish va o'lchanayotgan kattaliklarni o'rnatish;
- o'lchashlarda sodir bo'ladiga xatoliklarni belgilash;
- o'lchashlarning aniqligini ta'minlashda o'lchash sharoitlarnibelgilash; o'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlashdan o'tkazish;
- o'rnatilgan aniqlik me'yorlarini ta'minlash uchun o'lchashlarni bajarish
- uslubiyotlarni ishlab chiqish;
- konstruktorlik va texnologik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish;
- talab etilgan me'yoriy hujjatlarni (standartlarni) joriy qilish;
- metrologik nazoratni o'tkazish.

Ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti texnologik jarayonlarini, tayyorlanayotgan mahsulot sifatini aniq bir darajada optimal boshqarishni ta'minlashi lozim. Bunda ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti uchun xarajatlar ishlab chiqarish ko'lamiga, texnologik siklining murakkabligiga mos bo'lishi va uning yakuniy hisobida nafaqat qoplashi, balki daromad olib kelishi lozim.

Metrologik ta'minot to'rtta tashkil etuvchilaridan iborat:

1. Ilmiy asosi metrologiya–o'lchashlar, ularning birliligini ta'minlashning, shuningdek talab qilinadigan o'lchash aniqligiga erishish usul va vositalari

to‘g‘risidagi fan.

O‘lchash natijalari ikkita birinchi shartiga mos bo‘lsa, ularni amalda qo‘llash mumkinligi to‘g‘risida qaror qabul qilish mumkin. Bu o‘lchashlar birliligi ta’minlangan – natijalar qonunlashtirilgan birliklarda ifodalangan va ularning xatoliklari berilgan ehtimollik bilan belgilangan chegaradan chiqmaydigan holatdagi o‘lchashlar demakdir. O‘lchashlar birliligini ta’minlash bo‘yicha davlat nazorati huquq va burchlari qonun bilan belgilab qo‘yilgan davlat inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ko‘rsatilgan uchinchi sharti qo‘llaniladigan usullar va o‘lchash vositalarining aniqligiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi. O‘lchashlarda aniqliknikning yetarli bo‘lmasligi, nazorat xatolarining ko‘payishiga, iqtisodiy xarajatlarga olib keladi. Oshirilgan o‘lchash aniqligi esa, yanada qimmatroq o‘lchash vositalari sotib olish uchun xarajatlar talab qiladi.

Agar o‘lchashlarda uchta shartning barchasi bajarilsa, o‘lchashlar birliligi va talab etiladigan aniqlik ta’minlanadi, demak metrologik ta’minlanganlik to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin.

2. Tashkiliy asosi – davlat va yuridik shaxslarning metrologik xizmatdan tashkil topgan O‘zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati.

Metrologik ta’minotning tashkiliy asosi bo‘lib “O‘zbekiston Res-publikasining metrologiya to‘g‘risidagi qonuni” asosida ish olib boruvchi metrologik xizmat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat metrologiya xizmati va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlaridan tarkib topadi. Metrologiya faoliyatning Davlat boshqaruvini metrologiya bo‘yicha milliy organ - O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining

“O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” amalga oshiradi.

3. Texnikaviy asoslari. Metrologik ta’minotning texnikaviy asosini quyidagilar tashkil etadi: Davlat etalon tizimi va fizik kattaliklarning birligi; fizik kattaliklar birligining o‘lchamini namunaviy o‘lchash va “Texnik jihatdan tartibga solishda metrologik ta’minot” Respublika ilmiy -amaliy anjumani tekshirish vositalari yordamidan etalondan uzatish tizimi; o‘lchash vositalariga ishlov berish va muomalaga chiqarishda ularning bir xilligini ta’minlovchi Davlat o‘lchash vositalarini sinash tizimi; o‘lchash vositalarini muqarrar tekshirish yoki metrologik attestatsiyadan o‘tkazish tizimi; moddalar va materiallarning tarkibi hamda xossalarining standart namunalar tizimi; moddalar va materiallarning standart ma’lumotnomaviy kattaliklari va fizikaviy doimiylari hamda xossalarining tizimi; o‘lchash vositalarining turini tasdiqlash bo‘yicha texnik hujjatlar; kerakli hujjatlar majmuini ishlab chiqqan holda o‘lchashlarni bajarish usullarining attestatsiyasi; texnik va me’yoriy hujjatlarning metrologik ekspertizasi; O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun ruxsat berish maqsadida importqilinadigan standart namunalar hujjatlarining ekspertizasi.

4. Me’yoriy-uslubiy (qonuniy) asoslari – Respublikaning tegishliqonunlari, davlat standartlari, davlat va tarmoqlarning me’yoriy hujjatlari.

Ishlab chiqarishda metrologik ta'minotni amalga oshirish uchun kuydagi maqsadlarni bajarishini ta'minlash lozim: mahsulot sifatini, ishlab chiqarish va uni avtomatlashtirishning samaradorligini oshirish; detallar va agregatlarning o'zaro almashuvchanligini ta'minlash; moddiy boyliklarning va energetik resurslarning hisobini olib borish ishonchliligini ta'minlash; atrof-muhitni himoya qilish; salomatlikni saqlash va h. lar. Mahsulotni ishlab chiqarishda, unga talab qilingan sifat ko'rsatkich lariga erishish uchun, metrologik ta'minlanishni har bir texnologik jarayonlarning nazoratida, o'lchashlarni bajarish yordamida erishiladi. Bu bosqichda o'lchash vositalari va usullari aniqlanib, o'lchash nazorati va o'lchash jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha ishlar bajariladi, o'lchashlarni bajarish uslubiyotlari ishlab chiqiladi va attestatsiyalanadi.

Ishlab chiqarishda mahsulotning standart sifat ko'rsatgichlarga erishish uchun metrologik ta'minoti asosan quyidagilardan iborat: o'lchashlar holatini tahlil qilish; belgilangan aniqlikka mos keluvchi o'lchash vositalari tanlash; o'lchash vositalarini vaqtida qiyoslash va kalibrlashdan o'tkazish; o'rnatilgan aniqlik me'yorlarini ta'minlash uchun o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarni ishlab chiqish; konstruktorlik va texnologik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish; metrologik nazoratni o'tkazish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Republikasi «Metrologiya to'grisida»gi qonuni.
2. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M, Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. Toshkent, «Lesson-press», 2015. – 423 b.
3. Avliyakulov N.N. Neft-gaz sohasida ishlab-chiqarishning metrologik ta'minoti. O'quv qo'llanma. T.: «Fan va texnologiyalar». 2014. -340 b.

ARXIMED VINT TURBINADAN SUV OQIB CHIQISHI VA TOSHIB KETISHINI ANIQLASH

katta o'qituvchi Yusupova F. T., 71-20 IMT yo'nalish talabasi Tursunova F
Farg'ona politexnika instituti

Hozirgi kunda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda, Farg'ona vodiysi tekislikda joylasjhgan bo'lib, ariq, kanal va soylar mavjud. Ushbu irrigatsiya kanallardan sug'orish tizimlaridan tashqari, suv energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarishda foydalanish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mikro-GES uchun turbina tanlash muhim ahamiyatga ega. Arximed vint turbinasining tuzilishi oddiy, o'rnatish va hizmat ko'rsatish oson bo'lgani uchun tanlab olindi.

Turbinaga kiruvchi suvlarning hammasi ham elektr energiya ishlab chiqarishda qatnashmaydi. Suvning bir qismi parraklar bilan tag idish oralig'idan oqib o'tadi.

Suv oqim tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$Q = Q_W + Q_G + Q_O$$

Har bir chelakdagi suv hajmi chelak tushganda sobit bo'lib qoladi, chunki Q_G va Q_O qochqin suv oqimlari har biri o'z chelagidagi mos oqimlar bilan muvozanatda bo'ladi. Bu oqimlar gidroturbinani aylantirishda ishtirok etmaydi va turbulentlik sabab energiya dissipatsiyasi yuz beradi. Faqatgina Q_W oqim gidroturbina vintida aylantiruvchi momentni hosil qiladi. Q_W oqimi uchun Veysbax (1855) tomonidan berilgan quyidagi ifodadan foydalanish mumkin [1]:

$$Q_W = \frac{n}{60 \times V_U} \left[\mathrm{m}^3/\mathrm{s}\right] \quad (1)$$

Bu yerda: n –vintning aylanish chastotasi.

Vintning maksimal aylanish chastotasi uchun Muysken (1932) quyidagi ifodani taklif qildi:

$$n \leq \frac{50}{(2R_a)^{\frac{2}{3}}} \left[min^{-1}\right] \quad (2)$$

Muysken tajribalar asosida (2) ifodani aniqlagan. Chastotaning qiymati ortib ketishi sababli, ishqalanish hisobiga energiya yo'qotilishini va markazdan qochma kuchlarni keltirib chiqarishini ko'rsatgan.

Hozirgi vaqtda Yevropa vint ishlab chiqaruvchilari tomonidan V_U ni aniqlash uchun quyidagi o'lchamsiz kattaliklardan foydalaniladi [2]:

Radiuslar nisbati:

$$\rho = \frac{R_i}{R_a} \quad (3)$$

Qadam nisbati:

$$\lambda = \frac{(S \times \tan\beta)}{(2\pi R_a)} \quad (4)$$

Hajm nisbati:

$$V_U = \frac{(V_U \times \tan\beta)}{(\pi R_a^2 S)} \quad (5)$$

Hajm va burilish nisbati:

$$\lambda V_U = \frac{(V_U \times \tan\beta)}{(2\pi^2 R_a^3)} \quad (6)$$

Radiuslar nisbati ρ ning qiymati 0 va 1 oralig'ida bo'ladi, bu uchun ham o'rinli. Bunda V_U hajm ρ, N va λ larning funksiyasi sifatida qaraladi.

(1) va (6) tenglamalardan quyidagini olamiz:

$$Q_W = \frac{(2\pi^2 R_a^3)}{\tan\beta \times \lambda V_U \times \frac{n}{60}} \quad (7)$$

Suv sarfi Q_W tashqi radiusi R_a ni, o'rnatilish burchak β va aylanish tezligi n bo'lgan vintdagi har bir burilish hajmining nisbati λV_U ning ko'paytmasiga nisbati bilan aniqlanadi.

Chelaklar orasidagi bosim farqi $\delta h = (S/N)\sin\beta$ tufayli, spiral parraklar va qobiq chuqurligi orasidagi qochqin oqimi Q_G quyidagi tenglama bilan aniqlangan (Muysken 1932):

$$Q_G=\mu_A \cdot S_{SP} \cdot R_a \cdot \left(1+\frac{S_{SP}}{2R_a}\right) \cdot \sqrt{1+(\frac{S}{2\pi R_a})^2} \cdot \left(\frac{2\alpha_3}{3}+\alpha_4+\frac{2\alpha_3}{3}\right) \cdot \sqrt{(2gh)} \quad (8)$$

Bu yerda: S_{SP} - qobiq va parraklar orasidagi maksimal bo'shliq, bu bo'shliq vintning egilish darajasiga bog'liq bo'lib, o'z navbatida vintning podshipniklar orasidagi uzunligiga, material o'lchamlari va massasiga bog'liq. Odatda bu bo'shliqning maksimal qiymati aksariyat vintlar uchun $S_{SP} = 0{,}0045\sqrt{2}R_a$ [m] empirik tenglama bilan baholanadi.

Chelaklarni ortiqcha to'lishi tufayli markaziy trubka bo'ylab Q_O miqdorda qochqin, uchburchakli suv oqish oqimi hosil bo'ladi. Aigner (2008) ma'lumotlariga ko'ra, bu uchburchak to'kilishning ifodasi quyidagicha:

$$Q_G = \frac{4\mu}{15} \times \sqrt{2g} \times \left(\frac{1}{\tan\beta}+\tan\beta\right) \times h_{ue}^{\frac{5}{2}} \quad (9)$$

Suv oqimi koeffitsiyenti μ qiymati suv oqimining shakli va oqim yo'nalishiga bog'liq bo'lib, ushbu asosiy qiymat 0,537 ga teng deb olinadi (maksimal to'kilmasdan oqishi). h_{ue} miqdor optimal to'ldirish F nuqtasidan ortiqcha bosim. Optimal to'ldirish F nuqtasida $h_{ue} = 0$ da markaziy truba bo'ylab to'kilish sodir bo'lmaydi, bunda $Q_o = 0$ bo'ladi va vint o'zining eng katta quvvat imkoniyatida ishlaydi. Vint 120% gacha to'lganda optimal to'lishdagi samaradorligini saqlagan holda ishlashi mumkin [3,4].

Ushbu konstruksiyada ortiqcha to'lish bo'lmasligi va chelaklarning optimal to'lishni ta'minlashda, ya'ni oqimni F nuqtasigacha erishish uchun vintga kiruvchi suv bosimini aniqlash kerak. Shuning uchun normallashtirilgan umumiy hajm kiritiladi, ya'ni:

$$V_T = \frac{Q}{(\pi R_a^2\, c_{ax})} = V_U + (\pi R_a^2 c_{ax}) + \frac{Q_o}{(\pi R_a^2\, c_{ax})} \quad (10)$$

$$c_{ax} = S \times n/60 \qquad [\text{m/s}] \quad (11)$$

Ikkita qochqin oqimining ta'sirini o'z ichiga olgan ushbu yangi o'lchamsiz hajm o'lchamsiz hajmning kengaytmasi V_U Rorres tomonidan berilgan. Optimal to'ldirish nuqtasida to'kilish oqimi Q_O nolga teng va (10) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$V_T = V_U + Q_G/(\pi R_a^2 c_{ax}) \quad (12)$$

Yuqorida keltirilgan formulalar asosida vint turbinaga kiruvchi va chiquvchi suv oqimini hisoblash imkoniyati ega bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. William David Lubitz (2016), Gap Flow in Archimedes Screws, CSME International Congress. June 1-4, 2016, Toronto, Ontario, Canada. pp 1-6.

2. Dirk Nuernbergk, Chris Rorres (2013), Analytical Model for Water Inflow of an Archimedes Screw Used in Hydropower Generation // Article in Journal of Hydraulic Engineering February 2013. pp 213-220.
3. Brada K."Wasserkraftschnecke-Eigenschaften und Verwendung. Proc., Sixth Int.Symp. on Heat Exchange and Renewable energy, Szczecin,1996, pp 43-52.
4. Rorres C. "The turn of the screw: Optimal design of an Archimedes screw", J. Hudraul. Eng. 2000, 126(1), pp 72-80.

MAHSULOTLAR SIFATINI DARAJASINI BAHOLASH

Farg'ona politexnika institute 1-22 BIQ guruh talabasi
Mahammadazimov Sarvarbek
sarvarbekmahammadazimov@gmail.com

Annotasiya: Maqolada temir-beton shpallar, aynan, BF70 tipidagi shpallar uchun qo'yiladigan talablar, afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan. Ularning "O'zbekiston temir yo'llari" AJ temir yo'llarida relslarga tayanch sifatida tanlanishi asoslab berildi. Ushbu turdagi shpallarning foydalanish muddatini uzaytirish maqsadida bu turdagi shpallarning chidamliligi, shikastlanishini o'rganish va nuqsonlarning sabablarini aniqlab ularni bartaraf etish ishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: shpal, BF70 turi, mustahkamlik, yorilishga chidamlilik, texnologik afzalliklar, elastik mahkamlagich, xarajatlarni minimallashtirish.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida transport salohiyatini yanada rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, bu esa mamlakatimizning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga faol integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qilmoqda. 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri barcha transport turlari bilan birgalikda yagona transport tizimini rivojlantirish, jumladan, tashqi savdo uchun transport tizimida "yashil yo'laklar" va tranzit imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat, shuningdek, tranzit yuk aylanmasi hajmini 15 million tonnagacha oshirish [1, 2]. Buni hisobga olgan holda, transport samaradorligini oshirish va poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash uchun temir yo'lning asosiy elementlarining ishonchliligini oshirish, shuning uchun uzoq vaqt davomida yo'l ustki tuzilmasi holatini tegishli darajada bilish zarur [3, 4]. Shundan kelib chiqqan holda, yo'l elementlarining eskirish jarayonlarini, shu jumladan shpallar holatining o'zgarishini o'rganish katta ahamiyatga ega. Hammaga ma'lumki, shpallar an'anaviy va eng keng tarqalgan rels asosining turidir. Umuman olganda, shpallar relslardan bosimni qabul qilib, uni balast qatlamiga o'tkazish uchun xizmat qiladi; temir yo'l iziga dinamik ta'sirlarni elastik o'zgartiradi; yo'l kengligining doimiyligini va ballast bilan birgalikda gorizontal va vertikal tekisliklarda rels-shpal panjarasining barqarorligini ta'minlaydi.

Mahsulot sifatini nazorat qilish - bu mahsulotning bir yoki bir nechta xususiyatlarini o’lchash, sinash, baholash va olingan natijalarni belgilangan talablar bilan taqqoslash bo’yicha harakatlar majmui. Sifatni boshqarishning asosiy operatsiyalari quyidagilarni o’z ichiga oladi. -belgilangan vaqtda ob’ektning (xom ashyo, yarim tayyor mahsulot va boshqalar) haqiqiy holatini aniqlash; -vaqt va vaqt ichida ob’ektlarning holati va xatti-harakatlarini bashorat qilish; -texnologik jarayonning zarur parametrlarini (saqlash, qayta ishlash, sotish) ta’minlash va rioya qilishda xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar holati va xatti-harakatlaridagi o’zgarishlar. Mahsulotlarning standartlarga muvofiqligini aniqlash uchun kiruvchi xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar etkazib beruvchilardan, boshqa korxonalardan yoki ishlab chiqarish ishtirokchilaridan olinayotganda ular tomonidan keladigan sifat nazorati. Oziqovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyo, mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlar normal hujjatlar, sanitariya me’yorlari talablariga javob berishi va muvofiqlik sertifikati va (yoki) sifat sertifikati bo’lishi kerak. Sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun chorvachilik mahsulotlarini veterinariya guvohnomalarisiz, yaroqlilik muddati (saqlash muddati) bo’lgan mahsulotlar, muvofiqlik sertifikatlarisiz, me’yoriy hujjatlar talablariga javob bermaydigan mahsulotlar, oziq-ovqat xom ashyolari va butlovchi qismlaridan foydalanish taqiqlanadi, shuningdek SanPiN42-123 ovqatlanish korxonalarida foydalanish taqiqlanadi. Xom ashyoni tekshirish tartibi sut va sut mahsulotlarining sifatini nazorat qilish bo’yicha tegishli ko’rsatmalarda keltirilgan. Agar olingan mahsulotning sifati sertifikat yoki yuk varaqasiga mos kelmasa, saqlashchi korxona rahbari bilan birgalikda dalolatnoma tuzadi. Namunalar sifati jihatidan shubhali bo’lgan mahsulotlardan olinadi va tahlil uchun oziq-ovqat laboratoriyasiga yuboriladi. Ishlab chiqarishda past sifatli xom ashyolardan foydalanishga yo’l qo’yilmaydi. Belgilangan tartibda etkazib beruvchiga da’volar taqdim etiladi. Tovarlarni qabul qiladigan kompaniya rahbari yoki moddiy javobgar shaxs. Ular me’yoriy hujjatlarning qat’iy yozuvini yuritadilar va ularga o’zgartirishlar kiritadilar. Texnologik jarayonning muayyan bosqichlarida operatsion sifat nazorati, uni amalga oshirishning to’g’riligini aniqlash va xatcho’plar standartlari va ishlab chiqarish texnologiyalari buzilishlarini o’z vaqtida aniqlash lozim. Sut va sut mahsulotlari sifatiga, birinchi navbatda ishlab chiqarish boshlig’i va xarid qilish korxonalarida, shuningdek, texnik nazorat bo’limi yoki texnologik laboratoriya defektori javob beradi. Chunki bunday vaziyatda mahsulotning iste’molchiga yetib borgungacha bo’lgan vaqtda sut va sut mahsulotlarining o’z xususiyatini, sifatini, ta’mini va foydaliligini yo’qotmasligini oldini olish juda muhim sanaladi. So’ngra sut va sut mahsulotini qayta ishlab chiqarish jarayonining yakuniy bosqichida qabul qilish nazorati, uning sotilishi yoki etkazib berishga yaroqliligi to’g’risida qaror qabul qilinadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga kiradigan sut va sut mahsulotlarining yuqoridagi mezonlar asosida sifatli ishlab

chiqarilishi, albatta saqlash muddatini uzaytirishga va iste'molchiga foydalilik xususiyatini yo'qotmasdan yetib borishiga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Normaxmatov R. va boshk. Tovarshunoslik. Darslik. -T.: <2004. - 200 b.
2. Kosimjonov M.O. Fizik-kimyoviy taxlilning zamonaviy usullari Darslik. MTV. 2009, -255 b.
3. Muxamedov B.E. Metrologiya, texnologik parametrlarni o'lchash usullari va asboblari./Darslik. -T.: 1991. -250 b.

ARXIMED VINTINI LOYIHALASH VA OPTIMALLASHTIRISH

Rossiya davlat neft va gaz universiteti
Yusufjonov Dostonbek Yusufjon o'g'li, magistr


Ma'lumki, bosimi 1,5 yoki 2 m dan past bo'lgan suv manbalarida an'anaviy mikro-GES texnologiyalarda gidravlik bosimdan kelib chiqadigan potensial energiyadan farqli o'laroq, suv oqimidagi kinetik energiyani elektr energiyasiga aylantiradi. Bunday qurilmalar asosan charxpalak tipidagi suv g'ildiraklaridir. Bunday kichik bosimlarda ishlaydigan yangi texnologiyalar ishlab chiqilmoqda, biroq, katta gidroyenergetika inshootlarida bo'lgani kabi, past bosimli gidroenergetik inshootlarning qurilish maydonlarining sxemalari ham bir-biridan keskin farq qiladi va suv oqimining statik bosimidan foydalanish uchun mintaqaning tabiiy topografiyasiga ko'ra loyihalanadi [1].

Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, gidrostatik bosimni o'zgarishi nazariyasiga ko'ra:

- Arximed vintining parraklari bo'ylab $d_2 = d_1$ nisbati 1-rasmda ko'rsatilganidek, gradiyent va o'rnatilgan parraklar soniga, oqim tezligiga ham bog'liq. Bunday mashinalar an'anaviy suv g'ildiraklariga o'xshaydi, chunki ular o'zgaruvchan to'ldirish nisbati bilan ishlaydi. Shunday qilib, mashinalar generator va boshqaruvchi tomonidan aniqlangan doimiy tezlikda ishlagan holda turli suv sarfi va to'ldirish nisbatida $d_2 = d_1$ nisbat o'zgaradi. Bunda optimal ish rejimi uchun $d_2 = d_1$ nisbati barcha oqim tezligida saqlanishi mumkin. Suv ostida bo'lgan kurak uzunligi mos holda o'zgaradi. Parraklar soni, aniqrog'i vintning burilishlari qanchalik ko'p bo'lsa, ma'lum bir oqim quvvati uchun aylanishning maksimal tezligi shunchalik yuqori bo'lishi kerak. Bunda vintning kirish va chiqishida yuqori turbulent yo'qotilishlar kelib chiqadi, bu esa yuqori oqim tezligida samaradorlikni pasaytiradi [2].


- Arximed vintini o'rnatishni loyihalashda unumdorlik va xarajat o'rtasidagi muvozanatni izlash kerak, bu $d_2 = d_1$ nisbatni saqlashda ortadi. Buning sababi shundaki, qo'shimcha parraklar va sayozroq gradiyentlar natijasida uzunroq vintlarni ishlab chiqarish va o'rnatish uchun ko'proq material va mehnat talab etadi. Xuddi

shunday, o‘zgaruvchan tezlik generatori va boshqaruv tizimidan foydalanish orqali yuqori $d_2 = d_1$ nisbatlarini saqlash xarajatlarni oshiradi [3].



1-rasm. Arximed vintini loyihalash va optimallashtirish [2]

Hozirgi vaqtda Arximed vinti bilan jihozlangan gidroenergetik qurilmaning o‘lchamlarini optimal gidravlik konstruksiyasi uchun tegishli nazariya mavjud emas. Quyida suv oqimining yangi analitik modeli olinadi va vint uchun rejalashtirilgan oqimga erishish uchun kirish parametrlarining optimal qiymatlari aniqlanadi.



2-rasm. Arximed vintning vertikal kesimi [3]

L_w uzunlikdagi vintning ketma-ket ikkita spiral parraklari orasidagi soha «chelak» singari suv miqdorini o‘zida doimiy saqlaydi, shuning uchun bu sohani chelak deb ataylik. U ichki markaziy truba radiusi (R_i) va tashqi radiusi (R_α) o‘rtasidagi hududni tashkil etadi. S uzunlikda N ta o‘ramli vintda N ta chelak bo‘ladi, vintning qadamida $\frac{\pi(R_\alpha^2 - R_i^2)S}{N}$ hajmda chelak joylashadi.

Suv optimal to‘ldirishi F nuqtagacha bo‘lganida, har qanday bitta chelak ichida tutilgan suv egallagan hajmga teng deyish mumkin (2-rasm). Bunday chelakning hajmi V_{ch} desak, bir qadam uzunlikdagi barcha N ta chelakning hajmi $V_u = NV_{ch}$bilan bo‘ladi. Bu yerda: V_u- vintning har bir burilishida vintga kiruvchi yoki undan chiqadigan suv hajmi.

Har bir chelak V_{ch} hajmiga optimal tarzda to‘ldirilganda, vint orqali belgilangan Q suv sarfiga erishish uchun suv kiruvchi kanalda h_{kir} suv sathini aniqlash kerak, trapetsoidal kanal uchun bu chuqurlikni uning kengligi yarmiga teng deyish mumkin. Suvning kiruvchi kengligi $2R_{\alpha}$va balandligini R_{α}deyish mumkin.

Adabiyotlar

1. Christos Charisiadis. An introductory presentation to the "Archimedean Screw" as a Low Head Hydropower Generator. 2017, pp 1-72.
2. James Alexander Senior (2009), Hydrostatic Pressure Converters for the Exploitation of Very Low Head Hydropower Potential, University of southampton; Thesis for the degree of Doctor of Philosophy. 204 pp.
3. Dirk Nuernbergk, Chris Rorres (2013), Analytical Model for Water Inflow of an Archimedes Screw Used in Hydropower Generation // Article in Journal of Hydraulic Engineering February 2013. pp 213-220.

TEXNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISH TIZIMLARINING MODELLARI

FarPI Kimyo texnologiya fakulteti
“NNGQIT” kafedrasi assistenti Xasanov A.S
KLT fakulteti E63-20 guruhi talabasi Abduvossiyev A.A

Annotasiya. Ushbu tezisda nosimmetrik rejimdagi asinxron motor reaktiv quvvatini nazorat va boshqarish tizimlari uchun uch fazali stator toklari o‘zgarkichining modelining tadqiqoti keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Asinxron dvigatel, reaktiv quvvat, tokni kuchlanishga o‘zgartkich, stator toki, chiqish kuchlanishi, magnit oqim, o‘lchov elementi,

Аннотация. В данной стате представлено исследование модели трехфазного преобразователя тока статора для систем управления и контроля реактивной мощностью асинхронного двигателя в несимметричном режиме.

Ключевые слова: асинхронный двигател, реактивная мощност, преобразовател тока в напряжение, ток статора, выходное напряжение, магнитный поток, измерителный элемент.


Abstract. This article presents a study of a model of a three-phase stator current converter for control and monitoring systems of reactive power of an induction motor in an asymmetric mode.

Keywords: asynchronous motor, reactive power, current-to-voltage converter, stator current, output voltage, magnetic flux, measuring element.

Nosimmetrik rejimda ishlayotgan asinxron motorning uch fazali stator toklarini ikkilamchi kuchlanish ko‘rinishdagi chiqish kattaliklariga o‘zgarishida turli fizik–

texnik effektlardan foydalanish mumkin. O‘lchov elementi sifatida olingan izolyasiyalangan chulg‘am o‘tkazgichi o‘zgartkichning chiziqli chiqish tavsifini, yuqori aniqliligi va sezgirligini ta’minlovchi bo‘lak bo‘lib, nosimmetrik xolat xaqidagi kuchlanish ko‘rinishidagi axborotni berishni taьminlaydi.. Bunda o‘lchov elementlarini asinxron motorning stator pazlaridagi asosiy chulg‘amlari va ponalari orasiga joylashtirish chiqishda kuchlanish ko‘rinishidagi kattalikni hosil qilishni ta’minlaydi [1].

Yuqori formallashgan va yaqqollikni ta’minlovchi graf modellar asosida asinxron motorning uch fazali stator toklari stator magnit o‘zagida (sterjenlarida) F_σ sochilish magnit yurituvchi kuchlarini, ular hosil qilgan F_σ sezish elementlarini kesib o‘tuvchi sochilish magnit oqimlari asosida birlamchi uch fazali toklarni $U_{\sigma.chik}$ ikkilamchi kuchlanishlarga o‘zgarish jarayoni va o‘zgartkich tuzilmasining modeli tuziladi (1–rasm):



1–rasm. Asinxron motorning statoridagi nosimmetrik uch fazali uch sezish elementli tokni kuchlanishga elektromagnit o‘zgartkichining graf modeli

Agar tarmoqda nosimmetrik taьminot bo‘lganda, yani biron bir fazada kuchlanishni o‘zgarishi, xamda rotor validagi yuklamaning o‘zgarishi va boshqa salbiy xolatlarda asinxron motorning stator o‘zakida nosimmetrik uch fazali stator toklari, nosimmetrik magnit yurituvchi kuchlarni hosil qiladi. Ularning o‘zaro munosabatlari graf model tugunlaridagi magnit yurituvchi kuchlarga bog‘liq ravishda (2.11) quyidagicha ifodalanadi [2,3].

$$\begin{cases} \dfrac{F_{\sigma111}-F_{\sigma121}}{\Pi_{\sigma111}}+\dfrac{F_{\sigma111}-F_{\sigma211}}{\Pi_{\sigma211}}+\dfrac{F_{\sigma111}-F_{\sigma112}}{\Pi0_{\sigma112}}=K_{I_1F_\sigma}I_1; \\ \dfrac{F_{\sigma213}-F_{\sigma223}}{\Pi_{\sigma213}}+\dfrac{F_{\sigma213}-F_{\sigma212}}{\Pi0_{\sigma212}}+\dfrac{F_{\sigma213}-F_{\sigma113}}{\Pi0_{\sigma113}}=K_{I_2F_\sigma}I_2; \\ \dfrac{F_{\sigma313}-F_{\sigma323}}{\Pi_{\sigma323}}+\dfrac{F_{\sigma313}-F_{\sigma113}}{\Pi0_{\sigma313}}+\dfrac{F_{\sigma313}-F_{\sigma312}}{\Pi0_{\sigma312}}=K_{I_3F_\sigma}I_3. \end{cases}$$

Asinxron motor umumiy stator chulg'amlari hosil qilgan va o'zgartkichning o'lchov chulg'amlaridan oqayotgan nosimmetrik $F_{\sigma i,j,k}$ magnit oqimlarni tadqiq etish uchun model asosida analitik ifodalar tuziladi [4].

$$F_{\sigma i,j,k} = K_{I_i F_\sigma} I_i;$$

$$\Phi_{\sigma i} = \Pi_{\sigma i} F_{\sigma i};$$

$$U_{\sigma.чики} = K_{\Phi_\sigma U_{\sigma.чик}} \Phi_{\sigma i},$$

$$\Pi_{\sigma.i,j,k} = \omega L_{\sigma.i,j,k} = X_{\sigma.i,j,k};$$

$$\Pi 1_{\sigma.i,j,k} = \frac{l_{\sigma.i,j,k}}{\mu_{\sigma.i,j,k} S_{\sigma.i,j,k}}.$$

$$\Pi 0_{i,j,k} = \frac{l_{0i,j,k}}{\mu_{0i,j,k} S_{0i,j,k}};$$

bu yerda $\Pi_{i,j,k}$ – stator o'zagining magnit parametrlari – qarshiliklari.

Asinxron motorning stator qismidagi o'lchov chulg'amida elektr va magnit kattaliklarni o'zaro o'zgarish jarayoni va elementlarni tuzilishi tugunlardagi $F_{\sigma i,j,k}$ sochilish magnit yurituvchi kuchlari o'zgartkichning magnit o'zagi (stator o'zagi) geometrik o'lchamlariga bog'liq holda elektrotexnikada ma'lum bo'lgan Om va Kirxgof qonunlari tenglamalari asosida aniqlanadi.

O'zgartkichning o'zgartirish tizimining magnit o'zagi (sterjen) kiymatlari quyidagicha aniqlanuvchi magnit oqimlar va o'lchov elementlarida ularga mos chiqish signallari – kuchlanishlari hosil qilinadi:

i=1,2 – tugunlar uchun:

$$\Phi_{\sigma i} = \Pi_{\sigma i} F_{\sigma i},$$

$$U_{\sigma.чики} = K_{\Phi_\sigma U_{\sigma.чик}} \Phi_{\sigma i} = \sqrt{2}\pi f w_{ў} \Phi_{\sigma i},$$

bu yerda $w_{o'}$ – o'lchov elementini o'ramlar soni.

Hosil qilingan graf modeli va uning analitik ifodasi asinxron motor qismlarining tuzilishiga qarab stator magnit o'zagi $F_{\sigma i,j,k}$ magnit yurituvchi kuchlari va $\Phi_{\sigma i}$ magnit oqimlari tarqalishini tadqiq etish imkonini beradi. Modelning i=1 ustunini xarakterlovchi magnit oqimlar magnit o'zakning stator chulg'amlari qismidagi sochilish magnit oqimini, i=2 ustundagi oqimlar – o'lchov elementini kesib o'tuvchi magnit oqimlarni belgilaydi.

Adabiyotlar

1. Mahsudov, M., & Boihonov, Z., (2018). Research of electromagnetic current-to-voltage converters. Bulletin of Science and Practice, 4, (3), 150-154

2. Siddikov, I.Kh. The Electromagnetic Transducers of Asymmetry of Three-phases Electrical Currents to Voltage / I.Kh. Siddikov // Universal Journal of Electrical and Electronic Engineering. Horizon Research Publishing Corporation USA. – 2015. – Vol.3 (N5). – P.146–148.

3. Махсудов М.Т., Анарбаев М.А., Сиддиков И.Х. Электромагнитные преобразователи тока для управления источниками реактивной мощности // Универсум: Технические науки : электрон. научн. журн. 2019. № 3(60). УРЛ: http://7universum.com/ru/tech/archive/item/7095.
4. Сиддиков И. Х., Анарбаев М. А., Махсудов М. Т. Преобразователи сигнала величины тока для систем управления источниками реактивной мощности // Инженерно-строительный вестник Прикаспия: научно-технический журнал / Астраханский государственный архитектурно-строительный университет. Астрахан: ГАОУ АО ВО «АГАСУ», 2018. № 1 (23). С. 53–56.

TELEKOMMUNIKATSIYADA HAVFLARNI BAHOLASHNING ALGORITMIK USULLARI VA ULARNING TAXLILI

Mirzayev.S.A., Xasanov.O.O., Qodirov J.K.
Farg'onapolitexnika institute,

Hozirgi vaqtda axborot xavfsizligi rejimini tashkil etish har qanday mahalliy kompaniyaning rivojlanishini muhim strategik omiliga aylanmoqda. Tashkilotlarning xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida ishlash jarayonida axborot telekommunikatsiya tizimlari (ATT) va texnologiyalarning roli ortib borayotgani tufayli axborot tahdidlari va xavflarini baholash hamda boshqarish tartib qoidalarini qo'llashning dolzarbligi va zarurligi tobora ortib bormoqda.

Ishonchli havfsizlik tizimini yaratishning asosi, ATT axborot xavfsizligiga tahdidlarni to'g'ri baholash va ular orasida eng dolzarbini aniqlashdir. Shu bilan birga, ichki va xorijiy standartlarda ATT axborot xavfsizligi xavfini baholashning ikkita muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ATTga tahdidlarni amalga oshirish ehtimolini aniqlash vazifasi ekspert guruhlarga o'tkaziladi. Biroq, bu usullar har doim ham ayrim korxona va tashkilotlarda qo'llanilmaydi. ATT axborot xavfsizligi tahdidlarini bashorat qilish ko'pincha bajarilmaydi.

Bundan tashqari, ATT axborot xavfsizligiga tahdidlarni baholashga yondashuvlarning deyarli barcha mavjud dasturiy ta'minoti ATT axborot xavfsizligi uchun mahalliy yoki xalqaro standartlarda mavjud bo'lgan usullarni hisobga olmaydi. Bu ularni ATT axborot xavfsizligi sohasidagi mutaxassislarning kundalik faoliyatining amaliy vazifalarida ishlatishga imkon bermaydi.

Bu ish doirasida axborot xavfsizligi ATT tahdidlari va xavflarini baholashning yuzdan ortiq turli xil yondashuvlari, algoritmlari, texnikasi, usullari va standartlari, shuningdek ularni avtomatlashtirilgan baholash usullari tahlil qilindi [1]. Ular 3 guruhga bo'lingan va bir - biri bilan taqqoslangan.

Tahdidni amalga oshirish imkoniyati axborot tizimining dastlabki xavfsizlik darajasi va ko'rib chiqilayotgan tahdidning chastotasi (ehtimoli) asosida hisoblanadi.

Dastlabki xavfsizlik darajasi axborot tizimining texnik va ekspluatatsion xususiyatlariga bog'liq bo'lgan ko'rsatkichdir. Har bir boshlang'ich xavfsizlikning darajasiga Y_1 raqamli koeffitsienti beriladi. Amalga oshirish ehtimoli ekspert xulosasi bilan belgilanadi. Bu indikatorning to'rtta og'zaki talqini mavjud bo'lib, ularning har biriga Y_2 raqamli koeffitsienti berilgan. Y tahdidning texnik - iqtisodiy faktori Y nisbati bilan belgilanadi:

$$Yq(Y_1 QY_2) \cdot G'20 \qquad (1)$$

Y tahdidni amalga oshirish koeffitsientining qiymatiga asoslanib, tahdidni amalga oshirishning talqini shakllantiriladi.

Zarar - mutaxassislar so'rovi asosida xavfni baholashda, ko'rib chiqilayotgan axborot tizimi uchun og'zaki xavf ko'rsatkichi aniqlanadi. *Tahdidlar reytingi* - havf tahdidni amalga oshirish ehtimoli va uni amalga oshirish xavfi bilan bog'liq bo'lgan maxsus jadval asosida tahdidlar tegishli deb tasniflanadi. *Afzalligi* - foydalanuvchilarning yuqori malakasini talab qilmaydi, tahdidni amalga oshirish imkoniyatlarini baholash uchun texnik va ekspluatatsiya xususiyatlar hisobga olinadi. *Kamchiligi* - dastlabki shaxsiy ma'lumotlarga majburiyligidir. Tahdidlarni amalga oshirish ehtimoli va taxmin qilingan zarar miqdori ekspertlar yordamida baholangani sababli xolislikni kafolatlanmaydi.

COSO - Tahdidlarni sifatli baholash turida tahdidni amalga oshirish imkoniyati, ya'ni tahdidni amalga oshirish imkoniyati ham statistik ma'lumotlar asosida, ham ekspert baholari asosida aniqlanishi mumkin. *Zarar* - ekspert baholari asosida aniqlanadi. *Tahdidlar reytingi* - barcha turdagi tahdidlar uchun matematik kutish va dispersiya G' o'rtacha kvadratik og'ishlar hisoblab chiqiladi, keyin parametrlarning o'zgarishi dispersiya G' o'rtacha kvadratik og'ish o'zgarishiga ko'proq ta'sir qiladi. *Afzalligi*: - axborot xavfsizligi ATTga tahdidlar ehtimolining mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlaridan foydalanadi; ekspert baholashlari va statistik ma'lumotlardan foydalanishga imkon beradi. *Kamchiligi*: a) ko'p sonli hisob - kitoblarda ta'sirni baholash axborot xavfsizligi ATT tahdidlarining har biri uchun bazaviy qiymatni belgilangan qiymatga o'zgartirish orqali amalga oshiriladi; b) ATT axborot xavfsizligiga tahdidlarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlar yig'indisi "1" bo'lishi kerak; s) ATT axborot xavfsizligiga tahdidlarni amalga oshirish natijasida etkazilgan zarar bir xil bo'lgan hollarda, texnikadan foydalanish o'z ma'nosini yo'qotadi.

CCTA CRAMM (Central Computerand Telecommunications Agency Risk Analysis and Managment Method) Markaziy kompyuter va telekommunikatsiya agentligi Taxdidlarni tahlil qilish va boshqarish usuli) - Britaniya hukumati talablariga, shuningdek BS7799 (ISOG'IEC 17799) [2] talablariga muvofiq axborot xavfsizligini boshqarish va auditning eng kuchli vositasi va metodologiyasi xisoblanadi.

CRAMM usuli, axborot xavfsizligi ATT xavflarini baholashning miqdoriy va sifatli tahlilini birlashtirgan yondashuvga asoslangan. Shunday qilib, CRAMM xatarlarni va qarshi choralarning turli variantlarini juda batafsil baholash imkonini

beradi. Axborot tizimlari xavfini baholash uch bosqichda amalga oshiriladi: 1) Axborot tizimlari aktivlarining modelini tavsiflash; 2) axborot xavfsizligi ATT ni har bir aktivi uchun tahdidlarlarni sifatli baholash; 3) mavjud va tavsiya etilganlarni taqqoslab xavfsizlik choralari jamlanmasini aniqlash. CRAMM usuli turli xil avtomatlashtirilgan tizimlar uchun axborot xavfsizligi taminlashda katta bazaga ega [3].

AvanGard tizimi u o'zini axborot xavfsizligini boshqarish bo'yicha tajribali tizim sifatida ko'rsatadi. Ushbu usulda axborot xavfi zarar miqdori va uning paydo bo'lish ehtimoli mahsuloti sifatida aniqlanadi. Ekspertga ushbu qiymatlarni tanlashda yordam beradigan ma'lumot bazasi mavjud. Ushbu yondashuvning kamchiliklari shundaki, bu qiymatlarni tanlash hech qanday tekshirishga bo'ysunmaydi.

Axborotni tarqalishini avtomatik aniqlash vositalarini o'rganib chiqib, biz barcha dasturiy vositalar umumiy ishlash printsipiga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ma'lumotlarni kiritish usulida, ya’ni so'rovnoma shaklida to'ldirilgan ma'lumotlarni tarqalishi, yoki axborot tizimidagi haqiqiy tahdidlar va xavflarni u yoki bu xavfsizlik standartiga muvofiq ekspert tomonidan aniqlash mumkin. Har bir dasturiy mahsulotning o'ziga xos xususiyati ATT axborot xavfsizligi tahdidlari va xavflarini aniqlash xisoblanadi. Tahdid va xatarlarni baholash mezonlari ob'ektiv va sub'ektiv bo'linadi [3]. Ob'ektiv mezonlar hodisaning jismoniy paydo bo'lishiga asoslanadi (masalan, uskunaning ishlamay qolish ehtimoli). Subyektiv mezonlar ma'lum bir shaxsning (shaxslarning) voqea sodir bo'lishi haqidagi fikriga asoslanadi. Tahlil natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ekspert xatosi ehtimoli past bo'lgan tizimlarda axborot xavfsizligi tashqi tahdidlar va xavflarning dolzarbligini aniqlash uchun ob'ektiv xususiyatlardan foydalanadigan avtomatlashtirilgan yondashuv hozircha quyi darajada deb aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYIYOTLAR

1. Кудрявцева Р.Т. Управлени информационноми рисками с исползованием технологий когнитивного моделирования [Текст]: автореферат дис. канд. тех. наук: 05.13.19 Г Кудрявцева Рима Тимиршаиховна. – Уфа, 2008. – 17 с. – 9 08-5/1180.

2. Ботвинкин П.В. Анализ систем мониторинга и диспетчерского регулирования наземного транспорта и управление рисками их информационной безопасности [Электроннўй ресурс].: ВГТУ УРЛ: 172 http://vstu.ru/files/thesis_defence /9131/ботвинкин_павел_викторович.пдф (дата обраҳения: 16.10.2016)

3. ГОСТ Р ISO/МЕК 27005-2010 Информационная технология. Методо и средства обеспечения безопасности. Менеджмент риска информационной безопасности. Введ. 2011-12-01. М., 2011. 51 с.

4. Кустов, Г. А. Управление информационнўми рисками организации на основе логико-вероятностного метода [Текст] : автореферат дис. ... канд. тех. наук: 05.13.19 / Кустов Георгий Алексеевич.– Уфа, 2008.– 61 09-5/1099.
5. Санжай Гоел, Виски Чен. Анализ рисков информационной безопасности - матричнўй подход [Электроннўй ресурс] / Университй ат Албанй. – Электрон. дан. Университй ат Албанй, 2009. – Режим доступа: http://www.docstoc.com

O‘LCHASH VOSITALARI VA QURILMALARI

Raxmonov Axliddin Muzaffar o‘gli
Farg‘ona politexnika instituti 1-22 BIQ guruh talabasi

O‘lchash bu fizik qiymat bo‘lib, sinov yo‘li bilan asbob-uskunalar yordamida aniqlanadi.

O‘lchashlar asosan bir ko‘rinishli va ko‘p ko‘rinishliga bo‘linadi. Fizik o‘lchov birliklari faqatgina bir o‘lchovga aks etgirilsa, unda bir ko‘rinishli o‘lchash deyiladi. Misol uchun: turli og‘irlikdagi toshlar.

Ko‘p ko‘rinishli o‘lchashlarda esa, qator o‘lchovlami fizik o‘lchovlarga aks ettirish mumkin. Misol uchun, millimetrii chizg‘ish. Bu o‘lchov ko‘rinarli vosita va standartlashgan namunalarga bog‘liq bo‘lib, ular o‘ziga maxsus rasmiylashtirilgan yoki aniqlangan vosita namunasi va tarkibini kattiq reglamentga solish, ba’zi bir sharoitlarda aniqlanayotgan o‘lchov qiymatlarining ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan qiymat bilan birgalikda o‘lchovga aytiladi. Masalan: standart bo‘yicha paxta tolasining mustahkamligi.

O‘lchash asboblari — o‘lchanadigan kattalikning qiymatini (yoki miqdorini) bevosita aniqlashga imkon beradigan vositalar. Analog, raqamli, ko‘rsatuvchi va qayd qiluvchi, integrallovchi, jamlovchi va boshqalar turlarga bo‘linadi. Analog o‘lchash asboblarida kattaliklarni o‘lchash shkala bo‘yicha, raqamli o‘lchash asboblarida raqamli hisoblash qurilmasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Ko‘rsatuvchi o‘lchash asboblari o‘lchash natijalarini faqat ko‘rib turib aniqlash uchun mo‘ljallangan. Qayd qiluvchi o‘lchash asboblari o‘lchash natijalarini qog‘ozga qayd qilib borish qurilmasi bilan ta’minlanadi. Bunday asboblar yozib boruvchi (qaydlar qog‘ozga diagramma tarzida chizib boriladi) va bosuvchi (o‘lchash natijalari qog‘ozga raqamlar tarzida bosib boriladi) turlarga bo‘linadi. Integrallovchi o‘lchash asboblarida o‘lchanadigan kattalik vaqt yoki boshqa mustaqil o‘zgaruvchan miqdor bo‘yicha integrallanadi (mas, elektr va gaz hisoblagichlari). Jamlovchi o‘lchash asboblari turli kanallar bo‘yicha keluvchi ikki yoki bir necha kattalik qiymatini jamlab ko‘rsatadi (mas, bir necha elektr generatorining quvvatini jamlovchi vattmetr).

O‘lchash asboblari korxonalarida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish maqsadida o‘lchash asboblari ko‘pincha rostlash, hisoblashtirish va boshqarish qurilmalari bilan ta’minlanadi. Ular maxsus tuzilgan dasturlar bo‘yicha ishlaydi.

O‘lchash ma’lumotlarini uzatish, o‘zgartirish yoki avtomatik boshqarish tizimlarida foydalanish uchun qulay bo‘lgan shakldagi signalni ishlab chiqish uchun mo‘ljallangan o‘lchash vositasi o‘lchash qurilmasi deb ataladi. Bu qurilma O‘lchash asboblarini, o‘lchash o‘zgartirgichlari (o‘lchanadigan kattalikni uzatish uchun qulay signalga o‘zgartiruvchi vosita) ni, kuchaytirgichlar va boshqalar moslamalarni o‘z ichiga oladi.

Chiziqlar va burchaklarni o‘lchash qurollari (chizg‘ichlar, transportirlar va boshqalar) o‘lchash vositalari, vazn (og‘irlik) o‘lchanadigan vositalar (mas, tarozi) o‘lchov vositalari deb ataladi.

Elektr taqsimlash qurilmalarida va yuqori kuchlanishli o‘zgaruvchan tok zanjirlarida tok kuchi, kuchlanish, quvvat va energiyani o‘lchash xavfsizligini ta’minlash uchun elektr o‘lchash transformatori qo‘llanadi. Uning birlamchi chulg‘amiga o‘lchanadigan kattalik (tok, kuchlanish va boshqalar) ta’sir qiladi, ikkinchi (pasaytiruvchi) chulg‘ami esa o‘lchash asboblariga va himoya relesiga ulanadi. O‘lchash transformatori yordamida elektr o‘lchash asboblari (voltmetr, ampermetr va vattmetr) bilan elektr kattaliklarning turli qiymatlarini o‘lchash mumkin. Keng ma’noda — o‘lchash asboblari turli kattaliklar (fizik, mexanik, elektr va magnit kattaliklar) ni o‘lchash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha o‘lchash apparatlari, qurilmalari va vositalarini o‘z ichiga oladi. Hozir impulsli va raqamli o‘lchash apparatlari keng qo‘llanilmoqda.

O‘lchash asboblari bir-biridan ustki ko‘rinishi, ishlash tartibi, ishlash uslubi, o‘lchash birliklari bilan farqlanadi.

Qo‘shimcha o‘lchash asbob-uskunalarga ta’lluqli bo‘lgan o‘lchash vositasi - o‘lchashga ta’sir qiluvchi metrologik cho‘zilishga boshqa vosita o‘lchovini qo‘llashdan va tekshirishdan iboratdir. Tajriba ishlarini olib borishda bitta o‘lchash asbobi yetmay qolishi mumkin, shunda bunday o‘lchash asboblaridan foydalaniladi. Bunga monand kompleks o‘lchash asboblari deyiladi. O‘lchash asboblari boshqa bir o‘lchash vositalarini tekshirish uchun ishlatiladi, bunga tekshirish qurilmasi deyiladi.

O‘lchash tizimi o‘lchash qurilmasidan farq qilib, ular o‘lchash ma’lumotli signalini ma’lum bir shakl asosida ishlab chiqish uchun ishlatiladi, natijada olingan natijalarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun qulay bo‘ladi.

Raqamli asboblar bu ham o‘lchash asboblari bo‘lib, o‘lchash ma’lumotlarining diskret signallarini ma’lum bir raqamli shakida ishlab chiqadi.

O‘lchash ma’lumotlari ko‘rsatuvchi va qayd etuvchi o‘lchash asboblariga bo‘linadi.

O‘lchash asboblari joriy qiymatli asboblarga ham bo‘linadi.

O‘lchash qurilmasi - o‘lchash vositalari va qo‘shimcha qurilmalarining jami bo‘lib, bir yoki bir qancha o‘lchash ma’lumotlarini qayta ishlaydi va kuzatuvchiga qulay bo‘lishi uchun ma’lum bir shakl asosida ishlab chiqaradi. Masalan, suyuqlik yoki gazning miqdori va sarflanishini o‘lchash uchun kompleks o‘lchash qurilmalari.

O‘lchash tizimi - o‘lchash vositalari va qo‘shimcha qurilmalar, hisoblash texnikalarining jami bo‘lib, bir yoki bir qancha o‘lchash ma’lumotlarini avtomatik

qayta ishlaydi, ma'lum bir shakl asosida uzatadi yoki boshqarishning avtomatik tizimini qo'llaydi. Bunday tizim butun korxonaning texnologik zanjiri bo'yicha yoki murakkab ob'yektlardagi turli xil ko'rsatkishlarning nazorati uchun qo'llaniladi. Tizim yuzdan ortiq o'lchash kanallariga ega bo'lishi mumkin, lekin ular orasidagi masofa yuz va undan ko'p kilometr bo'lishi mumkin.

